

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**



**IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA. ETNOPSIXOLOGIYA
FANIDAN**

O‘QUV –USLUBIY MAJMUA

(61030200 -“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” hamda
fuqarolik yo‘nalishidagi psixolog
ta’lim yo‘nalishi uchun)

Toshkent – 2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK
TA’MINLASH KAFEDRASI**



**IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA. ETNOPSIXOLOGIYA
FANIDAN**

O‘QUV –USLUBIY MAJMUA

(61030200 -“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” hamda
fuqarolik yo‘nalishidagi psixolog
ta’lim yo‘nalishi uchun)

Tuzuvchi: “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-
psixologik ta’minlash” kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
D.M.Mamatkulov

Toshkent – 2024

I. O‘QUV MATERIALLARI: MA’RUZALAR MATNI

1-MAVZU: MILLIY GVARDIYA JAMOASINI BOSHQARISHDA QAROR QABUL QILISH VA IJROSINI TA’MINLASH

Reja:

1. Boshqaruv qarorlari qabul qilishga doir qarashlar va ularning psixologik talqini.
2. Boshqaruv qarorlarining tasnifi.
3. Qaror qabul qilish bosqichlari.

Tayanch tushunchalar: qaror, boshqaruv qarorlari, qaror qabul qilishning asosiy elementlari, qaror qabul qilishning asosiy bosqichlari, boshqaruv qarorlarini qabul qilishning algoritmi.

1. Boshqaruv qarorlari qabul qilishga doir qarashlar va ularning psixologik talqini. Harbiy jamoalarida har qanday daraja va har qanday ko‘lamdagi faoliyatni amalga oshirish boshqaruv qarorlari qabul qilishdan boshlanadi. Shu bois, boshqaruv qarorlari kasbiy faoliyatning markaziy elementi sanaladi. Boshqaruv qarorlari rahbar tomonidan qabul qilinadi hamda aniq natijaga erishishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.



Xalqimizda «Yetti o‘lchab bir kes», degan maqol bor. Har qanday boshqaruv qarorini qabul qilishda xalqning milliy-tarixiy turmushi va tafakkur tarzini, xalq an‘analari va urf-odatlarini hisobga olish zarur.

Amir Temur hayotining so‘nggi yillarida yozgan esdalik va tuzuklari jamlangan «Temur tuzuklari» asarida alohida fasl aynan qarorlar qabul qilish masalasiga bag‘ishlanib, ushbu fasl «Saltanatni o‘z erkimda saqlash uchun amal qilgan tuzugim» debnomlanadi. Ya‘ni qarorlar qabul qilish, uning ijrosini ta‘minlash Amir Temur tomonidan hokimiyatni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. «Butun mamlakatda, – deyiladi unda, buyruq, farmon berish ishlari podshohning o‘z ixtiyorida bo‘lishi lozim. Podshohlar ishda o‘zi hukm chiqarsin, toki hech kim uning hukmiga aralashib, o‘zgartira olmasin....Podshoh o‘z qarorida qat‘iy

bo'lsin, ya'ni har qanday ishni qilishga o'ziga qasd qilar ekan, to bitirmagunicha undan qo'l tortmasin....Podshoh hukmi joriy etilishi darkor, ya'ni qanday hukm chiqarishidan qat'i nazar, amalga oshirilishi kerak. ».

Buyuk Sohibqironning aql-zakovati va donishmandligi mahsuli bo'lgan «Tuzuklar»da qudratli davlatni boshqarishning barcha asosiy tamoyillari, yo'l-yo'riqlari har jihatdan to'la asoslab berilgan.

«**Qarorlar qabul qilish**» atamasi ilk bor XX asrning 30-yillarida amerikalik olimlar **Ch. Bernard, E. Stin** va boshqalar tomonidan qo'llanilgan. Ular ijtimoiy va tashkiliy jarayonlarni nomarkazlashtirishni ta'riflashda ushbu atamadan foydalanishgan. XX asrning 60-yillarida mazkur nazariya **G. Saymon va D. Marchlar** tomonidan rivojlantirildi. Hozirgi kunda iqtisod, sotsiologiya, siyosatshunoslik, ijtimoiy jarayonlarni modellash tirish nazariyasi doirasida ushbu nazariyaning turli yo'nalishlari ishlab chiqilmoqda.

Boshqaruv qarorlari qabul qilish masalasi, oqilona va samarali qonunlar qabul qilish hamda boshqa hujjatlar tayyorlash jarayoni azal-azaldan olimlar e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Davlat boshqaruvi nazariyasining shakllanishiga Aflotun, Kautilya, Shan Yan kabi qadimgi mutafakkirlar ulkan hissa qo'shganlar. Lekin, aslida, ilk bor qarorlar qabul qilishning maxsus nazariyasini ishlab chiqqan mutafakkir – Arastu. Aynan Arastu qarorlar qabul qilish jarayonini tavsiflovchi kategoriyalar majmuini ifodalab bergan va bu jarayonning nazariy asosini ishlab chiqqan.

Qarorlar qabul qilish nazariyasiga to'xtalishdan avval «Qaror» tushunchasiga, xususan, «boshqaruv qarori» tushunchasiga izoh berish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, qaror qabul qilish deb, inson faoliyatining muqobil yo'llardan yaxshisini tanlashga qaratilgan alohida turini tushunamiz.

Qaror – bajarilishi lozim bo'lgan ishning aniq bir yo'lini tanlab olishdir. Boshqacha aytganda, qaror – u yoki bu yo'lni tanlab olishda bir to'xtamga yoki fikrga kelishi.

«Qaror, – deb yozadi **E.Smirnov**, – insonning aqliy faoliyati mahsuli bo'lib, u yoki bu xatti-harakatni amalga oshirishga olib keladigan xulosa. Qaror muayyan maqsadga qaratilgan bo'lib, biror qisqa yoki uzoq muddatli vazifani amalga oshirishga, sodir bo'layotgan jarayonni davom ettirishga yoxud to'xtatishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin». Demak, *qaror* – inson aqliy faoliyatining mahsuli bo'lib, uning faoliyatini rejalashtiradi, tartibga soladi.

Qaror qabul qilish – murakkab fikrlash jarayoni bo'lib, muammoni anglash, adekvat maqsadni qo'yish va unga erishish uchun vosita tanlash.

Qaror qabul qilish deb, biz inson faoliyatining muqobil yo'llardan biri – yaxshisini tanlashga qaratilgan alohida turini tushunamiz. Ushbu yondashuv tanlab olish jarayonida quyidagi uchta element mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- ✚ hal bo‘lishi lozim bo‘lgan muammo;
- ✚ qaror qabul qiladigan shaxs yoki jamoa;
- ✚ tanlash uchun bir necha muqobil variantlar.

Ushbu elementlardan biri bo‘lmasa, tanlash jarayoni ham bo‘lmaydi. Lekin bu, qaror qabul qilinmaydi, degani emas, balki bunda ongli qarorga nisbatan boshqacha turdagi qaror qabulqilinadi.

Boshqaruv qarorlari esa boshqaruv jarayonida turli masalalar yuzasidan turli darajada xilma-xil mohiyat va mazmunga ega bo‘lgan yakuniy xulosadir. Ya’ni boshqaruv qarorlari – rahbar tomonidan qabul qilingan, aniq natijaga erishish maqsadida belgilangan tadbirlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan hamda bajarilishi majburiy bo‘lgan huquqiy hujjat. Boshqaruv qarorlari *qaror, farmon, farmoyish, buyruq* va boshqa hujjatlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Psixologiya fanida qaror qabul qilish *«noaniq vaziyatlarda dastlabki axborotlarni o‘zgartirish asosida maqsad sari olib boruvchi xatti-harakatlar izchilligini shakllantirishningirodaviy hodisa»*dir.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning quyidagi o‘ziga xos jihatlari mavjud:

Tashkiliy jihat boshqaruv qarorlarini jamoada ishlab chiqish va ijro etishda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun uning yo‘naltiruvchi, muvofiqlashtiruvchi va rag‘batlantiruvchi funktsiyalari, ya’ni bu tushunchaning ko‘p tomonlamaligidan guvohlik beruvchi funktsiyalari amalga oshiriladi.

Yo‘naltiruvchi funktsiyasi jamoaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasidan kelib chiqqan holda qabul qilinadi, ko‘p topshiriqlarda konkretlashtiriladi.

Qarorning **muvofiqlashtiruvchi vazifasi** muddatning tasdiqlanishi unga mos qarorni amalga oshirish uchun ijroviy harakatga zaruriyatini ifoda etadi.

Qarorning **rag‘barlantiruvchi funktsiyasi** tashkiliy choralar tizimi (buyruq, qaror, majburiyat), iqtisodiy omil, (taqdirlash, qo‘shimcha rag‘batlantirish), ijtimoiy qiymat (ish faolligining ruhiy-siyosiy omillari: shaxsning o‘zini tasdiqlashi, ijodiy amalga oshirish) orqali amalga oshiriladi.

Boshqaruv qarorlari, shuningdek, jamoada yuzaga kelgan nizoli vaziyatlarni hal qilish vositasi hamdir. Jamoada xodimlarning o‘zaro munosabatlarida nizo va ixtiloflar muqarrar ravishda yuz beradi. Odatda, nizolar birgina qaror bilan hal qilinmay, bir qator boshqaruv qarorlari qabul qilinishini talab qiladi.

2. Boshqaruv qarorlarining tasnifi. Boshqaruv jarayonida turli masalalar yuzasidan turli daraja, mohiyat va mazmunga ega bo‘lgan qarorlar qabul qilinadi. Ularni bir necha belgilar bo‘yicha guruhlariga bo‘lish mumkin.

Amal qilish davriga ko‘ra:

- Ψ strategik qarorlar;
- Ψ taktik qarorlar.

Strategik qaror maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega. U yuqori boshqaruv organlari tomonidan tub va istiqbolli dasturlar ishlab chiqish maqsadida qabul qilinadi.

Taktik qarorlar – maqsadga erishishning vosita va usullari xususidagi joriy, tezkor qarorlar.

Ta'sir doirasiga ko'ra:

Ψ umumiy qarorlar;

Ψ maxsus qarorlar.

Umumiy qarorlar bir xil muammoga daxldor bo'lib, barcha bo'g'inlar uchun birdek amal qiladi. Masalan, o'rnatilgan kun tartibi va boshqalar.

Maxsus qarorlar tor doiradagi muammolarga taalluqli bo'lib, jamoaning muayyan bir bo'limi yoki bir guruh xodimlar uchun qabul qilinadi.

Mazmuni va amal qilish xususiyatiga ko'ra:

Ψ ijtimoiy-iqtisodiy va texnik qarorlar;

Ψ stereotip qarorlar;

Ψ tashabbusli qarorlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy va texnik qarorlar mazmuni o'z nomidan ham bilinib turibdi.

Stereotip qarorlar qat'iy yo'riqnomalar, me'yoriy hujjatlar doirasida qabul qilinadi. Bunday qarorlar kundalik masalalar bo'yicha qabul qilinadi, lekin o'zgarishlar, asosan, muayyan muddatga, ayrim sifat parametrlariga, ijrochilarga taalluqli bo'ladi. Rahbar stereotip qarorlarni, odatda, ortiqcha tayyorgarliksiz qabul qiladi. Xodimlarni ishga olish va ishdan bo'shatish bo'yicha buyruqlarni shunday qarorlar jumlasigakiritish mumkin.

Tashabbusli qarorlar tavsifiga ko'ra novatorlik, mazmuniga ko'ra esa istiqbolni nazarda to'ladigan qarorlardir. Bunday qarorlar vaziyatni sinchkovlik bilan batafsil o'rganishni, maxsus kuzatuv materiallariga asoslanishni, maxsus hisob-kitoblarning amalga oshirilishini talab qiladi.

Tashabbusli qarorlar erkin harakatga asoslanib qabul qilinadi.

Takrorlanishi yoki yangilik darajasiga ko'ra:

Ψ an'anaviy qarorlar;

Ψ tavsiyali qarorlar.

An'anaviy qarorlar – odatiy vaziyatlarda qabul qilinadigan qarorlardir. Ularning amal qilish doirasi oldindan ma'lum.

Tavsiyali qarorlar mohiyatiga ko'ra tashabbusli qarorlarga yaqin bo'lib, ularda jamoa faoliyatini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar o'z aksini topadi.

Axborot bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra:

Ψ aniq qarorlar;

Ψ noaniq qarorlar.

Aniq qarorlar to‘la-to‘kis axborot mavjud bo‘lgan holdagina qabul qilinadi. Shu sababli, bunday qarorlarning amalga oshirilish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Noaniq qarorlar – tavakkal bilan, ya’ni to‘la bo‘lmagan axborotga asoslanib qabul qilinadigan qarorlar. Boshqacha aytganda, bunday qarorlar kutilgan natijaga baho berishimkoniyati bo‘lmagan hollarda tavakkal qilib, qabul qilinadigan qarorlardir.

Amal qilish xususiyatiga ko‘ra:

- Ψ vaqtinchalik qarorlar;
- Ψ tezkor (operativ) qarorlar;
- Ψ muntazam qarorlar;
- Ψ vaqti-vaqti bilan qabul qilinadigan qarorlar.

Vaqtinchalik qarorning amal qilish muddati ma’lum vaqt bilan cheklanadi yoki doimiy qaror qabul qilinguncha amal qiladi.

Tezkor (operativ) qaror kechiktirmay ijro etish uchun chiqariladi. Masalan, tabiiy ofat sodir bo‘lgan hollarda uni bartaraf qilish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar.

Muntazam qarorlar belgilangan muddatlarda chiqariladi.

Vaqti-vaqti bilan qabul qilinadigan qarorlar har zamonda biror sababga ko‘ra qabul qilinadi.

Qarorni qabul qilish shakliga ko‘ra:

- Ψ yakkaboshchilik prinsipi asosida qabul qilingan qarorlar;
- Ψ kollegiallik (ko‘pchilik fikri) asosida qabul qilingan qarorlar;
- Ψ yakdillik prinsipi asosida qabul qilingan qarorlar;
- Ψ konsensus prinsipi asosida qabul qilingan qarorlar;
- Ψ «Ringi» usuli asosida qabul qilingan qarorlar.

Yakkaboshchilik asosidagi qarorlar ko‘p hollarda asosli tanqidga uchraydi. Sababi, rahbar yakkaboshchilikka asoslangan qarorni aksariyat hollarda o‘zini ko‘rsatish maqsadida qabul qiladi. Bunday rahbar faoliyatining 80-90 foizi buyruqbozlikka asoslangan bo‘ladi. Bu jamoda keskinlik yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Boshqaruv qarorlari jamoa fikriga tayangan holda qabul qilinmas ekan, boshqaruvchilar bilan bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi, o‘zaro ishonchning yo‘qolishi, nizolarning kelib chiqishi muqarrar.

Kollegiallik (ko‘pchilik) tamoyili «koalitsiyalar», ya’ni har xil fikrlar raqobat qiladigan hollarda amal qiladi. Shu sababli qaror qabul qilishda ovoz berish yo‘liga o‘tiladi. Bunday hollarda qabul qilish uchun ko‘pchilikning ovoziga tayaniladi. Ko‘pchilik hollarda yarmidan ko‘p ovoz, gohida prinsipial masalalar yuzasidan me’yor 2/3 deb tasdiqlanadi.

Yakdillik tamoyili mohiyatiga ko‘ra ilgari surilayotgan muqobil fikrni so‘zsiz qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Bunday holat juda kam uchraydigan hodisadir, chunki

qarorlar qabul qilishda qatnashadigan kishilar demokratik uslubda fikrlash tarafdorlari bo'lsada, odatda, boshqalarnikidan farq qiladigan o'z fikriga ega bo'ladi.

Yakdillik favqulodda ro'y beradigan vaziyatlarda qaror qabul qilishda, shuningdek, qarshilik ko'rsatuvchi guruhlarda «koalitsiyalar» bo'lmagan hollarda yuzaga keladi.

Konsensus qarorlar ishlab chiqish jarayonida bahsli masalalar va turli-tuman fikrlar yuzasidan bir bitimga kelishish. Konsensusga o'zaro fikr almashish va maslahat, shuningdek, ilgari surilayotgan muqobil masalalarni maqsadga muvofiqlashtirishninghar xil usullarini qo'llash yordamida erishiladi.

«*Ringi*» usuli yapon biznesida keng qo'llaniladigan usul. Bu usulga ko'ra majlisda emas, balki so'rab chiqish yo'li bilan rozilik olish vositasida hal etiladi. Yaponiyada «*Ringi*» usulini ehtiyotkorlik, avaylash, jamoa mas'uliyatini oldinga suruvchi boshqaruv falsafasining ko'rinishlaridan biri deb hisoblash odat tusiga kirgan. Yapon rahbarlari tomonidan qo'llaniladigan yana bir usul «*Kingisyo*» ham o'ziga xos xususiyatlarga zga. Bu usulning farqishundaki, bunda qarorning tayyor loyihasi rahbar tomonidan tuzilgan ro'yxat bo'yicha mutaxassislarga beriladi va ularning e'tirozlari yozma ravishda qabul qilinadi. So'ng majlis o'tkaziladi, majlisga faqat aniq fikrga ega bo'lgan mutaxassislar taqlif etiladi.

Bu ikkala qaror turini ekspert-mutaxassislarga tayanganholda qabul qilingan qarorlar deb aytish mumkin.

Qaror shaxs tomonidan qabul qilinar ekan, unda bu shaxs fazilatlarini muayyan darajada aks etadi. Shu nuqtai nazardan quyidagi ko'rinishdagi qarorlar mavjudligi e'tirof etiladi:

- Ψ muvozanatlashgan qarorlar;
- Ψ turtki beruvchi (impulsli) qarorlar;
- Ψ tinch holatni saqlovchi (inertli) qarorlar;
- Ψ tavakkalli qarorlar;
- Ψ ehtiyotkorona qarorlar;
- Ψ oqilona qarorlar.

Muvozanatlashgan qarorlarni, odatda, mazkur muammoni chuqur bilgan, «yetti o'lchab, bir kes» qabilida ish to'tadigan, o'z xatti-harakatlariga taiqidiy yondashadigan rahbarlar qabul qiladi. Bunday boshqaruvchilar qaror qabul qilishdan oldinroq u haqda o'z qat'iy fikriga ega bo'ladi. Qaror qabul qilishga bunday yondashuv boshqalarga nisbatan samarali hisoblanadi.

Turtki beruvchi (impulsli) qarorlarni qabul qiluvchi rahbar turli fikr, g'oyalarni tezda o'ylab topadigan, ammo ularni aniqlash, baholash, tekshirishga imkoniyat topa olmaydigan rahbardir. Shu sababli bunday qarorlar birdaniga qabul qilinib, yetarli darajada asoslanmagan va ishonchsizroq bo'ladi.

Tinch holatni saqlovchi (inertli) qarorlar chuqur izlanishlar natijasida qabul qilinadi. Bunda qaror tezkor g'oyaning paydo bo'lishidan ko'ra ko'proq aniqlik kiritish, nazorat qilish asosida qabul qilinadi. Bun-day qaror qabul qilishda rahbar har bir fikrni, shuningdek, farazni (gipotezani) sinchiklab ko'rib chiqadi, o'zining har bir qadamini bir necha marotaba tekshirib chiqadi. Natijada, qaror qabul qilish jarayoni cho'zilib ketishi mumkin.

Tavakkalli qarorlarning impulsli qarorlardan farqi shundaki, uni qabul qiluvchi boshqaruvchilar o'z taxminlarini asoslashga urinmaydilar. Ular o'zlariga ishongan holda hech qanday xavfdan qo'rqmaydilar.

Ehtiyotkorona qarorlar o'z ishiga nihoyatda puxta yondashadigan, unga tanqidiy nuqtai nazardan qaraydigan, turli variantlarni baholab ish to'tadigan rahbarlar tomonidan qabul qilinadi. Qayd qilingan qarorlar, odatda, tezkor boshqaruvni amalga oshirish maqsadida qabul qilinadi.

Strategik va taktik boshqaruv maqsadida esa iqtisodiy tahlilga, optimallashtirishga asoslangan **oqilona qarorlar** qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, boshqaruv qarorlari qabul qilishda shaxs fazilatlarini hisobga olish uning qanday samara berishi mumkinligini anglashga yordam beradi. Shuningdek, rahbar faoliyatida muayyan fazilatlar (sobitqadamlik, intizomlilik, sofdillik, mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik)ning namoyon bo'lishi oqilona qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.

3. Qaror qabul qilish bosqichlari. Umuman olganda, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni aniq bir doira ichida o'tishi qiyin. Har bir rahbar o'z psixologik xususiyatidan kelib chiqqan holda muammo yechimiga turli uslub va moyillikni namoyon etadi. Mana shu omillar mavjud muammo yechimiga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi.

Qaror yaratilishi davomida rahbar o'z ichki dunyosida sodir bo'layotgan jarayonlarni bilishi, ushbu holatni maqsadga muvofiq ravishda boshqarish imkonini beradi. Shu bois qaror qabul qilish amallarini bosqichma-bosqich tahlil etish lozim, deb topiladi. Quyida mana shu bosqichlarning asosiy tavsiflari beriladi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko'pqirrali va murakkab jarayon bo'lib, unda asosiy beshta bosqichni sharhlab o'tish mumkin:

- I. muammoni o'rganish;
- II. g'oyalar ishlab chiqish;
- III. ma'qul keluvchi g'oyalarni ajratib olish;
- IV. yangilikni joriy etishni rejalashtirish;
- V. qayta aloqa va tahlil.

Qaror qabul qilishning **I-«Muammoni o'rganish» bosqichida** ham quyidagi ketma-ket vazifalar belgilanadi:

1 – vazifa: «Muammoni qo'yish» deb atalib, unda ushbu masala bo'yicha qanday qiyinchiliklar borligi aniqlanadi va muammoning mazmuni tushuniladi. Agar hal qilinishi lozim bo'lgan muammo noto'g'ri tushunilsa, hamma bo'lajak harakatlar va moliyaviy xarajatlar zoe ketadi, shuning uchun ham muammoni aniq tasavvur yetib olish boshlang'ich bosqichning asosiy vazifasidir. Ko'p hollarda masalani noto'g'ri aks ettirishga malakasizlik, kasbiy bilimning kamligi, shuningdek, mazkur toifadagi masalalarni hal eta olishga tayyor emaslik, hamda ba'zi bir muammo va echimlarning «yuqoridan tushirilganligi» sabab bo'lishi mumkin. Muammoni qo'yish quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

1. Muammo tabiatini, undagi qiyinchilikni anglash.
2. Muammo yechimi orqali qanday maqsadga erishish lozimligini aniqlash.
3. Maqsadga erishilgan taqdirda qanday belgilar, ko'rsatkichlar mavjud bo'lishini aniqlab olish.

Oxirgi natija nimadan iborat bo'lishi kerak, degan savolga javob olinishi lozim.

2 – vazifa: *majburiyatlarni taqsimlash*. Rahbar doimo hamma muammolarni o'zi hal eta olmaydi, shuning uchun ham bu bosqichda u ba'zi-bir majburiyatlarni malakali mutaxassis ixtiyoriga topshirgani ma'qul. Mutaxassis, bu bosqichda, mazkur muammo yuzasidan barcha ma'lumotlarni yig'ish va masalani har tomonlama o'rganish bilan shug'ullanadi.

3 – vazifa: *ma'lumotlar yig'ish, muammoli vaziyatning informatsion modelini yaratish*. Bunda nafaqat «o'zining» ma'lumotlari, balki, muxoliflar, raqobatdosh tomonlarning ham ma'lumotini hisobga olish lozim. Ba'zi bir paytda muxoliflar, ular bergan ma'lumot kamsitiladi, inkor etiladi va unga e'tibor berilmaydi. Bu esa mutlaqo xatodir. Ma'lumot yig'ishda unga mas'ul shaxs, ushbu muammo yuzasidan chuqur bilimga ega ekspertlar fikrini o'rganishi o'ta muhimdir.

4 – vazifa: *muammoli vaziyatning konseptual modelini yaratish*, mazkur muammoni bir butun, yaxlit tarzda tushunish. Muammo bu tarzda aks ettirilganda, uning avvalgi muammolardan farqi, uning yangi jihatlari va yechimga yangicha yondoshish zarurati anglanadi.

II – bosqich – g'oya yaratish. Masala yechimiga oid g'oyani yaratishning turli usullari bo'lib, ular ichida eng samaralisi «aqliy hujum» uslubidir. Bu uslubning asosiy tamoyillari quyidagilar:

-  turli kasbga mansub 5-10 ta mutaxassislardan iborat guruh ishlaydi;
-  ushbu guruh a'zolari iloji boricha ruhiy va jismoniy jihatdan o'zlarini erkin sezishlari lozim;
-  yechimga oid taklif etilayotgan g'oyalarni tanqid qilish ta'qiqlanadi. Boshqalar berayotgan g'oyani faqatgina rivojlantirish, maqtash mumkin yoki uning o'rniga o'z g'oyasini taklif etish lozim;

✚ har qaysi g'oya, garchand u g'aroyib va ma'qul kelmasligiga qaramay «aqliy hujum»ning boshlang'ich davrida unga baho berilmaydi va hamma fikrlar yozib boriladi;

✚ g'oya muallifi ko'rsatilmaydi;

✚ ish tugagandan so'ng hamma taklif etilgan g'oyalar mantiqiy tarzda tartibga keltiriladi va ekspertlardan iborat guruhda muhokama etiladi.

III – bosqich: yig'ilgan g'oyalarni baholash, maqbul fikrlarni saralash. Avvaliga har bir g'oyaning ijobiy tomonini baholab chiqish, so'ngra uning samaradorligini, amalga oshirish imkoniyatini, xarajatli tomonlari va boshqa o'lchamlarini aniqlab olish zarur. Shu bilan birga, ushbu g'oyaning tanlanishi oqibatida yuz beradigan xavf baholanar ekan, afsuski ko'pchilik rahbarlar uchun ayni mezon yetakchi o'ringa chiqib qoladi. Bunda taklif etilayotgan g'oya chetda qolib, boshqa yo'nalish tanlansa, masala yechimi tamoman boshqa tus oladi va guruh boshi berk ko'chaga kirib qoladi.

IV – bosqich: yangi qarorni rejalashtirish va amalga oshirishdan iboratdir. Bunda qaysi ish, qanday muddatda va kimning ishtirokida bajarilishi kerak, degan savollarga javob olinadi. Qarorni amalga oshirishga jalb etiluvchi ishchi guruhi, umumiy rejani va unga oid amaliy harakatlarni aniq tasavvur eta olishi lozim.

V – bosqich quyidagi amaliy tadbirlarni o'z ichiga oladi: 1) qabul qilingan qarorni, reja va harakatni amalga oshirish; 2) amalga oshirilgan harakat va natijalarni yanada yaxshilash maqsadida nazorat etish; 3) zarur bo'lgan taqdirda qarorni takomillashtirish, ya'ni «muammoni o'rganish» bosqichiga yoki g'oya yaratish va boshqa oraliq bosqichga qaytish.

Yaxshi qaror qabul qilishda bir necha psixologik tavsifga ega bo'lgan to'siqlar paydo bo'lishi mumkin. **I.P. Cherednichenko** va **N.V. Telno'x** quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

Birinchisi – shoshqaloqlik. U ko'pincha vaqt yetishmovchiligidan kelib chiqadi va noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'ladi. Bunda axborot kerakli tahlil qilinmaydi, muhim ma'lumotlar nazardan chetda qolishi ehtimoli bo'ladi. Shoshqaloqlikda mavjud yo'llarning ko'pi o'rganib chiqilmaydi, ba'zilar esa hisobga olinmaydi. Bunday vaziyatda birinchi to'g'ri deb topilgan qaror qabul qilinadi, ammo bu qaror to'g'ri bo'lib chiqmasligi mumkin. Tadqiqotchilar vaqt tig'izligida qaror qabul qilmaslikni tavsiya etadilar.

Ikkinchisi – hayajonlanish. Qattiq hayajon ta'sirida ham noto'g'ri qaror qabul qilish mumkin. Qattiq hayajonlanish negativ va pozitiv emotsiyalarda namoyon bo'lishi ehtimoli bor. Ko'pincha tashabbus ham odamni adashtiradi.

Uchinchisi – sustkashlik qilish.

M.P. Cherednichenko, P.V. Telnix qaror qabul qilishni kechiktirishning olti sababini keltiradilar:

1. Odamlar tabiatan muammo yechimini topishdan o'zlarini tiyadilar;
2. Odamlar vaziyatga ko'nikadilar, shuning uchun muammo yechimini topishga shoshilmaydilar. Bunday ustanovka keng tarqalgan hisoblanadi;
3. Muammolarni kollegial tarzda yechish g'oyasi ustunlik qiladi;
4. Juda katta hajmdagi axborotning mavjudligi jiddiy muammo hisoblanadi, rahbarning hamma ma'lumotlarni o'zlashtirishga vaqti yetmaydi;
5. Tasodifiy variantlarning paydo bo'lishi;
6. Qaror qabul qilishda ikkilanish.

To'rtinchisi – o'z xatolarini tan olmaslik. Mavhum vaziyatda odam o'z harakatlarini tezda tushunib, to'g'ri xulosaga kelsa, u bu vaziyatdan shunchalik tez chiqib ketadi.

Beshinchisi – haddan ortiq o'ziga ishonch. Faqat o'zining fikrini to'g'ri deb hisoblaydigan rahbarlar yo'q emas. Bunday yondashuv boshqalar fikrini o'rganishga yo'l qo'ymasdan to'g'ri qaror qabul qilishga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

A.L. Lomakinning ta'kidlashicha, qarorlar samarasizligining sababi 39% holatda kutilmagan vaziyatlar, 25% holatda ijrochining aybi, 36% holatda qarordagi kamchilikda bo'ladi. Birinchi ikki sababda rahbarning ish tashkil qilishda xatoga yo'l qo'yganini e'tirof etish mumkin. Bundan ko'rinadiki, qabul qilinayotgan qarorlarning yarmidan ko'pida kamchiliklar mavjud.

Boshqaruv qarorlari qabul qilishni shakllantirish imkoniyatlari boshqaruv uslublariga ham bog'liq. Boshqaruv uslubi rahbarlik faoliyatining eng muhim sifat ko'rsatkichidir. Boshqaruv uslubi shaxsning ijtimoiy hayot qonuniyatlariga asoslangan turmush tarzi va faoliyat yuritish usuli, yetakchilik uchun zarur bo'lgan ta'sir ko'rsatish usullarining tizimi, rahbarning xodimlar bilan muomala qilish usuli, xizmat vazifalarini bajarish jarayonida xodimlararo munosabatlar tarzi ifodasi, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida rahbar bilan xodimlar munosabatiga asos bo'luvchi xulq-atvorining umumiy yig'indisidir. Rahbarlik uslubi jamoa bilan o'zaro munosabatlarning shart-sharoiti, jumladan, rahbarning kasbiy layoqati hamda shaxsiy fazilatlari ta'sirida shakllanadi. Boshqaruvchilik uslubining umumiy ma'nosi shundan iborat.

Rahbarlik vazifasi jamoani tarkib toptirish, xodimlarga vazifalar berish, ularni hal qilish variantlarini tavsiya etish, maslahat berish, har bir vazifani zarur moddiy-moliyaviy va mehnat resurslari bilan ta'minlashdan iborat. U o'z xizmat vazifalarini bajarish asosida odamlar bilan ishlaydi, personalni boshqaradi, bunda o'ziga xos boshqaruvchilik uslubini namoyon qiladi. Rahbarlik uslubi jamoa oldida turgan vazifani to'g'ri, sifatli va uyushqoqlik bilan bajarishni ta'minlashi kerak. Jamoaning jipsligi va uyushqoqliti yoki ichki tarqoqligi ko'p jihatdan xodimlar barqarorligi, faolligi, ularning o'zaro va rahbar bilan munosabati, rahbarning boshqaruvchilik

mahorati, xodimlari orasidagi obro‘-etibori, shaxsiy fazilati va ish yuritish prinsipiga bog‘liq.

Xizmat vazifasini vijdonan bajaruvchi rahbar va unga bo‘ysunuvchi xodimlar ba‘zan ruhiy va jismoniy toliqish darajasida ishlashlari mumkin. Ba‘zan stressli holatlar ham ro‘y berishi mumkin. Mutaxassislar fikricha, boshqaruv qarorlari tayyorlash va ijro etish jarayoniga bo‘lg‘usi ijrochilarni ham jalb etish maqsadga muvofiq, chunki ular oldindan qarorning konsepsiyasi va undan kelib chiqadigan vazifalar bilan tanishadilar. Qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etuvchi bo‘lg‘usi ijrochilar o‘z fikrlarini bildiradilar, chunki qarorning predmeti, uning zaxirasi va qiyinchiliklaridan yaxshi xabardor bo‘ladilar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Boshqaruv qarorlari qabul qilishga doir qarashlar va ularning psixologik talqini?
2. Qaror qabul qilishning asosiy elementlari?
3. Boshqaruv qarorlarining tasnifi. Boshqaruv qarorlari qabul qilishning asosiy bosqichlari?
4. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning algoritmi?
5. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish va uni amaliyotga qo‘llashda tashqi va ichki omillar?

2-MAVZU: JAMOANI VA XODIMLARNI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Reja:

1. Boshqaruvda rahbar shaxsiga qo‘yiladigan ijtimoiy-psixologik talablar.
2. Jamoa va xodimlarni boshqarishda bilish sifatleri.
3. Xotirani rivojlantirish qonuniyatlari.

Tayanch tushunchalar: tashkilot ijtimoiy tuzilma sifatida, tashkilotdagi kommunikatsiya, kommunikatsiya rollari, xodimlar tipologiyasi, xodimlarni motivatsiyalashda Mak-Gregor nazariyasi.

1. Boshqaruvda rahbar shaxsiga qo‘yiladigan ijtimoiy-psixologik talablar. Psixologiya ko‘proq boshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslarini o‘rganadi va shu asosda buysunuvchilar ishlarini samarali tashkil etish,

aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun qanday psixologik holat va jarayonlarni o'zida tarbiyalash lozimligi kabi qator muammolarni yechadi.

Boshqaruv psixologiyasining predmetidan kelib chiqib, rahbar faoliyatini tahlil qilganda asosiy e'tiborini uning boshqaruv faoliyatiga, qobiliyati bormi yoki yo'qmi, individual xususiyatlariga ko'ra jamoani boshqara oladimi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u qanday ta'sir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Jamoani boshqarishda rahbardan real sharoitlarda shahsiy tarkibni aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z buyniga olish kabi ko'plab sifatlarning mujassam bo'lishi talab qilinadi.

Rahbar xodimda bu sifatlarni shakllantirish uchun rahbarlik faoliyatining diagnostik xususiyatlarini bilish kerak.

Rahbarlik faoliyatining diagnostik xususiyatlari:



1. Rahbar tub ma'noda realist bo'lishi, ya'ni uning barcha harakatlari jamoani manfaatlariga mos kelib, unga foyda keltirishini tasavvur qilishi lozim;

2. Rahbarning umuman qo'l ostidagi xodimlar haqida qanday tasavvurda ekanligi, ular to'g'risida nima deb o'ylashi, bu boradagi bilimlari juda muhim;

3. Har qanday narsani yo'l-yo'lakay, qiyinchiliksiz idrok qila olish qobiliyatiga ega ekanligi;

4. O'zgalar faoliyati va jamoani yaxlit tarzda boshqara olish hamda bajarayotgan ishni birgalikda hamma qatori amalga oshirishga tayyor bo'lishi lozim;

5. Jamoa hamda qo'l ostidagi xodimlarning mavqei va kasbiy tajaribasini aniqlab, o'zi zarur xulosalarni chiqara olishi va qarorlar qabul qila olishi;

6. Har qanday toshpirilgan vazifani oxiriga yetkazish va bundan ma'lum bir qoniqish hissi hosil qilish uchun o'zidagi qobiliyat va kuch-quvvat zaxirasiga ega bo'lishi shart. Buning uchun esa:

a) o'z kuchi, salohiyati va qobiliyatlarini eng asosiy maqsadga qaratish, irodani aynan shunga sarf qilish;

b) doimo tetik va sog'lom bo'lib, har doim ham ishga yaroqli ekanligini ko'rsata olish;

v) boshqa xodimlar ham bajara olishi mumkin bo'lgan mayda-chuyda ishlarga qo'l urmay, ularning nazoratigagina e'tiborni qarata olish;



g) jamoa oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda boshqa jamoa va soha vakillari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ya olishi.

Kasbiy faoliyat rahbar xodimga ko'plab turli xil talablar qo'yadi, ular orasida eng muhimlaridan biri – *shaxsda kasbiy jihatdan muhim xislatlarning rivojlangan bo'lishi*.

Ularga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

- ✚ uning shaxsiga xos xislatlarning kasbiy-psixologik yo'nalganligi;
- ✚ psixologik barqarorlik;
- ✚ rivojlangan irodaviy xislatlar: murakkab vaziyatlarda o'zini tuta bilish, jasurlik, mardlik, oqilona tavakkalga moyillik;
- ✚ yaxshi rivojlangan kommunikativ xislatlar;
- ✚ turli toifadagi kishilar va qo'l ostidagi xodimlar bilan tezda aloqaga kirisha olish, ishonchli munosabatlar o'rnatish va saqlay olish;
- ✚ jamoani boshqarishda qo'l ostidagi xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsata olish qobiliyati;
- ✚ rolga, boshqa qiyofaga kira olish;
- ✚ rivojlangan, kasbiy jihatdan muhim bilish xislatlari: kuzatuvchanlik va diqqatlilik, rivojlangan xotira, ijodiy tasavvur;
- ✚ rivojlangan tafakkur, qattiq aqliy ishga moyillik, farosat, rivojlangan intuitsiya;
- ✚ ziyraklik, murakkab vaziyatdan chiqib keta olish.

Ushbu xislatlar insonga avvaldan xos emas. Ularni shakllantirish va rivojlantirish – davomli va qiyin jarayon, ammo u rahbarning kasbiy shakllanishi uchun zarur shartdir. Ushbu xislatlarning rahbar shaxsida bo'lmasligi yoki yetarli rivojlanmaganligi uning o'z funktsional vazifalarini normal bajarishiga halaqit beradi, uning boshqaruv faoliyatida xatolarga yo'l qo'yishiga olib keladi, qo'l ostidagi xodimlarning o'z kasbiga moslasha olmasligiga va kasbiy buzilishiga olib keladi.

Rahbar shaxsiga qo'yiladigan ijtimoiy-psixologik talablardan biri boshqaruv madaniyatidir. Bu rahbarning jamoani boshqarishida namoyon bo'ladigan (axloqiy, aqliy, muammoviy negizdagi) fazilatlar majmuasidir.

Rahbar shaxsidagi boshqaruv madaniyati – shaxsiy-kasbiy munosabatlar jarayonida namoyon bo‘ladigan *qoida, ko‘nikma va qadriyatlar majmuidir*. Ular quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- 1) g‘oyaviy ishonch va jamoa faolligini yuksaltirish;
- 2) xulq-atvorni boshqarish;
- 3) mustaqil fikrlash;
- 4) yakkahokimlik prinsipidan me‘yoriy foydalanish;
- 5) jamoada sog‘lom ijtimoiy-psixologik mikromuhitni mustahkamlash;
- 6) muloqot texnikasi va mahoratini egallash;
- 7) targ‘ibot va tashviqot, tanqid va o‘zini-o‘zi tanqiddan samarali foydalanish;
- 8) kasbiy malakasini oshirib borish;
- 9) shaxsiy namuna orqali ta’sir ko‘rsatish;
- 10) yagona talablar asosida faoliyatni baholash tizimini standartlashtirishda «ma’muriy qayta quruvchi – yaratuvchilik» vazifalarini bajarish va shu kabi holatlarda o‘z ifodasini topadi. Rahbar shaxsidagi boshqaruv madaniyati jamoani samarali boshqarishni amalga oshirishda omilkor vosita sifatida qo‘llaniladi.

Rahbar shaxsidagi ko‘p sifatlarning bir butunlikda namoyon etilishi orqali zamonaviy rahbar darajasiga erishish mumkin.

Jamoada doimiy ravishda har qanday holatda, ya’ni:

- Ψ mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv;
- Ψ mavqe ko‘lamini aniqlash;
- Ψ javobgarlik mas’uliyatining taqsimoti;
- Ψ vakolat va javobgarlik nisbatini muvofiqlashtirish;
- Ψ faoliyatni funktsional chegaralash;
- Ψ nazorat ko‘lamini aniqlashtirish;
- Ψ hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

Ψ jamoa faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir qator muammolar majmuasini ijobiy hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi, ya’ni «egiluvchanlik» va «qat’iylilik»ni o‘z o‘rnida ko‘rsata olish qobiliyati orqali rahbar shaxsidagi boshqaruv sifatining takomillashuvi holati kuzatiladi. Bu jarayonda rahbar ham o‘zining, ham qo‘l ostidagi xodimlarning shaxsiy tipologiyasini to‘liq ta’riflay olishi mumkin.

Rahbarning yuqori darajada samarali ishchanligini saqlay bilishi ham aynan shu omilga bog‘liq.

Samarali boshqaruvni amalga oshirish keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish bilan ko‘proq bog‘liq bo‘lsa-da, lekin aslida:

- Ψ o‘z shaxsiy maqsadini aniqlash;

- Ψ o‘zini va o‘zgalarni xolisona baholay bilish;
- Ψ o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlash;
- Ψ o‘z vaqtda va aynan maqbul qarorlarni qabul qilish;
- Ψ faol faoliyat ko‘rsata olish;
- Ψ stress holatini bartaraf etish;
- Ψ o‘zini o‘zi nazorat qilish bilan bog‘liqdir.

Rahbarlarni zamon talabi darajasida tayyorlash uchun avvalo quyidagi sifatlarini shakllantirish zarur.

Rahbar shaxsining g‘oyaviy-siyosiy sifatleri: g‘oyaviy-siyosiy e‘tiqod, fidoyilik, prinsipiiallik, siyosiy savodxonlik, ijtimoiy faollik, ijtimoiy burchni anglaganlik, ijtimoiy fikrlash, tashkilotchilik, tadbirkorlik;

Kasbiy-ixtisosiy xislatlari: kasbiy yetuklik, mustaqillik, bilimdonlik, aqlning tanqidiyligi, axborotlarni tahlil qilish, o‘z fikrini ifodalay olish, ilmiy-tadqiqot o‘tkazishga moyillik;



Hissiy va axloqiy fazilatleri: vatanparvarlik, o‘ziga va o‘zgalarga talabchanlik, kamtarlik, o‘zgalarni hurmat qilish, o‘ziga ishonch, ibolilik, halollik, adolatlilik, samimiylik, beg‘arazlik, vijdonlilik, xulq madaniyati va odobi, hamdardlik, oqilona baholash, yumor hissi, dilkashlik, o‘zini

kamol toptirish, bilimga chanqoklik, zamonaviylik, o‘zini tuta bilish, o‘z manfaatini ustun qo‘ymaslik, axloq qoidalariga rioya qilishlik;

Maxsus qobiliyatlari: iymon e‘tiqodlilik, tashkilotchilik, nutqiy va nufuzli qobiliyat, sezgirlik, muomala o‘rnatuvchanlik, diqqatni yo‘naltirish, aniqpik, xolislik, safarbarlik;

Tashkilotchilikdagi individual farqlari: psixologik tanlovchanlik, amaliy aql-zakovat, psixologik takt, ijtimoiy g‘ayratlilik, tanqidiylik, tashkilotchilikka uzluksiz moyillik, uyushqoqlik, bukilmas irodealilik va hokazo.

2. Jamoa va xodimlarni boshqarishda bilish sifatleri.

Boshqaruvda rahbarning bilish sifatleri, his-tuyg‘ulari va irodaviy fazilatleri muhim ahamiyat kasb etadi.

Diqqat va uning boshqaruv faoliyatida tutgan o'рни. Diqqat rahbar faoliyatning barcha turlari, eng avvalo, jamoani samarali boshqarishning muhim va zarur shartidir.

Diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligidir.

Kasbiy diqqat yaxshi shakllangan ixtiyoriy diqqatning anglanganligi va keragicha boshqarish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turuvchi va nima, qachon, qaerda hamda nimaga diqqatni qaratish kerakligini belgilab beruvchi jarayon hisoblanadi. Kasbiy diqqatning yaxshi rivojlanganligi uning maqsadli va mohirona yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Diqqatni bir joyga jamlash va uni to'g'ri yo'naltirishda quyidagi omillarni hisobga olish zarur:



- ✚ ish jarayoniga xos va mos sharoitni yaratish, ya'ni ish joyini saranjomlash, yorug'likka qulay joylashib olish;

- ✚ muayyan vazifani bajarish uchun psixologik tayyorgarlik ko'rish;

- ✚ aqliy tayyorgarlik, zarur adabiyotlardan foydalanish, tajriba orttirish, aqliy faoliyat yuritish uchun qulay vaqtlarni hisobga olish (tongi soat 5 dan 11 gacha, kunduzgi soat 16 dan kechki 20–24 gacha aqliy faoliyat unumdorligi yuqoriligini kuzatish mumkin).

Rahbarni qo'l ostidagi xodimlarning xulq-atvori, xatti-harakatlari va ichki his-tuyg'ularini o'rganishda diqqatning asosiy xususiyatlari (*taqsimlanishi, tarqoqligi, barqarorligi, tez o'rin almashishi*) o'ziga xos ahamiyat kasb etadi va ularning ruhiy holatini kuzatishda qo'l kelishini anglab yetish lozim.

Shunday ekan, rahbar jamoada qo'l ostidagi xodimlar bilan aloqa o'rnatishda kasbiy diqqatni yuzaga keltirishi uchun quyidagi usullardan foydalanishi zarur:

Ψ qo'l ostidagi xodimlarni kuzatish jarayonida ularning emotsional-irodaviy holatlari va individual-psixologik xususiyatlarni inobatga olish;

Ψ qo'l ostidagi xodimlar bilan aloqa o'rnatishda ularning xulq-atvori va xatti-harakatlarini kuzatish jarayonida diqqatni to'g'ri taqsimlash va tez ko'chira bilish ko'nikmasini shakllantirish usullaridan foydalanish;

Ψ davomli mashq qilish yordamida diqqat markazida 2–7 tadan, 8–15 tagacha bo'lgan obyektni ushlab turish;

Ψ diqqatni bir obyektidan ikkinchisiga ko‘chirishda har bir soniyadan unumli foydalanish;

Ψ diqqat doirasining torayishini hisobga olish, ya’ni axborot qanchalik muhim bo‘lmasin, bir obyektga bog‘lanib qolmaslik;

Ψ umumiy kuzatuv obyektida, sharoitni o‘rganish maqsadida, diqqatni teng taqsimlash orqali obyektни qismlarga bo‘lib kuzatish.

Diqqatni kuchaytirish usullari:

Ψ javobgarlik hissini sezish, faoliyat samaradorligini belgilovchi ahamiyatli tomonlarni hisobga olish;

Ψ muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishda irodaviy kuchga tayanish;

Ψ obyektни «e’tibor bilan kuzat», «yaxshilab qara», «yana bir bor tekshir» kabi diqqatni kuchaytiruvchi buyruqlarni berish;

Ψ salbiy hissiyotlarni kuzatish jarayoniga aralashtirmaslik;

Ψ kuzatuvchanlik faoliyatini susaytiruvchi omillarni inobatga olmaslik.

Diqqatni jamlash prinsiplari:

Ψ muayyan holatga diqqatni yo‘naltirish;

Ψ ahamiyatsiz ma’lumotlarni miyada saqlamaslik;

Ψ keraksiz fikrlarga chalg‘imaslik.

Diqqat jarayoni, o‘z navbatida, kuzatuvchanlik faoliyati bilan uyg‘un shakllanadi. Kuzatish qo‘l ostidagi xodimlar bilan tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi va ular bilan munosabatlar maromini tartibga solish hamda ularning xulq-atvori va xatti-harakatlarini kuzatishda namoyon bo‘ladi.

Sezgi va uning boshqaruv faoliyatida tutgan o‘rni. Sezgi oddiy psixik jarayon bo‘lib, u moddiy olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlari aksidan, shuningdek, moddiy qo‘zg‘atuvchilar tegishli retseptorlarga bevosita ta’sir etganda organizmda hosil bo‘ladigan ichki holatlardan tarkib topadi. Rahbarning boshqaruv faoliyatida sezgilarning roli juda katta. Chunki, ular rahbarning jamoa haqidagi va o‘zi to‘g‘risidagi bilimlarining manbai hisoblanadi. Rahbar jamoada sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar haqida hamisha axborot olib turishi kerak.

Rahbar qo‘l ostidagi xodimlarning xulq-atvori, ruhiy holati va xatti-harakatlarini kuzatishda sezgining o‘rni beqiyosdir. Kasbiy sezgirlik his qilish jarayonlarini mashq qildirish orqali rivojlantiriladi. Bu xususiyat faoliyat davomida shakllanib boradi, qo‘l ostidagi xodimlarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini oldindan aniqlay boshlaydi.

Idrok va uning boshqaruv faoliyatida tutgan o'rni. Narsa yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'siri jarayonida kishi ongida uning aks etishi idrok deb ataladi.




Idrok rahbarning boshqaruv faoliyatida muayyan o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Ya'ni, rahbar qo'l ostidagi xodimlarga sinchkovlik bilan nazar solish, ularning o'zini tutishi, xulqi va aytayotgan gaplarini kuzatishi hamda vizual va verbal olingan ma'lumotlarni vaziyatga qarab obyektiv baholay olishi zarur.

Xotira va uning tutgan o'rni. Xotirada esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish kabi asosiy jarayonlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Ular faoliyat davomida shakllanadi va o'sha faoliyat bilan belgilanadi.

Xotirani mustahkamlashning quyidagi sakkizta qonunini eslab qolish tavsiya etiladi:

Anglanganlik qonuni. Oddiy, lekin murakkab qonun, ya'ni berilgan materialni qanchalik chuqur anglasak, shunchalik uni xotirada mustahkam muhrlagan bo'lamiz.

Qiziqish qonuni. Anatol Frans «Bilimlarni yaxshi hazm qilish uchun uni ishtaha bilan yutish kerak» deganda, albatta, materialga jonli qiziqish bilan munosabatda bo'lishimiz va uni yaxshi ko'rishimiz kerakligini nazarda tutgan.



Ilgarigi bilimlar qonuni. Ma'lum mavzu yuzasidan bilimlar qanchalik ko'p bo'lsa, yangisini esda saqlab qolish shunchalik oson bo'ladi. Masalan, ilgari o'qigan biror kitobni qaytadan o'qib, uni yangidan o'qiyotganday his qilsangiz, siz ilgari tajribangizni his qilishingiz mumkin. Demak, eski bilimlar tajribaga aylangandagina yangilariga zamin bo'la oladi.

Eslab qolishga tayyorgarlik qonuni. Biror materialni eslab qolishdan avval, bo'lg'usi aqliy ishga qanday hozirlik ko'rgan bo'lsangiz, shunga mos tarzda eslab qolasiz. Agar materialni mutaxassis bo'lishim uchun juda kerak deb, muhimligini anglasangiz, u narsa xotirada muqim saqlanadi.

Assotsiatsiyalar qonuni. Bu qonun haqida eramizdan avval Arastu ham yozgan. Qonunning mohiyati shundaki, bir vaqtda shakllangan tasavvurlar xotirada ham yonma-yon bo'ladi. Masalan, muayyan xona o'sha yerda ro'y bergan hodisani ham eslatadi.

Ketma-ketlik qonuni. Harflarni alifbodagi tartibida yoddan aytish oson, uni teskarisiga aytish qiyin bo'lganidek, xotirada ham ma'lumotlarni ma'lum tartibda joylashtirishga va kerak bo'lganda, tartib bilan birin-ketin tiklash maqsadga muvofiqdir.

Kuchli taassurotlar qonuni. Eslab qolinadigan narsa to'g'risidagi birinchi taassurot qanchalik kuchli bo'lsa, unga aloqador obraz ham shunchalik yorqin bo'ladi va siz uchun ahamiyatli ma'lumotlar oqimida eslanayotgan material ham yaxshi esga tushadi.



Tormozlanish qonuni. Har qanday yangi ma'lumot o'zidan oldingi ma'lumotni tormozlaydi. Oldingi ma'lumotning o'chib ketmasligi uchun, yangini esda saqlashdan avval, uni mustahkamlash choralarini ko'rishingiz kerak.

Ma'lumotni esda saqlash prinsiplari:

- 1) maqsadni to'g'ri tanlash;
- 2) axborotni saqlash uchun (hissiy, obrazli, eshitish, ko'rish orqali) turli bog'liqliklarni o'rnatish.

Ma'lumotni yodlash prinsipi:

- 1) ma'lumot idrok qilinganidan so'ng 20 soniya ichida takrorlash;
- 2) ma'lumotni takrorlash, takrorlashni har ikki soatda amalga oshirish;
- 3) mavjud imkoniyat chegarasidan ortiqcha ishlashga harakat qilish;
- 4) ma'lumotni mantiqiy yaxlitlikda takrorlash.


Kasbga oid muhim ma'lumotni eslab qolish samaradorligini oshirish usullari:

Eslab qolish haqida o'ziga buyruq (ustanovka) berish. Xodim har safar kasbga oid muhim axborotga duch kelganida o'ziga: «Buni eslab qolish kerak!», deb aytishi zarur.

Yodlash. Katta hajmdagi, eslab qolish qiyin bo'lgan ma'lumotni odam «ichida» yoki fikran takrorlashi, uning xotirada aniq saqlanib qolishiga erishishi lozim.

Anglash. Har qanday ma'lumot, agar u anglangan bo'lsa, esda yaxshi saqlanib qoladi. Eslab qolinadigan ma'lumotdagi ma'noli aloqalarni aniqlashga «nima uchun» degan savolini qo'yish yordam beradi;

Qonuniyatlarni izlash. Bu raqamli ma'lumotlarni, masalan, avtomashina va telefon raqamlarini eslab qolishni osonlashtiradi. Ushbu usul eslab qolinadigan ma'lumotda muayyan qonuniyatni – ma'noli, raqamli va boshqa qonuniyatlarni topishga asoslanadi.



Analogiya, o'xshashliklardan foydalanish. Yangi ma'lumotni ma'lum ma'lumot bilan qiyoslash doimo uni eslab qolishni osonlashtiradi. Obyekt nimaga o'xshashini aniqlash kerak.

Obrazli tasavvur. So'zda ifodalangan ma'lumotni tasavvur qilish orqali eslab qolish ancha oson.

Xayolan gapirish. Ma'lumotni eslab qolayotganda fikran, ichki nutqida «gapirsa» xotirada mustahkamroq va aniqroq saqlanib qoladi.

Modellashtirish. Mantiqiy aloqalar yordamida betartib faktlar yagona tizimga birlashtiriladi. Ana shu tizim eslab qolish uchun model bo'lib xizmat qiladi. Taxminni ilgari surish yordamida bo'lgan voqea qayta gavdalandirilsa, modellashtirilsa, kerakli ma'lumotni yaxshi eslab qolishga yordam beradi.

Oqibatlarini tasavvur qilish orqali xotirani faollashtirish. Kerakli ma'lumot xotirada saqlanib qolinmasa, nima bo'lishini tasavvur qilish ham yaxshi samara beradi.

Tartibga keltirish. Ilgari esda olib qolingan ma'lumotni endi esda olib qolish kerak bo'lgan ma'lumot bilan bog'lash ularning xotirada ishonchliroq saqlanib qolishiga imkon beradi.

Unutish orqali eslab qolish. Nimanidir unutishni istasak, biz ana shu narsaga diqqatimizni jamlaymiz va natijada uni esda olib qolamiz. Maxlum bir narsa to'g'rida o'ylamaslikka qanchalik ko'p harakat qilinsa, u shunchalik kuchliroq ta'qib etadi.

Vaziyatni jismonan tiklash. Go'yoki «o'sha joyning o'zida bo'lib qolish» va u yerdagi narsalarni, masalan, kerakli tartibda joylashtirish lozim. Ko'rish tasavvurlariga tayanish zarur narsalarni eslashni osonlashtiradi.

3. Xotirani rivojlantirish qonuniyatlari.

	Nomlanishi	Tavsifi
1.	Assotsiatsiya qonuni (Aristotel)	Notanish narsani eslab qolish uchun uni birorta tanish narsa bilan bog'lash zarur.
2.	Mustahkamlash qonuni (A.R. Luriya)	10 daqiqa insonga biror narsani xotirasida mustahkamlash uchun yetarli hisoblanadi.

	<i>Nomlanishi</i>	<i>Tavsifi</i>
3.	Esdan chiqarish qonuni (G. Ebbingauz)	Har qanday material yodlanganidan so‘ng, 1–2 soat ichida xotirada 40% qoladi. Keyinroq esdan chiqish tezligi kamayadi, 6 sutkada axborotning 20% saqlanib qoladi.
4.	B.V. Zeyngarnik qonuni	Mashg‘ulotni eng qiziq joyida tugallash, yodlanayotgan materialni eng qiziq joyida to‘xtatish qayta yodlash jarayonigacha materialning to‘liq saqlanib qolishini ta‘minlaydi.
5.	Yosh qonuniyati	Xotira 18–25 yoshgacha yaxshilanib boradi, 45 yoshda bir xillik saqlanib qoladi, 45 yoshdan sustlasha boradi.
6.	«Boshidan oxirigacha» qonuni	Yodlanayotgan materialning boshi va oxiridagi axborot, o‘rtasidagiga qaraganda yaxshi saqlanadi.

Tafakkur va uning tutgan o‘rni. Tafakkur atrof-muhitdagi voqealikni nutq yordamida bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, sotsial sababiy bog‘lanishlarni anglashga, yangilik yaratish va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir. Tafakkur kasbiy masalalarni yechishga oid holat va hodisalarning mohiyatini tez anglash, turli tuman axborotlar ichidan zarurini ajratib olish, ular o‘rtasidagi farq va tafovutlarni oson aniqlash, ko‘pchilik ilg‘ay olmaydigan mayda narsalarni ko‘rish bilan ularni turli harakat, shakllarda obrazlashtirish, jonlantirishda namoyon bo‘ladi.



Rahbarning **kasbiy tafakkuri** deganda, o‘z xizmat vazifalarini bajarishlarida muhim ahamiyat kasb etadigan voqea, hodisa va holatlardagi umumiylikni ko‘ra olish, analiz va sintez qilish, taqqoslash, asoslash va taxminiy xulosalar chiqarish jarayoni tushuniladi.

Kasbiy rivojlangan tafakkur rahbarning muhim xislati bo‘lib, qo‘l ostidagi xodimlarning xulq-atvori va xatti-harakatlaridagi muhim jihatlarini bilish, ular o‘rtasidagi qonuniyatli aloqalarni topish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Xayol va uning boshqaruv faoliyatida tutgan o'рни. Xayol – inson ijodiy faoliyatining zarur elementi bo'lib, mehnatning oxirgi va oraliq mahsulotlarida o'z ifodasini topadi, shuningdek, muammoli vaziyat, noaniq holatlarda xulq-atvorning namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, xayol faol faoliyatni yo'naltiruvchi

emas, balki uning o'rnini almashtiruvchi timsollar hosil qilish vositasi sifatida yuzaga keladi.

Xayol tafakkur bilan chambarchas bog'langan. Xayol ham tafakkur singari kelajakni oldindan ko'rish imkonini beradi. Tafakkur singari xayol shaxslarning ehtiyojlariga asoslanadi. Ehtiyojlarni qondirishning real jarayonidan oldin ularni qondirishning soxta, xayoliy jarayoni sodir bo'ladi, ya'ni bu ehtiyojlarning qondirilishi mumkin bo'lgan vaziyatni jonli, yorqin tasavvur qilish mumkin.

Xayol o'zining faolligi bilan tavsiflanadi. Ayrim

hollarda xayol faoliyatning o'rnida, uning sun'iy aralashmasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Mana shunday holatda odam hal qilib bo'lmaydigandek ko'rinadigan masalalar, turmushning og'ir sharoitlari, o'z xatolarining ta'qibi va shu kabilardan qochish uchun real tasavvurlardan uzoq bo'lgan fantastika olamiga vaqtincha kirib ketadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tashkilot ijtimoiy tuzilma sifatida.
2. Tashkilotdagi kommunikatsiya turlari?
3. Tashkilotdagi kommunikatsiya rollari?
4. Xodimlar tipologiyasi?
5. Xodimlarni motivatsiyalashda Mak-Gregor nazariyasining mazmuni.

3-MAVZU: BOSHQARUVDA MUZOKARALAR OLIB BORISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Reja:

1. Muzokara olib borishning psixologik jihatlari va bosqichlari.
2. Samarali muzokarani amalga oshiruvchi asosiy omillar.
3. Terrorchi shaxslar bilan muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari

Tayanch tushunchalar: muzokara, muzokara olib boruvchi, terrorchi shaxsi, garovga olingan shaxslar, Stokgolm sindromi.

1. Muzokara olib borishning psixologik jihatlari va bosqichlari.

Muzokara – bu, biron-bir masala yuzasidan kelishuv jarayonidir. Bu jarayonda, odatda, kamida ikki tomon ishtirok etadi va har qaysi tomon, o‘z manfaatini amalga oshirishni ko‘zlaydi. Manfaatlari turlicha bo‘lishiga qaramay, umumiy faoliyat olib boruvchi tomonlar ma’lum qoidalar doirasida harakat qilib, o‘zaro qoniqtiruvchi va hamma tomonga ma’qul yechim ustida ish olib boradilar. Aynan shu umumiy faoliyatning mavjudligi manfaat va maqsadlarni muvofiqlashtirish imkoniyatini tug‘diradi. Shuning uchun ham, muzokara orqali maqsadga erishishni hohlovchi rahbar bu jarayonga xos tomonlarni, qolaversa, xususiyatlarni bilishi va kezi kelganda ularni boshqara olishi lozim.



Rahbar faoliyatida muzokara. Muzokara olib borish ko‘lami juda keng bo‘lib, bu soha tashkilotdagi ayrim ziddiyatli holatni ijobiy yo‘nalishda hal etishdan boshlab, toki sarmoya jalb etishdagi qulay pozitsiyani qo‘lga kiritishga va hatto ziddiyatdagi tomonlarni yarashtirish yo‘lida vositachilik vazifasini bajarish maqsadida ham qo‘llaniladi. Shu bois, rahbar muzokara olib borishga oid asosiy qonun va qoidalarni bilishi, ulardan amaliy tarzda foydalana olishi lozim. Muzokara bu, nafaqat biron masala yuzasidan fikr almashish, balki muzokara ishtirokchisi bo‘lmish rahbar orqali uning tashkiloti haqida xulosa chiqarish manbai hamdir. Demak, muzokara olib borish mahoratiga ega rahbar hatto o‘rta me‘yona tashkilotni ham boshqa raqobatdosh tashkilotga nisbatan afzallik tomonini namoyon etish qobiliyatiga ham ega. Ushbu jumalarni o‘qigan o‘quvchida muzokara bu, yo‘q narsani bor qilib ko‘rsatish mahorati emasmikan, degan fikr tug‘ilishining mutlaqo tarafdori emasmiz. Rahbar o‘z tashkiloti imkoniyatlari, uning kuchli tomonlarini

yaxshi tasavvur qila olishi va bu xususiyatlarni yanada ijobiy tarzda taqdim eta bilishi lozim. Bu jarayon rahbardan nafaqat o'ziga, balki, tashkilot xodimlariga ishonchni, kelajakka katta umid bilan qarashni va shaxsning muvaffaqiyatga yo'nalishini ifodalaydi.

Muzokaralar turli sharoit va tomonlar ishtirokida o'tadi. Bu esa, muzokaraning oson kechmasligini, bu jarayon davomida turli-tuman kutilmagan omillar ta'siri mavjudligini asoslaydi. Odatda muzokara har qanday murakkab tuzilma singari bir necha asosiy bo'laklardan iborat: muzokara mazmuni, muloqot, munosabatlar, tadbirlar (qoidalar, muhokama tartibi, protokol). Muzokaraning jarayon sifatida murakkabligi shundaki, ushbu sanab o'tilgan har bir qism dolzarb ahamiyat kasb etadi va muzokara natijasining hal etishga o'z ulushini qo'shadi. Masalan, muzokaraga oldindan tayyorlanish, hamma xujjatlarni batafsil o'rganib, mulozamat qoidalarini o'rniga qo'yib ijro etish mumkin, lekin hamsuhbatimiz milliy xususiyatiga oid ba'zi jihatlarga e'tiborsizligimiz butun urinishimizni zoe ketkazishi mumkin. Bu jihatlarni muzokaraning tashqi tomoni, po'stlog'i deb atash mumkin. Lekin bu jarayonning ichki tomoni ham borki, unda muzokaraga tayyorlangan



tomondan qator vazifalarni amalga oshirish talab etiladi. Bu vazifalarga qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- ✚ o'zga tomonda qiziqish uyg'otish;
- ✚ masalaga yuzasidan o'z nuqtai nazarini to'g'ri tushuntirishga erishish va shu bilan birga o'zganing qarashi haqida to'la-to'kis tasavvurga ega bo'lish;
- ✚ o'zga tomonda xayrixohlik harakatlarini uyg'otish;
- ✚ birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish va o'zgada mas'uliyat uyg'otish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish muzokaraning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosdir.

Rahbar vakolatidagi imkoniyatlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, tashkilot rahbari olib boradigan muzokaralar ichki yoki tashqi turlarga bo'linishi mumkin. Ichki muzokaralar – tashkilot ichidagi muammoga yo'nalgan bo'lib, ushbu muzokarani qo'llash zarurati mazkur sharoitda boshqaruvning odatiy uslublari o'z

kuchini yo'qotganligi bilan asoslanadi. Bundan tashqari tashqi muzokara ham mavjud va u o'z navbatida bir necha darajaga bo'linishi mumkin: mamlakat doirasidagi sohada, sohalararo va xalqaro muzokaralar. qayd etilgan pog'onalarga qanchalik yuqori ko'tarilsak, bunda amalga oshuvchi muzokaraning ahamiyati ham shunchalik oshib boraveradi. Xo'sh, qanday holda muzokaraga murojaat etiladi va qay sharoitda muzokarasiz ham ish ko'rish mumkin. Muzokaraga murojaat etish hollari quyidagicha: bir tomonlama harakat natija bermaydi; masalaning yechimi qonun bilan belgilanmagan; masalani sudgacha hal etish samaraliroq bo'lgan taqdirda va shu kabi nostandart vaziyatlarda. Odatda muzokaralarning tashkiliy, huquqiy, axloqiy tomonlari farqlanadi va ular muzokara shakliga ko'ra turlicha mazmunga ega. Masalan, xalqaro munosabatlar sohasidagi muzokaralar aniq qayd etilgan qoida va me'yoriy tomonlariga ega bo'lsa, xo'jaliklararo uchrashuvlar doirasidagi ko'pgina uchrashuvlar tomonlarning qo'l siqishi orqali ham tasdiqlanib ketaveradi. Lekin muzokara qay darajada amalga oshirilmasin uning natijasi kelishuvdan va ushbu kelishuvni u yoki bu shaklda qayd etishdan iboratdir.

Muzokara olib borish bosqichlari. Muzokaraning samarali o'tishi ko'p jihatdan amalga oshirilgan tayyorgarlik jarayonining puxtaligiga bog'liq. Bu xususida tadqiqotchi **R.I. Mokshanov** quyidagi tadbirlarni amalga oshirish dasturini taklif etadi:

1. Muzokara maqsadini aniq ifodalay bilish.
2. Ushbu maqsadga erishishga yordam beruvchi vazifalarni aniqlash (ya'ni maqsadga erishish yo'lida qanday kadamlarni bosib o'tish lozim).
3. Muzokaralarning tashkiliy qismini aniqlashtirish:
 -  o'tkazish muddati;
 -  o'tkazish joyi;
 -  joyni tayyorlash;
 -  juzokara jarayoni uchun xavflarni bartaraf etish;
 -  delegatsiya tarkibi;
 -  muzokaralarni moliyalashtirish manbaalari;
 -  muzokara ishtirokchilariga sarf-harajatlar (kantselyariya anjomlari, video va audio moslamalar mavjudligi, tarnsport, aloqa, oziq-ovqat ta'minoti, tanaffus va kofe-breyklar);
 -  o'zga tomon delegatsiyasini kutib olish va joylashtirish;
 -  madaniy dam olish dasturini ishlab chiqish;
 -  sovg'a-salom va yodgorliklar;
 -  yakuniy ziyofat;
 -  delegatsiyalarni kuzatish.
4. Muzokara asosidagi manfaatning turli darajalarini bilish.
5. O'zga tomonning manfaatlarini iloji boricha batafsil tasavvur etish.

6. Muzokaraning quyidagi jihatlari bo'yicha ma'lumot to'plashga erishish:

✚ muhokama masalasining tarixi, hozirgi holati va ko'rsatkichlari:

✚ muzokarada ishtirok etuvchi delegatsiya vakillari haqida ma'lumot (yoshi, kasbi, shu sohadagi tajribasi, qiziqishlari, xarakter xislatlari, ularning sheriklari kimlari, raqiblari kimlar, ular orasida ikkilanuvchilar bormi va x.k.).

7. Iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, psixologik sohalarda maslahatchilarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.

8. Muzokara jarayonining umumiy strategiyasini aniqlash.

9. Vaziyatga qarab qanday harakatni amalga oshirish taktikasini belgilash.

10. Muhokama etilajak muammoning mavjud yechimlarini aniqlab qo'yish.

11. Agar muzokara uzilsa, qay tarzda maqsadga erishish yo'lini belgilash.

12. Muzokaralar o'tayotgani va natija haqidagi ma'lumotlarni qay tarzda yoritish masalasini o'ylab qo'yish (masalan, ommaviy axborot vositalarida).

Ko'rinib turganidek, muzokaraga tayyorlanish bu jarayonni boshidan oxirigacha puxta rejalashtirish demakdir. Muzokarani tadqiq etish sohasidagi ko'pgina olimlar fikricha, uchrashuv natijasi, maqsadga erishishning asosiy sharti muzokara olib boruvchi shaxsning psixologik jihatlarga kelib taqaladi.

Bu jihatlar qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: muzokara olib boruvchining maqsadni aniq bilishi va unga intilishi, ko'p sohalarda parallel tarzda fikrlashiga qaramay maqsadni ko'zdan yo'qotmaslik, qay vaziyatda va vaqtda qancha ma'lumot berishni bilish, o'z nufuzi va mavqeiga oid hissiyotning ijobiyligi, muzokara vaziyatida diqqatni jamlash va bir nechta yo'nalishga diqqatni jalb etish kabi qator psixologik omillar muzokara olib boruvchi shaxsning o'ta qiyin vaziyatda to'g'ri yo'l topa olishi uchun asosiy shartlardir.

2. Samarali muzokarani amalga oshiruvchi asosiy omillar.

Samarali muzokarani amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri – muzokara guruhidir. Oqilona tashkil etilgan muzokarada kamida uch kishi qatnashishi o'rinli. Muzokaradagi birinchi shaxs rahbar bo'lib, suhbat davomida asosiy faoliyatni o'z qo'lga oladi. Ikkinchi ishtirokchi esa o'zga tomon vakillarining psixologik holatini talqin qiladi, ularning manfaatlarini o'rganadi, ular nimani ta'kidlashyapti-yu, nimada o'z so'zlariga qarshi chiqishayotganini aniqlaydi va x.k.

Umuman olganda, kuzatuvchilik vazifasini o'tayotgan xodimning vazifasi o'zga tomon vakillarining qanchalik samimiyligi darajasini aniqlashdan iborat. Kuzatuvchi bergan ma'lumotlar nafaqat o'zga tomon, balki rahbarning aniq-noaniq harakatlari borasida ham bo'lishi maqsadga muvofiq, ya'ni rahbar kuzatuvchidan o'z xatti-harakati o'rinliligi yoki asosiy maqsadga zid borayotgani haqida ma'lumot olib turadi. Guruh rahbari oradagi tanaffusdan foydalanib kuzatuvchidan ma'lumot oladi va muzokara jarayonini o'zgartirish yoki takomillashtirish uchun asos yaratadi. Guruhning uchinchi a'zosi esa muzokara jarayonidagi ahamiyatli qismlarni yozma

qayd etadi, protokol olib boradi. Ikki yordamchi bergan ma'lumot asosida rahbar eng maqbul qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday muzokara tanishish, kontakt o'rnatishdan boshlanadi. Muzokara jarayonining boshlanishidayoq o'rnatilgan hissiy muhit ko'p jihatdan uning keyingi bosqichlarida o'z aksini topadi va har bir tomon ushbu muhitni



ijobiy lashtirishga alohida e'tibor berishi lozim. Axir, muzokaraning buzilishi ko'rsatkichlaridan biri ayni shu muhitning sovuqlashuvi bilan ifodalanadi.

Muzokara qiyin o'tayotgan vaziyatdagi asosiy shartlardan biri – keyingi uchrashuv uchun ham «oq yo'l» qoldirishdir. hatto o'ylangan natijaga erishilmagan taqdirda ham, bizdan keyingi delegatsiya muzokara olib borishi uchun imkoniyat qoldirishimiz zarur. Muzokarlarni ta'minlovchi muhit haqida o'ylar ekanmiz, o'zga tomon vakillariga xos bo'lgan xususiyatlar haqida iloji boricha to'la ma'lumotga ega bo'lish lozim.

Ma'lumki, turli millat yoki jins, yoki yosh vakillari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu xususiyatlarni muzokara oldidan bir bor qayd etish suhbatni ko'zlangan maromda olib borish imkonini beradi. hozirga kelib, xalqaro munosabatlar mavzusiga tegishli adabiyotlarda turli xalqlarga xos bo'lgan milliy psixologik xususiyatlar haqida ko'plab ma'lumotlar yozilgan. Bunday manbaalar bilan tanishish, yoki o'zga guruhga oid yosh, jins, kasb mavzusidagi psixologik bilimlarni qayd etish muzokara boshlanishi chog'idayok ijobiy muhitni yaratishga katta ko'mak bo'ladi.

Uchrashuv natijalari ko'pincha suhbat olib borish uslubiga va muzokaralar qurishning metodologik asosiga bog'liq. Psixologik nuqtai nazardan, anchagina malakali tartibda o'tadigan muzokara turi «maqsadga yo'nalgan muzokara» deb, ataladi. Bunday muzokaraning asosiy mohiyati – obyektiv me'yorlarga asoslangan qaror topish maqsadida suhbat uchun maqbul sotsial-psixologik sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Bunda, obyektiv me'yorlar sifatida yo'riqnomalar, huquqiy qonunlar va imzolangan shartnomalar ishtirok etadi. Muzokara olib borishning bu turi ish mohiyatiga qat'iy yondoshish va uchrashuv ishtirokchilariga nisbatan esa iltifotli munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Maqsadga yo'nalgan muzokaralar qo'yilgan

maqsadlarga erishish va shu bilan birga insoniy munosabatlarni saqlab qolish imkonini beradi.

Maqsadga yo‘nalgan muzokaradagi asosiy tamoyillardan biri – tomonlarning muammoga qarashi, masalaga bo‘lgan munosabati yuzasidan baxs olib borilmaydi, balki tomonlar-ning muammoda ifodalangan man-faatini aniqlash va uni qondirish yo‘l-yo‘rig‘ini izlash-dan iboratdir. Muzokara jara-yonida asosiy diqqat-e’tibor nizodagi tomonlar pozitsiyasiga emas, balki bahs predmetiga qaratiladi. Bahs predmeti, uni hal etish asosiy va yagona masaladir. Muzokara uch natijaga erishilganda muvaffaqiyatli deb hisoblanishi mumkin:

- 1) oqilona kelishuv;
- 2) vaqtni tejash;
- 3) tomonlar o‘rtasidagi munosabatning yaxshilanishi (hech bo‘lmaganda yomonlashmasligi).

O‘zga tomonning qarashini, ularning fikrlash uslubi va masalaga munosabati ustida bahs olib borish o‘zganing e’tiqodi va nafsoniyatiga putur yetkazish bilan barobardir, bunday vaziyatda esa muzokaraning uzilishi muqarrardir. Demak, muzokara qarashlar o‘rtasidagi kelishmovchilikni emas, balki turli manfaatlar o‘rtasidagi kelishmovchilikni hal etishdan iboratdir. Muzokara olib borar ekanmiz, muammoni muhokama etishda qat’iy turishimiz va ishtirokchilar bilan munosabatlarda esa yumshoq bo‘lishimiz kerak.

Muzokara tashkil etilishida uchrashuv kimning hududida o‘tishiga katta e’tibor beriladi. Mehmonni kutib oluvchi tomon qator shartlarni amalga oshirish bilan birga, o‘z xududida ma’lum imtiyoz va qulayliklarga ham ega bo‘ladi. Shuning uchun ham, xuddi sport musobakasi kabi o‘z hududida o‘tayotgan uchrashuvdan rahbar maqsadga erishish yo‘lida iloji boricha ko‘proq foydalanib qolishi lozim. o‘zga tomon hududida muzokara olib borishning ham o‘z xususiyatlari bor. Bu esa



avvalambor,
mexmonlik
mavqeidan
foydalanish va hatto
natijasi qoniqarsiz
bo‘layotganda
muzokarani yanada
uzoqroq muddatga
cho‘zish
imkoniyatidir.

Yuqorida

aytilganidek, muzokaralar davomida nafaqat masala hal etiladi, balki bo'lajak munosabatlarni takomillashtirish uchun poydevor ham quriladi. Shu munosabat bilan muzokara jarayonidagi ikki asosiy jihatni ajratib olgan ma'qul:

1. Muhokama predmeti.

2. Insoniy munosabatlar tahlili. Bu ikki jihat o'zaro munosabatda ikki tamoyilga rioya qilishni nazarda tutadi. Birinchidan, muhokamaga qo'yilgan masalada yutkazib qo'ymaslik lozim, ikkinchidan o'rtadagi insoniy munosabatlar buzilib qolmay, balki yaxshilansin.

Muzokara davomida insoniy munosabatni rivojlantirish hisobiga muhokama predmeti yuzasidan yutuqni qo'lga kiritish mumkin. Masalan, jangari filmlarda ko'plab namoyish etiluvchi lavhalardan biri – yaxshi va yomon politsiyachilar xulqidir. Yomon politsiyachi shubha ostidagi kimsaga avvaldanoq qo'pol munosabatda bo'ladi va o'rtadagi munosabatni nizo darajasiga olib keladi, ikkinchi politsiyachi esa shubhali odamga o'ta ijobiy va olijanob munosabatda bo'ladi. Natijada yaxshi politsiyachi jinoyat yuzasidan yashirilgan ma'lumotni «xamirdan qil sug'urganday» tortib oladi. Ikki qarama-qarshi hissiy munosabatga asoslangan taktika tergov jarayoni negizini oshkora etishga yordam beradi.

Muzokara o'tishidagi asosiy bosqichlardan biri – yechim talab etayotgan masalani muhokama qilish jarayoni bo'lib, bunda ushbu masala yuzasidan tomonlarning fikrini aniqlashga e'tibor qaratiladi. Bu bosqichda tomonlarning masala yuzasidan fikri aniq tasavvur etilishi lozim. Muzokara ishtirokchisidan bu bosqichda talab qilinuvchi malaka - o'z fikrini aniq, ravon bayon etishdir. O'z navbatida, boshqa tomonning mulohazasini butkul tushunish uchun aniqlashtiruvchi savollar berish o'rirlidir.

Muammoni hal etishga oid yechimlardagi farq va ziddiyatlarni hisobga olgan holda, odatda kompromistik yoki ikkala tomonning manfaatini qondiruvchi qarorga kelinadi. Bordiyu muammo yechimini ishlab chiqish bosqichi haddan tashqari ko'p vaqt talab qilsa, muzokara jarayonida qisqa tanaffus e'lon qilish o'rirlidir.

Muammo yechimi ikkala tomonni qoniqtirishi juda qiyin. Shu maqsadda muzokara davomida bir necha yechimlar ustida bosh qotirish maqsadga muvofiq. Har safar u yoki bu yechim ustida to'xtalar ekanmiz, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab olishimiz va to'xtamga kelishimizga salbiy ta'sir etuvchi kuchlarni bartaraf etish imkoniyatini izlab topishimizni ham taqozo qiladi. Mana shu kuchlar ichida psixologik mazmunga egalari ustida biroz to'xtalib o'tishni lozim topamiz.

Muzokara yakuniga salbiy ta'sir etuvchi psixologik omillar. Qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazuvchi psixologik omil sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

Yuzaga kelishi kutilayotgan noma'lum sharoitdan qo'rqish. Kelajakda nima bo'lishini bilmaslik va bunday noma'lumlikni qanday qilib hal etish

muammosi to'g'ri yechimni kechikib qabul qilishga olib keladi. Ayni sharoitda eng maqbul vositalardan biri kutilayotgan muzokarga ijobiy munosabatda bo'lishdir. Notanish vaziyatda ishonch bilan harakat qilishning asosiy usuli - ijobiy tarzda fikr yuritishdir.

O'zga tomonning tasodifan qarshilik ko'rsatishi. Bir qaraganda tekis o'tayotgan muzokara ishtirokchisi uchrashuv oxirlagan paytda yana qarshilik



ko'rsatishi har qanday odamni g'azabga, ham sarosimaga soladi. Bunday vaziyatda davomli pauza saqlash orqali munosabatga bir oz masofa kiritish maslahat beriladi. Chuqur nafas olib, xotirjam holatda sabru toqatda ba'zi iboralarini takrorlash orqali («Men

xotirjamman»), «O'zimni o'z qo'limda ushlab turibman»), «Vaziyatni to'la-to'kis boshqarayapman») nafaqat o'zimizni, balki xavotirda turgan o'zga tomonning kayfiyatida ham o'zgarish paydo qilolamiz va suhbatni davom ettirish poydevorini qayta tiklaymiz. Vaziyat bir oz osoyishtalanib, ruhiy ishonch qaytgandan so'ng o'zga tomonga uni nima bezovta qilayotgani, nega kayfiyati birdaniga o'zgargani haqida savol bilan murojaat etish mumkin. Aynan shu uslub orqali mavjud zo'riqish sababini aniqlash va uni bartaraf qilish imkoniyati tug'iladi.

Kutilmagan fikr va takliflar. Odatda tomonlar muzokaraga tayyorlanar ekan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hamma yechim variantlarini ko'rib chiqadilar. Bu jarayonda o'zga tomon ayni yechimga qanday munosabatda bo'lishi haqida bosh qotiriladi. Lekin, bu taxminlar doim ham muzokara ishtirokchisini qoniqtirmasligi aniq va aksincha, ba'zan muzokara mantig'iga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan fikr va taklif bilan chiqish hollari ham uchrab qoladi. Bunday vaziyatda muzokara ishtirokchisidan o'zga tomonni to'laroq tushunishga, yangi yechim tafsilotini aniqlashga intilish kuzatilgani ma'qul.

Bizning tafakkurimiz odatda, noan'anaviy va tasodifiy yechimlarga darhol o'z tug'yonini namoyish qiladi. Psixikaning bunday xususiyatini bilish, kezi kelganda uchragan qiyinchilikni tezda engib o'tish va faollikni yanada oshirish imkonini beradi. Demak, kutilmagan taklifni iloji boricha puxta o'rganish va uni asoslovchi dalillarni talab etish lozim. Bunday vaziyatdan qutulish imkonini beradigan yana bir usul qat'iyyatdir. Bu uslub, o'zga tomonning ba'zi kamchiligi tufayli uzilib qolishi

kutilayotgan muzokarani oxiriga yetkazishga va hatto muvaffaqiyatli yakunlashga asos bo'ladi.

Kutilmagan hamkorlik. Ba'zan o'zga tomon biz kutganimizdan ertaroq shartimizni qabul qilishi, hamda biz bilan hamkorlik qilishga tayyorligini namoyon etishi mumkin. Ayni paytda ortiqcha shubha va ishonchsizlik qaror qabul qilishimiz yo'lidagi to'siqqa aylanadi. Mazkur vaziyatga shubha bilan qarash qulay



imkoniyatni boy berishga olib kelishi mumkin. Ammo, kutilmagan rozilik ortida yashirin niyatning borligi ehtimoli ham yo'q emas. Bunday vaziyatda yuzaga kelgan shubhani va o'zga tomonning samimiylik darajasini aniqlash lozim. Samimiyatni

aniqlash muzokara jarayonidagi ancha murakkab holat hisoblanadi. Mavjud imkoniyatlardan biri o'zga tomon harakatidagi noverbal signallarni tahlil etish orqali yashirin, yuzaga chiqolmayotgan ma'lumotlarni olishdir.

Qaror qabul qilish ko'pincha vaqt tanqisligi vaziyatida o'tadi va muzokara ishtirokchilarida ma'lum zo'riqishni uyg'otadi. Hatto, muzokara ishtirokchilari o'zga tomonni noqulay vaziyatga qo'yish va imkoniyatni o'zlari tomonga burish maqsadida turli nayranglarga ham boradilar. Shulardan biri o'zga tomon uchun vaqt tanqisligi sharoitini yuzaga keltirish uslubidir. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bunday noxush vaziyatga nisbatan rahbar ma'lum darajada qarshi tura olish malakasiga ega bo'lishi lozim. quyida shunday malaka haqida aytib o'tiladi va bu kezi kelganda nafaqat vaqtni yutish, hatto navbatdagi maqsadni bajarish uchun ham yordam beradi. Masalan, vaqt tanqisligi sharoitida vaqtdan yutishdagi uslublardan biri – suhbatdosh taklif etayotgan yechim yoki qarorni batafsil takrorlashdir. Odatda bu usul psixologiyada «verbalizatsiya» deb, ataladi va bu orqali nafaqat o'zga tomon qarashini aniqlash, balki, takrorlashga sarflanayotgan vaqt orqali «pauza» kabi qo'shimcha muddatga ega bo'linadi. Bunday sharoitda qo'lga kiritilgan har qanday pauza o'ylash uchun yana bir muddatdir. Shu kabi usullar qatoriga vaqtdan yutish maqsadida qisqa muddatli tanaffus e'lon qilish, oynani ochib qo'yish bahonasida bir oz vaqtni cho'zish, bir piyola choy bilan chalg'ish va hokazo uslublarni sanab o'tish mumkin.



Muzokara olib borish sharoitida to'siq paydo bo'lishining yana bir manbai - o'zga tomonga xos shaxsiy muammo-lardir. Buning natijasida o'rtada zo'riqish, tushun-movchilik va hatto, o'zaro shubha, ishonchsizlik paydo bo'ladi. Suhbat chog'idagi bunday to'siqlarni olib tashlash malakasi juda zarur xislatdir. Shu maqsadda quyida bir necha uslubni taklif etamizki, ularni qo'llash nafaqat

munosabatlarni oydinlashtiradi, balki muzokara olib boruvchi shaxsning niyatini samimiylashtirish imkonini ham beradi. Masalan, orada biron zo'riqish vaziyati paydo bo'lsa, hazil-mutoyibaga murojaat etish, muzokara ishtirokchilarini yoqimli biron-bir tadbirga taklif qilish, suhbatni boshqa yo'nalishga burish kabi uslublardan foydalanish kerak.

Ko'p hollarda o'zga tomon muzokara davomida asossiz ravishda o'z salbiy munosabatini namoyon qiladi, yoki suhbat ishtirokchilariga ishonchsizlik bilan qaraydi. Bunday kishi kelayotgan ma'lumot ichidan faqatgina o'z shubhasini tasdiqlovchi dalillarni izlaydi, masala muhokamasiga ko'pincha bir tomonlama qaraydi. Shuni unutmaslik kerakki, o'zga tomonning bunday munosabatini tanqid ostiga olmaslik zarur va imkon bo'lgan paytda oradagi ishonchsizlik bulutini tarqatishga harakat qilish lozim. Buning uchun, avvalambor mazkur insonning ichki holatini iloji boricha to'la aks ettirishga, uni tushunishga intilish zarur. Bu yerda «Xo'sh, men uning o'rnida bo'lsam, nima qilgan bo'lardim, unga xos xarakter xislatlari va imkoniyatlari menda bo'lganda vaziyatni qanday idrok yetardim?», degan savolni o'z-o'ziga berishi kerak. Umuman, suhbat chog'idagi har qanday salbiy holat maqbul yechim topish imkoniyatini kamaytiradi va muzokarani boshi berk ko'chaga kiritadi. Shuning uchun, iloji boricha salbiy holatlarni kamaytirish va ularni hatto bartaraf etish ustida doimiy ish olib borish lozim. Bu yo'nalishdagi oddiy tadbirlardan biri – iloji boricha o'zganing salbiy holatiga nisbatan shu tarzda javob berishga intilmaslikdir. Suhbatdoshingiz qanchalik zo'riqishiga qaramay iloji boricha o'zingizni xotirjam tuting. Undagi salbiy holat takrorlanaversa, eng maqbul yo'llardan biri – bu holat natijasida paydo bo'layotgan o'z hissiyotingiz haqida ochiq-oydin gapirishdir¹. Bunday uslub vaziyatni oydinlashtirish orqali,

suhbatdoshning ishonchsiz va salbiy munosabati suhbatga qanday to'sqinlik qilayotgani haqida unga aniq ma'lumot beradi.

Haqqoniy yechim topish yo'lida. Masalani hal etish davrida asosiy e'tibor tomonlar manfaatini qondiruvchi yechimga qaratiladi. To'g'ri tushunilgan ehtiyojlar yechimni topishni yengillashtiradi. Yechim izlashda odatda ikki tomon ham o'z fikrini aytadi va taklif etilayotgan mulohaza qanchalik ularning manfaatiga mos kelishi tahlil etiladi. Biron yechimga kelish oson emas, har bir tomonning yechimi o'zi uchun to'g'ri va tushunarli.

Ayni sharoitda yechimning to'g'ri va maqbulligini aniqlash maqsadida obyektivlik mezonlaridan foydalaniladi. Bunday mezonlar sifatida samimiylik, haqqoniylik, qonuniylik va amaliyot tamoyillari taklif etilishi mumkin. Ushbu mezonlarni tomonlar qabul qilar ekan, ularning amaliy jihati ham bir xil tarzda qo'llanishi kerak. Agar yechim ikkala tomon uchun bir xil ishlay olsa, demak, u hayotiy va obyektivdir. Mabodo muzokarada bir tomonning manfaati ustun qo'yilsa, uchrashuv chog'ida g'urur va «past ketmaslik» kabi g'ayritabiiy hislar namoyon bo'lsa, tamoyillar ishlamaydi. Agar bir tomon o'z yechimida qattiq tursa-yu, o'zga tomonni eshitishni hohlamasa, demak muzokara muddatidan avval tugashi tabiiy.

Taklif etilayotgan va ishlab chiqilayotgan yechimlarga e'tiborli bo'lish hamda va bu yechimlar o'zganing manfaatiga qiyoslab borilishi lozim. «Agar bu yechim Sizning manfaatlaringizni qoniqtirsa, nega uni qabul qilmayapsiz? Chunki, bu yechim Sizniki bo'lmagani uchunmi?». Bu savollar suhbat uzilishi arafasida uchraydigan ko'p hollardan biridir. Agar yechim ancha vaqtgacha bahs mavzusiga aylanayotgan bo'lsa, tomonlardan - «Umuman muzokarani davom ettirish kerakmi yoki yo'qmi?» - deb so'rash lozim. Vaholanki, muzokaradagi qiyinchiliklarni muhokama etib borilishi mavjud to'siqlarni tezda bartaraf etish imkonini beradi. Shundan so'ng, har qanday qabul qilinayotgan qarorning obyektivligi bir necha bor tekshirib o'tilishi darkor. Agar bu tekshiruv davomida sanab o'tilgan tamoyillardan chetlanish sezilsa, muzokara davom ettirilishi va maqbul yechim ustida yana ish olib borilishi lozim. Mabodo, o'zga tomon masalani yechishdan bosh tortayotgan bo'lsa, haqqoniy bo'lmagan qaror qabul qilinishi qanday oqibatga olib kelishi haqida birgalikda o'ylab ko'rish kerak. Vaziyat taqozosi bilan obyektiv mezonga mos keluvchi qaror topilsa, uning ustida to'xtalgan ma'qul, har qalay hech qanday echimdan ko'ra biron-bir qaror ustida to'xtash muammoni yechish imkonini beradi va zarurat tug'ilgan paytda muzokara stoliga yana qaytish mumkin.

Muzokara davomida yolg'on ishlatish. Muzokara davomida yolg'on ma'lumot berish obyektiv mezonga zid keluvchi, lekin shunga qaramay, ko'p uchrab turadigan holdir. Muzokaradagi u yoki bu tomonning yolg'on ishlatish sabablarini tahlil etmagan holda, yolg'onga berilmaslik va unga qarshi turish imkoniyatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Yolg'ondan samarali foydalanish ko'pgina sotuv shartnomalariga oid muzokarlarda, qisqa muddatli shartnomani imzolashda ko'p uchraydi. Avvalambor, shuni aytish lozimki, aldovning samarasi ikkala tomoning ishtirokini taqozo etadi, aldovchi jarayonga qanchalik tayyorlangan bo'lsa, o'zga tomon ham har qanday aldovga qarshi tura olish malakasiga ega bo'lishi lozim. Umuman olganda, odam ikki holda ko'proq aldanadi – birinchidan, ushbu muammoni tezroq hal qilish maqsadida shoshilganda, aniqrog'i uning ijobiy natijasini juda xohlaganda, kkinchidan esa, masala haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmagan paytda. Shuning uchun, muzokara olib boruvchidan doimo vaziyatni aniq tasavvur etish va o'z orzusi qurboni bo'lib qolmaslik hamda bo'lajak muzokara mavzusi haqida ko'proq ma'lumot yig'ish lozim.

Bundan tashqari, ma'lum psixologik qonunlar mavjudki, ularning inson ruhiyatida amal qilishi yolg'onga berilish ehtimolini kuchaytiradi. Jumladan, quyidagilarni kiritish mumkin:

✚ Obro'-e'tiborga ega shaxs bilan muloqotda unga shubhasiz ishona boshlaymiz.

✚ O'zga shaxs bizga qanchalik yoqimli bo'lsa, uning ma'lumotini shunchalik ishonch bilan qabul qilamiz va aksincha, biz yoqtirmagan kimsaning ma'lumotini shubha ostiga olamiz va ishonqiramay qaraymiz.

✚ Odamning bilim saviyasi va aqliy salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, u hayotga shunchalik ishonch bilan qaraydi, u mushohadaga moyil, vaziyatlarni mustaqil ravishda tahlil qila oladi va yolg'on ta'siriga kamroq beriladi.

Suhbatdoshimiz ko'zini qo'li bilan berkitishi ham shu kabi holat haqida ma'lumot berishi mumkin. Yolg'on gapirish sohasida ba'zi «pixini yorgan» kimsalar bunday paytda burniga qo'lini tekizish bilan cheklanadi va bu bilan yolg'ondan o't olgan hayajonini yashirmoqchi bo'lishadi.

Ko'pchilik yolg'on gapirayotgan odamlar sherigining ko'ziga qarashga uyalishadi. Shuning uchun ko'z harakatlariga ham e'tiborli bo'lish kerak. Kuzatishlardan aniqlanishicha, odam yolg'on gapirayotganda, ya'ni mavjud bo'lmagan narsani xayolida tasavvur etayotgan paytda ko'z ham o'ziga xos ravishda harakatlar sodir qilarkan. Xususan, mavjud narsani xotirleyotganda ikkala ko'z gavhari yuqoriga va o'ng tomonga yo'naladi, yangi narsani (yolg'onni) yaratishda esa aksincha, yuqoriga va chap tomonga harakatlanadi. Aytganday, chapaqay kimsalarda bu jarayon teskari o'tadi. Bundan tashqari yolg'on gapirayotgan kimsaning ko'zi yon atrofga tez-tez harakatlanadi.

Aniqlanishicha, tananing ma'lum holati ham yolg'onni ifodalashi mumkin. Odam haqiqatni gapirayotganda bosh o'ng tomonga sal engashadi va tana xotirjam bo'ladi, yolg'on gapirayotganda bosh to'g'ri holatni egallaydi va tana zo'riqish holatiga keladi.

Quyida keltirilgan belgilar suhbatdoshimiz yolg'on gapirayotganligini aniqlash uchun axborot manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin:


- ✚ Ko'p gapirish, aniq matnning kuzatilmasligi.
- ✚ Javob berishdan avval uzoq sukut saqlanishi.
- ✚ Cho'zib va past tovushda gapirish.
- ✚ Ichki zo'riqish.
- ✚ Nomunosib qo'l xatti-harakatlari.
- ✚ Tabiiy bo'lmagan yuz ifodasi.
- ✚ Yuzning notabiiy qizarishi yoki oqarishi.
- ✚ Ko'z qorachig'ining nihoyatda kengayishi.
- ✚ Ko'zni suhbatdoshdan olib qochish.
- ✚ Tez-tez kiprik qoqish.
- ✚ Ishonchsizlikni ifodalovchi qo'l harakatlari (dahanni, burunni, qoshni qashish).
- ✚ Chakkani qashish.
- ✚ Miyig'ida kulish, sun'iy yuz ifodalari.

Shuni unutmaslik lozimki, har bir insonda ushbu ko'rsatkichlarning namoyon bo'lishi o'ziga xos tarzda o'tadi. Odamni bilmay turib, u yoki bu belgiga qarab talqin berish mumkin emas. Ko'rsatilgan



belgilarga asoslanishdan avval o'zga kimsa bilan qisman bo'lsa ham oddiy muloqot sharoitida bo'lish lozim. Eslab qoling anan shu vaziyat, keyinchalik taqqoslash namunasi bo'lib xizmat qiladi. Ogohlantirish shundan iboratki, yuqoridagi har bir ko'rsatkich o'zga kimsaning hayajonlanishi ifodasi bo'lishi ham mumkin. Suhbat chog'ida aldanib qolmay degan kimsa quyidagi qoidaga amal qilgani ma'qul: «Bir manbadan olingan ma'lumot – hali ma'lumot emas. Ikki manbadan olingan ma'lumot – fikrlash uchun turtki. Va faqatgina uch manbadan olingan ma'lumot ushbu axborotning haqqoniyligini u yoki bu darajada tasdiqlashi mumkin».

3. Terrorchi shaxslar bilan muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari. Shuni ta'kidlash lozimki, terrorizm xavfini bartaraf etish mumkin, ushbu



muammoni hal etib bo'lmaydi, deb hisoblash noto'g'ri. Terrorizm ustidan g'alaba qozonish jamiyatning barcha qatlamlari va guruhlarining harakatlarini birlashtirish orqali amalga oshiriladi. Terrorchi shaxslarning asosiy motivlaridan biri fuqarolarni garovga olish ekan, ularni qutqarishda terrorchi shaxslar bilan muzokara olib borishga to'g'ri keladi.

Garovga olinganlarni qutqarish uchun muzokara olib

borishda quyidagi psixologik omillar hisobga olish kerak:

- 1) garovga olgan jinoyatchining shaxsi;
- 2) garovga olishning odatiy motivlari;
- 3) garovga oluvchilarning o'zini tutishini oldindan ko'rish;
- 4) muzokaralar o'tkazish jarayoni;
- 5) muzokara olib boruvchi va psixolog maslahatchini ta'minlash;
- 6) muzokara olib boruvchi, rahbar va qutqaruv guruhi o'rtasidagi o'zaro

harakat.

Muzokara olib boruvchining muhim kasbiy sifatlari:

- 1) hissiy barqarorlik va chidamlilik;
- 2) eshitish qobiliyati va muloqotga kirishimlilik;
- 3) o'zgalarni asoslarga tayangan holda ishontirish va mantiqiy hukm chiqarishni bilish;
- 4) suhbatdoshining ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar oson psixologik aloqa o'rnatish;
- 5) sog'lom tafakkur va nozik didga egaligi;
- 6) noaniq holatlarda harakat qila olishi va mas'uliyatni o'z zimmasiga olib bilishi;
- 7) muzokaraga jiddiy yondashishi;
- 8) agar muzokaralar ijobiy natija bermasa va garovdagilarning hayoti xavf ostida bo'lsa, kuch ishlatib bo'lsa-da ozod etishga yordam bera olishi.

Nima uchun odamlar garovga olinadi? Odamlarni garovga olishning motivlari turlicha bo'lib, ularning hammasi ham ayon bo'lavermaydi. Siyosiy terrorizm

xususan jamoatchilikka hokimiyat aholini himoya qilishga qodir emasligini singdirish haqida gap boradi. Shu bilan birga, odamlarni garovga olish ommaviy axborot vositalarining e'tiborini jalb qiladi. Terrorchilar shunday nizolar sonining ortishi oxir-oqibat aholining qo'zg'alishi va hukumatni ag'darib tashlashiga olib keladi, deb umid qiladilar.



Lekin garovga olishning birlamchi motivi qanday bo'lishidan qat'i nazar, ularni keyinchalik ushlab turish motivi o'zgarishi mumkin. Masalan, bankni talash paytida fosh qilingan jinoyatchi avvaliga katta miqdorda pul talab qilishi, keyinchalik esa o'zining jismoniy xavfsizligi yoki sudning muruvvati kafolatlanishi bilan qoniqishi mumkin. Terrorchilar

dastlab zudlik bilan siyosiy o'zgarishlar yoki boshqa shartlarni talab qilish, lekin oxir-oqibatda ushbu shartlar yuzasidan muzokaralarga rozilik berishi mumkin. Odamlarni garovga olishning dastlabki motivi qanday bo'lishidan qat'i nazar, ko'pincha ma'lum vaqt o'tganidan keyin garovga oluvchi o'z da'volarini kamaytirishga rozi bo'ladi.

Garovdagilarning o'zi muzokaralarda muhim rol o'ynaydi. Garchi ularning har biri o'zini turlicha tutsa-da, ba'zan xatti-harakatlardagi «**Stokgolm sindromi**» degan nom bilan ma'lum bo'lgan umumiy qirralar aniqlanadi. Bu sindromning o'ziga xos belgilar to'plami quyidagicha:

- ✚ asirlar o'zlarini qo'lga oluvchilarga qiyoslay boshlaydilar;
- ✚ qurbon ko'pincha qutqaruvchilar ko'rayotgan choralar unga zarar yetkazishi ehtimoli borligini tushunadi;
- ✚ asirda uzoq vaqt bo'lish qurbonning jinoyatchini odam sifatida bilib olishiga olib keladi;
- ✚ asir hissiy tomondan vaziyatdan uzoqlashadi, bu narsa u bilan sodir bo'lmazligi kerak, buning hammasi tush, deb o'ylaydi.

Asirdagilar o'zlarini garovga olganlarga qiyoslay boshlaydilar. Hech bo'lmaganda, bu avvaliga himoya mexanizmi bo'lib, u agar harakatlar birgalikda bo'lsa va ijobiy qabul qilinsa, jinoyatchi qurbonga zarar yetkazmaydi, degan yanglish g'oyaga asoslanadi. Asir amalda chin dildan garovga oluvchining homiyligiga erishishga harakat qiladi.

Qurbon ko'pincha qutqaruvchilar ko'rayotgan choralar unga zarar yetkazishi ehtimoli borligini tushunadi. Qutqarishga urinish vaziyatni tubdan o'zgartirishi, barqaror vaziyat o'ta xavfliga aylanishi mumkin. Agar garovdagi odam qutqaruvchilar o'qiga uchramasa, garovga oluvchining o'qiga duchor bo'lishi mumkin.

Asirda uzoq vaqt bo'lish qurbonning jinoyatchini odam sifatida bilib olishiga olib keladi. Uning muammolari va intilishlari ma'lum bo'ladi. Bu, ayniqsa, asir o'zini garovga oluvchining nuqtai nazarini, hokimiyatdan noroziligi sabablarini bilgan siyosiy va mafkuraviy vaziyatlarda juda yaxshi ish beradi. Shunda qurbon jinoyatchining yo'li yagona to'g'ri yo'l deb o'ylashi mumkin.

Asir hissiy tomondan vaziyatdan uzoqlashadi, bu narsa u bilan sodir bo'lmasligi kerak, buning hammasi tush, deb o'ylaydi. U foydasiz, lekin vaqtни oluvchi «og'ir ishda» qatnasha turib vaziyatni esdan chiqarishga urinishi mumkin. O'zini garovga oluvchi bilan bir xil deb o'ylashi natijasida qutqaruvchilar va ularning intiluvchanligini haqiqatan ham bo'lib o'tayotgan voqeada qoralashi mumkin.

Muzokara olib borish nuqtai nazaridan bu sindrom bir vaqtning o'zida ham ijobiy, ham salbiy tomonlarga ega. Ijobiy tomoni shundan iboratki, «Stokgolm» sindromi qanchalik kuchli bo'lsa, garovga oluvchi garovdagilarni o'ldirishi ehtimoli shunchalik kam bo'ladi. Boshqa tomondan garovga olinganlardan kelayotgan xabar ishonchli bo'lmasligi mumkin.

Odamlar garovga olinganda ularning hayotini saqlab qolish, garovga oluvchilarni ushlash va mulkni qaytarish yoki muhofaza qilish asosiy vazifa hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari muzokara predmeti bo'lishi mumkin. Faqat so'rashayotgan narsanigina berish kerak. Agar buterbrod so'rashsa, faqat buterbrod berish, unga ichimlikni yoki boshqa narsani qo'shish kerak emas.

Ichimliklar ham muzokara predmeti bo'lishi mumkin. Qoida tariqasida, bu alkogolli ichimliklarga tegishli emas. Bordiyu, ishonchli manba orqali alkogol garovga oluvchini bo'shashtirishi va yumshatishi ma'lum bo'lsa, uni berishga tavakkal qilib ko'rish mumkin. Agar aksincha, alkogol uni asabiy va janggari qilib qo'yishi ma'lum bo'lsa, hech qanday holatda unga ichimlik berish kerak emas.

Garovdagilarni ozod qilish hamisha muzokara predmetidir. Garovga oluvchilarga ozodlik berish ham shunday predmet bo'lishi mumkin. Ularni ozod qilishga faqat garovdagilar qo'yib yuborilgandan keyingina va'da bergan ma'qul.

Sotib olish eng ko‘p tarqalgan talablardan biridir. Bu tajriba ko‘pincha garovga oluvchi shaxs o‘rab olinganda qo‘llaniladi. Garovdagilarni boshqa shaxslarga almashish ko‘p sabablarga ko‘ra qoniqarsiz taktikadir. Garovdagi odamni huquqni muhofaza qilish idoralari xodimiga almashtirish keskinlikni kuchaytiradi, chunki u garovga oluvchi chun katta xavf tug‘diradi. Bundan tashqari, garovga oluvchi uchun oddiy fuqarodan ko‘ra huquq-tartibot xodimini o‘ldirish ko‘proq obro‘ keltiradi.



Garovdagilarni garovga oluvchining oila a‘zolariga ham almashtirmaslik kerak. U «o‘z-o‘zini o‘ldirish uchun odam to‘plash» maqsadida qarindoshlari va do‘stlarini talab qilayotgan bo‘lishi mumkin.

Almashuvni amalga oshirish ancha qiyin jarayon, chunki siz garovga oluvchiga yana bir kishini garovga berib, evaziga hech nima olmaslik tavakkali xavfi ostida qolasiz. Bundan tashqari, har bir almashilgan garovga olinuvchi bilan siz «Stokgolm sindromi» bilan bog‘liq bo‘lgan ustunlikni yo‘qotasiz.

Qanday qilib bo‘lsa ham muzokaralarni cho‘zish kerak. Vaqt garovdagilar sog‘-salomat va ziyon yetmay ozod qilinishiga xizmat qiladi. Buning quyidagi sabablari bor:

- 1) oziq-ovqat, ichimlik suvi, uyqu va shu kabilarga bo‘lgan ehtiyoj ortib boradi;
- 2) xatar kamayib boradi;
- 3) odamlarning ko‘pchiligi hissiyotlarini jilovlay boshlaydi;
- 4) «Stokgolm sindromi» shakllana boshlaydi;
- 5) garovdagilarda qochib ketishga ko‘proq imkoniyat paydo bo‘ladi;
- 6) olingan ma‘lumotlar ishni yaxshiroq bilib qaror qabul qilishga imkon beradi;
- 7) muzokara olib boruvchi va garovga oluvchi o‘rtasida yaxshi munosabat va ishonchlar muhit o‘rnatilishi mumkin;
- 8) garovga oluvchining talablari kamayishi mumkin;
- 9) nizo o‘z-o‘zidan barham topishi mumkin. Ba‘zan garovga oluvchilar evaziga hech nima talab qilmay, o‘z asirlarini shunchaki qo‘yib yuborganlar.

Garchi vaqt shubhasiz muzokaralarga qulaylik tug'dirsa-da, salbiy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin. Muzokara olib boruvchi va qutqaruvchilar charchoq ta'siriga tushib qolishlari natijasida xatolar qilishlari, nizoni tugatish istagida huquq-tartibot kuchlari voqealarni tezlashtirishni xohlab qolishlari, masalan, ular tegishli ehtiyot choralarini ko'rmay, garovga oluvchilarga yaqinlashishi yoki o'zlari yashiringan joyda hushyorlikni yo'qotishlari mumkin.



Muloqot o'rnatish uchun vaqtni aniq belgilab olish, garovga oluvchiga tinchlanishi uchun vaqt berish lozim. Vaqtdan oldin qilingan aloqa stress holatini keltirib chiqarishi hamda uni o'ylab ko'rilmagan va tajovuzkor talablarga undashi mumkin. Agar unda tinchlanish va vaziyatni real baholash uchun vaqt bo'lsa, uning talablari mulohazaliroq bo'ladi.

Aloqaga kirishishda megafon va boshqa ovoz kuchaytirgichlar o'zaro ishonch muhiti hamda yaxshi munosabat o'rnatishda samara bermasligi mumkin. Yuzma-yuz muloqot garovga oluvchining ruhiy holati haqida yaxshiroq mulohaza yuritishga imkon beradi. Muzokara olib boruvchini ko'rish imkoni ham munosabatlarni yaxshilashi mumkin. Yuzma-yuz muloqotning asosiy kamchiligi muzokara olib boruvchi duch keladigan xavfning kattaligidir. Faqat boshqa aloqa vositalari orqali aloqa o'rnatilgandan keyingina yuzma-yuz muzokara olib borishga kirishish, ya'ni muzokara himoya to'siqlari mavjud bo'lganda olib borilishi kerak.

Yuzma-yuz muzokara olib borish jarayonida quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak:

1. Avvalo insonlarni garovga olgan odam Sizga hech qanday zarar yetkazmasligi to'g'risida so'z bersin.
2. Sizga nisbatan qurol o'qalgan holatda gaplashmang va undan qurolni tushirib muloqotga kirishishni so'rang.
3. Yuzma-yuz gaplashish uchun biroz vaqt talab qilinadi, jinoyatchi shaxs bilan tegishli munosabatlar o'rnatilib, o'zaro ishonch va muhit paydo bo'lganidan keyin muzokaraga kirishing.
4. Hech qachon bir nechta jinoyatchi bilan yuzma-yuz va aynan bir vaqtda suhbat olib bormang.
5. Muzokara davomida, vaziyat taqozo etsa, qochish imkoniyati va sharoit hisobga oling.

6. Muzokara vaqtida garovga olgan odamga hech qachon orqa o'girmang.

7. Odamlarni garovga olgan shaxsning ko'ziga doimo tik qarang.

8. Odamlarni garovga olgan shaxsning oldiga borish yoki yaqinlashishdan avval uning tashqi ko'rinishi va qiyofasini tezda ko'zdan kechiring.

9. «Xavfsizlik doirasini» baholang, jinoyatchining shu doiraga kirishi natijasida yuzaga keladigan xavfni va himoyani chamalang.

Telefon orqali muloqot olib borish muloqot olib borayotgan shaxs uchun maksimal darajada xavfsizlikni ta'minlaydi va muloqot olib borilishini soddalashtiradi.

Odamlarni garovga olgan jinoyatchi shaxslar bilan aloqa o'rnatish. Odamlarni garovga olgan jinoyatchi shaxsning yoshi, jinsi, atrofdagilar to'g'risida imkoni boricha ko'proq ma'lumot olishga harakat qilish kerak. Jinoyatchi savol berganda «ha» yoki «yo'q» degan javob bilan cheklanmasdan, to'liq javob qaytarishga harakat qilish lozim. Aloqa o'rnatish jarayonida odamlarni garovga olgan jinoyatchi shaxsга shunday savollar berilishi kerakki, u savolga javob berish uchun ko'proq vaqt sarflasin.

Muzokara jarayonda jinoyatchi bilan jinoyatchilar olami tilida gaplashish yaxshi samara berishi mumkin. U bilan muloyimlik va bosiqlik bilan, qo'pollik ishlatmasdan, «Injil» yoki «Qur'ondan» suralar o'qisa, shirk keltirmasdan gaplashish lozim.

Odamlarni garovga olgan jinoyatchi shaxs bilan aloqa o'rnatish jarayonida eng muhim jihatlardan biri jinoyatchining ruhiy holatini baholash hisoblanadi. Jinoyatchining ruhiy holati (kuchli stress holatida, qo'rquvda, hayajonlanyapti, devonasifat va hokazo)ni bilish muzokara olib borishda yordam beradi. Shuningdek, uning fikrlash doirasi, bilimi, dunyoqarashlarini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

Odamlarni garovga olgan jinoyatchi shaxs bilan muzokara jarayonida oshkora aloqa o'rnatishga harakat qilish kerak. Muloqot olib boruvchi o'zini tanishtirishi, ismini aytishi va jinoyatchi o'zini qanday atagan bo'lsa, uni shunday chaqirishi kerak. Unga «muloqotlarni olib boruvchi shaxs» sifatida o'zini muntazam tanishtirishdan, shuningdek, jiddiy salbiy javob berishdan voz kechish lozim. Bu harakatlar munosabatlarni chigallashtiradi. U bilan murosaga kelishga harakat qilish tavsiya etiladi. Masalan: «Siz va men bir qarorga birgalikda kelib, muammoning yechimini topishimiz mumkin», «Men boshlig'imga Sizning maktubingizni yetkazaman va talablaringizni to'la qabul qilishi uchun harakat qilaman, ammo o'ylaymanki, bu masalani hal qilish jarayoni qiyin kechadi» va hokazo.

Jinoyatchi shaxsning muntazam ravishda qarorlar qabul qilish bilan band bo'lishiga erishish kerak. Nima qilish, muammoni qanday va qachon hal qilishni

o‘zi o‘ylasin. Agar u ovqatlanishni xohlasa, nimani yemoqchi yoki ichmoqchi ekanligini bilib, yetkazib berishga harakat qilish lozim. Bu muloqotning samarali yakunlanishiga yordam beradi.

Jinoyatchi shaxs bilan muloqotni muntazam ravishda olib borish, agar u biror narsani talab qilsa, evaziga undan ham biror narsani talab qilish kerak. Shunday holatlar ham bo‘lganki, sigareta evaziga garovdagi shaxslar almashtirilgan.

Sodir etilgan harakatlar, otishma natijasida xodimlar orasidan kimdir halok bo‘lgan yoki atrofdagilardan kimdir o‘lgan bo‘lsa, bu to‘g‘risida jinoyatchiga bildirmagan ma’qul. Aks holda jinoyatchi shaxs boshi berk ko‘chaga kirib qoladi va bu holat uni favqulodda harakatlarni amalga oshirishga undaydi.

Muloqot jarayonida jinoyatchi shaxsning biron-bir narsaga erishish umidining so‘nmasligiga muloqotning davom ettirilishiga sabab bo‘ladi. Muloqotni shunday olib borish lozimki, bunda barcha shaxslar, ya’ni garovga olinganlar, jinoyatchi hamda muzokara olib boruvchida ijobiy natijaga erishish tuyg‘usi ustunlik qilsin. Raqibni aldash bilan bog‘liq har xil urinishlar, masalan ovqat va ichimliklariga giyohvandlik moddalarini qo‘shib berish katta tavakkalchilikni yuzaga keltiradi. Amaliyotda kimyoviy moddalar yoki giyohvandlik moddalari mavjudligini oson yo‘l bilan aniqlash mumkin. Agar jinoyatchi uni aldashga harakat qilinganini bilib qolsa, muloqot jarayoniga putur yetadi. Shuning uchun shubha ostiga tushadigan hech qanday harakatlarni sodir qilmaslik lozim.

Garovdagi shaxslarni ozod qilish bilan bog‘liq muzokaralarni olib borish murakkab jarayon bo‘lib, oqilonalik va yaxshi tayyorgarlik natijasida olib borilgan muloqotning ijobiy natija bilan tugashi shubhasiz.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Terrorchi shaxslar bilan muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari?
2. Garovga olingan shaxslarni ozod etishda muzokaralar olib borishda psixologik bilimlarning ahamiyati?
3. Stokgolm sindromining alomatlari va uning garovga olinganlar va terrorchilar taqdiriga ta’siri?
4. Jinoyatchilar bilan muzokaralar olib borish bo‘yicha psixologik tavsiyalar.
5. Muzokara olib boruvchining kasbiy – muhim sifatlari.

4-MAVZU: ETNOPSIXOLOGIYA FANNING PREDMETI, VAZIFALARI VA AHAMIYATI

Reja:

1. Etnopsixologiya fanning predmeti, vazifalari va ahamiyati.
2. Etnopsixologik xususiyatlarning namoyon qiluvchi omillar.

Tayanch tushunchalar: etnopsixologiya, “etnos” terminining mohiyati, kishilar birligi, milliy psixologik qiyofa, millat, xalq, elat, milliy munosabatlar.

1. Etnopsixologik xususiyatlarning namoyon qiluvchi omillar.

«**Etnopsixologiya**» termini – uch soʻzdan tashkil topgan (yunoncha): «*ethnos*», soʻzi «xalq, elat», mazmunida keladi, «*psyche*» – «qalb, ruh» va «*logos*», «soʻz», «taʼlimot» mazmunida.

Demak, «etnopsixologiya» xalq (etnos) ruhi toʻgʻrisidagi fandir (taʼlimot).

Etnik guruhlar (etnoslar) etnopsixologiya fani **obyektidir**.

Etnos va uning vakillarini psixik chizgilari, etnoslararo oʻzaro taʼsir va nizolar esa etnopsixologiya fani **predmetidir**.



Zamonaviy

etnopsixologiya fani oldida turgan **muammolar**:

✚ etnosning psixik tuzilishini oʻrganish (xususan-millatning), qanday psixologik qonunlarga boʻyinsunishi, rivojlanishi, tuzilishi va funktsiyalarini aniqlash;

✚ etnik (milliy) xarakter muammosi;

✚ etnik guruhlarining psixik tuzilishi va xarakteri oʻrtasidagi tafovutlarni aniqlash;

✚ etnik xarakter tipologiyasini ochib berish. Etnopsixologiya fani oldida turgan **vazifalar**:

✚ xalq madaniyatini oʻrganish, uning psixologik mohiyatini ochib berish.

✚ din va etnos psixologiyasi oʻrtasidagi mushtaraklikni oʻrganish.

Etnik psixologiya – «etnik psixikani» o‘rganuvchi fan. Etnik psixika o‘z ichiga etnik guruhning taraqqiyoti davomida o‘zlashtirilgan xususiyatlar, jarayonlar va chizgilarni oladi.

Etnos iborasi XIX asr oxirlaridan ilmiy tushuncha sifatida fanga kiritildi. Biroq etnos tushunchasining mazmuni xususida hozirga qadar olimlar o‘rtasida yakdillik mavjud emas:

1. Etnos bir tilda so‘zlashuvchi, o‘ziga xos turmush tarzi, urf-odat, marosimlar va an‘analari tizimiga ega bo‘lgan, o‘zining kelib chiqishi birligini tan oluvchi o‘ziga xos kishilar guruhi (**S.M. Shirokogorov**).

2. Etnos til, davlatga tegishlilik, iqtisodiy aloqalar, madaniy turmush, din birligi singari bir qator ijtimoiy aloqalar natijasiga asoslanadigan kishilar jamoasi (**S.A. Tokarev**).

3. Etniklik bu real ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar sharoitida o‘zaro tushunarli tilda so‘zlashadigan muayyan hududda yashaydigan kishilar orasida o‘zaro shakllanib boradigan va o‘zining ma’lum madaniy xususiyatlarini, mustaqil ijtimoiy guruh ekanligini butun hayoti davomida anglab boradigan har qanday jamoadir (**N.N. Cheboksarov**).

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, **etnos** – bu kishilar ijtimoiy guruhlarining tarixiy vujudga kelgan shakllari, jamoa bo‘lib yashashning alohida shaklidir. Bunday jamoa tabiiy – tarixiy yo‘l bilan paydo bo‘ladi va taraqqiy etadi, ular jamoa guruhiga kiradigan kishilarning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmasdan, o‘zini o‘zi qayta tiklay olish qobiliyati hisobiga yuz yillar mobaynida yashashga qodirdir.




Hozirgi kunda o‘zining **metodologik yondashuvi** va **tadqiqot usullari** bilan farqli etnos bilan bog‘liq turli qarashlar va maktablar shakllangan.

Bular qatoriga:

1. L.N. Gumilevning passionariylik nazariyasi.

2. Yu.V. Bromleyning dual konseptsiyasi.
 3. N.N. Cheboksarov va S.A. Arutyunovning etnos bilan bog'liq informatsion konseptsiyasi.
 4. G.E. Markova va V.V. Pimenovaning tizimli-statistik nazariyasi.
- Demak, hozirgi kunga qadar etnos tushunchasi va ta'rifı bo'yicha fanda yagona fikr mavjud emasligini e'tirof etishimiz lozim.



Etnik guruh – bu umumiy madaniy an'analar, o'hshash va takrorlanadigan urf-odatlar va udumlar, milliy qadriyatlar asnosida birlashgan insonlar guruhidir. Dastlab ushbu atama biologik jihatdan bir-birlariga bog'liq bo'lgan insonlarga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, borabora uning mazmun va mohiyati kengayib borgan. Birgalikda va deyarli bir xil hayot va turmush tarziga ega bo'lgan insonlar guruhining qadriyatlar va an'analar mushtarakligi nuqtai nazaridan birlashishi etnik guruhni tashkil qilgan. Shunday qilib, etnik guruhlar tarixiy rivojlanish jarayonida quyidagi belgilar va mezonlar asosida shakllangan:

- ✚ tarixi va an'analari;
- ✚ tili;
- ✚ geografik joylashuvi;
- ✚ irqining ijtimoiy kelib chiqishi;
- ✚ diniy e'tiqodi va b.q.

Odatda bu atama katta ijtimoiy guruh tarkibida kichikroq guruhga nisbatan ishlatiladi (masalan, o'zbeklar orasida qoraqalpoqlarning etnik guruhi). Lekin ayrim olimlar etnik guruh deganda aynan mamlakatdagi eng katta etnik guruhni (bizning misolimizda - o'zbeklar) nazarda tutadilar. Odatda etnik guruhlar amatamasi irqqa nisbatan ishlatilmaydi.

Hozirgi globallashuv jarayonlari keskin tus olgan, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmoqlari orqali shaxsning keng axborot oqimiga 22 qo'shilishi imkoniyati kengaygan bir sharoitda uning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, chiniqtirish, axborotlarga nisbatan tanlovchan munosabatni tarbiyalash o'ta muhim va murakkab masalaki, uni samarali yechish ham turli millat va elat vakillari, omma va alohida olingan shaxs psixologiyasini bilishni, jamiyat va shaxs o'zaro munosabatlaridagi nozik jihatlarni o'rganishni talab qiladi.

Ayni davrga kelib hamdo'stlik mamlakatlari xududida har bir sobiq respublikalar alohida, mustaqil davlat maqomini olgan, lekin boshqa tomondan qaraganda, hamdo'stlik mamlakatlari ittifoqi sharoitida millatlar o'rtasida muttasil aloqalar mavjudligidan kelib chiqib, milliy psixologiya masalalari kun tartibida avvalgidan ham muhim masala sifatida qo'yilmoqda. Shuning uchun ham katta guruhlar ichida etnik, milliy guruhlariga ko'proq e'tibor berishni lozim topdik, bunday e'tiborning yana bir boisi – O'zbekistonda bu sohada nisbatan tadqiqotlarning ko'proq o'tkazilganligi, lekin ular ko'p hollarda milliy psixologiya darajasiga olib chiqilmaganligidandir. Chunki oxirgi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan kshpgina ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda u yoki bu masala yoki muammoning etnopsixologik xususiyatlarini aniqlash urf bo'ldi. Bunday tarzda qo'yilayotgan masala to'g'ri va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega, lekin muammoni o'rganish uchun avvalo etnopsixologiyaning fan sifatida o'ziga xosligi bilish zarur, deb hisoblaymiz.

2. Etnopsixologik xususiyatlarning namoyon qiluvchi omillar.

Etnopsixologik xususiyatlar o'zining kelib chiqishi jihatidan xalqling butun o'tmishi, hayot tarzi va tarixi bilan bog'lanib ketgan bo'lib, bu xususiyatlar millat shakllanmasdan avvalroq vujudga kela boshlagan bo'ladi. Ma'lumki, millat etnik birlik millat taraqqiyotining eng yuqori bosqichida vujudga keladi. Etnopsixologik xususiyatlarning ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga, ya'ni xalq, qabila, elatlarga ham xosdir. Etnopsixologik xususiyaglar ayrim tadqiqotchilar ko'rsatganidek faqat bir omil - tabiiy muhit ta'siri bilangina vujudga kelib kolmay, uning vujudga kelishida yana uchta muhim omillar ta'sir ko'rsatadi. **Birinchi omil** bu - siyosiy-iqtisodiy va jamiyat hayotida bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar tizimi bo'lsa, **ikkinchisiga**, shu etnik birlik yashab to'rgan tabiiy-geografik muhitning xususiyatlari kiradi. **Uchinchi** omilga esa xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy xodisa va voqealar kiradi.

Lekin shuni ta'kidlash mumkinki, etnopsixologik xususiyatlar tizimida odamlar ruhiyatining mazmunini, avvalo birinchi omil – mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-mafkuraviy o'zgarishlar belgilab beradi. Tabiiy-geografik omil esa asosan etnopsixologik qiyofaning tashqi ifodalarini belgilaydi. Shuning uchun ham bu omil kuzatayotgan inson nazariga birinchi omilga qaraganda yaqqol namoyon bo'ladi.

Xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealar so'zsiz uning psixologik qiyofasida o'chmas iz qoldiradi.

Tabiatdagi ayni bir voqeliklarning doimiy ta'siri natijasida kishilar bu voqelikdagi xususiyatlarni boshqa sharoitda yashayotgan etnik guruh vakillariga qaraganda chuqurroq idrok qilishga o'rganib qoladilar. Chunki tashqi muhit bizning sezgi a'zolarimizga behisob axborotlar, ya'ni xilma-xil taassurotlar yuborib turadi. Natijada evolyutsion taraqqiyot davomida, tanamizda shu tashqi muhit bilan



adekvat, ya'ni, unga mutanosib munosabatni ta'min ettiruvchi neyro-fiziologik mexanizm shakllanadi. U kishilarning sezgi va idroklarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun u yoki bu xalqqa xos stereotip hatti-harakatlarni, idrok xususiyatlarini tashqi muhitga moslashuvining oliy ko'rinishi, deb hisoblash kerak.

Tashqi muhitning doimiy ta'sirida vujudga kelgan ruhiy xususiyatlar bu taassurotlarning butun sistemasi (tizimi) ni emas, balki uning uchun muhim bo'lgan va o'tmish tajribasida sinalgan, mustahkamlanib qolgan tomonlarnigina aks ettiradi. Olimlarning e'tirof etishicha, tashqi olam tasiri inson miyasida o'rnatilib qolgan his-kechinmalar, fikrlar, xohish, irodani namoyon bo'lishi, xullas, ideal orzu-tilak tarzida aks etadi va xuddi shu ko'rinishda, ideal kuchlar bo'lib qoladi.

S.I. Korolevning yozishicha, "Millat ruhiyatida shakllangan etnopsixologik xususiyatlar ma'lum darajada ayni shu millat vakillarini muhofaza qiluvchi mexanizm rolini ham o'ynaydi. U xuddi g'alvirdek yot narsalarni ajratib, uni yo qabul qiladi yoki shu xalqda mavjud bo'lgan normalar asosida qayta ishlab beradi, yoxud uni inkor etadi". Atrofdagi voqelikni, xodisalarni o'ziga xos ravishda idrok qilish, tasavvur va fikr qilish va ularni ta'b va tuyg'ular, urf-odat va an'analar, xarakter tarzida namoyon bo'lishi etnopsixologiyani qaytarilmas, betakror

"Yaponiyaga birinchi marta kelib qolgan evropalikni, - deb yozadi **I.S. Kon**, - yaponiyalikning faqat xursand bo'lgandagina emas, hatto o'nta tanbeh berganda ham, yoki sizga biror qayg'uli narsa, masalan, o'lim to'g'risida gapirayotganda ham kulimsirab gapirishi, taajjubga, hatto hijolatga tushirib qo'yadi. Tajribasiz odam buni beorlik, surbetlik yoki rahmsizlik deb hisoblaydi. Aslida kulimsirash bu elda boshqacha ramziy mazmunga ega - bu bilan u og'ir vaziyatni yengillashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishlikka tayyor ekanligini ta'kidlash va shu kabi mazmunni bildiradi".



Ma'lum bir millat vakillarining narsa va xodisalarini o'ziga xos idrok etishi, fikrlashi va orzu-istaklarini, ya'ni oliy ruhiy xususiyatlarini tushunish va tushuntirish, uning namoyon bo'lish sabablarini organizmning, miyaning tuzilishidan emas, balki yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalqning tarixiy taraqqiyoti, uni o'rab

to'rgan tabiiy muhitning shart-sharoitlaridan qidirish kerak.

Turli ijtimoiy tizim va iqtisodiy yutuqlar taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan amaliy faoliyat shakllari turli ruhiy jarayonlar tizimining shakllanishini belgilab beradi. Shuning uchun ham turli tarixiy davrlarda, turlicha ijtimoiy tuzumda yashayotgan xalqlar bir-biridan faqat ongning mazmuni bilangina farqlanib kolmasdan, balki faoliyat shaklining tuzilishi, mazmuni jihatidan ham farqlanadilar.

Ko'p sonli ijtimoiy psixologik eksperimentlari bilan mashhur bo'lgan taniqli rus neyropsixologi **A.R. Luriya** ko'p ruhiy jarayonlar, ayniqsa, oliy ruhiy faoliyat jarayonlari - tasavvur va mavhumlash, ijodiy xayol insonlarning biologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lmay, balki ancha taraqqiy etgan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli ekanligini ko'rsatib berdi. U o'z izlanishlarida amaliy ko'rgazmalilik usuli bo'lgan hattiharakatlar bir muncha sodda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum sharoitlarida tafakkur ham sodda amaliy faoliyatni aks ettirish xarakteriga ega ekanligini ko'rsatib berdi.

O'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, faqat murakkab bilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlarga emas, balki nisbatan oliy jarayonlar va funktsiyalar ham hayotiy tajribalar va ijtimoiy-tarixiy jarayonlar asosida vujudga kelar edi. Miya o'z-o'zidan, tashqaridan kelayotgan axborotlarsiz fikrlay olmaydi. Rus psixologi **P.P. Blonskiy** ta'kidlagidek, "Bo'm-bo'sh boshda fikr bo'lmaydi". Ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy

shart-sharoitlar bosh miya faoliyatini belgilaydi. U esa o'z navbatida ruhiy jarayonlar va ongning mazmun va mohiyatini belgilaydi. Turli davrlarda, zamonlarda yaratilgan mehnat mahsulotlarida o'sha davr va zamon odamlarining bilimlari va imkoniyatlari o'z aksini topgan bo'ladi. Zero, mehnat jarayonida subyekt obyektga ko'chadi, insonning kuch va qobiliyatlari u yaratayotgan narsalarda gavdalanadi. Shuning uchun ham psixologlar turli tarixiy davrlarda yashagan kishilarning ruhiy xususiyatlarini, davr ruhini, ular yaratib qoldirgan faoliyat mahsulotlarini o'rganish orqali bilib olishi mumkin.

Har bir xalqning tarixi va takdiri o'ziga xos kechadi. Aynan xalq tarixini va uning psixologik xususiyatlarini bir-biriga solishtirsak biz etnopsixologik xususiyatlar xalq tarixini chuqur aks ettirishini ko'ramiz. Yuqorida zikr qilganimizdek, etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiiy muhit ham ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Geografik va iqtisodiy sharoitlarniig o'xshash o'xshamasligi, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki qo'shni va qardosh xalqlar - o'zbeklar bilan qozoklarning psixologik qiyofasida ma'lum tafovutlarni vujudga keltirib chiqardi. Ma'lumki, o'zbeklarning asosiy qismi dexqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullaish imkoniyati mavjud bo'lgan vohalarda joylashganlar. Yerga xususiy mulkning vujudga kelishi, erdan intensiv ravishda foydalanish, dexqonchilik mahsulotlarini ko'plab etishtirishga olib keldi. Bundan tashqari o'zbeklar yashaydigan yirik shaharlarning g'arbdan sharqqa, janubdan shimolga o'tuvchi katta karvon yo'llarida joylashgan bo'lishligi, bu yerlarda faqat dexqonchilikni emas, shuningdek pul-tovar munosabatlarini, turli xil xunarmandchilikni, qo'shni xalqlar bilan savdo-sotik ishlarini rivojlanishiga olib keldi. XV-XVI asrdayoq Buxoro, Samarkand, Toshkent, Xiva, Qo'qon, Xo'jand kabi yirik shaharlar Xindiston, Xitoy, Eron, Rossiya, Arabiston kabi mamlakatlar bilan keng savdo-sotiq ishlarini olib borishar edi. Bularning hammasi o'zbek xalqining hayot tarzida va psixologiyasida o'z aksini topgan edi. Qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq va boshqa iqtisodiy-madaniy aloqalarni qizg'in olib borilishligi, ulardan xushmuomalalik, xushtabiatlik, mehmonnavozlik, hozirjavoblik, tadbirkorlik kabi xususiyatlarni talab etadi.

O'zbek xalqining hayoti va turmush tarzini o'rgangan tadqiqotchilarning barchasi o'zbeklarga xos bo'lgan ochiqyuzlik va xushmuomalalikni ta'kidlab ko'rsatishgan edi. O'zbeklarga xos bu xususiyatni qozoq adabiyotining klassigi Abay ham ta'kidlab ko'rsatib, "...iltifotlilik, xushmuomalalik - bularning hammasi sartlardadir", deb yozgan edi.

O'zbeklarning bir necha asrlar dexqonchilik bilan shug'ullanib kelishi, ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo'lgan erga nisbatan ularda tejamkorlik va omilkorlikni vujudga keltirgan.

N. Jondildin qozoq xalqiga xos bo'lgan ayrim vazminlik kam suqumlikni xo'jalik yurgizish xususiyatlari bilan bog'liq deb ko'rsatadi. Ular butun umr bo'yi chorvachilik bilan shug'ullanib bu ularning xo'jalik hayotining deyarli butun qismini tashkil qilib qoldi. Aholini tarqoq holda joylashishi, ular o'rtasida aloqa o'rnatishni qiyinlashtirar, ular xatto uzoq-vaqt davomida ham yashashlikka majbur bo'lardi. Bu esa ularda yuqorida aytilganidek, o'zaro muomalada kamgaplik, hatto o'zining eng nozik va qaynoq tuyg'ularini bayon etishda vazminlikni ko'rsatishni vujudga keltirdi.

Shunday qilib, ikki qardosh va qo'shni xalqlar - o'zbeklar va qozoqlar o'zlarining uzoq iqtisodiy va madaniy aloqalariga, etnik jihatdan yaqinligiga, tilining o'xshashligiga qaramay, yuqoridagi sabablar tufayli muayyan ma'noda psixologiuk xususiyatlari bilan farq qiluvchi ikki millat bo'lib shakllandi.

Tabiiy-geografik omillarning obyektiv ta'sirlarini xolislik bilan o'rganish, xech qanday irqchilik va millatchilik nazariyalarni keltirib chiqarmaydi. Shu narsa ma'lumki, serunum yer, mo'tadil iqlim va boshqa qulay tabiiy sharoitlar, ko'p jihatdan ishlab chiqarishning rivojiga, aholi sonining o'sib borishiga ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, masalan, shimoldan va tropik mamlakatlardagi elatlar va xalqlar tarixiy taraqqiyotda nisbatan mo'tadil iqlim sharoitlarga ega bo'lgan xalqlardan orqada qolib ketishgan.

Agar shimolning qattiq sovuq tabiati dehkunchilik qilishga va sanoatni rivojlanishiga monelik qilgan bo'lsa, tropik iqlimdagi zaminning sermahsulligi kishilarni dangasa va tarallabedodchi qilib, bir enograf so'zi bilan aytganda, kishini xuddi bolalarga o'xshash ojiz, nomustaql qilib, uning taraqqiy etishini tabiiy zarurat qilib qo'ymaydi. Shu narsani payqash qiyin emaski, deb yozadi etnograf **Yu.V. Bromley**, - ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va boshqa shart-sharoitlarni ta'siri iatijasida mehnatsevarlik kabi xususiyat hamma xalqlarda ham bir xil namoyon bo'lavermaydi. Tabiiy muhitning o'ziga xosligiga ko'ra, kishilar yashashi uchun zarur bo'lgan narsalarga erishishda uchraydigan qiyinchiliklarni turlicha engib o'tadilar. Psixolog **I.S. Konning** yozishicha, Yangi Gvineyaning ichkarisida va nisbatan evropa ta'siri kam yetib borgan joylarda yashaydigan papuaslar qulay iqlim sharoitlariga va tabiatning mo'l-ko'l ne'matiga ega bo'lganligi uchun ham ba'zi qiyin sharoitda yashaydigan kishilarga o'xshab, ertaning tashvishi bilan yashashga o'rganmaganlar. Shuning uchun ham ular faqat kundalik extiyojlarini qondirish uchungina mehnat qilishadi. Ko'plab narsa ishlab chiqishiga va g'amlab qo'yishga harakat ham qilishmaydi. Ularning nazdida kim kuyib pishib ko'p ishlasa, ochko'z va yomon odam hisoblanadi. Shunga ko'ra ularning iqtisodiy, madaniy rivojlanishi ham ishlariga yarasha darajada. Qaerda ishlab chiqarish yuqori saviyada tashkil qilinmagan bo'lsa, mehnatkashlik bo'lmasa, u yerda ijtimoiy, tarixiy rivojlanish ham bo'lmaydi. Rivojlangan qaysi bir mamlakatni olib ko'rmang, shu yerda mehnatga

munosabat, mehnatkashlik juda yuqori darajada ekanligini ko'ramiz. Tabiiy-geografik muhitni ta'siri qanchalik sezilarlik bo'lmasin, biroq etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida uning etakchi omil qilib qo'yish to'g'ri emas. Shuning bilan birga, uning rolini mutloq inkor etish, yoxud ortiqcha oshirib yuborish ham noto'g'ri xulosalar qilishga olib keladi. **S.L. Rubinshteyn** ta'kidlab ko'rsatganidek, "Psixologik xususiyatlarning shakllanishini birgina tabiiy sharoitlar, yoki ijtimoiy muhit bilangina asoslab tushuntirish mumkin emas. Bularning birortasini mutloqlashtirish masalasini barbod bo'lishga mahkum etadi".

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Etnopsixologiya fanning predmeti, vazifalari va ahamiyati?
2. "Etnos" terminining mohiyati?
3. Etnopsixologiyaning predmeti va obyekti?
4. Milliy psixologik qiyofada millatni ifodalovchi, birlashtiruvchi belgi sifatida.
5. Etnopsixologiyani o'rganishning dolzarbligi?
6. Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishdagi murakkabliklar mazmuni?
7. XX asr 60-70 yillarda Milliy va milliy munosabatlar bo'yicha markaziy jurnallarda boshlangan ilmiy-nazariy bahs-munozaralar.

5-MAVZU: ETNOPSIXOLOGIYA PREDMETI VA OBYEKTINI ANIQLASHDA UCHRAYDIGAN MURAKKABLIKLAR

Reja:

1. Etnopsixologiya rivojlanishida ilmiy tadqiqotlarning o'rne.
2. Millat va etnos tushunchalari va farqi
3. Millatga xos xususiyatlar, ularning o'ziga xosligi va etnik guruhlarini birlashtirib turuvchi umumiy xususiyatlar.

Tayanch tushunchalar: etnopsixologiya, murakkablik, etnopsixologiya predmeti va obyekti, etnopsixologiyaning gumanitar fanlar tizimidagi o'rne, ijtimoiy qatlamlar, millatga xos xususiyatlar, etnik guruhlar.

1. Etnopsixologiya rivojlanishida ilmiy tadqiqotlarning o'rne.
Etnopsixologiya muammolarni o'rganishda 20-30-yillari bir muncha yondoshish bo'lsa ham, lekin bu masalani o'rganishdagi subyektivizm va ayrim fan olimlarining irqchilik va millatchilik nazariyalari bu fanni keng jamoatchilik oldida obro'sizlantirib, fanning rivojiga soya solib qo'ygan edi. Shuning uchun ham 20-

asrlarning o'rtalariga kelib "*Etnopsixologiya*", "*Milliy psixologiya*", "*Milliy xarakter*", "*Milliy psixologik qiyofa*" terminlari faqat ma'rifiy ma'noda ishlatiladigan bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu masalani o'rganishga yaqin davrlargacha yaxshi diqqat-etibor berilmasdan kelindi.

Etnopsixologik tadqiqotlarning ikkinchi bosqichi, asosan, o'tgan asrning 60-yillardan boshlandi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda bo'lgan katta o'zgarishlar, milliy ongning o'sishi, millatlararo integratsiyaning kuchayishi natijasida etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish bir muncha kuchaydi. Buning natijasi o'laroq, maishiy hayotdagi millatga oid psixologik xususiyatlarni o'rganayotgan olimlarning bir qator ilmiy asoslangan, fan uchun muayyan ahamiyat kasb etgan, qiziqarli va muammoli ilmiy maqolalari, kitoblari nashr etildi. Bir qator e'tiborli ilmiy jurnallarda millat va uning psixologik xususiyatlari to'g'risida olimlarning bahs-munozaralari tashkil etildi. Ayniqsa, 1966-1970 yillar ichida Rossiyada chop etilgan "*Voproso' istorii*" jurnalida millat va uning belgilari to'g'risida olimlarning mubohasasi uyushtirildiki, bu mubohasada fanning turli jabhalarida ish olib borayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar faol ishtirok etishdi. Mubohasada bahs asosan millatning psixologik qiyofasi to'g'risida bordi. Bo'lib o'tgan baxs munozaralar olimlarning etnik psixologiya va milliy psixologik qiyofa masalalariga qiziqib karayotganliklari ma'lum bo'ldi. Shuning bilan birga mubohasa milliy voqelikdagi xodisalar, milliy psixologik qiyofani tushunishda olimlar o'rtasida turli qarashlar va yondoshishlar borligini, hatto terminalogik chalkashliklar, noaniqliklar mavjudligini ko'rsatdi.

Bo'lib o'tgan mubohasa qatnashuvchilarini shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh qatnashchilari etnopsixologik xususiyatlarni ijtimoiy psixologiya haqidagi real voqeligi va millatning belgisi sifatida tan olishdi. **Bu guruh olimlarga** A.G. Agaev, S.M. Arutyunyan, V.M. Vohidov, A.I. Goryacheva, M.S. Junusov, A. Sobirov va boshqalarni kiritish mumkin. **Ikkinchi guruh vakillari** esa, etnopsixologik xususiyatlarni ijtimoiy voqelik sifatida mavjudligini inkor etadi - bular T.Yu. Burmistrova, S.T. Kaltaxchyan, V.I. Kozlov, P.M. Rogachey, M.A. Sverdlin va boshqalar.

Etnopsixologik xususiyatlar va uning asosiy elementi milliy psixologik qiyofani **millat belgisi** sifatida o'rganish muholiflaridan **P. M. Ragachev** sa **M.A. Sverdlinlarniig** fikricha, bu tushunchalar milliy munosabatlar tahliliga mujmallik beradi va sotsiologiyadagi asosiy tushuncha - *sinfiylik va baynalminalchilikka* soya soladi. **S. Kaltaxchyan** fikriga ko'ra, agar milliy psixologik qiyofani millatning belgilaridan biri sifatida kabul qilinadigan bo'lsa, u vaqtda millatni ijtimoiy tarixiy xodisa sifatida emas, tabiiy va doimiy o'zgarmas xodisa sifatida etirof etishga to'g'ri keladi. Mubohasada qatnashgan **T. Burmistrova** ham millatning ta'rifini berganda milliy psixologik qiyofani uning

belgilari qatoriga kiritmaydi. Uning yozishicha, rus va ukrain, gruzin va armyan, nemis va Fransuz va shunga o'xshash xalqlar psixologiyasidagi farqlarni belgilash umuman mumkin emas. Ayrim xalqlar, millatlar psixologiyasida muhim tavofutlar borligini tasdiqlash, isbotlab bo'lmaydigan, quruq gap xolos va bu irqchilarga muruvvat ko'rsatilib, bir millatni ikkinchi millatga qarshi qo'yish uchun xizmat qiladi. Rus olimi **V. Kozlov**, bu tushunchalarning ishlatilaverishi jamoatchilik fikrida chalkashliklarni, illyuziyaga o'xshash bir xolatni keltirib chiqarishi mumkin, degan xulosaga keladi. Professor **S. Kalgaxchyan** fikriga ko'ra esa, katta guruhlar o'rganilganda faqat sinfiy psixologiya o'rganishga loyiq toifadir. Ularning fikricha, etnik xususiyatlar va milliy psixologik qiyofa to'g'risida so'z bo'lishi ham mumkin emas.

Bu kabi xavotirli xulosalarga sabab bizningcha, o'sha totalitar sovet tuzumi davrida etnopsixologik tadqiqotlarning ayrim natijalari aniq ta'qibga uchrashi, chet ellarda olib borilgan etnik psixologik tadqiqotlar va ulardan olingan natijalarda irqchilik elementlari bo'lishi mumkin edi. Chunki ayrim tadqiqotlarning natijalari va xulosalarida irq, millatlar, etnik guruhlarining ruhiy jihatdan teng emasligi, ba'zi xalqlarning boshqalardan ustun turishligi "ilmiy" jihatdan asoslashga harakat qilindi. Masalan, etnopsixolog **R. Linton** va **A. Kordinerlar** anglosakslardan bo'lmagan hamma boshqa xalqlar o'zining ruhiy xususiyati bilan etuk emas, degan noilmiy g'oyani ilgari surishadi. Xuddi shunga o'xshab o'sha davrlarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi ayrim xalqlarni ruhiy jihatdan etuk emasligini "isbotlovchi" qator tadqiqotlar o'tkazishgan. Albatta bu xilda qilinayotgan "kashfiyotlar" olimlar o'rtasida tashvish va xavotirlik tug'dirishi tabiiy. Muholiflarning yana bir e'tirozi milliy va sinfiy psixologiya o'rtasidagi munosabat masalasi bo'ldi. Unga ko'ra tipik sinfiy jamiyatda ishlab chiqarish munosabatlariga qarab sinfiy tabaqalanish mavjud bo'ladi va ular ijtimoiy mavqega, statusiga, g'oyaviy maslagiga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi sinflarning psixologiyasini shakllantiradi. Lekin bir millatning shu ikki ijtimoiy birligida psixologik xususiyatlar va ma'naviy xislatlarning ma'lum bir umumiyliigi mavjud. Zero, ma'lum bir milliy muhitda yashayotgan har bir kishida faqat ijtimoiy-sinfiy xislatlar shakllanib qolmasdan, shuningdek etnik xususiyatlar ham shakllangan bo'ladi.

Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganuvchi tadqiqotchilarning aksariyat ko'pchiligi, uni ijtimoiy-tarixiy kategoriya ekanligini e'tirof etadilar, uni o'rganish "*qiyin obyekt*" ekanligini ta'kidlashadi. Darhaqiqat, bu masala tekshirish va o'rganish uchun murakkab va tushunish bilan birga eng dolzarb, kam o'rganilgan muammo hamdir.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, *etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishdagi qiyinchiliklar* qo'yidagilardan kelib chiqadi:

✚ milliy psixologik qiyofani o'rganuvchi etnopsixologiya fanining boshqa psixologiya tarmoqlariga nisbatan sust rivojlanayotganligi va hanuzgacha uning umumiy masalalarini tadqiq etishning metodologik tamoyillari to'la ishlab chiqilmaganligi;

✚ etnik xususiyatlar ko'zga yakkol tashlanib to'rgan xolda, uni tashkil etuvchi ruhiy xislatlarning yashirin ekanligi, uni bevosita emas, bivosita, ya'ni, ularning mahsullariga qarabgina baho berish mumkinligi;

✚ yuqorida zikr qilinganidek ayrim olimlarning ushbu masalalar borasida bir biridan farq qiluvchi munosabatlarga ega ekanligi;

✚ etnopsixologiya fan sifatida uzoq vaqt mobaynida ijtimoiygumanitar fanlar tizimida o'z o'rnini topa olmaganligi.

Lekin shunga qaramay, muayyan kiyinchiliklar milliy psixologik qiyofa, milliy xarakter kabi millatning ruhiy xususiyatlari mavjud ekanligini psixologiya fani, uning tarkibiy qismi bo'lmish ijtimoiy psixologiya o'ragib kelmoqda. Bu sohada muvaffaqiyatli ish olib borish uchun ilmiy tekshirishlar metodikasini takomillashtirish va qator fan vakillari-faylasuf, tarixchi, etnolog, sotsiolog, psixolog, adabiyotshunos, san'atshunoslar hamkorlikda ish olib bormoqdalar.

Milliy masalalar va etnopsixologiya buyicha yirik mutaxassis **M.Junusovning** xaqli ravishda ta'kidlashicha, millatning muhim belgilaridan bo'lgan psixik qiyofani inkor etish nazariy jihatdan asossiz bo'lib, amaliyotda katta xatolarga olib kelishi mumkin.

Baxs tahlili shuni ko'rsatadiki, bu masalada qator terminologik chalkashliklar ham mavjud ekan. Masalai, ayrim baxs qatnashuvchilari "milliy psixologik qiyofa", "etnik psixologiya", "milliy xarakter" kabi tushunchalarni aynan bir narsa, deb hisoblaydilar. Shuning uchun bu tushunchalarning bir-biridan farq qiluvchi tomonlarini ko'rsatmasdan turib, ularning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida fikr yuritish mumkin emas.

2. Millat va etnos tushunchalari va farqi. Millat atamasi qadimda va o'rta asrlarda kelib chiqishi bir bo'lgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan umumiylik kasb etgan ma'lum bir guruh kishilariga nisbatan qo'llanilgan. Millatning ilmiy konsepsiyasi **E. Renanga**



xosdir. Uning fikricha, millat ma'lum bir guruhga taalluqli kishilarning birgalikda yashashi, oldingi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan an'analarni saqlab qolishga bo'lgan harakati hamda umumiy maqsad yo'lida birlashishidir.

V.M. Mijuev «etnosdan farqli o'laroq millat bu mening tug'ilishim bilan belgilanadigan fakt emas, balki mening shaxsiy tanlovim va harakatlarim mahsulidir. Etnosni men tanlamayman, millatni esa tanlashim mumkin. Millat bu individning davlatga taalluqli, ijtimoiy, madaniy mansubligidir. Aslo uning antropologik va etnik mansubligi emas» deb ta'kidlaydi.

Bir etnos tarkibiga madaniyat va diniy kofessiyalariga singari o'nlab millatlar kirishi mumkin. Etnos millatning bir qismini anglatishi mumkin. Masalan, millat tarkibidagi etnik – diniy guruhlar (bolgarlar orasidagi musulmon va xristianlar, nemislar orasidagi protestantlar); etnik irqiy guruhlar (Amerika millati bunta misol bo'ladi); etnik hududiy guruhlar (ma'lum millat vakillari u yoki bu hudud, mamlakatda jips bo'lib yashashi); uchinchidan, etnos millat yoki millat shakillanishidan oldingi davrni anglatishi mumkin.

Etnos millatdan kengroq tushuncha bo'lganligi uchun unga millatdan tashqari irqilar, urug'lar, qabilalar, elatlar kabi milliy guruhlariga xos etnik guruhlar ham kiradi.

Shunday qilib, «**Etnos**» atamasi «millat» iborasiga nisbatan keng mazmunga ega ekanligini ko'ramiz. Shu bilan birga, yuqoridagi ta'rif va tahlillardan kelib chiqib bu ikkala tushunchalar orasidagi farqlar hal qiluvchi emasligini alohida ta'kidlamoqchimiz.

2. Millatga xos xususiyatlar, ularning o'ziga xosligi va etnik guruhlarini birlashtirib turuvchi umumiy xususiyatlar.

Etnoslar quyidagilarga binoan uyushadi:

1. *Etnoslar umumiy biologik ajdodlarga ega yo shunday afsonalari mavjud.* Masalan, turkiylar xususida bir qancha afsonalar mavjud (Rahmon Nasimxon. Turk xoqonligi. – T., 1993).

G'arbiy dengiz qirg'og'ida yashagan turkiylarning ota-bobolari qo'shni qabilalar tomonidan qirib tashlandi. Faqat o'n yoshli bola yashirilib tirik qoldi. O'sha yerda yashaydigan urg'ochi bo'ri unga xotin bo'ldi. Ochlikdan qutqarish, dushmanlardan yashirinish uchun bo'ri o'sha bolani olib Turfon tog'lariga qochib ketdi. Tog'da bir g'or bor edi. U yerda urg'ochi bo'ri o'nta bola tug'di. Bolalarning otasi o'sha qutqarilgan turk edi. Bo'ri bolalari Turfondagi ayollarga uylandi. Har bir boladan bir urug' kelib chiqdi. O'g'illaridan birining ismi Ashin edi. Uning nomi hamma qabila nomini anglatadigan bo'ldi. Ashin boshqa aka-ukalariga qaraganda qobiliyatliroq, ham aqlli roq edi. Shu sababli Ashin yangi qabilaning dohiysi bo'lib qoldi. Urug' soni asta-sekin bir necha yuz kishiga yetdi. Ashinning merosxo'rlaridan biri, qabila dohiysi Asyan shad bo'ri avlodlarini Turfondan Oltoy yerlariga olib keldi. Bo'ri avlodlari bu yerda jujanlarning fuqarosiga aylanib, ularga temir qazib berar edilar, Oltoyda ular turk nomini oldilar.

Afsonaga ko'ra, «turk» so'zi Oltoy tog'ining eng qadimgi nomidan kelib chiqqan. Ikkinchi afsonaning mazmuni shunday: Turk qabilasining ota-bobolari So saltanatiga borib taqaladi.

Bu saltanat Oltoyning shimolida joylashgan edi. Qabila boshlig'i Abanbuning o'n ettita ukasi bor bo'lib, shulardan biri Ichasin Ishid «Bo'ri o'g'li» deb nom olgan edi. So saltanati dushmanlar tomonidan kunpaya-kun qilindi. Omon qolganlari tarqalib ketdilar. Bo'ri o'g'li juda tadbirkor edi. Shu sababli imkoniyat topib, urug'ini qiyin ahvoldan olib chiqdi. Uning o'g'illaridan biri Oqqush bo'lib, Abakan daryosi bo'ylarida hukmronlik qildi. Ikkinchi o'g'li esa Tsigu saltanatiga asos soldi. Bu saltanat Kama daryosi bo'ylarida edi.

Uchinchi o'g'li esa Chjuchje daryosi bo'ylarida hukmronlik qildi. Katta o'g'li Nudulu shad G'arbiy Sayanga o'rnamshdi. Nudulu shadning o'nta xotini bo'lgan. Uning o'g'illari onasining qabilasi nomini oldilar. Eng kichik xotining o'g'li Ashin edi. Nudulu shad vafotidan keyin taxtga birontasi o'tirishi kerak edi. Shunda aka-ukalar, kimki kuchli va epchil bo'lsa, o'sha urug' yo'lboshchisi bo'ladi, deb qaror qildilar. Musobaqada Ashin g'alaba qildi. U Asyan shad nomini olib, urug' boshi bo'ldi. Uning vafotidan keyin esa o'g'li Tuu taxtga o'tirdi. Tuuning o'g'li Tumin (Bo'min) turk xoqonligiga asos soldi.

To'ba qabilasi Shimoliy Xitoyni bosib oldi, u yerdagi qabilalar orasida Ashinning besh yuz oilasi bor edi. Shu paytda Ashin urug'i xun hokimi Mug'anga qaram edi (Xunlar-turkiylarning ajdodi, bu davlatda bir qancha qabila-urug'lar bor edi). 439 yilda to'balar xunlar ustidan g'alaba qozondi. Shundan keyin xunlarga tobe bo'lgan Ashinning besh yuz qabilasi jujanlar huzuriga qochib bordi. Oltoy tog'larining janubida o'rnamshib, jujanlarga temir qazib bera boshladilar.

Ashin urug'i qarda, kimning hukmronligi ostida bo'lmasin, o'zlarining tilini saqladi. To'balar singari tilini yo'qotmadilar. Hatto shu kichkina urug'ning urf-odati boshqa qabilalarga ta'sir qildi.

Xitoylar o'zlariga tobe bo'lgan Ashin qabilasini Tukyu deb ataganlar. Xitoycha Ashina ham deyiladi. P.Pelo bu so'zni «turkyut» (ya'ni turkiylar) deb izohlagan. **Turk** atamasi kuchli, mustahkam demakdir. **Ashina** esa bo'ri degani. Turkiycha bo'ri mo'g'ulcha shono, chino deyiladi, **a** qo'shimchasi xitoycha hurmat ma'nosini bildiradi. Bundan xulosa chiqadiki, Ashina-himmatli, mard bo'ri degan ma'nodadir.

Qadimgi Xitoy mualliflari turkiy xoni va bo'ri so'zini ma'nodosh deb qaraganlar. Shuning uchun biri o'rnida ikkinchisini qo'llayverganlar. Ularning Markaziy Osiyodagi mavqei baland edi. Hatto syanbiy malikasi o'z eri Shabolio xonni bekorga «Bo'ri fe'l-atvoriga ega bo'lgan xon», deb aytmagan edi.

Bo'ri haqidagi tasavvur Ashin urug'ining hamma tomoniga kirib borgan.

2. *Umumiy hududda rivojlanadi:* Masalan: Turkiylar qanchalik katta hududni egallagan bo'lsalar, ular yaratgan yodnomalar shunchalik katta hududga yoyilgan. Bu yodnomalar Urxun daryosi bo'ylaridan Dunaygacha, Yoqutistondan Gobigacha, hatto Sharqiy Ovrupoga ham tarqalgan.

Yodnomalar qadimgi turkiy qabilalar birlashmasining madaniy-siyosiy markazlariga va iqlim belgilariga qarab guruhlanadi. Ular quyidagicha:

1). **Shimoliy Mo'g'uliston yodnomalari.** Bu guruhga yirik yodnomalar – Bilga xoqon, Kul tigin, To'nyuquq, Ungin, Kuli chur, Selenga, Qorabalsag'un, Suji yodnomalari, shuningdek, Xayto Tamirdan topilgan o'nta yodnoma, Ixa-Asxetedan topilgan ikkita yodnoma, Xangay va Gobidan topilgan mayda yodnomalar kiradi. Turkshunoslikda bu guruh Urxun yodnomalari deb yuritiladi.

2) **Enasoy yodnomalari.** Bunga toshga, qoyaga, oltin va kumush idishlarga, tangalarga yozilgan yetmishdan ortiq yodnomalar kiradi.

3) **Lena** – Baykalbo'yi yodnomalariga qirqqa yaqin, o'qilishi qiyin bo'lgan qisqa matnlar kiradi.

4) **Oltoy yodnomalari** unchalik ko'p emas, bitta qoyaga yozilgan yodnoma va qabrdan topilgan bir necha kumush idishlardagi yozuvlar, xolos.

5) **Sharqiy Turkiston yodnomalari** Turfondan topilgan va toshga bitilgan, Dunxuan va Mirandan topilgan qog'ozdagi yozuvlardir.

6) **O'rta Osiyo guruhi yodnomalari** – Yettisuv va Farg'ona guruhlaridan tashkil topgan. Yettisuv guruhiga Talasdan topilgan yodnomalar (tangalar, uy ro'zg'or buyumlari, yog'ochlarga bitilgan yozuvlar), Farg'ona guruhiga keramika va metallga bitilgan yozuvlar mansub.

7) **Sharqiy Ovrupo yodnomalari** – Donetsk va Dunay guruhlariga bo'linadi. Birinchi guruhga Novocherkasskdan topilgan ikkita, Mayats shahridan va Sariko'ldan topilgan bitta g'ishtdagi yozuv mansub. Ikkinchi guruhga Nad-Sen-Mikloshdan topilgan kumush idishdagi yozuv va metallarga bitilgan yodgorliklar kiradi.

Yuqorida tilga olingan yodnomalar turli joylarga tasodifan kelib qolgan emas, balki qadimgi turk hoqonligi davrida shu joylarda turkiy qabilalar yashagan – ularning Vatani bo'lgan.

Bitigtoshlar avvalo turkiylar tarixi uchun asosiy manba, ham yozma adabiyotning ilk namunasi. Shu bilan birga, u etnografiyaga oid qiziq ma'lumotlar beradi. Topilgan ashyolar qadimgi turkiylarning urf-odatlarini turmush tarziga oid dalillarni birmuncha to'ldiradi (Rahmon Nasimxon. Turk xoqonligi. – T., 1993).

3. *Umumiy madaniyat va an'analarga ega.* Masalan: Turkiylarning Utukanni muborak (iduk) hisoblashlari va «Otalaridan qolgan» yurtlariga sodiq bo'lishlari Vatan shuuri va muhabbatining eng yuksak o'rnidir. Eski turk diniga

(shomoniylikka) binoan «Turk Tangrisi» turk millatining homiysi bo'lganidek, turk yurtlari, xususan, tog'lari, buloqlari, suvlari, ota-bobolarining mozorlari va xotiralari ham muqaddas ruhlarning makoni hisoblanib, mamlakatning qo'riqchisi hisoblanardi. Chunonchi, bitiklarda: «Tangri, Umay ia muborak Er- suv biz uchun dushmani g'aflatda qoldirdi», degan ifodalar uchraydi. Kun hukmdori Metening: «Tuproq millatning ildizidir, uni qanday berayin», deyishi ham Vatan shuurining turklarda qadimdan shakllanib, ardoqlanib kelayotganidan dalolat beradi.

Turk xoqonlari va xalqi milliy madaniyat, nizom va an'analarni muqaddas bilib, o'ta hassoslik bilan ularni himoya etganliklari ham aniq-ravshan (Turon Usmon. Turkiy xalqlar mafkurasi. – T., 1995).

4. *Boshqa shunday ijtimoiy guruhlariga o'zlarini qarshi qo'yadi.* Masalan, Bilge xoqon asorat davrida o'tkazilgan chin ta'siri muposabati bilan: «Chin millati shirin so'zu yumshoq mol orqali uzoqdagi qavmlar ko'nglini (ya'ni turkiylarning) olmoqchi bo'ldilar. Lekin aqlli insonlarni baribir alday olmadilar» (Turon Usmon. Turkiy xalqlar mafkurasi. – T., 1995).

5. *Taraqqiyotining yuqori darajasida o'z davlatchiligini tashkil etadi.* Masalan, Miloddan oldingi 626 yilning kuzida turkiylar tarixida birinchi davlat barpo bo'lgan, Alp Er To'nga shu davlatning asoschisi edi. Bu davlat tarixda sak (iskif) turk davlati deb nom oldi. Sak-iskif turk davlati miloddan oldingi yettinchi-eramizning ikkinchi yuz yilliklarida yashadi. U Dog'istondan Kichik Osiyoga qadar cho'zilgan hududni o'z ichiga olgan edi (Rahmon Nasimxon. Turk xoqonligi. – T., 1993).

6. *Etnos va millatning umumiy din birligi bo'ladi.* Masalan, Mo'g'uliston hududida yashagan turkiy qabilalar orasida buddizmning birinchi marta davlat dini sifatida paydo bo'lganidan darak beradi. Taspar xoqonning iltimosiga ko'ra, uning qarorgohida budda haykalchasi o'rnatildi. Bu haykalcha va bugut marmartoshining sanskrit yozuvi bitilgan, buzilib ketgan tomoni Chinaguptaga bag'ishlangan. U Hindistondan kelgan, xoqon qarorgohida o'n yil yashagan buddistlar ustozlari edi. Birinchi turk xoqonlari hokimiyat barpo bo'lgandan boshlab, katta imperiyaning boshqarish va ushlab turish uchun buddizm qudratli g'oyaviy omil bo'ladi, deb tushundilar. Chamasi, bu davrda shomon dini ham bo'lgan, lekin stixiyali tarzda bo'lib mavqeini unchalik mustahkamlab olmagan edi. Sirdaryo bo'yidan topilgan yodnomadan anglashilishicha, burgutga ilk turkiylar sajda qilgan. U osmon ilohasini jonlantirgan va sulolaning nomiga ishora qilgan. Burgutga sig'inish shomonlikdan dalolat beradi.

O'rta va Markaziy Osiyoda shomonlik bora-bora umumiy din bo'lib qoldi. Turgan gapki, hammabop din tarkibi jihatidan turli hokimiyatda umumiy g'oyani shakllantirishga xizmat qildi. Har bir qabila o'z dini va xudosiga ega bo'lgan paytda

umumiy din birlik, hamkorlik uchun katta ahamiyatga ega edi (Rahmon Nasimxon. Turk xoqonligi. – T., 1993).

7. *Umumiy til.* Masalan, Kelib chiqishi jihatidan bir bo'lgan xalqlarning tili yagonadir. Bu tillarda fe'l, ayniqsa ot turkumidagi so'zlar umumiy. Qarindoshlik an'analari uzoq davom etgan. Keyinchalik ular mustaqil qabilalarga ajralgan. Tillari ham o'zicha rivojlangan. Turk so'zi bir ming besh yuz yil davomida o'z ma'nosini o'zgartirgan. V asrda Ashin atrofnga to'plangan o'rda aholisi turk deb yuritilgan. Hammasi turkiy tilda gaplashganlar.

Ana shu tilda gaplashgan boshqa qo'shni qabilalarga turk nomi qo'llanmagan. Faqat hududiy birlik nomga asos bo'lgan. O'sha davrlarda O'rta va Markaziy Osiyoga sayohat qilgan arab tarixchilari asarlarida shunday farqlash bor. Ular turk nomi ostida qaysi tilda gapirishidan qat'i nazar, O'rta va Markaziy Osiyoda yashovchi hamma qabilalarni nazarda tutganlar. Rashiddin turk va mo'g'ullarni tiliga qarab farqlagan. Chunki XIII asrda mo'g'ul tili alohida til sifatida ajralib chiqib, turkiy yozuv asosida o'z yozuvini shakllantirgan edi (Rahmon Nasimxon. Turk xoqonligi. – T., 1993).

8. *Etnos a'zolari umumiy psixologik xususiyatlarga ega.* Masalan, Vatan tuyg'usi Bilga xoqonda juda yuksak. U turk xalqining Vatani abadiy bo'lishi uchun kurashadi. Vatanni saqlab qolish faqat xoqonning o'ziga emas, xalqqa ham bog'liq. Ajdodlarning yutug'lariyu xatosi buni tasdiqlaydi.

Xullas, etnik psixologiya rivojining ilk bosqichida xalqlar ma'naviy madaniyatining psixologik o'ziga xosligini o'rganishdan iborat bo'lgan XIX asrning o'rtalariga kelib etnopsixologiya umumiy kategoriyalari shakllangan: xalqlar psixologiyasi, milliy xarakter, milliy ruh kabi. X. Shteyntal, M. Latsarus, V. Vundt, G. Lebonlar etnopsixologiya falsafiy-psixologik yo'nalishiga asos solganlar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Etnopsixologiya predmeti va obyektni aniqlashda uchraydigan murakkabliklar?
2. Etnopsixologiya gumanitar organlar tizimidagi o'rni?
3. Turli sifatlar va ijtimoiy qatlamlarga xos psixologik xususiyatlari?
4. Millatga xos xususiyatlar, ularning o'ziga xosligi?
5. Etnik guruhlarini birlashtirib turuvchi umumiy xususiyatlari?

6-MAVZU: ETNOPSIXOLOGIK TADQIQOTLARNING G'ARB VA SHARQDA O'RGANILISHI

Reja:

1. Yunon faylasuflarining etnopsixologik qarashlari.
2. Sharq mutafakkirlarining etnopsixologiyaga doir fikrlari.
3. Germaniyada xalqlar psixologiyasining tadqiq etilishi.
4. Amerika etnologiyasidagi psixologik yo'nalish va etnopsixologiyaning sobiq Ittifoqdagi rivoji.

Tayanch tushunchalar: Yunon faylasuflari, etnopsixologiya, Aristotel, Gerodot, Gippokrat, Demokrit, Pifagor etnopsixologiyaning gumanitar fanlar tizimidagi o'rni, ijtimoiy qatlamlar, millatga xos xususiyatlar, etnik guruhlar.

1. Yunon faylasuflarining etnopsixologik qarashlari. Insoniyat tarixining qadimgi davrlaridan boshlab etnik guruh psixik hayotining turli jihatlari bilan bog'liq masalalarga bo'lgan qiziqish faqat ortib bormoqda. Etnik va ijtimoiy munosabatlarga doir fikrlar dinamikasiga e'tibor beradigan bo'lsak, qadimgi Yunoniston mutafakkirlarining yozma manbalarda qoldirib ketgan qarashlarini ta'kidlashimiz joiz.

Qadimgi dunyo mutafakkirlari Aristotel, Gerodot, Gippokrat, Demokrit, Pifagor va boshqalar barcha ijtimoiy va psixologik hodisalarni tushuntirib berish uchun yagona bo'lgan umumiy tamoyillarni ishlab chiqishga, xususan, xalqlarning turli psixologik xususiyatlarga ega bo'lishining sabablarini ochib berishga harakat qilganlar. Ular etnopsixologik xususiyatlarning vujudga kelishini, asosan, tabiiy-geografik muhitning ta'siri bilan bog'laganlar. **Gippokrat** (eramizdan avvalgi 460-375) o'zining «Havo, suv va quruqlik» deb nomlangan asarida xalqlarning turli psixologik va jismoniy xususiyatlari bevosita iqlim sharoiti bilan belgilanishini ta'kidlaydi.

Pifagor (eramizdan avvalgi 570-500) xalqlarning xarakter va temperament xususiyatlari vujudga kelishida ular iste'mol qilayotgan oziq-ovqatlar ahamiyatli deb hisoblagan. Unga ko'ra, hayvon go'shti va yog'ining ko'p iste'mol qilinishi odamlarda qattiqqo'llik va dag'allikni vujudga keltiradi. O'simlik mevalari va sabzavotlarning muttasil iste'mol qilinishi esa tana faoliyatini sustlashtirib, odamlar tabiatini muloyimlashtirishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Umuman olganda, qadimgi olam mutafakkirlari ijtimoiy munosabatlar ko'p jihatdan odamlarning yashash muhiti bilan belgilanishi mumkinligini alohida e'tirof etganlar.

2. Sharq mutafakkirlarining etnopsixologiyaga doir fikrlari. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy munosabatlarga doir qarashlarini o'rganar ekanmiz, ularning g'oyalari islom dinida ilgari surilgan insonni baholash

mezonlariga asoslanishini ta'kidlab o'tish lozim.

Abu Nasr Forobiy shaxs kamoloti, shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqidagi ko'plab fikr-mulohazalarini o'z asarlari orqali ifodalab berishga harakat qilgan. Mutafakkir fikriga ko'ra, jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va komillikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun insonlar ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada odamlar jamoasi vujudga keldi, deb qo'shib qo'yadi muallif.

«Aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan mamlakatda hokimiyatga ehtiyoj seziladi», – degan fikri bilan Forobiy jamiyatning demokratlashuvi, inson erki va huquqlarining to'la ta'min etilishi mamlakat aholisining xulq-atvoriga, ma'naviy-axloqiy kamolotiga bog'liqligini ko'rsatgan. Mutafakkir agar aholi o'z huquq me'yorlari doirasida amaldagi qonunlarga bo'ysunib yashashni turmush tarziga aylantirsa, o'z xatti-harakatini ma'lum qonun-qoidalar yo'nalishiga tushira bilsa, aql-idrok, odob-axloq kategoriyalarini hayotning har bir daqiqasida namoyon qilib borsa, jamiyatning ma'naviy qiyofasi barkamol, shaxsning yashash tarzi yetuk, erkinliklari esa cheksiz bo'ladi, deya e'tirof etadi.

Sharqning boshqa bir mutafakkiri **Beruniy**ning fikricha, inson yerdagi bunyodkor va yaratuvchi kuchdir. Shuningdek, u insonning ijobiy va salbiy tomonlarini ta'rif etadi.

Allomaning inson xulq-atvori xususidagi mulohazalari bundan ming yil avval qanchalik dolzarb bo'lsa, bugun ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, uning inson mohiyatini aqlda, aql mohiyatini esa harakatda ko'rish mumkinligi xususidagi fikrining hozirgi zamon psixologiyasida ustuvor bo'lgan *«psixika faoliyatda namoyon bo'ladi»*, degan tamoyilga qanchalar hamohangligini sezsa bo'ladi.

Abu Rayhon Beruniy ham barcha davrlarda dolzarb bo'lgan – jamiyat, insonning ijtimoiy hayoti, uning baxti xususidagi masalalarni chetlab o'tmagan.

Odamlarning jismoniy tuzilishidagi ayrim farqlarni ularning irqiy kelib chiqishi bilan bog'laydigan nazariyalarga qarshi chiqar ekan, Beruniy odamlar, umuman jamiyat turmushidagi geografik omillarning ahamiyatini ham inobatga olish joizligini ta'kidlaydi. Beruniyning geografik omillar o'rni xususidagi tasavvurlari, qadru qiymati, *birinchidan*, uning kuzatishlari samarasi ekanligi bilan belgilansa, *ikkinchidan*, uning o'z kuzatishlaridan pishiq-puxta xulosalar chiqara olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Beruniy fikriga ko'ra, u yoki bu xalqlarning ko'plab jismoniy xususiyatlari va farqlari ular yashayotgan sharoitlar, geografik muhitdagi tafovutlar bilan bog'liq.

Xorazmiylar, so'g'dlar, yunonlar, rimliklar, forslar, hindlar, yahudiylar va boshqalarning qarashlari, an'analarini tahlil qilar ekan, alloma nihoyatda obyektiv

bo'lishga intiladi. Bu yuqorida aytilgan fikrni tasdiqlab, uning ilmiy metodiga xos muhim jihatlardan birini ko'rsatadi.

Olim u yoki bu xalqning axloqiy qarashlari, urf-odatlar ustida to'xtalar ekan, uning o'ziga xos an'analarini sira kamsitmagan holda ko'rsatishga intiladi. U xalqlarni tabaqalarga bo'lib, birini ikkinchisidan ustun qo'yishni qattiq qoralaydi.

Geografik omilning bashariyat turmushida tutgan o'rni xususidagi o'z mulohazalarini bayon yetar ekan, Beruniy nafaqat uning jismoniy tuzilishini belgilashdagi o'rni to'g'risida, balki turli ko'rinishga ega ijtimoiy hodisalar determinatsiyasi haqida ham so'z yuritgan.

Beruniy turli xalqlarning u yoki bu urf-odati, udumidagi tafovutlarni tahlil qila turib, bu tafovutlar geografik shart-sharoit bilan bog'liq, deb tushuntiradi. Beruniy tillar o'rtasidagi farqni ham ana shu nuqtai nazardan izohlab ko'rsatadi.

«Tillar o'rtasidagi tafovut, deb yozadi mutafakkir, kishilarning xalqlarga bo'linish hamda ularning bir-birlaridan uzoq-uzoqda yashashligi bilan bog'liqdir». Beruniyning turli tillarning mavjudligi to'g'risidagi fikrlari **Forobiyning**: *«Bir xalq boshqa xalqdan uchta tabiiy narsa: axloq, xarakter va kishilar xarakteriga asoslangan uchinchi – fikr ifodalash vositasi bo'lgan til bilan farq qiladi»*, degan fikriga juda mos keladi.

Shu narsa xarakterliki, Beruniyga ko'ra, jamiyatda yashovchi kishining ehtiyoji til paydo bo'lishining asosiy sababchisidir. Bu borada Beruniy yozadi: «Har bir xalqqa umum tomonidan qabul etilgan nutq kerak, chunki kishilar mana shu til yordamida o'zlarining turli-tuman maqsadlari (fikri)ni ifodalay olishlari mumkin bo'lsin».

Yuqorida nomlari tilga olingan mutafakkirlarimizdan tashqari Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi allomalar ham shaxs kamoloti, shaxsning kamolotga erishuvida jamiyat va qadriyatlarining o'rni xususida o'zlarining noyob fikrlarini yozib qoldirganlar. Ajdodlarimizning ilmiy falsafiy ta'limotlari tor milliy qobiqda o'ralib qolmasdan, balki ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ta'limotlardir.

O'rta asrlarda etnopsixologik g'oyalarning yevropa mutafakkirlari tomonidan rivojlantirilishi. Xalqlarning psixologik xususiyatlarini iqlim va boshqa tabiiy omillar bilan bog'lab tushuntirish keyingi davrlarda – **Sh. Monteske, J.J. Russo, D. Didro, A. Gumboldt**, shuningdek, ayrim zamonaviy tadqiqotchilar faoliyatida ham uchraydi (**Ch. Valixonov, Semyonov Tyan-Shanskiy va boshqalar**). Sotsiologiyadagi «geografik determinizm» oqimining asoschilaridan biri – **Sh. Monteske** (1689-1755) ham xalqlar o'rtasidagi psixologik tafovutlarni kishilarga doimiy ta'sir etadigan turli-tuman tabiiy iqlim hosilasi, deb tushuntiradi. Faylasuf iqlim va zamin xalqlarning axloq me'yorlarigagina ta'sir etib qolmasdan,

davlat siyosatiga, madaniy taraqqiyot darajasiga, *«psixologik qiyofa»*siga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi. **Sh. Monteske** sovuq iqlimda yashaydigan xalqlar chidamli, baquvvat; issiq iqlimda yashaydigan xalqlar esa jismoniy jihatdan zaif va ojiz bo'lishadi, deb iqlimning kishilar xulq-atvoriga bo'lgan ta'sir kuchini mubolag'alashtirishga harakat qilgan.

Bizningcha, iqlim ta'sirida inson tanasida ro'y beradigan fiziologik jarayonlarni ijtimoiy-siyosiy hodisalar va axloq me'yorlari vujudga kelishi uchun moddiy asos qilib olinishi, biologik va ijtimoiy qonuniyatlarni bir-biridan farqlay olmaslik oqibatidir. Bu esa, nazarimizda, ijtimoiy-tarixiy hodisalarni tushuntirib berishdagi yangilash xulosalarda o'z aksini topishi mumkin.

G'arbiy Yevropa mutafakkirlarining etnik va ijtimoiy munosabatlarga doir qarashlarini sharq allomalari ma'lum darajada kengaytirishga erishganlar.

Etnik va ijtimoiy munosabatlarga doir qarashlar rivoj topar ekan, sekin-asta ularni tadqiq etishning ilmiy negizlari ham vujudga kela boshlagan. Etnik va ijtimoiy munosabatlarga doir qarashlarning ilmiy asoslari XX asr o'rtalarida konseptual yakun topgan.

3. Germaniyada xalqlar psixologiyasining tadqiq etilishi.

Tadqiqotlar markazi bo'lgan *«xalqlar psixologiyasi»*ni mustaqil yo'nalish kabi asoslashga harakat XIX asr o'rtalaridan boshlangan. Yangi fan sohasining asoschilari nemis olimlari **M. Latsarus** (1824-1903) va **X. Shteyntallardir** (1823-1899). Ular konseptsiyasining asosiy mazmuni kelib chiqish va istiqomat muhitining yagonaligi natijasida *«bir xalqning barcha individlari qalbi va vujudida o'z xalqi tabiatining alohida tamg'asi bosiladi»*; bunda *«vujudning qalbgaga ta'siri natijasida barcha individlarda bir xil bo'lgan ruh xususiyatlari, moyilliklar tug'ilib, pirovardida, ularning barchasi bir xil xalq ruhiga ega bo'ladilar»*, degan mulohazasida o'z ifodasini topgan.

«Xalqlar psixologiyasi»ning asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilangan:

-  xalq ruhi va uning harakati mohiyatini psixologik jihatdan anglash;
-  xalqning turmushdagi, san'atdagi hamda ilmdagi ichki madaniy yoki ideal faoliyat qonuniyatlarini tushunish;
-  biron-bir xalq xususiyatlarining paydo bo'lishi, rivoji va yo'qolish sabablarini ochish.

«Xalqlar psixologiyasi»da ikki jihatni farqlash mumkin: *birinchidan*, umuman xalq ruhining o'zi, xalqning yashash va faoliyat sharoiti o'xshashligi tahlil qilinadi hamda uning taraqqiyoti umumiy unsurlari va ularning o'zaro munosabatlari aniqlanadi; *ikkinchidan*, xalq ruhi va uning taraqqiyoti xususiy shakllari batafsilroq tadqiq qilinadi. Birinchi jihat etnotarixiy psixologiya, ikkinchisi psixologik etnologiya nomini olgan. Tadqiq qilish jarayonida xalq ruhiyatining mazmunini

ochib beradigan tahlilning bevosita obyektlariga afsonalar, tillar, axloq, turli madaniyatlarning turmushi va boshqa xususiyatlari kiradi.

M. Latsarus va **X. Shteyntal** tomonidan 1859 yili ilgari surilgan g'oyalar bayoni nihoyasida «xalqlar psixologiyasining» qisqacha izohini beramiz. Ular «xalqlar psixologiyasi»ni ular etnik psixologiyaning, xalq ruhini tushuntiruvchi fanlar, xalqlarning ma'naviy hayot unsurlari va qonunlari xususidagi ta'limotlar sirasiga kiritishni hamda uni umuman inson zotining, bashariyatning ruhiy mohiyatini tadqiq etish asosida shakllantirishni taklif qilishgan.

M. Latsarus va **X. Shteyntal** ifodalab bergan madaniyatlarni tadqiq qilishning umumiy yo'nalishi, ular qo'ygan muammolar hozirda ham o'rganilmoqda. «Xalqlar psixologiyasi»ni tahlili (etnopsixologiya yoki madaniyatning mental turi, yoki «ibtidoiy tafakkur» muammosi ko'rinishida) XX asrda madaniyatlarni tadqiq qilishning eng asosiy qismi bo'lib qoladi.

V. Vundtning ensiklopedik tizimidagi «xalqlar psixologiyasi» boshqa ruhiyat xususidagi fanlar ichida alohida o'rin egallaydi. **V. Vundt** «xalqlar psixologiyasi» atamasi o'zining shaxsiy kashfiyoti emasligiga qaramay, ilmning ushbu sohasiga o'zgacha munosabatda bo'lgan. **V. Vundtning** fikriga ko'ra, «xalqlar psixologiyasi» bashariyatga taalluqli ma'naviy hodisalarni o'rganishi lozim edi. Ushbu sohaga doir psixologik fanga bo'lgan ehtiyoj asosan quyidagilar bilan izohlangan: «garchi odamlarning birgalikdagi turmushi, shaksiz, psixik tabiatga ega bo'lsa-da, individual ruhiy hayot qonunlari va sharoitlari bilan tushuntirib bo'lmaydigan hodisalarni keltirib chiqaradi. Shunday ekan, bunga o'xshash fenomenlarni tadqiq etuvchi alohida fan zarur».

Individual psixologiya yo'nalish vakillarining qarashlari «xalqlar psixologiya»sini ixtiloflar hududiga aylantirdi. Ushbu yo'nalish tarafdorlari fikriga ko'ra, alohida voqelikka ega hech qanday intermental ((**lot.** *Inter* o'rta, *mental* tafakkuriy, aqliy)– tafakkurlararo)) ruhiy hayot mavjud emas; jamiyat – alohida individlar xulq-atvorining mexanik konglomeratidir (yig'indi, uyushma) xolos; sotsium (ijtimoiy muhit) ruhiy hayotining aniq borlig'i konkret odamlar ruhiy hayotining real voqeligiga epifenomenal ((**yun.** *epi* – yonida, *phainomenon* – hodisa) – bu yerda, harakatsiz qo'shimcha sifatida tushuniladi)) nisbatdadir; barcha ruhiy jarayonlar faqatgina konkret individuumlar ongida kechadi; ijtimoiy shuur – bu individual onglar yig'indisidir. Individualizm metodologiyasining nuqtai nazari «jamiyatda individda yo'q hech narsa mavjud emas» degan formula orqali ifodalanadi. Agar bunday qarashlarni tayanch nuqta qilib oladigan bo'lsak, unda nafaqat sotsiologiya, balki ijtimoiy psixologiyaning mavjud bo'lish huquqi shubha ostida qoladi. Chunki bunda ularning ikkisi ham individual psixologiya fanining bo'limlariga aylanardi.

V. Vundt bunday qarashlar cheklanganligini yaxshi anglagan. Uning ta'rifiga ko'ra «xalq ruhi» qaerdadir ko'klarda parvoz qilmay, bizning vujudimizda yashaydi. Biroq u aniq bir kimsa tomonidan yaratilmaydi, u hamjamiyat mehnati mahsuli. Uning empirik sezsa bo'ladigan shakli – ko'plab individlarning hamjihatlikdagi ruhiy faoliyati natijasidir. Jamiyatning ruhiy qiyofasi minglab odamlar ijodi orqali namoyon bo'ladi. «Xalq ruhi» voqe'ligi – ko'plab odamlarning birgalikdagi faoliyati samarasi va ularning alohida hech biriniki emas. **Vundtning «xalq ruhi»** tushunchasi **Dyurkgeymning «jamoaviy tasavvurlar»**iga o'xshash va o'z ichiga individ tomonidan emas, balki individlar yaratayotgan, individual qalb qo'rida yashaydigan – biroq uning tomonidan tug'ilmaydigan barcha narsalarni oladi.

Individualizmning nominalistik nuqtai nazariga V.Vundt o'zining realizm yondashuvini qarshi qo'yadi. Uning dalillari quyidagi jumlar bilan asoslangan: «Albatta, xalq ruhi unga taalluqli alohida ruhlardan iborat; alohida ruhlarsiz u hech narsa va u nimaniqi vujudga keltirar ekan, bizni beiloj ortga, individual ruh xossalari va qudratiga murojaat etishga majbur qiladi. U bee'tirof mavjud ekan, ma'lum tarkibiy yaxlitlik tug'diradigan azaliy shartlar uning a'zolarida bo'lmog'i lozim, biroq bu bilan tarkibiy yaxlitlik yaratayotgan hosilalarni uning azaliy shartlari bilan tushuntirsa bo'ladi, deya e'tirof etilmaydi. Bir xil uyushilgan ko'plab individuumlarning hamjihatlikdagi turmushi va ushbu turmush tarzi oqibatida kelib chiqadigan o'zaro ta'sir, kiritilgan yangi shart kabi, yana o'ziga xos qonunlarga ega yangi hodisalarni paydo qiladi. Garchi ushbu qonunlar individual shuur qonunlariga zid bo'lmasa-da, biroq aynan shu bois ham u so'nggilarda mavjud emas».

Agar yuqorida keltirilgan misoldan nemischa «xalq ruhi» iborasini mazmunan o'xshash boshqa bir iboraga almashtirilsa muallifligi **E. Dyurkgeymga** taalluqli matn ko'zga tashlanadi. Nima bo'lgan taqdirda ham: fikr va uning mantig'i rivojining o'xshashligi kunday ravshan. Faqatgina V. Vundt E. Dyurkgeym tez orada xatlab o'tgan chiziq oldida to'xtaydi. Vundt uchun jamoaviy ruhiy borliq *sui generis* voqeligi chizgilariga ega. Zotan, pirovardida, nemis mutafakkiri ijtimoiy voqelikdan dyurkgeymona iboraga o'xshash xulosani chiqarmaydi. Vundtni psixolog sifatida to'g'ri mazmundagi jamiyat emas, balki ijtimoiy hayotning «o'ziga xos ma'naviy», «mental» tarkibiy qismi qiziqtiradi. Bir hisobda uning tadqiqotlari predmeti «o'rmon emas» «daraxtlar»dir. U ijtimoiy voqelikni bus-butunligini emas, birgina ushbu voqelikning «insoniy mezonini» o'rganadi. Shuning bilan, Vundtning aniq mazmuniy (metodologik emas) tadqiqiy rejalari psixologik bilimlarning o'ziga xos masalalari o'zanida belgilandi.

Birinchidan, V. Vundt «xalqlar psixologiyasini» nafaqat individual psixologiyaga, balki psixologik bilimlarning «irqlar psixologiyasi» va «omma psixologiyasi» kabi bo'limlariga qarshi qo'yadi. V.Vundt ijtimoiy-madaniy jarayonning asl subyekti sifatida bir hududda yashovchi, bir davlat tasarrufidagi, bir

tilda so‘zlashuvchi hamda umumiy madaniy–tarixiy merosga ega alohida ijtimoiy jamoa, odamlar guruhini qabul qiladi. V. Vundtni qandaydir ijtimoiy-guruhiy birlik emas, balki xalq psixologiyasi qiziqtirgan. V. Vundtning tushunishicha, «xalqlar psixologiyasi» keng ma’nodagi «ijtimoiy psixologiyaga» monand emas. Boshqa ijtimoiy jamoalarning ham o‘z «ruhi» mavjud. Zero, omma qalbi va xalq ruhi mohiyatan turli narsalardir. Aynan xalqlar ma’naviy madaniyat ustuvor ko‘rinishlarining asl yaratuvchilari sifatida bashariyat tarixida sahnaga chiqadilar, aynan ular madaniy-tarixiy amaliyotning asl subyektlaridir.

Ikkinchidan, «Xalqlar psixologiyasi»ning ichki tadqiqiy hududi ham ma’lum bir chegaralar bilan ajratilgan. Yangi fanni nomlash uchun tanlangan atama M. Latsarus va X. Shteyntallardan o‘zlashtirib olingan bo‘lsa-da, ularning talqinida «xalqlar psixologiyasi» bashariyatning ma’naviy olamidagi barcha hodisalarni hamdarab olgan.

Vundt bunday yondashuvdan avval boshidan voz kechadi. Deylik, adabiyot, san’at va fanni ruhiy fenomen sifatida Vundt o‘zining prinsipial mulohazalariga ko‘ra, «xalqlar psixologiyasi»ning tadqiqiy sohasidan olib tashlaydi. Inson faoliyatining ushbu mahsullarida, uning fikricha, alohida odamlar xarakteri va tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlari aks etadi (bundan tashqari, yuqorida qayd etilgan madaniy ijod sohalarida ongli yondashuvning yirik unsurini topishimiz mumkin; anglangan fenomen esa, o‘z mohiyatiga ko‘ra, alohida inson shaxsining betakror va unikal qobiliyatlari izmidadir). Vundtning xulosasiga binoan – yuqorida zikr etilgan jabhalarda xalq ruhi ta’siri ikkinchi darajalidir. U o‘zini, eng avvalo, odamlarning jamoaviy ijodi mahsullarida namoyon qiladi. Xalq qalbi, ruhining «to‘laqonli» haqiqiy hayotini Vundt: biz faqat – tilda, afsonalarda va odatlarda kuzatamiz, – deydi. Birgalikda ular «uch tomonlama ittifoqni» tashkil qilib xalq ruhining ustivor tarkibiy tavsifini beradi. Xalq ruhi doirasidagi til, afsona va odatlar alohida odamlar qalbida tasavvurlar, tuyg’ular va iroda vazifasini bajaradi. Manbai tasavvurlar bo‘lgan ruhning ongli faoliyati esa xususiy voqelikning til shaklidagi ifodasidir. Affektlarda ildiz otgan tuyg’ular afsonalar «onasidir». Iroda esa odatlar me’yorlariga javob beradigan aniq insoniy xatti-harakatlarda akslanadi. Til, afsona va odatlar individual kashfiyot mahsuli emas. Ular odamzotning ko‘p asrli tabiiy evolyutsiyasi jarayonida yaratilgan. Ushbu hodisalarning birontasi aniq joy va aniq vaqtda mental innovatsiya natijasi sifatida vujudga kelmagan. Til, afsona va odatlar konkret individlar «zakovati» bilan emas, umuman odamlar hamjamiyati «zakovati» orqali dunyoga kelgan. Vundt, ushbu nuqtai nazardan, antroposotsiogenezning (insoniyat jamiyatining taraqqiyoti) turli individualistik konseptsiyalarini tanqid qiladi (til, din, davlat paydo bo‘lishining individualistik nazariyalari; jamoaviy bitim nazariyalari).

Xalqlar psixogenezi (psixik xususiyatlar taraqqiyoti) va antroposotsiogenezi baholash mezonlari hali ishlab chiqilmagan bir paytda, xalqlar psixologiyasi taraqqiyotini belgilovchi ba'zi bir ko'rsatkichlarni farqlashdan oldin, umuman xalq va insonning tabiiy ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi tizimli omillarni aniqlab olmoq joiz edi. **G. Lebon** o'zining «Xalqlar va omma psixologiyasi» nomli asarida xalqlar psixologiyasi taraqqiyotini baholashning muhim mezonlarini ajratishga muvaffaq bo'lgan. G. Lebon ta'kidlashicha, har bir xalqning tuyg'ulari, fikrlari, e'tiqodi va san'ati uning anatomik xususiyatlari kabi barqaror, o'ziga xos ruhiy tuzilishga ega. Ushbu holatda G. Lebonning V. Vundt fikriga e'tirozi kishi va uning psixikasi psixofiziologik xususiyatlarini farqlashga qaratilgan. Har bir irq o'zining anatomik tuzilishiga o'xshash barqaror psixologik tuzilishga ega ekanini G. Lebon bir necha bor qayta takrorlaydi. O'z asarida, G. Lebon, u yoki u xalqning psixologik xususiyatini aniqlash imkonini beradigan, o'rtacha tipni tashkil qiladigan, asosli tarzda mentalitet, deya atagan psixologik xususiyatlarga e'tibor qaratadi. G. Lebon tasodifan olingan minglab Fransuz, minglab ingliz, minglab xitoylar, albatta, bir-biridan ajralib turishini ta'kidlaydi. Biroq ular irqlarining nasliy kuchiga ko'ra Fransuz, ingliz, xitoylikning ideal tipini tiklash imkonini beruvchi umumiy xossalarga egadir. G. Lebon fikrlari biogenetik va psixik taraqqiyotning ma'lum ko'rinishi va unga asoslangan xalqlar psixogenezining ba'zi bir chizgilarini aniqlash mumkinligi bilan bog'liqligini e'tirof etishimiz lozim.

Xalqlar psixogenezi va sotsiogenezi baholashning keyingi mezoni umumiy e'tiqodlar, umumiy manfaatlar, vujudga kelayotgan ijtimoiy vaziyatlarning umumiy baholanishi kabi ko'rsatkichlar bilan bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, xalq psixogenezi tashkil topishining muhim ko'rsatkichi bo'lmish ongning turli darajalari haqida fikr yuritishiga asos bo'lmoqda. G. Lebon bir-biriga sira o'xshamaydigan turli g'oya va tuyg'ularga ega bo'lgan kichik elatlar (pikardiy, flamand, burgund, gaskon, breton, provansal) dan tashkil topgan Fransuz millati umumiy g'oya, e'tiqod, milliy manfaatlarining anglanilishi oqibatida yagona Fransuz millatiga aylanganini ta'kidlaydi. Pirovardida, alohida shaxsning individual ongi butun xalqning shuuriga singadi, u Fransuz millati psixogenezi shakllanishida muhim tarkibiy qism sifatida ishtirok etgan, deydi G. Lebon.

4. Amerika etnologiyasidagi psixologik yo'nalish va etnopsixologiyaning sobiq Ittifoqdagi rivoji.

XX asr boshlarida o'z oldiga madaniyat va shaxs o'rtasidagi o'ziga xos munosabatlarni aks ettirishni maqsad qilib olgan bir necha turli yondashuvlar paydo bo'ldi hamda ushbu munosabatlarni o'rganishga qaratilgan bir qator metodlar ishlab chiqildi. Ushbu munosabatlar ilmiy tadqiqot predmetiga aylangan ilk tadqiqiy urinishlar inson psixologiyasini o'z ilmiy yo'nalishi nuqtai nazaridan ko'zdan kechiradigan etnograflar tomonidan amalga oshirilgan.

O‘z nazariy tamoyillarini bevosita joylarda o‘tkazilgan tadqiqotlar orqali olingan materiallarga asoslashga uringan: **Margarit Mid, Veston Lobbar, Rut Benedikt** kabi olimlar, madaniyat va shaxsni o‘rganishga mo‘ljallangan ilmiy yondashuvlarning fundamentini ishlab chiqishgan.

M. Mid va uning hamkasblari psixoanalitik **A. Kardiner** hamda antropologlar **R. Linton** va **K. Dyubualarning** tadqiqotlari «ustuvor shaxs» va «modal shaxs» kabi tushunchalarning paydo bo‘lishiga hamda madaniyat va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishning yangi yo‘llari aniqlanishiga turtki bo‘ldi.

R. Benedikt va **M. Mid** kabi mashhur amerika etnologlarining ishlarida etnik jihatlar psixoanaliz va eksperimental psixologiyaga tayangan holda o‘rganilgan. Ushbu *tadqiqotlar konsepsiyasi* **Z. Freyddan** o‘zlashtirilgan bo‘lsa, *metodika* – **V. Vundtnikidir**. Etnologlarga shaxs paydo bo‘lishining, taraqqiy etishi va hayot kechirishining antropologik xususiyatlarini tadqiq qilishga va uni o‘rganishning psixologik metodlariga tayanuvchi psixologik nazariya zarur edi. Psixoanaliz o‘sha davrda shunday nazariya va metodga aylandi. U etnopsixologlar tomonidan psixiatriya va klinik psixologiyadan o‘zlashtirilgan metodlar bilan bir qatorda qo‘llanilgan. Etnopsixologlar **Z. Freydning** madaniyat va shaxsning o‘zaro munosabatini subyektiv nevrotik holatlardan keltirib chiqarish mumkinligi xususidagi farazidan keng foydalana boshlashdi. Bunday yondashuv «modal shaxs» – turli etnik guruhlariga taalluqli individlarning ko‘zga tashlanadigan chizgilarini belgilovchi, etnopsixologlarning ustuvor atamasi tahlilida kuchliroq namoyon bo‘ladi.

«Modal shaxs» o‘lchamlariga: fikr yuritish texnikasi, tuyg‘ular, tadqiq etilayotgan shaxsning ko‘zga tashlanadigan alomatlari sifatidagi alohida madaniyatning o‘ziga xos o‘rtachalashtirilgan xarakteri kiradi. «Modal shaxsni» tadqiq etish jarayonida nevrotik shaxs va ibtidoiy odamni qiyoslash imkoni borligi hamda me‘yor va patologiya o‘rtasidagi chegara nisbiy ekani to‘g‘risidagi **Z. Freyd** farazidan keng foydalanilgan. Bunga binoan, har bir xalq o‘ziga xos patologiya tashuvchisi bo‘lib hisoblanadi. Turli madaniyatlardagi patologiya tashxisi ma‘lum darajada o‘z isbotini topgani, **R. Benediktning** etnomadaniyatlarda turli «me‘yorlilik» standartlari mavjuddir, degan xulosasiga asos bo‘ldi. Bunday yondashuvda individual darajadagi diagnostikaning o‘ziga xosligi, odatda, butun ijtimoiy jamoaga ko‘chirilgan, bu esa madaniyatlar betakrorligi xususidagi tezisning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Ushbu yondashuvga binoan, har bir xalqda shaxsning o‘z ustuvor tuzilishi mavjud va u ijtimoiylashuv orqali avloddan avlodga o‘tib keladi hamda ma‘lum darajada ushbu xalqning taqdirini belgilaydi. Ushbu yondashuv vakillarining e‘tiborini ijtimoiylashuvning ilk bosqichida ong ostida paydo bo‘luvchi shaxsning

ichki nizolari o'ziga qaratgan. Bu, o'z navbatida, ijtimoiylashuvning keyingi bosqichlarida vujudga keladigan qiyinchiliklarga sabab bo'lib, psixologik himoya mexanizmlaridan proektsiyaning shakllanishiga olib kelgan.

Chekka shimol va **Polineziyaning** tub aholisi orasida o'tkazilgan ko'plab empirik tadqiqotlardan olingan natijalar psixoanalitik talqinga ega. **A. Kardiner**, *zuni* (Afrikadagi qabilalardan birining nomi) xalqi madaniyatini tahlil qilar ekan, ushbu qabilaning tinchliksevar xulq-atvori asosini tub jamoa tuzilishidagi kuchli uyat hissining mavjudligida, deb biladi. Bu uyat hissi, ota-onaning kayfiyatiga tobe farzand, kichik aybi uchun shafqatsiz jazoga mustahiq qilinadigan tarbiya oqibatidir. Ushbu farzandda ulg'ayish davomida jazolanish xavfi sotsiumdagi shaxsiy muvafaqqiyatsizlikka yo'liqishdan qo'rqish xavfiga aylanadi, bu hol o'z ijtimoiy ma'qullanmaydigan xatti-harakatlari oldidagi uyat hissi bilan kuzatiladi. Odamxo'rlik saqlanib qolgan qabilalar, **A. Kardiner** tomonidan, «*Edip kompleksi*» ta'siri nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Keyinchalik «shaxsning ustuvor tuzilmasi» tushunchasi «modal shaxs» kabi empirik tushuncha bilan to'ldirilgan. Ushbu yondashuv individual ma'lumotlarni muntazam yig'ish va ushbu madaniyatda eng ko'p uchraydigan shaxs tipi tadqiqotning munosib obyektidir, degan taxminga asoslangan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, «*modal shaxs*» tushunchasining «*shaxs ustuvor tuzilmasi*» tushunchasidan ikkita katta ustunligi mavjud:

1) jamoaning barcha yoki ko'plab a'zolari bir xil shaxs tuzilmasiga ega bo'lolmaydi;

2) «modal shaxsni» o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarda kuzatuv, biografik ma'lumotlar va test natijalari mustaqil ravishda olinishi, chop etilishi mumkin, xulosalar va statistik tahlillar orqali ularning ishonchliligini oshirish imkoniyati yuqori.

Psixoanalitik yondashuvda, asosan, proektiv metodikalar – Rorshax testi, tugallanmagan jumlar va tematik appertsepsion test (TAT) qo'llanilgan.

«Madaniyat va shaxs» maktabining yutug'i quruq subyektiv etnografik tavsiflardan verifikatsiya qilinishi mumkin bo'lgan psixologik tadqiqotlarga yuz burganidadir. «Milliy xarakterni» o'rganish ushbu turdagi tadqiqotlarning mantiqiy davomiga aylangan.

AQShda milliy xarakterni o'rganish ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq. dushmanlarni va ularning liderlari psixologiyasini tushunish nafaqat urush davomidagi operatsiyalarni rejalashtirishda, balki urushdan keyingi davlat siyosatini yurgizishda ham samarali hisoblangan. AQSh urushga kirishganidan keyin **R. Benedikt**, **K. Klakxorn** kabi yirik antropologlar Vashingtonga ko'chib o'tib milliy xarakterni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarda ishtirok eta boshlashgan. **M. Mid** guvohligiga ko'ra, 1943 yildan boshlab Vashingtonning turli davlat

idoralarida milliy xarakter muammolari bilan shug'ullanuvchi ko'plab psixolog va antropologlar bo'lgan. Yapon, nemis, rus milliy xarakterlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar – buning yorqin namunasidir.

Amerikaliklar fikricha, ushbu urushdagi eng g'aroyib dushman – *Yaponiya bo'lgan*. Yapon hukumatining o'zini tutishi, shuningdek, yapon askarlari xulq-atvori amerikaliklarni mushkul ahvolga solgan. Masalan, yapon askarlarining imperatorga sodiqligi va muvaffaqiyatsizlikka yo'liqqandan so'ng o'z joniga qasd qilishga tayyorligi ularni lol qoldirgan. Biroq, bundan-da ajablanarlisi, asir askarlarning paradoksal xulq-atvoridir: ular hiyonatni juda yengil kechirishib, amerikaliklarga bajonudil yordam berishga kirishishida. Ushbu faktlarni **K. Klaxorn** tushuntirib berishga harakat qilib ko'rgan. Uning fikriga ko'ra, yapon harbiy asirlari o'z oilasi, do'stu birodarlari va Vatanidan ayrilgach, o'zlarini «*o'z jamiyati uchun o'lganday*» idrok qilishlarida edi. Zotan, ular jismonan tirik ekan, yangi jamiyat tomonidan qabul qilinish ilinjida, amerika armiyasiga kirishga, ularni batafsil axborot bilan ta'minlab turishga majbur qilardi. Shunga asoslangan holda, amerikalik antropologlar yapon jamiyati axloqi vaziyatini, degan xulosaga kelganlar.

Amerikalik antropologlar, yetuk yoshli yapon vakili xarakterining negizi burch va majburiyatdir deya ta'kidlashadi. O'rta yoshli yaponlar, qariyalar va bolalardan ko'ra kamroq shaxsiy erkka ega bo'lib: bu hol amerika jamiyatining butkul aksi ekani, shunday xulosaga sabab bo'ldi (amerikada o'rta yoshlilar-qariyalar va bolalardan ko'ra ko'proq shaxsiy erkka ega). XX asr o'rtalarida, amerikalik madaniy antropologlar nigohi ilg'agan yapon milliy xarakter «mohiyati» shundaydir.

Nemis milliy xarakterini **Z. Freyding** iqtidorli shogirdi **E. Fromm** o'rgangan. U nemis xalqi nima uchun Gitlarning diktatorlik rejimiga uchganini tushunishga harakat qilgan. U, Germaniyada natsistlik harakatini paydo bo'lishini, ushbu davlatda shaxsning avtoritar ko'rinishi ustivor ekanligi bilan izohlagan. Bunday shaxs o'zidan yuqoriroq mansab egalariga nisbatan hojatbaror bo'lib, o'z qo'l ostidagilari bilan bo'lgan munosabatda esa takabbur, bepisand. **Fromm** fikricha, bunday xarakter egalari turli demokratik muassasalarga xavotir bilan qaraydilar va o'zlarini qulay his qiladigan avtoritar tizimlarga o'tish, ya'ni «erkdan qochish» tendentsiyasini namoyon qilishadi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng tadqiqotlar markazini Rus milliy xakteri egalladi. **Britaniyalik antropolog D. Gorer** o'zining «*yo'rgak*» nazariyasini ilgari surdi, **M. Mid** uni ommalashtirdi, **E. Erikson** esa «*M. Gorkiy yoshligi haqida afsona*» deb nomlangan maqolasida uni o'ziga xos tarzda qayta ishladi. **D. Gorer** ruslarda go'daklarni ilk oylaridan boshlab mahkam yo'rgaklash an'anasi mavjud deydi. Bu esa, uning fikriga ko'ra, ularni kuchli va bosiq bo'lib voyaga yetishiga olib kelar ekan, aks holda ular o'zlariga oson jarohat yetkazishlari mumkin emish.

Qisqa muddatga yo'rgakdan ozod qilishganda esa ular bilan faol o'ynashib, yuvintirishar ekan. Gorer bunday uzoq muddatli harakatsizlik va qisqa muddatli muskulli faollik va kuchli ijtimoiy o'zaro munosabatlarni ko'rgazmali tarzda rus milliy xarakterining ma'lum bir jihatlari hamda Rossiyaning tashqi siyosati bilan bog'lagan. Aksariyat ruslar, uning fikriga ko'ra, kuchli ruhiy kechinmalarga moyil bo'lib, uzoq cho'ziladigan depressiya va «o'zni ayblashlardan» so'ng ro'y beradigan qisqa muddatli ijtimoiy faollikni his qilishar ekan. Uning fikriga ko'ra, ushbu qonuniyat jamiyatning ijtimoiy hayotini ham belgilar ekan: tashqi avtoritetlarga bo'lgan kuchli tobe'lik davri intensiv inqilobiy faoliyatning yorqin davrlari bilan almashinadi.

Albatta, rus milliy xarakterining «yo'rgakli» kompleksidan boshqa nazariyalar ham bo'lgan. Klinik intervyu va psixologik testlash «buyuk rossning» «modal shaxsi»ni yaratilishiga olib keldi. Amerikalik antropologlar fikriga ko'ra, u «*iliq, odamiy, ijtimoiy qovushuvga intiladigan juda tobe, labil (emotsional beqaror), kuchli, biroq hukmron insonga bo'ysunishga tayyor intizomsiz shaxs*».

Sobiq Ittifoqda etnopsixologik muammolar uzoq paytgacha taqiq ostida bo'lgan, zero ittifoqda milliy, milliy o'zlikni anglash masalalarining qo'yilishining o'zi nojoiz sanalgan. O'sha davr mafkurasiga ko'ra sobiq ittifoq tarkibiga kiruvchi barcha davlatlarda Sovet odami yashashi lozim edi. Biroq, 70-yillardan boshlab etnopsixologik masalalar yana o'z dolzarbiligini ko'rsatib o'tdi. Va milliy ong, milliy o'zlikni anglash muammolari tadqiqotlarning aksariyatini tashkil eta boshladi.

Milliy o'zlikni anglash jarayonini o'rganish bo'yicha **M.N. Guboglo (1973), G.V. Starovoytova (1976), A.A. Kojanov (1977)**lar tadqiqiy ishlarni olib borganlar. Ushbu tadqiqotlar xususiy xarakterga ega bo'lib etnik taraqqiyotning barcha jarayonlarini ochib berolmagan. Millatlararo munosabatlar, milliy psixologiyaga va milliy o'zlikni anglashga qonun normalari qanday ta'sir qilishi masalalari tadqiqotchilarning diqqat markazidan chetda qolgan.

1980 yillar oxirlaridan guruhlararo va millatlararo munosabatlarga bag'ishlangan ilk psixologik tadqiqotlar paydo bo'la boshladi (**G.U. Ktsoeva, O.I. Dreev va h.k.**).

1990 yillarda **Z.V. Sikevich, G.U. Soldatova, V.Yu. Xotinets** va boshqa qator olimlarning amaliy etnopsixologik tadqiqotlarining natijalari chop etildi.

G.U. Soldatovanning monografiyasida millatlararo taranglikni tadqiq etishga mo'ljallangan ijtimoiy-psixologik yondashuvning metodologik va nazariy tamoyillari ochib berilgan.

1994 yili **K. Kasyanovanning** «Rus milliy xarakteri xususida» nomli monografiyasi chop etildi. Bunda muallif rus va amerika tanlanmasida MMRI testi orqali olingan qiyosiy materiallarini keltirgan. **K. Kasyanova** tarixiy va ijtimoiy ko'rinishdagi original va chuqur interpretatsiya orqali Rus milliy mentalitetiga xos

chiroyli konsepsiyani ilgari suradi. Alohida e'tibor «*ijtimoiy arxetiplarga*» qaratilgan bo'lib, muallif ular rus madaniyatiga xos bo'lgan odatiy vaziyatlarda g'ayrushuriy tarzda xulq-atvor motivlarini idora qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Monografiyada toqat, iztirob, tobelik kabi madaniy qadriyatlarga alohida urg'u berilgan.

Shu yillarda etnik psixologiya muammolariga bag'ishlangan qator ishlar chop etilgan. Bularga **Yu.P. Platonovning, L.G. Pochebut (1993), A.O. Boronoev va V.N. Pavlenko (1994), E.A. Sarakueva va V.S. Kro'sko (1996), N.M. Lebedeva (1997), T.G. Stefanenko (1999)** ishlari taalluqlidir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yunonistonda turli halqlarga xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarning vujudga kelishi.
2. Gippokratning "Suv, havo va quruqlik" degan asarlarida bayon qilingan fikrlar.
3. Psixologik xususiyatlarning vujudga kelishida tabiiy-geografik muhitning roli.
4. Gerodatning "Tarix" kitobida halqlarga xos psixologik xususiyatlarni vujudga kelishida hayot tarzi va muhitning roli to'g'risidagi fikrlar.

7-MAVZU: ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Reja:

1. Siyosiy-iqtisodiy va jamiyatdagi ijtimoiyomillarning o'rni.
2. Tabiiy-geografik muhit va uning etnik xususiyatlariga ta'siri.

Tayanch tushunchalar: siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy omillar, etnopsixologiya, murakkablik, etnopsixologiya predmeti va obyekti, etnopsixologiyaning gumanitar fanlar tizimidagi o'rni, ijtimoiy qatlamlar, millatga xos xususiyatlar, etnik guruhlar.

1. Siyosiy-iqtisodiy va jamiyatdagi ijtimoiy omillarning o'rni. Ayrim tadqiqotchilar va mualliflar etnopsixologik xusiyatlarning real mavjudligini inkor etadilar yoki uni tekshirish uchun qiyin obyekt ekanligini ta'kidlaydilar. To'g'ri, etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishdagi qiyinchiliklarni inkor etib bo'lmaydi. Lekin, shu bilan birga, bu real mavjudmiyoki yo'qmi degan savolning qo'yilishi ortiqcha deb o'ylaymiz. Etnopsixologik xususiyatlar kelib chiqishi jihatidan bugun

o'tmishi, hayot tarzi va tarixi bilan bog'lanib ketgan bo'lib, bu xususiyatlar millat shakllanmasdan avvalroq vujudga kela boshlagan (ma'lumki, millat etnik birlik taraqqiyotining yuqori bosqichidan yuzaga keladi).

Etnopsixologik xususiyatlarining ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlari (urug', qabila, millatlar)ga xosdir. Etnopsixologik xususiyatlar, ayrim tadqiqotchilar ko'rsatganidek, faqat bir omil – tabiiy muhit ta'siri bilangina vujudga kelib qolmay, uning vujudga kelishida uchta omil ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omilga *siyosiy-iqtisodiy* va jamiyat hayotida bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar tizimi, ikkinchisiga shu etnik birlik yashab turgan *tabiiy-geografik* muhitning xususiyatlari, uchinchi omilga esa xalq hayotida bo'lib o'tgan tarixiy hodisa va voqealar kiradi. Lekin shuni aytish kerakki, etnopsixologik xususiyatlar tizimida kishilar ruhiyatining mazmuni avvalo birinchi omil – siyosiy-iqtisodiy ijtimoiy o'zgarishlar bilan belgilab beriladi. Tabiiy-geografik omil esa asosan etnopsixologik qiyofaning tashqi ifodalarini belgilaydi. Shuning uchun ham bu omil kuzatayotgan kishi nazarida birinchi omilga qaraganda yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealar so'zsiz unda psixologik uchmas iz qoldiradi. Tabiatdagi ayni bir voqealikning doim ta'siri natijasida kishilar bu voqealikdagi xususiyatlarni boshqa sharoitda yashayotgan etnik guruh vakillariga qaraganda chuqurroq idrok etishga o'rganib qoladilar. Chunki tashqi muhit bizning sezgi a'zolarimizga behisob informatsiyalar, ya'ni xilma-xil taassurotlar yuborib turadi, natijada evolyutsion taraqqiyot davomida tanamizda shu tashqi muhit bilan adekvat (munosib) munosabatni ta'minlovchi neyro-fiziologik mexanizm shakllanadi. U kishilarning sezgi va idroklarini namoyon etadi. Shuning uchun u yoki bu xalqqa xos stereotip xatti-harakatlarni, idrok xususiyatlarini tashqi muhitga moslashuvining oliy ko'rinishi deb hisoblash kerak.

Tashqi muhitning doimiy ta'sirida vujudga kelgan ruhiy xususiyatlar bu taassurotlarning butun sistemasi (tizimi)ni emas, balki uning uchun muhim bo'lgan va o'tmish tajribasida sinalgan, mustahkamlangan qolgan tomonlarinigina aks ettiradi.

Miya o'z-o'zidan tashqaridan kelayotgan informatsiyalarsiz fikrlay olmaydi. Psixolog **P.P. Beonyokiy** aytganidek, «*Bo'm-bo'sh boshda fikr bo'lmaydi*».

Ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy shart-sharoitlar inson faoliyatini belgilaydi. Bu esa, o'z navbatida, ruhiy jarayonlar ongning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Turli davrlarda, zamonlarda yaratilgan mehnat mahsulotlarida o'sha davr va zamon odamlarining bilimlari va imkoniyatlari o'z aksini topgan bo'ladi. Zero, mehnat jarayonida subyekt obyektga ko'chadi, insonning kuch va qobiliyatlari u yaratayotgan narsalarda gavdalanadi. Shuning uchun ham psixologlar turli tarixiy davrlarda yashagan kishilarning ruhiy xususiyatlarini, davr ruhini, ular yaratib qoldirgan faoliyat mahsulotlarini o'rganishi orqali bilib olishlari mumkin.

Har bir xalqning tarixi va taqdiri o'ziga xos tarzda kechadi. Agar xalq tarixini va uning psixologik xususiyatlarini bir-biriga solishtirsak, biz etnopsixologik xususiyatlarda xalq tarixini chuqur aks ettirishini ko'ramiz. Yuqoridagi zikr etganimizdek, etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiiy muhit ham ta'sir ko'rsatadi. Geografik va iqtisodiy sharoitlarning o'xshash bo'lmashligi, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki qo'shni va qardosh xalq – o'zbeklar bilan qozoqlarning psixologik qiyofasida ma'lum tafovutlarni vujudgakeltirib chiqardi.

Ma'lumki, o'zbeklarning asosiy qismi dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyati mavjud bo'lgan vohalarda joylashgan. Yerga xususiy mulkning vujudga kelishi, yerdan unumli foydalanish dehqonchilik mahsulotlarini ko'plab yetishtirishga olib keldi. Bundan tashqari, o'zbeklar yashaydigan yirik shaharlarning g'arbdan sharqqa, janubdan shimolga o'tuvchi katta karvon yo'llarda joylashganligi nafaqat bu yerlarda dehqonchilikni, balki pul-tovar munosabalarini, hunarmandchilikni, qo'shni xalqlar bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishga olib keldi.

XV-XVI asrdayoq Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo'qon, Xo'jand kabi yirik shaharlar Hindiston, Xitoy, Eron, Rossiya, Arabiston kabi mamlakatlar bilan keng savdo-sotiq ishlarini olib borishgan. Bularning hammasi o'zbek xalqining hayot tarziga va psixologiyasiga singib, o'z aksini topib borgan. Qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq va boshqa iqtisodiy-madaniy aloqalarning qizg'in olib borilishi ulardan xushmuomalalilik, xushtabiatlilik, hozirjavoblik, tadbirkorlik kabi xususiyatlarni talab etgan.

O'zbek xalqining hayoti va turmush tarzini o'rgangan tadqiqodchilarning barchasi o'zbeklarga xos bo'lgan ochiq yuzlilik va xushmuomalalikni ta'kidlab ko'rsatishgan edi. Shuningdek, o'zbeklarga xos bu xususiyatlarni qozoq adabiyotining buyuk namoyandasi **Abay** ham ta'kidlab, *«iltifotlilik, xushmuomalalik bularning hammasi sartlardadir»*, deb yozgan.

Yuqorida aytilganidek, o'zbeklarning bir necha asrlarmobaynida dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishlari ishlab-chiqarishning asosiy vositasi – yerga nisbatan ularda tejamkorlik va omilkorlikni vujudga keltirdi.

N. Jondil'dik qozoq xalqiga xos bo'lgan ayrim vazminlik, kamsuqumlikni xo'jalik yuritish ishlari bilan bog'liq deb ko'rsatadi, butun umr chorvachilik bilan shug'ullanishlari ularning xo'jalik hayotining deyarli butun qismini tashkil etgan. Aholini tarqoq holda joylashtirish ular o'rtasida aloqa o'rnatishni qiyinlashtirgan, ular hatto uzoq vaqt davomida yolg'iz yashashga majbur bo'lganlar. Bu esa ularda o'zaro muomalada kamgaplik, hatto eng nozik va qaynoq tuyg'ularini bayon etishda vazminlikni vujudgakeltirgan.

Shunday qilib, ikki qardosh va qo'shni xalq (o'zbeklar va qozoqlar) o'zlarining uzoq iqtisodiy va madaniy aloqalariga etnik jihatdan yaqinligi, tilining

o'xshashligiga qaramay, yuqoridagi sabablar tufayli butun xususiyatlari bilan farq qiluvchi millat bo'lib shakllangan.

2. Tabiiy-geografik muhit va uning etnik xususiyatlariga ta'siri. Tabiiy-geografik omillarning obyektiv ta'sirlarini xolislik bilan o'rganish, hech qanday irqchilik va millatchilik nazariyalarni keltirib chiqarmaydi. Shu narsa ma'lumki, serunum yer, mo'tadil iqlim va boshqa tabiiy sharoitlar, ko'p jihatdan ishlab chiqarishning rivojiga, aholi sonining o'sib borishiga ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, masalan, shimoldagi va tropik mamlakatlardagi elatlar va xalqlar tarixiy taraqqiyotida nisbatan mo'tadil iqlim sharoitlariga ega bo'lgan xalqlardan orqada qolib ketishgan.

Agar shimolning qattiq sovuq tabiyati dehqonchilik qilishga va san'atning rivojlantirishga moyillik qilgan bo'lsa, iqlimdagi zaminning sermahsulligi kishilarning dangasa va taralla-bedot qilib, bir etnografik so'z bilan aytganda, kishilarni xuddi bolalarga o'xshash ojiz, nomustaqil qilib, uning taraqqiy etishining tabiiy zarurat qilib qo'ymaydi.

Shu narsani paykash qiyin emaski, deb yozadiki, etnograf **Yu.V. Bromley** – sotsial iqtisodiy, geografik va boshqa shart-sharoitlar ta'siri natijasida mehnatsevarlik kabi xususiyat hamma xalqlarda ham bir xil namoyon bo'lavermaydi.

Tabiiy muhitning o'ziga xosligiga ko'ra, kishilar yashashi uchun zarur bo'lgan narsalarga erishishda uchraydigan qiyinchiliklarni turlicha yengib o'tadilar.

Psixolog **I.S. Konning** yozishicha, *Yangi Gvineyaning* ichkarisida va nisbatan Evropa ta'siri kam yetib borgan joylarda yashaydigan xalqlar qulay iqlim sharoitlariga va tabiatning mo'l-ko'l ne'matiga ega bo'lganligi uchun ham ba'zi qiyin sharoitda yashaydigan kishilarga o'xshab ertaning tashvishi bilan yashashga o'rganmaganlar. Shuning uchun ham ular faqat kundalik ehtiyojlarini qondirish uchungina mehnat qilishadi. Ko'plab narsa ishlab chiqishga va g'amlab qo'yishga harakat ham qilmaydilar. Ularning nazarida kim kuyib-pishib ko'p ishlasa, ochko'z va yomon odam hisoblanadi.

Shunga ko'ra, ularning iqtisodiy madaniy rivojlanishi ham ishlariga yarasha darajada.

Qaerda ishlab chiqarish yuqori saviyada tashkil qilinmagan bo'lsa, mehnatkashlar bo'lmasa, u yerda ijtimoiy, tarixiy rivojlanish ham bo'lmaydi. Rivojlangan qaysi bir mamlakatni olib ko'rmang, shu yerda mehnatga munosabat, mehnatkashlik juda yuqori darajada ekanligini ko'ramiz.

Tabiiy-geografik muhit ta'siri qanchalik sezilarli bo'lmasin, biroq etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishda uning yetakchi omil qilib qo'shish to'g'ri emas. Shu bilan birga, uning rolini inkor etish, yoxud ortiqcha oshirib yuborish noto'g'ri xulosalar qilishga olib keladi.

Psixolog **S.L. Rubinshteyn** ko'rsatganidek, *«Ruhiy xususiyatlarning shakllanishini tabiiy sharoitlar yoki ijtimoiy muhit bilan birga asoslab tushuntirish mumkin emas. Bularning biri bo'lmasin muloqotlashtirish malakasini barbod bo'lishga mahkum etadi».*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Etnopsixologiyaning ko'p qirraliligi.
2. Tabiiy sharoitlar, iqtisodiy xususiyatlar siyosiy va g'oyaviy ustquritmalarining ta'siri?
3. Halq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealarning psixologiyada aks etishi?
4. O'zbek halqiga xos ayrim psixologik xususiyatlar va ularning shakllanishi sabablari?
5. Faoliyat turi va shaklidagi farqlar hamda oliy ruhiy funktsiyalar tizimidagi tafovutlar.

8-MAVZU: ETNOPSIXOLOGIYANING TUZILISHI, KOMPONENTLARI VA MILLIY XARAKTER MUAMMOSI

Reja:

1. Milliy psixologik qiyofa va uning tuzilishi.
2. Milliy xarakter.

Tayanch tushunchalar: milliylik, milliy xarakter, ijtimoiy omillar, etnopsixologiya, etnopsixologiyaning gumanitar fanlar tizimidagi o'rni, ijtimoiy qatlamlar, millatga xos xususiyatlar, etnik guruhlar.

1. Milliy psixologik qiyofa va uning tuzilishi. Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishda ayrim terminologik chalkashliklar ham mavjud. Etnopsixologiyaga oid adabiyotlar ayrim mualliflar tomonidan etnik psixologiya bilan milliy psixologik qiyofani aynan bir ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Masalani bu xilda tushuntirish va talqin etish noto'g'ri. Etnik psixologiya nisbatan keng tushuncha bo'lib milliy psixologik qiyofaga qaraganda voqelikdagi ko'proq hodisalarni o'z ichiga oladi. U etnik xususiyatlarni millat vakillari aks etilish sifatidagina namoyon bo'lib qolmasdan, shuningdek, dunyoni bilish, anglash shakli bo'lib ham namoyon bo'ladi.

Etnik psixologiyada xalqning yashash sharoitlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy va maishiy odatlar, milliy xarakter, an'analar, milliy tuyg'u, milliy tab'-did, milliy ong kabi xususiyatlar aks etadi.

Milliy psixologik qiyofa etnik psixologiyaning asosiy komponentlaridan hisoblanib, milliy ong bilan birgalikda etnopsixologiyani tashkil etadi.

Milliy psixologik qiyofa deganda biz keng ma'noda muayyan tabiiy ijtimoiy munosabatlar sharoitida yashovchi kishilar tabiatdagi voqealarni, ijtimoiy hayot hodisalarini o'ziga xos talqin qilishi va ularni ta'b va tuyg'ular, urf-odat va an'analar, xarakter tarzida gavdalanishini tushunamiz.

Milliy psixologik qiyofa millatning real mavjud va idrok yetish mumkin bo'lgan belgilaridan biri bo'lib, uning kelib chiqishi xalqning butun tarixi bilan uzviy bog'langandir, psixologik qiyofaning ilk namunalari millat vujudga kelmasdan oldinoq vujudga kela boshlagan. Milliy psixologik qiyofaning ayrim belgilari etnosning hamma tarixiy birliklari – urug', qabila va elatlarga xos.

Milliy psixologik qiyofa qandaydir bir omil ta'sirida vujudga kelmaydi, balki bunda ikki omil o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omilni ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, ikkinchisini esa muayyan xalq yashab turgan tabiiy sharoitning xususiyatlari tashkil etadi. Bu yerda kishilar ruhiy qiyofasining tashqi ifodalari ikkinchi omil bilan uzviy bog'langandir. Negaki, ikkinchi omil o'zining konkretligi, tabiiy yakkaligi bilan yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Ijtimoiy hayotni falsafiy idrok etishda jamiyat va kishilar ongiga ijtimoiy turmushning muhim ta'siri namoyon bo'ladi, xalq hayotida ro'y bergan muhim tarixiy protsesslar va voqealar ayni paytda uning psixologik qiyofasida o'chmas iz qoldiradi, Buni biz har bir xalqning tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan g'oyalar va tasavvurlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, rus xalqi ijtimoiy ongining tabiatiga krepostnoylik munosabatlarining ta'siri kuchli bo'lgan edi. Natijada ongda loqaydlik, boqim-dalik, hafsalasizlik kayfiyati yuzaga kelgan. Bu esa dehqonlarning psixologik qiyofasini belgilab bergan.

Tadqiqotchilarning e'tiroficha, shakllangan milliy psixologik qiyofa ma'lum darajada xalq ruhiyatini muhofaza qiluvchi mexanizm rolini o'ynaydi. U yot narsalarni xuddi elakdek ajratadi, uni yo qabul qiladi, yoki shu xalqda mavjud amaliy me'yorlar asosida qayta ishlab beradi, yoxud uni inkor etadi.

Atrofdagi voqelikni, hodisalarni o'ziga xos idrok, tafakkur, tasavvur qilish va ta'b, tuyg'u, urf-odat, an'ana, xarakter tarzida namoyon bo'lishi milliy psixologik qiyofaning qaytarilmas xususiyatlarini tashkil qiladi. Ma'lum bir millat vakillarining voqelikni o'ziga xos idrok etishi, fikrlashi, orzu-istaklari, oliy psixik xususiyatlarini tushunish va tushuntirish uchun, uning namoyon bo'lish sabablarini organizm yoki miya tuzilishidan emas, balki yuqorida aytganimizdek, xalqning tarixiy taraqqiyoti, tabiiy muhitning shart-sharoitlaridan qidirish kerak. O'tkazilgan ko'plab tajribalar shuni ko'rsatadiki, murakkab bilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlarga emas, balki nisbatan oddiy ruhiy jarayonlar va funktsiyalar ham inson tug'ilishi bilanoq namoyon bo'lmaydi, voqelikdagi hamma narsa va hodisalar kabi

hayotdagi ijtimoiy-tarixiy sharoitlar asosida vujudga keladi, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, geografik muhit, avvalo, inson faoliyatini va bu faoliyat, o'z navbatida, ruhiy jarayonlar va ongning tuzilishini belgilaydi.

Har bir xalqning tarixi va taqdiri o'ziga xos. Agar biz xalq tarixi va psixologik qiyofasini bir-biriga solishtirsak, milliy psixologik qiyofada, milliy xarakterda uning tarixi chuqur aks erganligini ko'rishimiz mumkin. Geografik muhit ishlab chiqarishning tabiiy asosi bo'lganligi uchun ham uning rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. U yoki bu mamlakatda ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jalik yuritish xususiyatlari va turmush tarzi ma'lum jihatdan geografik shart-sharoitlar bilan bog'langandir. Geografik va iqtisodiy sharoitlarning noo'xshashligi etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki qo'shni xalq – o'zbeklar bilan qozoqlarning psixologik qiyofasida ma'lum tafovutlarni vujudga keltirib chiqarganligini ko'rib o'taylik. Ma'lumki, o'zbeklarning ko'p qismi dexqonchilik bilan shug'ullangan. Xususiy mulkning vujudga kelishi, yerdan intensiv foydalanish dehqonchilik mahsulotlarini qoplab yetishtirishga olib keldi. Bundan tashqari, ular yashaydigan yirik shaharlarning G'arbdan Sharqqa o'ruvchi katta karvon yo'llariga joylashganligi bu yerlarda faqat dexqonchilik emas, shuningdek, pul-tovar munosabatlari, turli xil hunarmandchilik, savdo-sotiq ishlari rivojlanishiga olib keldi.

XV-XVI asrlardayoq Buxoro, Samarqand. Toshkent, Qoqon va Xiva kabi yirik shaharlar Hindiston, Xitoy, Eron, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan keng savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Dexqonchilikning rivojlanib borishi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning o'sishi kabi omillar o'zbek xalqining turmush tarzi va psixologiyasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Bu jarayon ulardan xushtabiatlik, xushmuomalalik, hozirjavoblik, ahillik va ziyraklik hislatlarini talab yetar edi. O'zbeklar bir necha asrlar davomida dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishgan. Bu esa ishlab chiqarishning asosiy vosita va boylik manbai bo'lgan yerga nisbatan ularda tejamkorlik va omilkorlikni vujudga keltirgan.

Har bir millat vakillari milliy psixologik qiyofaning spetsifik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi va namoyon etadi, Millatga xos xususiyatlar qanday shakllanadi? Ma'lumki, bola o'ziga Vatanni yoki ota-onani tanlab tug'ilmaydi. Shunday ekan, u o'z millatiga mansub bo'lgan tayyor xususiyatlarni va milliy xarakterga xos ayrim xususiyatlarini meros qilib oladi, xolos.

Bola hayotining birinchi kunlaridanoq, ixtiyorsiz holda o'zi dunyoga kelgan muhitdagi turli-tuman ta'sirlar va taassurotlar ostida shakllana boshlaydi. Bolaning biologik va psixik jihatdan rivojlanishi uchun ta'sir etadigan bu informatsiyalar turli ijtimoiy muhit va geografik sharoitlarda bir xil bo'lmaydi. Mana shu turli xil muhit va undan keladigan informatsiyalarning xilma-xilligi bir-biriga o'xshamaydigan xalqlarning yuzaga kelishida muhim rol o'ynaydi. Bola milliy muhitda yashab turganda shu millat va elatga xos bo'lgan xususiyatlarni egallab, ayni millat vakili

bo'la oladi. Milliy psixologik qiyofaning asoslari esa bolaning ontogenetik (organizmning individual taraqqiyoti) davrida shakllana boshlaydi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ko'rgan narsalarni idrok etish va mazmunini tushunib yetib qobiliyati faqat miyaning tug'ma xususiyati bo'lmay, shu bilan birga turmush tajribasi asosida shakllanadi, Shuning uchun turli tabiiy sharoit va turli ijtimoiy muhitda yashab voyaga yetgan kishilar voqeliklarni idrok etishda o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlarga ega bo'lishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Afrika qit'asining ijtimoiy taraqqiyotda orqada qolgan ba'zi qabilalarining bolalari tajriba bilan bog'liq. Amaliy ahamiyatga ega narsalarni, hodisalarni esda olib qolishda ajoyib xotira namunalari ko'rsatishgan. Ular ov qilinadigan so'qmoqlarni topish, yovvoyi hayvonlar izini farqlash, o'rmon ichida yo'l topa bilishda yevropalik tengdoshlariga qaraganda birmuncha ustunlik qilgan holda, geometrik shakllarni deyarli farqlay olmaganlar. Odam ijtimoiy zot sifatida shakllanib borar ekan, shu ijtimoiy muhitdagi munosabatlarni, milliy xususiyatlarni o'z-o'zidan stixiyali ravishda o'zlashtirmaydi, balki asta-sekin shu jamiyatda qabul qilingan ma'lum ta'lim tarbiya tizimi orqali ularni o'zlashrilib boradi. Har bir avlod vakillari ajdodlarning turmush tajribalarini, din va madaniy xususiyatlarini o'zlashtirib, millat uchun umumiy bo'lgan shart-sharoitlar ta'sirida o'sib, tarbiyalanib borishi natijasida ularda shu millatga xos umumiy psixologik xislatlar shakllanadi.

I.M. Sechenov va **I.P. Pavlovlar** «Fiziologik va ijtimoiy taraqqiyotning qanday darajasida bo'lishlaridan qat'i nazar, hamma xalqlar oliy nerv faoliyatining bir xil apparati – birinchi va ikkinchi signal sistemasidan tashkil topgan apparatga egadir», – deb da'kidlaydilar.

Yaqin-yaqingacha «milliy psixologik qiyofa» va «milliy xarakter» terminlari sinonim so'zlar sifatida ishlatib kelingan. Ular ma'lum darajada mazmun jihatdan va psixikaning asosiy xususiyatlariga taalluqligi bilan bir-biriga to'g'ri kelsa ham, lekin ayni bir narsa emas. Milliy psixologik qiyofa masalasi bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar «milliy psixologik qiyofa», «milliy xarakterga qaraganda keng tushuncha bo'lib, «milliy xarakter milliy psixologik qiyofaning tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlashadi. Bu ikki tushunchani bir-biridan farqlab **N. Sarsenbaev** milliy xarakter milliy psixologik qiyofaning ancha harakatchan va nisbatan tez o'zgaruvchan elementi ekanligi va u asosan, kapitalistik munosabatlar shakllanishi davrida yuzaga kelgani holda, milliy psixologik qiyofaning boshqa elementlari kishilar birligining barcha tarixiy shakllariga ham ozmi-ko'pmi birday taalluqligini ko'rsatib beradi.

Milliy psixologik qiyofa bilan milliy psixologiyani ba'zida aynan bir narsa, deb talqin etish hodisalari uchrab turadi. Masalani bu xilda tushunish va bayon etish noto'g'ri, albatta. Milliy psixologiya milliy psixologik qiyofaga qaraganda keng

tushuncha bo'lib, voqelikdagi ko'p hodisalarni o'z ichiga qamrab oladi. Milliy psixologik qiyofa milliy psixologiyaning asosiy komponentlaridan bo'lib, milliy ong bilan birgalikda milliy psixologiyani tashkil qiladi. Milliy psixologiyada xalqning yashash sharoitlaridan kelib chiqadigan va ular asosida tasvirlanadigan ijtimoiy odatlar, tuyg'ularning psixologik tomonlari, milliy xarakter, urf-odat va an'analar, milliymanfaat, milliy ong kabi xususiyatlar aks etadi.

Turli mualliflar tomonidan milliy psixologik qiyofaning tabiati turlicha sharhlanib qolmasdan, balki uning struktura tuzilishi to'g'risida ham turli qarashlar mavjud.

A.D. Goryacheva milliy psixologik qiyofa strukturasiga milliy xarakter, odatlar, ta'b va an'analarni kiritadi, «Milliy psixologik qiyofa, milliy xarakterdan tashqari, o'z ichiga rasm-rusumlar, ta'b, xurofiy odatlar, urf-odat va an'analarni qamrab oladi», deb yozadi u. Umuman olganda, bu fikrga qo'shilish mumkin. Obyektiv jihatdan milliy xususiyatlarga ega bo'ladi. Shuning uchun fanda milliy xarakter etnopsixologiya fani o'rganadigan muammolardan hisoblanadi, Milliy psixologik qiyofa strukturasi haqida **N. Sarsenboev** ham o'ziga xos fikr yuritadi. Uning fikricha, milliy psixologik qiyofa o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo etuvchi uchta tarkibiy qismni tashkil etadi: milliy tuyg'u, urf-odat, an'analar va milliy xarakter.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni aytishimiz mumkinki, milliy psixologik qiyofa, avvalo, milliy xarakter, milliy urf- odat va an'analar, milliy tuyg'u va ancha barqaror bo'lgan milliy ta'b kabi elementlar orqali namoyon bo'ladi. Mana shu prinsipga tayanib, biz milliy psixologik qiyofaning asosiy elementlari – milliy xarakter, urf-odat va an'analar, milliy tuyg'u va ta'b to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

2. Milliy xarakter. Milliy xarakter haqida so'z yuritishdan oldin xarakter tushunchasining mohiyat-mazmunini, umumiy jihatlarini belgilab olish lozim. «Xarakter» so'zi yunonchadan olingan bo'lib, «pechat», «chekanka» degan ma'nolarni anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida xarakter quyidagicha ta'riflanadi.

Xarakter (grek) inson xulqi yoki axloqida namoyon bo'ladigan va unda odat tusiga kirib qolgan eng muhim ruhiy holatlar majmui, fe'l-atvor. Psixologik jihatdan xarakter shaxsning faoliyati va muloqotida namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlar yig'indisidir. Xarakter shaxsning ijtimoiy borlig'i bilan belgilanadi, sotsial tajribani o'zlashtirishga asoslanadi va shu asosda uning tipik belgilari yuzaga keladi. Xarakterning ijtimoiy-tipik birligida uning individual o'ziga xosligi namoyon bo'ladi, oqibatda subyektning sotsiallasuvi yuzaga keladi, ayni paytda uning individualligini tabiiy zaminlari – qobiliyati, temperament, oliy nerv sistemasi aks etadi.

Individ xarakteriga xos belgilar orasida ba'zilar yetakchi, boshqalari ikkinchi darajali o'rin tutadi. Xarakter faoliyatda namoyon bo'ladi, individ uchun shaxsiylik ma'nosiga ega bo'ladi. Xarakter insonning atrof-muhitga munosabati tizimida ko'zga tashlanib turadi: boshqa kishilarga munosabat samimiylik yoki nosamimiylik, haqqoniylik yoki soxtalik; ishga munosabati mas'uliyatlilik yoki mas'uliyatsizlik, mehnasevarlik yoki dangasalik: o'ziga munosabat – kamtarlik yoki hudbinlik; mulkka munosabat – sahiylik yoki ochko'zlik, tejamkorlik yoki isrofgarchilik va h.k. Xarakter shaxsning duyoqarashi, uning e'tiqodi va axloqiy tamoyillariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Masalan, halollik, prinsipiiallik, insonparvarlik axloqiy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lib, ikkiyuzlamachilik, notayinlik, bemehrlik bilan mutlaqo kelisha olmaydi. Xarakterning shakllanishi uchun ijtimoiy tarbiya muhim rol o'ynaydi.

Biz yuqorida inson xarakteriga xos bo'lgan eng umumiy jihatlar to'g'risida fikr bildirdik. Har bir inson ijtimoiy jihatdan olib qaraganda, muayyan xalq, millatning vakili hisoblanadi. Shunday ekan, inson xakteri faoliyatining bir xil apparati – birinchi va ikkinchi signal sistemasidan tashkil topgan apparatga egadir», – deb ta'kidlaydilar. Inson ruhiyati faqat uni o'rab turgan tashqi muhit sharoitlariga moslashib va uning xususiyatlarini aks ettirib qolmaydi, balki doimiy taraqqiy etuvchi ijtimoiy hodisalarning o'zgarib turishiga ham moslashib turadi.

Etnopsixologiya fanining tadqiqot obyekti xalq va elatdir. Bu fan xalqlarning psixologik xususiyatlari, o'zaro o'xshashligi, tafovurlari, ijtimoiy va oilaviy turmushi, milliy ta'b va g'ururi, milliy o'z-o'zini anglashi, milliy madaniyati, his-tuyg'ulari, shuningdek, millat xarakterini ham o'rganadi.

Milliy xarakter milliy qiyofaning ajralmas bir qismi. Jahonda birorta sof etnik birlik bo'lmaganidek, xakteri bir xil bo'lgan ikki millat ham yo'q.

Milliy xarakter muammosi qiziqarli va ayni paytda nozik masala bo'lganligi uchun ham juda ko'plab olimlarning diqqatini o'ziga tortib keladi. **Tilshunos S. Mo'minov** shunday fikr bildiradi: «Milliy xarakterda xalqning «Muloqot xulqi» aks etadi, milliy xakterni o'rganmay turib, mutlaqo muloqot xulqini o'rganib bo'lmaydi. Milliy xarakter deganda ma'lum ijtimoiy guruh (millat) o'rtasida asrlar mobaynida avloddan-avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklar majmui tushuniladi. Milliy xakterga mazkur millat aholisi sig'inadigan din, atrof-muhit va ijtimoiy turmush tarzi jiddiy ta'sir ko'rsatadi va bu ta'sir o'z-o'zidan muloqot xulqida namoyon bo'ladi. Olim muloqot xulqida aks etib turuvchi millatga xos bo'lgan xususiyatlarga to'xtalib o'tadi.

Yer yuzidagi har bir xalqning o'ziga xos xulq-atvori, milliy xususiyati, tuyg'usi, didi, ta'bi mavjud bo'lib, boshqa millatlardan ajralib turadi. Xalqlar o'zidagi ehtiyojning mavjudligi, qiziqishlarning turli xilligi, tafakkurining sifati,

turmush tarzi, shaxslararo munosabati, muloqot maromi, an'analari, urf odat va marosimlari bilan ham bir-birlaridan farq qiladilar.

Bu farqlar o'z-o'zidan psixologik qiyofaning tarkibiy qismlarini: milliy xarakter, milliy ta'b va milliy madaniyatni keltirib chiqaradi. Milliy xarakter har bir xalqning o'ziga xos fe'l-atvori bo'lib, tabiatni, jamiyatni, yashashdan maqsadni anglab yetish, atrofida qilarni tushunish, ularga munosabat bildirishda namoyon bo'ladigan psixologik xususiyatdir. Masalan, xalqimiz himmat ko'rsatib fazilatini ardoqlab kelgan. Xalqning boshiga qanday tashvish tushmasin, ne balolarni boshdan kechirmasin asl saxovati bilan ajralib turadi. Himmat bu xalqimiz xarakteridagi bir xislar. Uning mazmunida saxovat, pokizalik o'rin egallagan. Himmatli kishilar xalq qanday vaziyatda ham el fayzi va rohati uchun qayg'uradi. Ular odamlarga doimo sahovat ko'rsatib, nochor, xayr ehsonga muhtoj bo'lganlarga yordam berganlar.

Milliy xarakter avvalo oilada shakllanib, keyinchalik ibrat namunalari orqali mustahkamlanib, takomillashib boradi. Oila o'zining urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini bilan o'z a'zolariga ta'sir etib boradi. Bola dunyoga kelib, ilk bor ko'rgan kishilari ota-onasi, yaqinlari bo'ladi. Ularning mehr-muhabbatlarini bola chaqaloqligidan his qila boshlaydi. Bola uchun ota-onaga mehribon, g'amxo'r siymo hisoblanadi. Bola ota-onaga ishonch bilan qaraydi. Ularning har bir so'zi va ayniqsa, xatti-harakatlariga alohida e'tibor bilan qaraydi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Etnopsixologiyani terminalogik muammolari?
2. "Milliy psixologiya" va "Etnopsixologiya" lar o'rtasidagi o'xshashliklar?
3. Milliy psixologiya qiyofa va milliy xarakterning o'zaro munosabati?
4. "Milliy psixologik qiyofa" tushunchasi?
5. Milliy qiyofada komponentlarning o'ziga xos xususiyatlari?
6. Milliy psixologik qiyofa va milliy ong tushunchasi?
7. Milliy xarakter muammosi?
8. Milliy xarakter murakkab ijtimoiy hodisa sifatida.
9. Milliy xarakter va xalq tarixi?
10. Tarixiy davr va xarakter tipi.
11. Milliy xakterni tashkil etuvchi komponentlar?
12. Milliy va umuminsoniy xarakter xislatlari?
13. O'zbek halqining xarakter xususiyatlari va shakllanishi.

9-MAVZU: MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALAR. ULARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK FUNKSIYALARI

Reja:

1. Milliy urf-odat va an'analar.
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy vazifalari.

Tayanch tushunchalar: urf-odat, an'ana, udum va turli marosimlar, milliylik, milliy xarakter, ijtimoiy omillar, etnopsixologiya, ijtimoiy qatlamlar, millatga xos xususiyatlar, etnik guruhlar.

1. Milliy urf-odat va an'analar. Kishi shaxs sifatida nafaqat o'zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar, balki tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan va to'plangan madaniy meroslar ta'siri ostida ham shakllanadi. Bunda har bir xalqning milliy urf-odat va an'analari muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, milliy psixologik qiyofaning asosiy elementlaridan bo'lgan urf-odat, an'ana, udum va turli marosimlarni chuqur o'rganish, ularning vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, saqlanishi va o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini ochib berish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga egadir. Zero, ularda faqat ayrim individning emas, balki butun bir xalq, millatning ijtimoiy ehtiyojlari, axloq me'yorlari, xohish-istaklari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash shart-sharoitlari o'ziga xos ravishda mujassamlashgan bo'ladi.

Urf-odat va an'analar yangi insonni tarbiyalash bilan bog'liq sohalar bilan uzviy bog'lanib ketganligi uchun ham katta ahamiyatga ega. Odamzod ongli hayot kechira boshlagandan buyon vujudga kelgan urf-odatlar va marosimlar, udum va an'analarni hisoblab chiqish juda murakkab. Har bir davr, har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, tabiiy-geografik sharoitga mos tushadigan va uni o'zida aks ettiradigan urf-odat, an'analar mavjud bo'ladi. Urf-odat va an'analar xalqning hayot kechirishi, ijtimoiy va ma'naviy faoliyati jarayonida tug'iladi. Har bir xalq o'z tarixi davomida yashash sharoitining xarakter va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amaliy ehtiyojlari natijasida kishilar xatti-harakatining ma'lum me'yorlarini ishlab chiqadi. Kishilar xatti-harakatining bu yo'l-yo'riqlari avloddan-avlodga o'tish bilan urf-odat va an'analarga aylanib ketadi.

Qaysi bir urf-odat yoki an'ana, udum yoki marosimning kelib chiqishi to'g'risida chuqurroq o'ylamasdan fikr yuritiladigan bo'lsa, ular bir qarashda qandaydir bema'ni, behuda bo'lib ko'rinadi. Aslida esa ularning hammasi o'z vaqtida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy ehtiyojlari natijasida vujudga kelgan.

O'rta Osiyo va Kavkazda yashovchi ayrim xalqlarda «qalin» odatini o'rgangan ba'zi olimlar, hozirgi davrda ham ularning qoldiqlari mavjudligi, lekin

borgan sari simbolik qimmatga ega bo'lib qolganini ta'kidlashadi. Ma'lumki, ekzogam nikohi hukm surgan davrlarda qiz olish va qiz berish bir qabila yoki urug' doirasida bo'lmasdan, balki qabila va urug'lararo ham bo'lib turgan. Bir qabila boshqa qabilaga qiz bergandan keyin, qiz mansubbo'lgan qabila yoki oila zaiflashib qolmasligi uchun, ular ham, albatta, qo'shnidan qiz olishlari va shu bilan aholining o'sish nisbatini saqlab turishlari kerak bo'lgan. Lekin aynan shu paytda qo'shni qabilada bo'yi yetgan qizning bo'lmasligi yoki birinchi qabilada voyaga yetgan yigitning bo'lmasligi narijasida qiz almashtirishlar sistematik tarzda amalga oshmas edi. Bunday holda yigit tomon qiz berish imkoniyati kelgunga qadar qiz tomonga turli-tuman mol-dunyo hisobida zakolat yoki hozirgi tushunchamizcha «qalin» berib turgan.

Bu fikrning ma'lum darajada to'g'ri ekanligini shundan ham bilsa bo'ladiki, ekzogam nikohni qo'llash majburiy bo'lmagan O'rta Osiyoning o'troq xalqlarida qalin berish hodisasi deyarli uchramaydi. Uchrasa ham, ekzogam nikohi qo'llaniladigan xalqlardarajasidagi ko'rinish va mazmunda emas.

Kuzarishlar yana shuni ko'rsatadiki, u yoki bu narsaga nisbatan turli xalqlarda mavjud bo'lgan taqiqlar, man etishlarning hammasi ham bema'ni va zararli emas ekan. Aksincha, ko'pgina taqiqlar odat yoki diniy aqida bo'lganligi uchungina emas, balki turmush zaruriyati va kishilarning ehtiyojlariga mos kelganligi uchun ham asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan. Masalan, bir vaqtlar islom dini tomonidan to'ng'iz go'shtini iste'mol qilishni taqiqlash ma'lum gigienik zarurat asosida vujudga kelgan ekan. Yaman Demokratik Respublikasida bir necha yillar ishlab qaytgan vrach **K.N. Suvorovning** yozishicha, «...Arabiston sharoitlarida to'ng'iz go'shti taqiqlanishi maqsadga muvofiq bo'lgan, chunki bu gijja va trixonela kasalidan saqlagan».

N. Sarsenboev to'g'ri ko'rsatganidek, bunday misollar, ya'ni «...urf-odat va an'analar ongli ravishda kirib keladi, lekin ularning ta'siri stixiyali bo'ladi».

Darhaqiqat, urf-odatlar avloddan-avlodga o'ta borib, urf-odat va an'analar bajarilib turilishi zarur bo'lgan barqaror me'yorlarga aylanib qolgan. Mustahkamlanib qolgan urf-odat va an'analarga amal qilmaslik ko'pchilik tomonidan qoralangan.

1. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy vazifalari. Urf-odat va an'analar ko'pincha sinonim so'zlar sifatida ishlatilsa ham, ular o'rtasida faqat terminologik tafovut bo'lib qolmasdan, ma'no jihatdan ham o'zaro farqlanadi. Urf-odatlar asosan oilaviy, maishiy sohalar bilan bog'langan bo'ladi va unda axloqiy, diniy va huquqiy normalari to'la o'z aksini topadi.

An'analar esa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida mavjud bo'lish bilan birga, yana kelib chiqish jarayonini ham qamrab oladi. An'anada kishilarning narsa va buyumlarga, tabiatga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. Ma'lumki, adabiyot va

san'atda, armiyava oliy o'quv yurtlarida, sport va ishlab chiqarish jamoalarida urf-odatlar bo'lmaydi, balki an'analar mavjud. Masalan, armiyaga yangi borgan askarning qasamyod qabul qilishi, oliy o'quv yurtiga kirgan yoshlarning talabalar safiga qabul qilinishi, yirik sport musobaqalarida g'olib chiqqan sportchi shaniga mamlakat bayrog'ining ko'tarilishi va madhiya yangrashi an'analardir. Bundan tashqari, an'analarning ta'sir doirasi nisbatan keng bo'lib, bitta an'ana bir necha urf-odat, udum va marosimlarni o'zida qamrab olishi mumkin. Masalan, xalqimizda mavjud bo'lgan mehmondo'stlikni olib qaraydigan bo'lsak, mehmondo'stlik u yoki bu darajada har bir xalq va millatga xos bo'lgan xususiyatdir. Lekin bu narsa, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ta'sirida, oilaviy-maishiy hayotdagi munosabatlar natijasida o'zbek xalqida o'ziga xos bir yo'sinda namoyon bo'ladiki, bu o'zbek xalqining milliy xususiyatiga, milliy an'anasiga aylanib qolgan. Mana shu mehmondo'stlik an'anasini bir necha urf-odatlar, udumlar orqali to'la namoyon bo'ladi. Masalan: o'zbek qoidalarida mehmon har doim ochiq chehra va shirin kalom bilan kutib olinadi. Xonadondagi eng noyob narsalar mehmon oldiga qo'yiladi. Mehmonning qadr-qimmati o'ta yuqori hisoblanadi.

Endi udum va marosimlarga kelsak, ular kuchli psixologik va hissiy ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, shular yordamida urf-odat va an'analar bevosita yuzaga chiqadi. Udum – u yoki bu urf-odat va an'aning bajarish vaqtida amal qilinadigan tartib-qoidalar. Marosim – udumni ko'z-ko'z qilib turadigan tashqi bezak tasviri, ya'ni bajarilish jarayoni.

Ijtimoiy mazmunini va ahamiyatiga qarab urf-odat va an'analar ilg'or va qoloq bo'ladi va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qoloq urf-odat va an'analar deb, umrini o'tab bo'lgan, davr ruhiga mos kelmaydigan, ijtimoiy hayot taraqqiyotiga monelik qiladigan urf-odat va an'alarga aytiladi.

Xalq hayotiga singib ketgan urf-odat va an'anani farmon berish, taqiqlash bilan yo'q qilib bo'lmaydi, eski urf-odatlarni siqib chiqarish uchun yangi, jozibali udum va marosimlarni yaratish, xalq hayotiga singdirish kerak. Shuning uchun ham urf-odat va an'alarni o'rganishda, rioya qilishda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerakki, natijada noroziliklarga va tuzatib bo'lmaz xatolarga olib kelmasin. Biroq urf-odat va an'analar har bir xalqda abadul-abad berilgan va hech o'zgarmaydigan narsa emas. Hayot ularni g'alvirdan o'tkazib, puchini puchakka, sarasini sarakka ajratib boradi: yangi davrga moslasha olgani saqlanib qoladi. Shu bilan birga, har bir davr o'zining udum va marosimlarini, urf-odatlar va an'alarini yaratadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shaxsda mujassamlashishi.
2. Bola irqiy xususiyatlar vorisi sifatida.
3. Tashqi xatti-harakatlarni ichki harakatlarga o'tishi va shaxsda etnopsixologik xususiyatlarni shakllanishi.
4. Ona tilining "Milliylashishidagi" birinchi qadam sifatidagi roli?
5. Individdning urf-odat va an'analar orqali to'plangan bilim va tajribalarni o'zlashtirishi?
6. Taqlid va ta'sirlanish.
7. Etnopsixologik xususiyatlarini shaxsda aks etishi?
8. Shaxs shakllanishida milliy urf-odat va an'analarning roli?
9. Urf-odat va an'analarning regulativ vazifalari?
10. Urf-odat va "an'ana" tushunchalari?
11. O'zbek urf-odat an'analari?

10-MAVZU: MILLIY TUYG'ULAR VA TA'B (DID)LAR

Reja:

1. Milliy tuyg'ular va ularni tadqiq etishda qo'yiladigan talablar.
2. Milliy did va estetika.

Tayanch tushunchalar: milliy tuyg'u, milliy did va estetika, urf-odat, an'ana, udum va turli marosimlar, milliylik, milliy xarakter, ijtimoiy omillar, millatga xos xususiyatlar, etnik guruhlar.

1. Milliy tuyg'ular va ularni tadqiq etishda qo'yiladigan talablar. Milliy tuyg'u tug'ma hodisa emas, u tarixiy kategoriyadir. Milliy tuyg'u shu xalq va millat vakillariga tashqi obyektiv omillarning doimiy ta'sir etib turishi natijasida vujudga keladi. Uning asosida milliy manfaat va ehtiyojlar, ayniqsa, uning tinchligi yoki notinchligini ta'minlovchi omillar yotadi.

Milliy tuyg'uning namoyon bo'lish kuchi va intensivligi hamma xalq va millatlarda bir xil emas. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi bilan kishilarda o'z xalqi, ona tili, ona tuprog'iga bo'lgan mehr-muhabbati yanada chuqurlashishi mumkin. O'z millatini ortiqcha ko'klarga ko'tarish, uning boshqa millatda bo'lmagan fazilatlarini to'g'risida gapiraverish, o'z xalqini boshqalarga qarama-qarshi qilib qo'yish, boshqa xalqni mensimaslik ruhini keltirib chiqarishi mumkin.

Milliy tuyg'u etnopsixologik xususiyatlarni tashkil etuvchi komponentlar ichida nisbatan kam o'rganilgan soha hisoblanadi. Ijtimoiy hodisalar ichida milliy tuyg'u o'zining kelib chiqishi bilan uzoq o'tmishga borib taqaladi. Shuning uchun uni o'rganishda nihoyatda ehtiyotkorlik va ziyraklik bilan ish olib borish talab etiladi.

Milliy tuyg'ular asosida milliy manfaat va ehtiyojlar, ayniqsa, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi, tinchligi va notinchligini ta'minlovchi narsalar yetadi. Milliy tuyg'ular kishining milliy voqelikdagi barcha narsa va hodisalarga, milliy jarayonlarga, ona tabiat va zaminga, shuningdek, xalqning tarixi va ma'naviy merosiga, milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati shaklida namoyon bo'lib, milliy-ma'naviy hayotida katta ahamiyatga egadir. Milliy tuyg'uning ta'sirchanligi, ayniqsa, har bir xalqning milliy xususiyatlari til orqali o'z ifodasini topadi. Milliy tilga bo'lgan munosabatning salgina bo'lsa ham buzilishi xalqlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarga katta zarar yetkazadi.

Farzandlarimiz ongida Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatimizga nisbatan hurmat-ehtiromni qaror toptirish, ularda har xil yot mafkura va qadriyatlarga ergashmaydigan milliy immunitetni shakllantirish juda muhim masala. Buning uchun ularning tafakkurida o'zligini anglash va unutmaslik qaror topishi, o'z tarixi, o'tmishi, buyuk ajdodlari hayoti, milliy qadriyatlarini va milliy urf-odatlarini yaxshi bilib, o'zlashtirishlari lozim.

Vatanga muhabbat, vatanparvarlik tuyg'usi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladigandek tuyuladi. Aslida, tuyg'ularning ham shakllanishida ma'lum ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarga e'tibor berish zarur. Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilganisari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi. Bunda, ayniqsa, ona tiliga bo'lgan munosabat yetakchi o'rinda bo'ladi.

Chunki, ona tili – bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar.

Milliy tuyg'ular tarixiy kategoriya bo'lib, shu milliy va xalqvakillariga tashqi obyektiv omillarning doimiy ta'sir etib turishi natijasida vujudga keladi. Shaxsda milliy tuyg'u va ongni shakllantirish, rivojlantirish uchun xalqimiz tarixini, milliy qadriyatlarni, buyuk ajdodlarimiz hayotini, boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish lozim.

Milliy tuyg'ularning namoyon bo'lish kuchi va intensivligi hamma xalq va millatlarda bir xil bo'lavermaydi. Bu tuyg'ularkichik, kam sonli etnoslarda katta, ko'p sonli xalqlardagiga qaraganda, shuningdek, kam taraqqiy etgan mamlakatlarda rivojlangan mamlakat xalqlaridagiga qaraganda kuchli va yorqinnamoyon bo'ladi.

Ayniqsa, ilgari jabr-zulm ko'rib kelgan, ezilgan va ranjirilgan xalqlarda milliy tuyg'ular nihoyatda sezgir va ta'sirchan bo'ladiki, hatto hazil shaklida millat

sha'niga aytilgan fikrlar ham norozilik tug'dirishi, hissiyotlarni jumbushga keltirishi, milliy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Milliy tuyg'ular xilma-xil bo'lib, unga axloqiy, estetik, intellektual va maishiy tuyg'ular kiradi. Ular vatanparvarlik, milliy iftixor, hamkorlik, xayrixohlik yoki g'arazgo'ylik, dushmanlik kabi ko'rinishlarda o'z ifodasini topadi. Vatanparvarlik va o'z ona tabiatiga mehr-muhabbat tuyg'ulari milliy tuyg'uda muhim ahamiyatga ega. Vatanparvarlik asrlar va ming yillar davomida birgalikda yashagan etnik guruhda shakllangan eng chuqur tuyg'ulardan biridir. Yetuk vatanparvarlik tuyg'usi mahalliy, hududiy parchalanishlar va turli-tuman mayda etnik tafovutlar tugatilib, elat va millatlarning shakllanishi jarayonida vujudga kela boshlaydi.

Ma'lumki, XIX asrning 70-yillarigacha hozirgi O'zbekiston hududida uchta xonlik – Qo'qon va Xiva xonligi, Buxoro amirligi mavjud edi. O'zbek elati shu uchta xonlik va amirlikda yashasa ham, hududiy, iqtisodiy, siyosiy parchalanish yagona o'zbek millatini vujudga keltirmaydi. Demak, shu davrda yagona milliy tuyg'uning mavjudligi to'g'risida so'z bo'lishi ham mumkin emas edi.

O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi, o'zbek elatini millat darajasiga ko'tardi. Natijada, milliy tuyg'u shakllandi va rivojlanib boryapti.

Haqiqiy vatanparvarlik, deb ko'rsatgan edi amerikalik etnopsixologlar **B. Gonniy** va **V. Jeromlar**, faqat xalqi va vatanining jahon miqyosida tutgan mavqedan faxrlanish bilangina namoyon bo'lmaydi. Millat hayotida shunday davrlar va holatlar bo'ladiki, bunda haqiqiy vatanparvarlik tuyg'usi uyalish va orlanish bilan to'lib toshishi mumkin. Darhaqiqat, millatning o'qimishli vakilari, ziyoli va olimlari, yozuvchilarimillat hayotiga, milliy jarayonga teran obyektiv ko'z bilan qarab, millat hayotidagi ayrim kamchilik va nuqsonlarini ruy-rost ayta olishgan, tanqid qilishgan. Taniqli o'zbek ma'rifatparvari **Abdulla Avloniy** «Turkiy guliston yoki axloq» kitobida bunday yozadi: «Bizlar na uchun harakat qilmaymiz, qimirlamaymiz? Boshqa millatlarni o'g'illari, qizlari kecha demay, kunduz demay, yoz demay, qish demay ilm yo'lida jonlarini fido qilib, qovushib, yugurishib, ko'zlarimizni qamashtirib turgan bir zamonda, bizlar hamon uyqudan, jaholatdan boshimizni ko'tarmaymiz, ibrat olmaymiz»...

Sotsial-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarishi bilan kishilarda o'z xalqiga, ona tiliga, ona tuprog'iga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ulari yo'qolib ketmaydi, lekin ayrimlarning fikricha, hozirgi kunda insonlarni ona tabiat va atrof-muhitdagi geografik va madaniy narsalar qiziqtirmay qo'ydi. Vatan endi ularga faqat yashash, pul topish, boylik orttirish uchun xizmat qiladigan makon bo'lib qoldi, degan kosmopolitik g'oyalarni targ'ib qilmoqchi bo'ladi, ya'ni ular «bedananiki qaerga borsa pitpildiq» degan naqldek, qaerda hayot yaxshi bo'lsa, odam o'sha yerga intiladi. Vatan, vatanparvarlik tuyg'ulari eskirgan, qoloq tushunchalar, deb isbotlashmoqchilar. Bu bilan ular bir necha ming yillar davomida yaratilgan

milliy madaniyatning qadrsizlantirishga, kishilarning vatanparvarlik tuyg'ularini yo'qotishga, o'z Vatanini boshqa xalq va millat tazyiqidan himoya qilmaslik kabi yaramas g'oyalarni odamlar ongiga singdirishmoqchi bo'lishadi.

Muqaddas Vatan uchun jonini fido etishga tayyor turish kishining yuksak axloqiyligidan dalolatdir. Vatanparvarlik qadimiy tuyg'ulardan hisoblanadi.

Musofir yurtlarda yashab, ishlari yurishib ketgan aksariyat odamlar ham o'z baxtini, farovonligini kemptik ko'radilar. Chunki ularga Vatan sog'inchi tinchlik bermaydi. Butun qalbi bilan Vatanga intiladilar. Biroq faqat nafsini o'ylaydigan odamlardagina vatanparvarlik tuyg'usi bo'lmaydi. Ular bir joydan ikkinchi joyga, bir yurtdan boshqa yurtga osongina ko'chib o'taveradilar. Ular qaerga borsam, baribir kunimni ko'raveraman deb o'ylab, yashashdan maqsad o'z nafsini qondirish deb biladilar.

Tarix shunga guvohlik beradiki, azal-azaldan Vatan shu qadar aziz va muqaddas bo'lganligi bois, eng og'ir jinoyat qilganlarga jazo sifatida Vatandan badarg'a qilish hukm qilingan.

2. Milliy did va estetika. Milliy didni shakllantiruvchi omillar. Idrok etilayotgan voqealar va tashqi olam narsalarini bilishdan vujudga keladigan hissiy-psixologik reaksiya turli xalqlarda turlicha tarzda narmoyon bo'ladi. Tabiiy sharoitlar – o'rmon, cho'l, dashtlik, tog', suv bo'ylari, vodiy va vohalar xalqlarning idrok etish qobiliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Shu o'rinda «ta'b» tushunchasiga izoh berib o'tsak. O'zbek tilining izohli lug'atida ta'b – kishining xarakterida uning kishilarga, narsalarga munosabatida namoyon bo'ladigan ichki tabiati, mijozi – deb ta'riflangan. Milliy ta'b esa – go'zallik va xunuklik to'g'risida xalq va millatning ko'pchilik vakillarida tarixan shakllangan bahodir.

Shaxs ma'lum muhitda yashab va voyaga yetar ekan, uning psixologik xususiyatlari millatning psixologik xususiyatlaridan «ko'chirma» oladi. Shaxs o'tmishda to'plangan madaniy merosni o'zlashtiradi va unda o'zini o'rab turgan atrof- muhit, iqlim sharoitlari va hayvonot olamini idrok etishga nisbatan maxsus ta'b hosil bo'ladi.

Odam eng avvalo ilk bolalik davridanoq ehtiyojlarini qondiradigan narsalarning xususiyatlarini chuqurroq idrok etishga intiladi. Voqelikni idrok etishda uning ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalari, millatiga xos bo'lgan xususiyatlar o'z aksini topadi. Shuning uchun tabiat va jamiyatdagi har bir narsa va hodisa bir millat va elat vakillarida boshqalariga nisbatan boshqacharoq emotsional psixologik reaksiyani vujudga keltirishi mumkin.

Masalan, cho'l qozoq xalqi turmush tarzi kechadigan o'ziga xos makon. Shu boisdan ular cho'lga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'ladi. Aksincha, vodiy, dengiz sohillari, o'rmonlarda umrguzaronlik qiladigan odamlar uchun cho'l

manzarasi hech qanday ijobiy munosabat tug'dirmasligi, yoki uning uchun zerikarli bo'lishi mumkin. Xalqning yashash tarzi, uning kundalik ehtiyojlari (tarixan) go'zallik to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni vujudga keltiradi. Shaxs va jamoa hamda shaxslararo munosabatlar to'g'risida ham shu asosda me'yorlar shakllanadi. Shuning uchun ham muayyan xalq vakillari boshqa xalqlarning munosabatlari, xatti-harakatlari, urf-odatlarini ko'rib taajjublanishi, bu narsalar unga qandaydir g'ayri tabiiy bo'lib ko'rinishi mumkin. Masalan, Quddusni bosib olgan Fransuzlar arablarning ko'p xotinlik odatiga nafrat bilan qarashgan, arablar esa Fransuz ayollarining ochiq yurishlarini hayosizlik deb hisoblashgan. Qirg'iz va qozoqlarda qiz olib qochish odati ham bunga misol bo'la oladi. Albatta, bunday an'analarga ega bo'lmagan xalqlar uchun bu xatti-harakatlar g'ayri tabiiy ko'rinishni vujudga keltiradi. Lekin har qanday urf-odatning vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri belgilovchi rol o'ynaydi. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlarda uylanish marosimlarida «qalin» to'langan. Hozirgi ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar natijasida xalqimizda mavjud bo'lgan milliy ta'b keskin o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Ayniqsa, moddiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq ta'b ancha murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda.

Milliy tuyg'u milliy psixologik qiyofani tashkil etuvchi komponentlar ichida nisbatan kam o'rganilgan soha bo'lib, o'zining ijtimoiy kelib chiqishi bilan uzoq o'tmishga borib taqaladi. Shuning uchun ham uni o'rganishda ehtiyotkorlik talab qilinadi. Milliy tuyg'uning ta'sirchanligi ona tiliga bo'lgan munosabatda yorqin namoyon bo'ladi. Zero, har bir xalqning milliy xususiyatlari til orqali o'z ifodasini topadi. Mashhur qirg'iz yozuvchisi **Ch. Aytmatov** til bu millatning butun tarixi mobaynida to'plangan boyliklarini o'zida jamlab, kelgusi avlodlarga yetkazib beruvchi vosita ekanligini ko'rsatib bergan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Milliy tuyg'ularga xos xususiyatlar?
2. Vatanga va ona tiliga bo'lgan munosabat milliy tuyg'ular namoyon bo'lishning oliy shakli sifatida.
3. Milliy ta'b (did) shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar?
4. Iste'mol qilinadigan oziq-ovqatlarga nisbatan o'ziga xos streotiplarning vujudga kelishi?
5. Milliy ta'b (did)ni o'rganish bo'yicha chet ellarda olib borilgan tadqiqotlar?

11-MAVZU: MILLIY ONG VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH. ETNIK ATTITYUDI VA STEROTIP

Reja:

1. Milliy ong va milliy o‘zini o‘zi anglash tushunchalari.
2. Milliy o‘z-o‘zini anglash elementlari.
3. Milliy o‘z-o‘zini anglash ijtimoiy psixologik funktsiyalari.
4. Etnik stereotiplar.
5. O‘zbeklar xususidagi stereotipik tasavvurlar (tarixiy manbalarga asoslanadi).

Tayanch tushunchalar: milliy ong, milliy o‘zlik, etnik attityud, etnik stereotip, milliy did va estetika, urf-odat, an‘ana, udum va turli marosimlar, milliylik, milliy xarakter, ijtimoiy omillar, millatga xos xususiyatlar, etnik guruhlar.

1. Milliy ong va milliy o‘zini o‘zi anglash tushunchalari. Falsafa, etnografiya, ijtimoiy psixologiyaga oid aksariyat adabiyotlarda milliy ong va milliy o‘zini o‘zi anglash tushunchalari deyarli farqlanmasdan, sinonim so‘zlar sifatida ishlatib kelinadi. Ular o‘rtasida mazmunan uzviy bog‘liqlik, yaqinlik va bir jarayonning turli bosqich darajalaridir.

Millatning o‘zini o‘zi anglashi etnik psixologiyasining ancha keyin vujudga keladigan murakkab fenomeni hisoblanib, u milliy ong asosida vujudga keladi va uning tuzilmasiga kiradi. Milliy o‘zini o‘zi anglash millatning o‘z manfaati, maqsadi va motivlarini anglab etish darajasini bildiradi. Shuningdek, u millat tomonidan o‘zining o‘tmishi, tarixi, etnik kelib chiqishi, milliy g‘oyalari, kelajagi, jahon jamiyatida tutgan o‘rnini bilishi bo‘lib vatanparvarlik, milliy g‘urur, sha‘n, burch ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Inson milliy ongi mansubligini anglash orqali millat hayotidagi voqea vakillar ongida katta o‘zgarishlar bo‘lishiga, milliy o‘zini o‘zi anglashning rivojlanishiga va boyishiga olib keladi. Milliy o‘zini o‘zi anglashda millat ziyolilari katta rol o‘ynaydi. Ular o‘z milliy tilida san‘at va adabiyotini rivojlantirishlari, milliy qadriyatlari uchun qayg‘urib, milliy manfaat va g‘oyalar uchun kurashib, milliy o‘zlikni rivojlantirishga xizmat qiladilar. Bu kurash, ayniqsa, milliy til, milliy qadriyatlar kamsitilgan, milliy manfaatlar xavf ostida qolgan paytlarda kuchayadi.

Milliy o‘zini o‘zi anglashda ma‘lum subyektivizm mavjud bo‘lib, u muayyan tarixiy va ijtimoiy davrlarda o‘z yo‘nalishini o‘zgartirib turishi mumkin. Ba‘zan bu yo‘nalish o‘z chegarasidan chiqib, «*millatchilik*» degan xavfli-xatarli holatni tug‘diradiki, milliy o‘zlikni boshqa etnik guruhlariga qarama-qarshi qo‘yish, milliy maxdutlik kabi nomaqbul ko‘rinishlarga aylanadi.

Milliy o'z-o'zini anglash individ guruh, jamoani shunday xususiyat yig'indisidirki, bu yig'indi boshqa ijtimoiy etnik guruh, jamoa va ularning vakillari bilan birga muloqot jarayonida taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni idrok qilishga asoslanadi. Milliy o'z-o'zini anglash doimo baholi munosabatni nazarda tutadi. Milliy o'z-o'zini anglash jarayonida o'z millatini bilish va xususiyatlarini anglash bilan birgalikda boshqa millatning ham xususiyatlari anglab boriladi. Natijada biz boshqa bir millatni ham anglab boramiz. Ayrim tadqiqotlarda munosabat va muloqotlar taqqoslash natijasida faqat millatlar o'rtasidagi farqlar idrok qilingan, degan fikr bidiriladi. Asosiy e'tibor shunga qaratiladiki, o'xshash tomonlar e'tibordan chetda qoladi, bunday yondashuv oqibatida etnotsentrizm kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, rus olimi Knyazev shunday yozadi: «Milliy o'z-o'zini anglash bu millatni bir butun yagona birikma deb anglash va boshqa bir millatlardan o'z millatini ajrata bilishdir». Hozirgi kunda rus psixologlari tomonidan o'xshashlik va farqlarni idrok qilish muammosi ishlanmoqda. Milliy o'z-o'zini anglash ikki darajada mavjud bo'lishi mumkin:

- 1) shaxs darajasida;
- 2) ijtimoiy etnik guruh yoki jamoa darajasida.

Shaxs darajasida milliy o'z-o'zini anglash xarakterga ega bo'lsa, jamoa darajasidagi milliy o'z-o'zini anglashlar aynan bir xil narsa deb tushunish xato. Ammo ularni ikki xil hodisa deb tushunish ham to'g'ri emas. Chunki bu ikkinchi darajadagi milliy o'z-o'zini anglashsiz jamoa bo'lmaydi.

Professor E. G'oziev milliy o'z-o'zini anglashga quyidagicha ta'rif beradi: «Milliy o'z-o'zini anglash – muayyan xalqning u yoki bu ijtimoiy guruhga mansubligida, makroiijtimoiy munosabatlarda o'z millati egallagan mavqeini aniq tasavvur qilganligida, milliy manfaatdorligida o'z ifodasini topishdir. Milliy o'z-o'zini anglashda oilaviy ta'sirning (turmush tarzi, ota- ona nufuzi – obro'si, shaxslararo munosabat maromi), milliy til muhiti, milliy madaniyatga qiziqish, turmushdagi qarindosh-urug'chilik rishtasining roli benihoyat kattadir. Milliy o'z-o'zini anglashning **obektiv** (tarixiy taraqqiyot, tabiiy omillar) va **subyektiv** (o'sha millatning ayrim namoyandasining ta'siridagi o'zgarishlar) omillari mavjud. Mazkur omillarning asta-sekin yetilishi o'z-o'zini anglash jarayonini jadallashtiradi».

Milliy o'z-o'zini anglashning vujudga kelishi va rivojlanishidagi shart-sharoitlar. Kapitalizm davrida feodal tarqoqlikning tugatilishi, mamlakat va viloyatlar o'rtasidagi ayriboshlashning kuchayishi, tovar mahsulotlarining o'sishi kabilar iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga olib keldi.

Iqtisodiy turmush birligi asosida til va udum birligining paydo bo'lishi asosiy belgilardan hisoblanadi. Millatning tarixiy taraqqiyot xususiyatlari, uning iqtisodiy tuzilishi, odat va an'analari hamda turmush tarzi uning ma'naviy qiyofasiga ta'sir etadi.

Ayrim hollarda etnik o'z-o'zini anglashga milliy o'z-o'zini anglashni qarama-qarshi qo'yish hollari ham uchrab turadi. Natijada milliy o'z-o'zini anglash etnik o'z-o'zini anglashdan ajratiladi. Bu fikr noto'g'ri, albatta. Millat o'zini boshqa millat bilan taqqoslashi natijasida o'z mohiyati va milliyligini anglab boradi. Milliy o'z-o'zini anglashning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonida shaxs ma'lum bir darajadagi intellekt va aqlzakovatga ega bo'lishi kerak. Aks holda fikrlar mantiqqa zid bo'ladi. Milliy o'z-o'zini anglashning vujudga kelishiga millatlar o'rtasidagi farqli va o'xshash belgilarning mavjudligi asos bo'ladi.

Shunday qilib, etnopsixologiyaning markaziy tushunchalaridan biri milliy o'z-o'zini anglash bo'lib, hozirgi sharoitda eng ko'p qo'llaniladigan kategoriyalardan hisoblanadi. «Mustaqillik» nomli lug'atda shunday yoziladi: *«Har bir millat (elat)ning o'zini haqiqiy mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklari, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikini tushunib yetishi milliy o'z-o'zini anglash deyiladi»*.

2. Milliy o'z-o'zini anglash elementlari.

Milliy o'z-o'zini anglashni tashkil etuvchi strukturaviy elementlar nimalardan iboratligi, qanday tuzilishga ega ekanligi ilmiy adabiyotlarda yetarli yoritilgan emas. Milliy o'z-o'zini anglash elementlariga adekvat bo'lgan indekatorlarni qidirib topish ancha murakkabdir, bir millatning ichida ham bu ishini bajarish qiyin. Milliy o'z-o'zini anglash elementlarida ro'y beruvchi narsa indekator deyiladi. Shunday bo'lsa-da, milliy o'z-o'zini anglash elementlarini tahlil qilishga oid izlanishlar **Yu.V. Bromley, A.A. Kojanov, N.M. Drobejova** kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ularning fikrlariga asoslanib turib, milliy o'z-o'zini anglashning elementini shunday ta'riflash mumkin, bular:

- 1) milliy identifikatsiya;
millatning moddiy va ma'naviy boyliklar, qadriyatlar, an'analariga munosabat;
- 2) milliy manfaat.

Bu elementlarni deyarli hammasi amalda u yoki bu darajada sezgilar, hayo, tuyg'u, kayfiyat, idrok, ustanovkalar bilan bog'liqdir. Milliy identifikatsiya bu oz millatiga mansublikni anglash, tushunish bo'lib, unga tarixiy o'tmishni etnik kelib chiqishidagi umumiyliklar, davlat va hududiy umumiyliklar haqidagi, ona yer, Vatan, til va milliy madaniyat to'g'risidagi, urf-odatlar, an'ana va marosimlar, ma'naviy boyliklar haqidagi tasavvurlar, tushunchalar, mulohazalar avtosterotiplar kiradi.

Milliy identifikatsiya o'z ishi, etnik jamoasining belgi va xususiyat sifatlarini anglash, tushunib yetish, umumlashtirishning mujassamlashgan yig'indisidir. Milliy identifikatsiya turlixalqlarda bir vaqtning o'zida turli xil darajada namoyon bo'ladi.

3. Milliy o'z-o'zini anglashning ijtimoiy psixologik funksiyalari.
Taqqoslash jarayoni milliy o'z-o'zini anglashning eng muhim operatsiyasi

hisoblanadi. Taqqoslashda obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar o'zaro solishtiriladi. Taqqoslash o'zaro solishtirilayotgan obyektlarning mohiyat mazmunini anglashga qaratilgan jarayondir.

Mashhur rus psixologi **I.S. Kon** milliy o'z-o'zini anglash ongli yoki ongsiz holda o'z belgi xususiyatlarini birovning belgi xususiyatlari bilan taqqoslashdir, degan fikr bildiradi. Milliy o'z-o'zini anglashning ijtimoiy funktsiyalari millat hayoti, milliy munosabatlarda o'ziga xos rol o'ynaydi.

Milliy o'z-o'zini anglashning asosan 3 ta funktsiyasi mavjud:

- 1) anglash va moslashish funktsiyasi;
- 2) himoya funktsiyasi;
- 3) nazorat funktsiyasi.

Moslashish funktsiyasi shaxs yoki individning milliy o'ziga xos hayot va faoliyatga moslashishida namoyon bo'ladi. Shaxs oiladagitarbiya, maktabdagi o'quv faoliyati jarayonida nafaqat ta'lim-tarbiyani o'rganadi, shu bilan birgalikda tarixiy o'tmishda yuzaga kelgan qadriyatlarni ham o'rganib, unga moslashib boradi. Individ milliy xususiyatga ega bo'lgan urf-odatlar, an'analarni, ma'naviy va madaniy boyliklar, malaka va ko'nikmalar, milliy qadriyatlarni o'z hayoti faoliyati davomida anglab, rivojlanib, ularga moslashib boradi. Ushbu funktsiya millat jipsligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, avloddan-avlodga o'tib keladigan milliy belgi va xususiyatlar, urf-odatlar, ko'nikma va malakalarni kuzatishni ham ta'minlaydi.

Himoya funktsiyasi: milliy qadriyatlar, ma'naviy va moddiy qadriyatlar, erishilgan madaniy va ilmiy yutuqlar millatning o'tmish davrida vujudga kelgan an'ana va marosimlarga, umuman, millatning fan, madaniyat, din, san'at, odob, axloq sohasidagi yutuqlarga ma'lum darajada zarar yetkazilib, ularning yo'qolib ketish xavfi tug'ilganda ma'lum bir ijtimoiy psixologik qarshiliklar sifatida yuzaga chiqadi. Milliy g'urur kamsitilganda ham milliy rivojlanish ehtiyojlari, manfaatlari milliy qadriyatlar, ma'naviy va madaniy boyliklarning kamsitilishi yoki yo'qolib ketishi natijasida ushbu funktsiya ishga tushadi. Bu himoya asosida demografik o'z-o'zini hurmat qilish sezgisi yotadi. Adolatlilik, teng huquqlilik tamoyillari funktsiya negizini tashkil etadi. Bu funktsiya xavf-xatar vujudga kelganda yuzaga chiqadi.

O'z-o'zini anglashning nazorat funktsiyasi. Milliy o'z-o'zini anglashning bu funktsiyasi millatparvarlik hodisasi millatchilikka aylanib ketmasligi, milliy manfaatlar boshqa bir millatning manfaatlarini poymol qilmasligi, jamiyatda millatchilik yuzaga kelmasligini nazorat qiladi. Milliy munosabatlarda janjal va nizolarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik bu funktsiyaning bosh vazifasidir.

4. Etnik stereotiplar. Individning ijtimoiylashuv jarayoni ijtimoiy rollar o'zlashtirilishi bilan bevosita bog'liq. Mazkur jarayon muvaffaqiyatli amalga oshishi u yoki bu ijtimoiy rolni bajarayotgan shaxs ega bo'lishi lozim bo'lgan ijtimoiy

psixologik sifatlar to'g'risidagi insonning subyektiv tasavvurlari bilan belgilanadi. Mazkur tasavvurlar subyekt ongida muayyan bir andozalar sifatida shakllanadi.

Atrofdagi shaxslarni baholash paytida «o'lchov» sifatida foydalanayotgan andozalar uning insonlarga qo'yilayotgan axloqiy-estetik va antropologik-psixologik talablarining personifikatsiyalashgan ifodasidir. Bu uning turli majburiyatlarni bajarayotgan odamlar o'zlarini qanday tutishlari lozim bo'lganligi xususidagi u yoki bu darajada anglanilgan tasavvurlardir.

Baholovchi andozalar konkret ijtimoiy jamoaning ideal vakili qanday bo'lishi kerakligi to'g'risidagi bilimlar bilan chegaralanmaydi. Har bir odamda muayyan bir ijtimoiy birlikni ideal ifodalovchi shaxsga u yoki bu darajada farqlanib turadigan odamlar namunasi shakllanadi. Turli kasbga taalluqli va turli yoshga doir, shuningdek, jinsiy guruhlariga kiradigan odamlar bilan muloqotga kiradigan insonda dolzarblashadigan andozalar hamisha bir xil bo'lmaydi. Ular o'zlarida o'z «egallari» ning shaxs sifatida shakllanish jarayonida yuzaga kelgan o'ziga xos tamg'aga ega bo'ladi. Odamlar rivojlanar ekan mazkur andozalar qayta anglanishi jarayonida muttasil yangi chizgilar bilan boyib boradi.

Muayyan bir toifaviy alomat bilan umumlashtirilgan ijtimoiy andozalar turkumi «ijtimoiy kategoriya» tushunchasi ifodalaydigan bir hodisani yaxlit tavsiflash imkoniyatini beradi. Demak, ijtimoiy andozalar va ijtimoiy kategoriyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish o'zaro shartlangan bo'lib ularning manbasi sifatida nafaqat insonning shaxsiy tajribasi, balki jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va inson ta'lim jarayonida va odamlar bilan bevosita muloqotga kirishish chog'ida o'zlashtiradigan normalar ilgari suriladi.

Andozalar, kategoriyalar stereotiplarni konkret tadqiq etish **V.M. Senchenko, G.G. Finikova, V.N. Kunitsinalar** tomonidan amalga oshirilgan. **V.M. Senchenko** ijtimoiy kategoriyalar genezisi bilan shug'ullangan. Uning tadqiqotiga maktabgacha yoshdagi bolalar va yuqori sinf o'quvchilari jalb etilgan. Ulardan oddiy askarlar va ofitserlar shaxsini ifodalab berish so'ralgan. **V.M. Senchenko** statistik metodlar yordamida sovet askari xususidagi asosiy shakllanish yo'llarini ochib bergan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda askarlar to'g'risidagi tasavvurlarning asosiy qismini tashqi jihatlar tashkil etishianiqqlangan (formasi, qurol-aslahalari va h.k).

Katta bog'cha yoshdagi bolalar esa tashqi belgilar bilan birga gavda tuzilishiga oid alomatlarni kiritisha boshlashgan. 1-sinf bolalarida yuqoridagi alomatlar saqlanishi bilan birga funksional belgilar ham o'z aksini topa boshlagan (avtomatdanotish, tank haydash, akoplarda yotish).

Keyingi yosh davrlari taalluqli guruhlarda mazkur tushunchaning mazmuni irodaga, xulq-atvor motivlari bilan bog'liq sifatlar bilan to'ldirilganda askarlarning irodaviy sifatlarigao'smirlar katta ahamiyat berganlar.

Shunday qilib maktabgacha yosh davrida vujudga kelgan andozalar va kategoriyalar shakllanishi maktab yoshi davrida taraqqiy etib o'spirinlik va undan keyingi yosh bosqichlarida takomillashib borishi isbotlangan. Ko'p sonli tadqiqotlarda mazkur shaxsga doir baholovchi stereotiplarda insonning o'z xulqi, jinsi, yoshi, kasbiga taalluqli ham nazariy ham amaliy bilimlar zaxirasi aks etishi ochib berilgan.

Stereotiplar baholanayotgan odamlar tashqi xarakteristikalarini bilan farqlana boshlagan davrdan ishga tushishini **G. Ollport, P. Sekord** tadqiqotlari ko'rsatib bergan. Masalan, **Sekord** tomonidan odamlar yuzidagi muayyan bir belgilar (yuz shakli, ko'z joylashuvi, og'iz katta kichikligi) bilan shaxs xususiyatlari o'rtasida ma'lum aloqadorlikni xos deb biladiganlar mavjudligi isbotlandi. **Sekord** tadqiqotida baholash uchun 24 nafar erkak surati qo'llanilgan, o'rtacha korrelyatsion koeffitsient 0,65 ni tashkil qildi. **Sekord** mazkur natijalarni sinaluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan baholovchi stereotiplar bilan tushuntirgan.

D. Bruner va **X. Perlmutter** amerikaliklar, Fransuzlar va nemislar katta guruhlarida o'tkazgan tadqiqotlarida odamlarning o'zlari uchun notanish kishini baholash mulohazalari mazkur odamlarning qaysi milliy etnik guruhlariga mansubligi to'g'risidagi tasavvurlar bilan belgilanishini isbotlagan. Agar kishining milliy mansublik alomati uning shaxsini baholashda birinchi o'ringa chiqsa ular baholanayotgan odam taalluqli millatga xos xarakter xususiyatlari bilan assotsiatsiya qilingan. Shuningdek ishtirokchilar baholanayotgan odam qaysi millatga mansubligini bilmagan taqdirda ushbu odamni baholashda soddalashgan guruhii stereotiplarga kamdan-kam murojaat etishini ham tasdiqlashgan. **D. Bruner** va **X. Perlmutter** ma'lumotlari turli davrda turli tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan (**E. Kentril, G. Ollport, K. Sodxi**).

Boshqa odam to'g'risidagi bilimlar shakllanishida baholanayotgan shaxsning ijtimoiy kasbiy statusi xususidagi informatsiya ya'ni, stereotiplar ahamiyati ham kam emas. **Xayri** va **Gryuns** tadqiqotlari buning yaqqol misolidir. Ularning tadqiqotlarida menejerlar va malakali ishchilarning katta guruhiikki kichik guruhga bo'linib ikki kishini baholashgan. Baholanayotganlarning bittasi birinchi guruhga fabrika mulkdori sifatida, boshqasi ishchi sifatida taqdim etilgan. Xuddi shu shaxslarni ikkinchi guruhga taqdim etayotib «fabrika mulkdorini» «ishchi» deb, «ishchi»ni esa «fabrika mulkdori» deb tanishtirishgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ikki guruhga ajratilgan sinaluvchilarning bir odam to'g'risidagi fikrlari keskin farqlanishini ko'rsatdi.

Odam to'g'risidagi umumiy taassurot u fabrika mulkdori bo'lgan holatdan malakali ishchi bo'lgan holatga o'tishda o'zgargan. Shunday qilib rol stereotiplar mavjudligi to'g'risidagi faraz o'z isbotini topgan.

Sobiq ittifoqda rolli stereotiplarni **Z.F. Semyonova** o'rgangan. U telestudiyaga ishchi, xizmatchi, injener-texnik xodimlarni, olimlar, shuningdek, o'rta maktabning yuqori sinf o'quvchilarini taklif etgan. Ularga teleyangiliklarning eksperimental soni namoyish qilingan. Eksperimentda ishtirok etuvchilar (jami 667 nafar, shulardan 291 nafari erkak va 376 nafari ayol) efirga translyatsiya qilinayotgan ko'rsatuvni ko'rayapmiz deb o'ylashagan. Ko'rsatuvning bir lavhasida yangi kemandi ishga tushirilishi haqida gap ketgan. Olib boruvchi sinaluvchilarning turli guruhlariga turlicha tanishtirilgan: gohi olim sifatida, gohi jurnalist sifatida, gohi bosh konstruktor sifatida va nihoyat brigadir sifatida. Ya'ni, eksperimentda bir shaxs bir ma'lumot bilan ishtirok etgan va baholangan, biroq uning ijtimoiy roli o'zgarib borgan.

Teleyangiliklarni ko'rib bo'lgach sinaluvchi teletomoshabinlar **Z.F. Semyonova** iltimosiga ko'ra yangilikni aytgan kishi to'g'risidagi o'z taassurotlarini maxsus shkalada ifodalaganlar.

Ma'lumotlarni statistik qayta ishlab **Z.F. Semyonova** baholovchi stereotiplarda farqlar mavjudligini aniqlagan. Shu bilan birga mazkur stereotiplar nafaqat shaxsni ijtimoiy roli bilan balki sinaluvchilar taalluqli guruhlarining ijtimoiy tavsiflari bilan ham belgilanishi o'z isbotini topdi.

Yuqoridagi faktlardan shu narsa ayon-ki, stereotiplashtirish hodisasi boshqa odamni bilish istagidagi subyekt o'sha odamning ijtimoiy roli, mavqeini aniqlagandan keyingina amalga oshirishni ko'rsatdi.

V.N. Panfyorov, Yu.G. Damaskinlar turli verbal ustanovkalarni odamni baholashda qay tarzda ta'sir o'tkazishini o'rganganlar. Ularning tajribalarida sinaluvchilarga elektron taxistaskop orqali bir erkak va bir ayol surati 0,02 soniya davomida taqdim etilgan va ularning tavsifini berish so'ralgan. Birinchi marta taqdim etilganda sinaluvchilar faqatgina ushbu shaxslarning tashqi ko'rinishi asosida olinadigan informatsiyaga tayanib «erkin» tavsif berishlari zarur bo'lgan. Ikkinchi marta taqdim etilayotganda esa suratdagi shaxslar kurs sardorlari ekani e'lon qilingan. Uchinchi marta taqdim etilayotganda esa kurs sardorlari ustanovkasi yaxshi do'st ustanovkasiga o'zgartirilgan. To'rtinchi marta taqdim etilayotganda yaxshi do'st ustanovkasi a'lochi ustanovkasiga o'zgartirilgan. So'nggi, beshinchi taqdim etilishda esa ular ikkichilar deb e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalari insonning ijtimoiy psixologik tabiatini aks ettiruvchi nutqiy ustanovka yordamida subyektlar to'g'risidagi fikrni keskin o'zgartirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi. Ya'ni ustanovka yordamida kishining aks ettiruvchi faoliyatini zaruriy yo'nalishda o'zgartirish mumkinligi aniqlandi. Ustanovka kishi xulqiga ta'sir etish mumkin bo'lgan psixologik mexanizm sifatida ilgari suriladi. Kishida hosil qilinadigan ustanovka uning ongidagi «andoza-

o'Ichov» mezonlarini faollashtiradi va inson muayyan bir baholovchi stereotiplar doirasida fikr yurita boshlaydi.

Yuqorida keltirilgan faktlar inson boshqa odamlarni baholashda foydalanadigan stereotiplar ushbu insonning shaxs xususiyatlari bilan uzviy aloqada ekanini isbotlagan. Inson hayot davomida o'zlashtiradigan tajribaning o'ziga xosligi natijasida, mehnat, muloqot subyekti sifatida shakllanadi. Ayni shu jihatlarning uning stereotiplari shakli va mohiyatini belgilaydi.

Aniqki, inson hayoti muayyan obyektiv qonunlarga bo'ysunadi. Inson tug'ilishi bilan bir qator shartli guruhlarning, hayoti davomida esa ko'plab mavjud guruhlarning a'zosiga aylanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida u o'zi mansub bo'lgan guruhdan ma'lum belgilarga ko'ra ajralib turuvchi shunga o'xshash ijtimoiy birliklar xususidagi bilimlarga ega bo'lib boradi. Bunday bilimlarda o'sha obyektlarning ba'zi bir, aksariyati, yuzaki xususiyatlari aks etadi. Kundalik turmushida inson muayyan ijtimoiy obyekt to'g'risida tezkor xulosa chiqarishga majbur bo'lganda, u individual va guruhij tajriba orqali to'plangan va shular bilan cheklangan bilimlardan foydalanadi. Odam, obyektiv psixologik qonunlarga binoan, bilish obyekti mansub bo'lgan ijtimoiy birlik haqida ko'pchilik ongida shakllanib qolgan tasavvurlarga tayanib ish ko'radi. Shunday tasavvurlarning turkumi ijtimoiy pertseptiv fenomenlar jumlasiga kiruvchi ijtimoiy stereotiplardir.

«*Ijtimoiy stereotip*» tushunchasini amerikalik olim **U. Lippman** o'zining 1922 yilda nashr etilgan «*Ijtimoiy fikr*» asarida ilk bora qo'llagan. **U. Lippman**: «*Ijtimoiy stereotiplar inson tafakkuri «psixik energiyani tejash tamoyili»ni amalga oshirish sababli vujudga keladi, - deydi - ushbu tamoyilning mohiyati har safar yangi hodisaga duch kelar ekan, odam unga yangicha javob qaytarmasdan, balki avval shakllangan kategoriyalar doirasiga olib kirishidadir. Garchi yangi axborot mazmuni biroz o'zgarsada, bilish jarayoni engillashadi*». Etnik stereotiplar ijtimoiy stereotiplarning bir ko'rinishidir.

Etnik stereotiplarni o'rganish bo'yicha ilk tadqiqotlar **D. Kats va, K. Breyli** tomonidan XX asrning 30 yil boshlarida o'tkazilgan. XX asrning 40-yillarida esa turli etnik guruh vakillari xususida ommaviy axborot vositalarida, badiiy adabiyotlarda, san'at asarlarida mavjud tasavvurlar o'rganila boshlandi.

Etnik stereotiplar – turli etnik guruh a'zolarining jismoniy, axloqiy va aqliy xususiyatlari haqidagi nisbiy barqaror, umumlashgan tasavvurlardir.

Zamonaviy etnopsixologiyada *etnik geterostereotiplar* – boshqa bir etnik guruh vakillarining xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlar bilan birga etnik avtostereotiplar – odamlar o'zi mansub bo'lgan etnik guruh a'zolari to'g'risidagi mavjud tasavvurlari farqlanadi. Ularning o'rtasidagi eng katta tafovut etnik avtostereotiplar hamisha ijobiy mazmunga ega bo'lishidadir.

Etnik avtostereotiplar etnik o'zlikni anglash komponentidir. Ularni o'rganish etnik o'zlikni anglash fenomenini teranroq tushunishga yordam beradi.

Milliy xarakter etnik avtostereotiplar ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Zotan, etnos ma'lum xususiyatlarni o'ziga xos deb bilar ekan muayyan vaziyatda ushbu tasavvuriga tayangan holda xatti-harakat qilishi mumkin. Masalan, **T. Yamamoto** «Yapon milliy xarakterini o'rganish qo'mitasi» tomonidan o'tkazilgan o'ttizga yaqin tadqiqotni tahlil qilib, yaponlar o'zlariga quyidagi xususiyatlar xos deb hisoblashlarini qayd etadi: ozodalikni sevish, tabiat bilan uyg'unlikka intilish, iltifot, shaxslararo munosabatlarda ko'ngilchanlik, murosasozlik, samimiylik, o'z-o'zini idora qilish, tinchliksevarlik, ammo harbda jasurlik, mag'lubiyatni tan ola bilish, yangiliklarni tez o'zlashtirish, ularga tez moslashish, original va ijodiy fikrlashga qodir emaslik, intozimlilik va h.k. Yapon olimi **Ya. Xaga** o'zining «Milliy xarakter haqidagi ocherklar» asarida yaponlarga hukumatga tobelik, vatanparvarlik, ajdodlar yodini hurmat qilish, oila sha'nini himoya qilish, tabiatdan zavqlana olish, ozodalik, olijanoblik xosligini ta'kidlaydi.

Etnos avtostereotipining asosiy xususiyati etnos vakillari uning mazmuniga ko'pincha ideal sifatlarni olib kirishidadir. **Etnosotsiolog Z.V. Sikevich** e'tirof etishicha, «Avtostereotipda salbiy xususiyatning mavjudligi etnik avtorefleksiya uchun notabiiy hodisadir».

Etnik avtostereotiplarning yana bir o'ziga xos jihati uning mazmuni bilan etnos vakillarining o'z tarixi haqidagi bilimlari o'rtasida aloqadorlik mavjudligidadir. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat barqaror bo'lganda avtostereotiplar mazmunini shakllantirish uchun etnos tarixidagi ijobiy hodisalar, buyuk shaxslar haqidagi bilimlardan foydalaniladi.

5. O'zbeklar xususidagi stereotipik tasavvurlar (tarixiy manbalarga asoslanadi). Milliy xarakter mavjudligi xususidagi faraz nafaqat maishiy ong darajasida, balki ijtimoiy fanlarda ham u yoki bu darajada yashirin hukm sifatida yashab kelgan. Azalda milliy xarakterning tavsifiy tushunchasi sayohatlar xususidagi adabiyotlarda xalqlarning turmush tarzini bayon etish maqsadida qo'llanilgan. Keyinchalik, milliy xarakter xususida gap ketar ekan ba'zi bir mualliflar temperamentni nazarda tutgan bo'lsa, ba'zi birovleri shaxs chizgilariga e'tibor qaratgan, yana ba'zilari milliy xarakterni o'rganish maqsadida qadriyatlar tizimiga, hukumatga, mehnatga bo'lgan munosabatlarga urg'u qo'ygan.

O'z nazariy tamoyillarini bevosita joylarda o'tkazilgan tadqiqotlar orqali olingan materiallarga asoslashga uringan etnograflar o'zbeklarning o'ziga xos ma'naviy va axloqiy sifatlari to'g'risida ko'plab qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirishgan.

O'zbeklarning ayrim ma'naviy va axloqiy xususiyatlari tadqiqi tarixiga murojaat qilsak.

Ko'hna Turkiston hamisha yaqin va olis davlatlar diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Zotan, Turkiston ham iqtisodiy, ham geografik jihatdan juda qulay hududda joylashgan edi.

O'zbeklar to'g'risidagi ma'lumotlar, asosan, sayohatchilar tomonidan qoldirilgan bo'lib, ilk yozma manbalar XVI-XVIII asrlarga taalluqlidir. Biroq, ajdodlarimiz sanalgan turkiyqabilalar to'g'risidagi ilk yozma manbalar X asrda ham uchraydi. Bunday etnografik ma'lumotlar ulug' tilshunos-olim, etnograf **Mahmud Qoshg'ariy** tomonidan yozib qoldirilgan «Devonu lug'otit turk» (Turkiy so'zlar devoni) asaridir.

Mahmud Koshg'ariy «Devon»da so'zga, so'z ma'nosiga, leksikasiga, fonetika va tarixiga doir juda ko'p ishoratlar bergan bo'lib, ular juda chuqur va sermazmundir. Muallif u yerdagi ishorati so'zlarning jamiyatda turmush talabi bilan bog'liq, turmushdagi ehtiyojni qondirish tufayli yuzaga kelganini ifodalash bilan cheklanib qolmay, mazkur izohlarda turkiy xalqlar aynan qanday faoliyat bilan shug'ullanganini ham ko'rsatib o'tadi.

«Devonda» turkiy xalqlardan bo'lgan ko'plab qabilalar haqida so'z yuritilgan. Masalan, Tangutlar «Devonda» Chin yaqinida yashovchi toifa deb izohlangan. Shuningdek, Mahmud Qoshg'ariy ular turklar bo'lib, o'zlarini arablardan deb da'vo qiladilar, deydi. Undagi ma'lumotlarga ko'ra, bu xalq tilida nuqsonlar ham sezilarlidir. Bu ma'lumotlarga qarab, biz bu qabila juda qadimda yashagan katta bir xalqning turklashib ketgan qismi degan fikrni bildirsak bo'ladi. O'rxundagi ma'lumot ham bu xalqning qadimiyligini tasdiqlaydi. Tangut filologiyasi haqida olib borilayotgan ilmiy tekshirishlar yakuniga ko'ra, tangutlar juda ilgariydan o'zlarining maxsus yozuvlariga ega, ancha taraqqiy etgan xalq bo'lgan deyish mumkin.

Turk diyorida yashovchi yana bir qavm – Tubutlardir. Mahmud Qoshg'ariy ularni bir jinoyat qilib Yamandan qochib, dengiz yo'li bilan Chinga borib o'rinishgan Bani Sobit avlodidir, deydi. Ularning tillarida hanuz dag'allik, ya'ni arabchanning ta'siri borligini ko'rsatadi: ular onani «uma», otani «abo» deydilar.

Kanjaklar ikki tilda so'zlashuvchi qabila bo'lib, ular tillarida shu bois ayrim kamchiliklar uchrashi ta'kidlanadi.

«Devon»da kanjaklarga nisbat berilganda maxsus so'zlar asosan tokchilik, bog'dorchilikka oidligi xarakterlidir.

Mahmud Qoshg'ariy turkmanlarni o'g'uzlar deb ko'rsatgan. Shu bilan birga ularning bu nom bilan atalishi haqida keng izoh bergan. Bir qism turkmanlar boshqa qabilalarga qo'shilib, ularning tillari ham ana shu qabila tiliga moslashib ketgani xususida ham ko'plab misollar keltirilib o'tilgan.

Muallif yag'molar haqida to'xtalar ekan, ushbu qabila nomi Tiroz yaqinidagi bir shahar nomi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

«Devon»dagi ma'lumotlar yag'molarni jangovar xalq sifatida tanitadi. Ularning urf-odatlariga va til xususiyatlariga doir ma'lumotlar anchagina mavjuddir. Yag'molarda savdo-sotiq ishlari ancha taraqqiy etgan edi. Ulardagi saroybonlarning ish usuliga doir ma'lumotlar ham xarakterlidir.

Qay qabilasi «Devon»da turkiy qavm sifatida izoh qilingan. Lekin ularning o'zlariga xos biror shahar yoki ulug'lari haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Shuningdek, ularning til xususiyatlari haqidagi ma'lumot ham boshqa qabilalarning tili haqidagi ma'lumotlarga nisbatan oz. Nazarimizda, ular juda qadimdan shu yerlarda yashagan bo'lsa ham, ma'lum sharoit natijasida boshqa qabilalarga singib ketgan.

Mahmud Qoshg'ariy tomonidan Yamak turkiy qabila sifatida e'tirof etiladi. Ularni muallif qipchoqlardan deb ko'rsatgan. Ular, asosan, Irtish qirg'og'ida yashagan. Ularning tilxususiyatlari to'g'risida alohida ma'lumotlar yo'q. Ayrim til xususiyatlariga ko'ra, ular ba'zan yabog'ular, ahli vobarlar bilan va ba'zan yabog'u, qay, jumul, basmil, qipchoq, o'g'uzlar bilan teng ko'rsatiladi. Ular bir vaqtlar ko'p nufuzli qabilalar sifatida til tarixida o'ziga xos o'rin tutgan bo'lsa ajab emas.

Yabog'u turkiy qabila bo'lib, bular ancha katta hududni ishg'ol qilgan edilar. Qashqar tog'laridan O'zgandga oqadigan katta suvni Yabog'u suvi deb atalishi ham bir vaqtlar ular mavqeining katta bo'lganidan darak beradi.

Ular kemasozlik ishida ham katta o'rin tutgan ekanlar.

«Devon»da izohlangan ba'zi bir til xususiyatlariga ko'ra, ular ancha qadimiy qabila bo'lgan degan xulosaga olib keladi.

Mahmud Qoshg'ariy, bundan tashqari, yana turkiy qabilalarning ko'plab odatlari, an'analari xususida ham ma'lumotlar berib o'tgan.

Qadim Buxoro va Samarqand xususidagi qimmatli axborotlar **Antoni Djenkinsonning** «*Buxoroga sayohat*» nomli asarida mavjud (1558-1560). U turkiylar to'g'risida so'z yuritir ekan: «...ular (turkiylar) hech qachon kamon, yoysiz yurmaydi, ular otda ham, piyoda ham – mohirona kamonbozlik qila oladilar. Bu xalq na oltinga, na kumushga ehtiyoj sezmaydi, biron-bir kiyim-kechak yoki boshqa zaruriy narsalarga muhtojlik sezsa o'z chorvasini almashtirishadi», – deb yozgan. Ushbu davr o'zbeklari soddaligi bilan, ehtiyojlarini chegaralay oladiganligi bilan, dabdabadan yiroq ekanliklari bilan ajralib turadi. Djenkinson Buxoro ahli xususida to'xtalganda, ular kuchli e'tiqod sohibi bo'lganliklarini alohida qayd etadi.

1926 yili o'zbek olimi **Miyon Buzrug** Istambulning Nuri Osmoniya kutubxonasida Fazlulloh al-Amin (ibn Ruzbixon) al-Xundji ash-Sheroziy al-Isfaxoniyning «*Mehmonnomai Buxoro*» (Buxoro mehmonining yodnomalari) asari qo'lyozmasini topib oladi. Fazlulloh Isfaxoniy asli fors bo'lib, O'rta Osiyoga

Erondan XVI asr boshlarida ko‘chib kelgach, Muhammad Shayboniyxonning maslahatchisiga, ham tarixnavisiga aylanadi. Isfaxoniy o‘z asarida Turkiston zaminini, Sayhun daryosini, O‘zbeklar yurti bo‘lgan Dashti-Qipchoqni, ahli Samarqand tavsifini berib o‘tgan.

Uning asari keyinchalik V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy, M.P. Vyatkin, P.P. Ivanov, A.A. Semyonov, M.A. Sale, A.I. Boldo‘rev singari qator olimlar diqqatini o‘ziga jalb etadi.

Xususan, o‘zbeklar to‘g‘risida u: ...ularnikiga kimdir tashrif buyursa, mezbon mehmondo‘stlik qonun-qoidalarini va ziyofatni joyiga qo‘yadi, - zero, bu Turkiston ahli odatlaridan sanaladi, – go‘shtga zarurat tug‘ilsa, mezbon shu zahoti yelkasiga bahodirlar kamonini bir necha o‘qi bilan ilib, mehmonga nonushta uchun biron yegulik olib kelish maqsadida, ovga chiqib ketadi. U dashtda mohirlik bilan biron-bir semiz qulonni ovlab qaytadi.» – deb yozadi. Yuqoridagi qaydlardan o‘zbeklarda mehmondo‘stlik, an‘analarga hurmat, samimiylik kabi sifatlar, shuningdek, jasorat mavjudligi e‘tirof etiladi.

Orenburgning dragunlar polki poruchigi **Dmitriy Glado‘shev** esa (1740.X) o‘z ko‘rsatmalarida xivaliklarni tavsif yetar ekan: «Ularda o‘zbeklar, ya‘ni saroy a‘yonlari yoki xizmatchilari ham sartlar, ya‘ni savdogarlar ham aslzodalar sanaladi, orolliklar singari kiyinadilar; zodagonlar o‘z yonida xanjar olib yuradilar; o‘zbeklar ham sartlar sallalarini ipak mato bilan o‘raydilar; oddiy xalq Orol xalqidan farqlanmaydi»- deydi.

Samaralik savdogar **Danilo Rukavkin** (1753) esa o‘zining «Xivaga sayohat» nomli yodnomalarida: «...Xiva xalqi bo‘lmish sartlar, ya‘ni savdogar va ziroatchilar, shuningdek, o‘zlarini zodagon ataydigan ayrim o‘zbeklar bizlar bilan (Rusiya bilan) savdo-sotiqni yo‘lga qo‘yishni juda-juda istaydilar» deb, tub aholida tujjorlik qobiliyatlari mavjudligini ham e‘tirof etadi.

Filipp Efremov «To‘qqiz yillik jahongashtalik» nomli yodnomasida (XVIII asrning 70 yillari) Buxoro xalqi tavsifini berar ekan: ...Registon maydoni atrofida sakkizta madrasa mavjud. Unda aksariyati yosh yigitchalar tahsil oladi, biroq ular ichida uylanganlari ham, yoshi ulg‘ayganlari-elliklar atrofida ham bor, – deydi. Bu bilan xalq orasida ilmga chanqoqlik yuksak darajada ekani ta‘kidlanadi. Boshqa bir joyida «Shu bilan birga, erkaklari o‘lguday rashkchi»degan jumlani qo‘shish bilan birga yana o‘ziga xos psixologik xususiyatni ko‘rsatib o‘tadi. Buxoro xalqida halollikka intilish o‘ta kuchli bo‘lganini, ularda «arzimas» o‘g‘rilik uchun erkaklarni osishlari, ayollarni toshbo‘ron qilishlari mumkinligi xususidagi mulohazalarni uning xotiralarida ko‘rish mumkin.

Efremov Samarqandliklar to‘g‘risida: ..ular baland bo‘yli, oppoq va anchagina sog‘lom, biroq jangga suyaklari yo‘qroq-deya alohida ta‘kidlaydi. U «shahar bir

paytlar ulkan bo'lib, hozirgi kunda talon-taroj bo'lgani sababi ham shundadir», deb o'z fikriga yakun yasaydi.

Mashhur etnograf, naturalist (1783 yildan Peterburg fanlar akademiyasi akademigi) **Ivan Ivanovich** (Iogann Gotlib) **Georgi** (1729-1802) 1768-1774 yillari Osiyo davlatlari bo'ylab qator sayohatlarni amalga oshirgan.

1776-1780 yillari uning «Rossiya davlatida yashovchi barcha xalqlar ta'rifi» nomli kitobi olam yuzini ko'radi. Georgi o'z kitobini qator akademiklar ishlaridan foydalangan holda yozgan. Bu, xususan, qirg'izlar (qozoqlar), xivaliklar va buxoroliklar haqidagi ma'lumotlarga taalluqlidir.

Buxoroliklar to'g'risida gap ketar ekan, I.Georgi: ..ularda maktablar alohida hurmatga sazovorligini, qator olamga mashhur din arboblari mavjudligini hamda tillarni o'rganish masalasida ularga teng keladiganlari yo'qligini ta'kidlaydi.

«Uylari hashamatli bo'lmasa-da, doimo toza-pokiza saqlanadi. Yaxshi ziroatchi, bog'bon, chevar va savdogarlar. Ular mehnatkash, biroq zaifroq: shuning uchun ham Qirg'izlardan qullar sotib olishadi, zotan, o'zlari odam o'g'irlash bilan shug'ullanishmaydi. Ularning qullarga bo'lgan munosabatlari xuddi yaqin-qarindoshlariga bo'lgani kabidir (Bu bilan **I. Georgi** buxoroliklarning odamiyligini e'tirof etadi). O'zlari hamisha safarda bo'lganliklari bois boshqa xalqlarga nisbatan toqatlidirlar», – degan gapi bilan muallif buxoroliklarning tolerantligini qayd etadi. Buxoroliklarning jiddiyligi «ular ko'ngil ochish uchungina kulgiga moyillik bildirishadi,» degan jumlada o'z ifodasini topgan.

Timofey Stepanovich Burnashev esa, (1794) buxoroliklarning o'ta tozakorligiga e'tiborini qaratib: ..Buxoroda toshhammomlar ko'p. Erkaklar va ayollar uchun alohida. Hammomga kirishdan oldin odamlar qo'llarini toza suv bilan yaxshilab yuvmasalar ularning qo'llariga hammomda yuvinish uchun mo'ljallangan idish berilmasligini qayd etib o'tadi.

T. Burnashev va **M. Pospelovlar** (1800) toshkentliklarning turmush tarzi va axloqiy xususiyatlari haqida to'xtalar ekan, ularning xudojo'yliklarini va halol hayot tarzini tilga olish bilan birga, ularda nafs buzqlik kam uchrashini e'tirofetishadi. Shunday hollar sodir bo'lsa, ular qattiqjazolanishlarini yozadi («..Umuman olganda, toshkentliklarning jussalari pishiq bo'lib, kam kasal bo'lishadi»).

Mir Izzat Ullohning Qo'qon xonligiga qilgan tashrifida (1812) vodiy ahlining quyidagi xususiyatlariga to'xtaladi: Mingtepada, asosan, turkiylar va qipchoqlar yashaydi. Ushbu ikkala elat ham 10-12000 oiladan tashkil topgan. Erlari chiroyli, yaxshi kiyingan va zo'r jangchidirlar, qirg'izlardan farqli o'laroq (ular aksariyati qashshoq, yoqimsiz va harbdan bexabar). Marg'ilonliklar – deya davom ettiradi Mir Izzat Ulloh xushmuomala, qo'li guldirlar. Ular turkiyzabon bo'lsalar-da, ichlarida forsiyni biladiganlari ham ko'p uchraydi.

Xo‘jand ahli esa ziyrak, xushqiliq, fe‘llari yaxshi va xushchaqchaq, – deb Mir Izzat Ulloh vodiy aholisi xarakter xususiyatlari tavsifini yakunlaydi.

Filipp Nazarovning «O‘rta Osiyoning ba‘zi bir xalqlari xususidagi qaydlari»da (1813-1814) toshkentliklar haqidagi quyidagi taassurotlari e‘tiborga molik: «toshkentliklar sog‘lom, beg‘am, farovon hayot kechirishadi, o‘yin-kulguga juda o‘ch, erka, musiqa shaydolari, ayollar bilan sermulozamat. Shaharga kirib borar ekansan, ko‘cha-ko‘yda betinim harakat qiluvchi ommaga duch kelasan, darvozalar oldida yoki bog‘larda o‘yin-kulgu bilan mashg‘ullar ham serob, go‘yo bu yerda hamisha bayram hukmronday. Ba‘zi bir kosiblarni hisobga olmasa, ular, umuman olganda, juda boy hayot kechirishadi» - deb yozadi muallif. Bundan tashqari F.Nazarov toshkentlik ayollar did bilan kiborlarcha kiyinishlarini, toshkentliklar hech qanday soliq to‘lamasliklarini, turli yurtlardan kelayotgan karvonlar ko‘pligi bois turli elat vakillari inoq yashashliklarini ham alohida ta’kidlab o‘tadi.

Nikolay Muravyov (1819-1820) O‘rta Osiyoga qilgan sayohatida: «..Biroq barcha tabaqa vakillari va qabilalar ham Xonga soliq to‘lashmaydi. Asl o‘zbeklar yoki xivaliklar soliqdan ozod qilingan, zotan, ular xizmatchilar va harbiylar toifasidan bo‘lib, Xon buyrug‘iga binoan, qurollanib aytilgan joyga borishlari lozim; shu sababli ham ular barcha to‘lovlardan ozod qilinganlar, faqatgina savdo bilan shug‘ullansagina boj to‘lashadi» - deb yozadi. Ushbu ma‘lumotlardan, ularning ham ma‘rifatliliklari, ham harb sohasidagi mohirliklari to‘g‘risida o‘zbeklarning ba‘zi bir xususiyatlari haqida axborotga ega bo‘lish mumkin.

Bundan tashqari, sartlar haqida ham ma‘lumotlar mavjud: ..ushbu o‘lkaning qadim egalari bo‘lmish sartlar bor mahoratini yerga ishlov berishga, uni sug‘orishga qaratganliklari, ular mislsiz mashaqqatlar bilan cho‘li-biyobonlarni bog‘u-bo‘stonga aylantirganliklari, ushbu yerlar egalari nafaqat o‘zlarining nonga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirganliklari, balki non bilanko‘chmanchilarni ham, bolqon, mang‘ishloq, qirg‘izlar va turkmanlar aholisini ham ta‘minlaganliklarini ta’kidlaydi.

«..Umuman olganda, o‘zbeklar aqlli, orasta, gapga usta xalq, o‘z qarorlarida qat’iy va jur’atli; ular to‘g‘riso‘z bo‘lib, ikkiyuzlamachilikni, yolg‘on va aldovni ko‘tarmaydilar; ruhan jangariroq. Ular gavdasi yirik va pishiq; bo‘ylari baland va qudratli, bo‘g‘doyrang, biroz qalmoqsifat, biroq yoqimli, ko‘zlari unchalar katta bo‘lmasada, nigohlari o‘tkir; soch-soqollari quyuq, qora, harb sohasida charchog‘ bilmas, shiddatli va jasur. Ular bag‘oyat sog‘lom bo‘lib, ko‘plari yuz yoshdan uzoqroq hayot kechirishadi» - deb muallif o‘zbeklar xulq-atvori, odatlari xususida to‘xtalib o‘tadi.

O‘zbeklarning bilish jarayonlari bilan bog‘liq ba‘zi bir jihatlarini ilmiy ravishda o‘rganish esa XX asr boshlarida taniqli psixolog-olim **A.R. Luriya** tomonidan amalga oshirilgan.

Ushbu tadqiqot **L.S. Vigotskiyning** ong madaniy-tarixiy rivojlanish mahsuli degan farazini isbotlash maqsadida olib borilgan bo'lib, o'sha davr o'zbeklarining ayrim idrok, fikr yuritish tarzi xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan edi.

Hozirgi kunda ham o'zbek psixolog olimlari etnopsixologik muammolarga bag'ishlangan ko'plab tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Jumladan, **M.G. Davletshin, G'.B. Shoumarov, E.G'. G'oziev, V.M. Karimova, M.M. Mamatov, N.S. Safaev, A.M. Jabborov, I.I. Maxmudov, F.S. Tato'baeva** kabi o'zbekistonlik psixolog-olimlar va tadqiqotchilar etnik xarakter genezisi, vazifalari va tuzilishi bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq muammolarni chuqur o'rganishgan. **M.G. Davletshin** va **E.G'. G'oziev** mamlakatimizda etnopsixologiya fanining rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni, **M.M. Mamatov** va **N.S. Safaevlar** etnik va milliy o'zlikni anglash muammolarini, **F.S. Tato'baeva** ijtimoiylashuv jarayonida etnik stereotiplarning shaxsga ta'sirini, **I.I. Mahmudov** xulq-atvorning etnik stereotiplarini, **S.S. Otamurotov** O'zbekiston mustaqilligi sharoitida ijtimoiy faol yoshlarning milliy o'zlikni anglash masalalari qanday ahvolda ekanini, **N. Salaeva** o'zbek oilasining regional hamda etnopsixologik tafovutlarini, **V.M. Karimova** yosh yigit va qizlarning o'zbek oilasi xususidagi ijtimoiy tasavvurlarini, **O.B. Muxammadberdiev** O'rta Osiyo xalqlarining zamonaviy taraqqiyot bosqichidagi o'zlikni anglash masalalari qanday kechayotganini o'rganganlar.

Xususan, A.Begmatov o'zbek xalqi xususiyatlari rivojlanishini ikki bosqichga ajratadi: birinchi bosqich 9-15 asrlarga to'g'ri keladi. Mazkur bosqichda xalqimiz o'z ijobiy jihatlari bilan dunyoga yuz tutgan ekan. Ikkinchi bosqich 16-19 asrlarga to'g'ri keladi. Ushbu davrda milliy xarakterda loqaydlik, xasad, xudbinlik, kabi sifatlar g'oliblik qilgan ekan. Olim bunday qusurlar Chor Rusiya hukumati tomonidan kultivatsiya qilingan deb hisoblaydi.

O.Musurmonova ham o'zbek milliy xarakteri muayyan darajada o'zgarganini qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, mustamlaka davrida o'zbeklarda ikki yuzlamachilik, yolg'onchilik, nomardlik, sotqinlik, soxta vatanparvarlik, mehrsizlik, ilmsizlik, loqaydlik, beparvolik, ichkilikbozlik, oqibatsizlik kabi salbiy xususiyatlar tarkib topgani e'tirof etiladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Milliy ong bu?
2. Milliy ongning shaklnishi?
3. Milliy ongning madaniyatning turli shakllariga ta'siri?
4. Milliy o'zlikni anglash.
5. Milliy o'zlikni anglashning ta'rifi?
6. Milliy o'zlikni subyektivlik xususiyatlari va funktsiyalari?

7. Etnik attityud uning ijtimoiy mohiyati.
8. Etnik streotip etnik birlikning timsoli sifatida.
9. Millatlararo munosabatlar xarakterining steriotiplar shakllanishiga ta'siri.
10. Streotiplashtirish – idrok etishning ratsional shakli sifatida.
11. Streotiplantirishning vazifalari?

12-MAVZU: IJTIMOY MUHIT, DINIY AN'ANALAR VA KOMIL INSONNING SHAKLLANISHI

Reja:

1. Ijtimoiy muhit va uning shaxs rivojlanishidagi o'rni.
2. E'tiqod va dunyoqarash.
3. Diniy qadriyatlarning etnoslarning xulq-atvorandozalariga ta'siri.
4. «Komil inson» tushunchasi va uning shakllanishi.

Tayanch tushunchalar: muhit, ijtimoiy muhit, ijtimoiylashuv, maqsadlar va ideallar, milliy ong, milliy o'zlik, etnik attityud, etnik streotip, milliy did va estetika, urf-odat, an'ana, udum va turli marosimlar, milliylik, milliy xarakter, ijtimoiy omillar.

1. Ijtimoiy muhit va uning shaxs rivojlanishidagi o'rni. Shaxs ijtimoiy hayotning mahsuli ekan, u albatta bolani o'rab olgan muhit ta'sirida rivojlanadi. Shaxsning hayoti faoliyati davomida muhit unga yo ijobiy, yo salbiy ta'sir ko'rsatishi, rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Muhit – bu shaxsga ta'sir etuvchi tashqi voqea va hodisalar kompleksidir. Bular: tabiiy muhit (geografik, ekologik) ijtimoiy muhit (shaxs yashayotgan jamiyat) oila muhiti va boshqalar kiradi. Bular orasida ijtimoiy muhitning, ya'ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun yaratilgan imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy muhit – bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir.

Shunday qilib, ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi o'rni nihoyatda beqiyosdir. Irsiy belgilarning rivojlanishi ham insoniy-ijtimoiy muhitda yashashga bog'liqligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Inson bolasi, agar ijtimoiy-insoniy muhitga emas, boshqa muhit, aytaylik hayvonlarmuhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanar, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat bo'lmaydi.

Ijtimoiy muhitning buyuk insonlar shakllanishidagi o'zni, muhim bo'lib, Alisher Navoiy shoir, Eynshteyn – fizik, Ulug'bek-astronom, Ibn Sino tabib bo'lib tug'ilmagan albatta. Ulardagi qobiliyat kurtaklarining rivojlanishi, iste'dodga aylanishida ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya muhim rol o'ynagan. Davlatimizning barkamol inson tarbiyalash borasidagi siyosatiga ham shaxs shakllanishida muhitning o'zni kattaligini ko'rsatadi. Bundan tashqari muhitning salbiy ta'siri tufayli tarbiyasi izdan chiqqanlarni ham qayta tarbiyalaydi.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot faoliyati jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv – har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari va ta'sirini qabul qilgan holda har bir harakatni va muomilasida uni ko'rsatishi va shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalaga ta'sirini o'tkaza olish jarayonidir.

Ijtimoiylashuv jarayonida ta'sir etuvchi tashqi omillarga oila, bog'cha, mahalla, maktab, maxsus ta'lim o'choqlari, oliygoxlar, mehnat jamoalari hamda norasmiy uyushmalar kiradi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatining yo'naltirib turadigan real vaziyatlarga nisbatan bog'liq bo'lmagan turg'un, barqaror motivlar majmuiga ega bo'lishlik shaxsning yo'nalganligi deb ataladi. Bunda anglanilgan yoki anglanilmagan bo'lishi mumkin. motivlar

Yo'nalganlikning eng muhim tarkibiy qismlarini quyidagilartashkil etadi:

Mas'uliyat – ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muxim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. (nazorat lokusi, amerikalik ijtimoiy psixolog **Djulian Rotter** nazariyasi, insonda ikki tipli mas'uliyat.)

Maqsadlar va ideallar – ijtimoiylashuvning mas'uliyat hissiga bog'liq yo'nalishlaridan yana biri shaxsga shakllanadigan maqsadlar va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish ertangi kunini tasavvur qilish, uzoq va yaqinga mo'ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydi. Ularning shakllanishi va ongda o'rnatilishida ma'lum ma'noda ideal hammuxim rol o'ynaydi.

Ideal yordamida kishi o'z oldiga maqsadlar aytib unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga irodani safarban qilishga yordam beradi.

Qiziqishlar – biron-bir sohada to'g'ri mo'ljall olishga, yangi faktlar bilan tanishishga, voqeylikni ancha to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir. Qiziqishlarning eng muxim tomoni shaxsning dunyoqarashi va etiqodini shakllantirishga asos bo'ladi.

2. E'tiqod va dunyoqarash. E'tiqod – shaxsni o'z qarashlariga, tamoyillariga dunyoqarashiga muvofiq tarzda ish ko'rishga da'vat etadigan motivlar sistemasidir. E'tiqod va qiziqishlar dunyoqarashini shakllantiradi.

Dunyoqarash – tartibga solingan yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Ustanovka

(yo‘l-yo‘riq) – shaxsning atrof-muhitda sodir bo‘layotgan ijtimoiy hodisalarni obyektlarni ijtimoiy guruhlarni ma‘lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabat o‘rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o‘zgartirishga aloqador kategoriyadir. Yo‘l-yo‘riq uchta asosiy komponent (kichik tuzilish)ga bo‘linadi:

1. Kognitiv komponentlar – yo‘l-yo‘riq obyektiga aloqador bilimlar, g‘oyalar tushuncha va tasavvurlar majmui.

2. Affektiv komponentlar – yo‘l-yo‘riq obyektiga nisbatan subyekt his qiladigan real hissiyotlardan.

3. Hissiyot komponentlar – subyektning obyektiga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo‘lgan xarajatlar majmui.

Ta‘lim va tarbiya. Mustaqil O‘zbekistonimizda ta‘lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlash milliy dasturini qabul qilinishi barkamol avlodni yaratishdagi dastlabki qadamlardir. Shaxs rivojlanishiga erishish har bir jamiyatda amalga oshirilayotgan tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Faqat tarbiya orqali insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta‘sir etiladi. Buning natijasida muhitdagi voqealarning to‘g‘ri ijobiy ta‘sirini amalga oshirish imkoni tug‘iladi. Muhit berolmagan narsalar tarbiya orqali hosil qilinadi, hatto tarbiya tufayli shaxsda tug‘ma kamchiliklarni ham o‘zgartirib shaxsni kamolga yetkazish mumkin.

Faoliyat va faollik. Rivojlanish shaxs faoliyatidantashqarida bo‘lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirilgan har qanday faoliyat xoh o‘yin, mehnat, o‘qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shaxs ulg‘aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham shaklan o‘zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham o‘zgarib boradi. Shu sababli bola hayotida o‘yin, o‘quvchi hayotida o‘qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatlari katta ahamiyatga egadir. O‘quvchi va talabalarning rivojlanishida o‘quv jarayonlarining ahamiyati va ta‘siri beqiyos kattadir. Bilimlarni o‘zlashtirish ularning tafakkurini o‘stiradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi bo‘lib qoladi. Bu jarayonda ularda ijtimoiy xulq normalari shakllanadi. Shaxs qaysi yoshda bo‘lishidan qat‘i nazar, ularning rivojlanishida **mehnat faoliyatining ahamiyati kattadir**. Ayniqsa, mehnat insonning ham jismoniy, ham ma‘naviy kamol topishida muhim manbahisoblanadi. Buyuk insonlar o‘z sohalarida yuksaklikka erishish uchun tinmay mehnat qilganlar. Inson o‘z intilishi va faolligi bilan yuksak cho‘qqilarga, muvaffaqiyatlarga ershishi mumkin, qobiliyat va iste‘dodni ruyobga chiqarish uchun ham o‘z ustida ishlash zarurdir.

3. Diniy qadriyatlarning etnoslarning xulq-atvor andozalariga ta‘siri. Evropa dinlariga xos inson shaklu-shamoyilidagi Yaratguvchi, teskari proektsiyada

insonning Tangrimonand bo'lishga intilish sifatida tushunilishi mumkin. Demokratik haq-huquqlar va erkinliklar G'oyasi shaxsning ozod va mas'uliyatli siymosiga tayanadi. Ushbu siymo esa xristianlar orzusidagi tangrisifat odam xususidagi tasavvurlarning ro'yobi bo'lib, komil shaxs siyratini Tangri siyrati bilan mushtaraklashtirish ifodasidir.

Polietnik xristianlikda shaxs va hukumat o'rtasida nizo yashirin. Tangri nafaqat boshqaruvchi va kechirimli ota vazifalarini bajaruvchi sifatida, balki an'analariga aqidaparastlik darajasida sodiq insonlar qurboni va ijtimoiy aqidalar tanqidchisi sifatidagi Masih siymosida gavdalanadi.

Sotsium an'alariga qarshi turuvchi, boylik va ijtimoiy muvaffaqiyatlardan yiroq Tangri siymosi sharofati bilan xristianlik psixoterapiya vazifasini amalga oshiradi. Ijtimoiy tuzum va xalqning yolg'on an'alarini qoralovchi Masih siyrati demokratik xulq-atvor namunasiga aylanadi. Ushbu obraz orqali inson hukumat va an'alar quli bo'lib qolmaslikdagi harakatlarida o'zining qo'llab-quvvatlovchisi, madadkorini topadi. Ularning nuqtai nazariga binoan, «ijtimoiy jihatdan ezilgan va yer bilan bitta bo'lgan» odam Tangrimonand ekanligi bilan ushbu pastga urilishlarning alamini olganday bo'ladi, o'z agressivligini dunyo o'tkinchiligini anglash, jamiyatga qarshi turish orqali bosadi va o'z qadrini tiklaydi. Agressiya o'z yo'nalishini hukumat muassasalari va normalarini tanqidiy qayta anglash tomon buradi, aynan shu pallada, monoetnik tizim a'zosiga unchalar ham tushunarli bo'lmagan «erkin shaxs» g'oyasi vujudga keladi. O'zini Yaratguvchiga tenglashtirish barobarida «ijod» ham inson qobiliyatlari va qadriyatlarining yuqori darajadagi ifodasiga aylanadi. «Ijodiylik» motivlari XVII-XX asrlarda tabiatni o'zgartirish, ijtimoiy inqiloblar, yangi olamni qurish kabi bema'ni g'oyalarda o'z aksini topadi.

Sharq esa olamni bunday «ijodiy» tarzda qayta qurishga moyil emas edi. Mehnatning qat'iy ijtimoiy uyushtirilishini taqozo qiluvchi Evroosiyo hududlarida yashovchilar xristianlikni emas Islomni din sifatida qabul qiladilar. Islomda «qat'iy» patriarxal tuzilmalarni himoya qiluvchi psixologik mexanizmlar xristianlikdan ko'ra kuchliroqdir. Islom ilk davrlarda iqlimi ancha keskin bo'lgan sharq zamini uzra yoyilgan. Tabiat inson ojizligini, faqatgina Tangri uning ustidan o'z hukmini o'tkaza olishi mumkinligini har qadamda ko'rsatib kelardi. Bunday vaziyatda – insonlar faoliyatini murakkab tabiiy sharoitlarga asrlar mobaynida moslashtirish natijasida ularga yashab ketish imkoniyatini bergan an'anaviy ijtimoiy tizimlarga itoat va hurmat kabi xususiyatlar tarkib topgan.

Reformatsiya qilishni emas, balki itoatni oliy qadriyat deb bilgan Islomni ayni jihat Sharqning olamni vayron etib so'ng qayta qurish g'oyalaridan yiroq Hind va Xitoy dinlariga yaqinlashtirdi. Tabiatdagi barcha mavjud narsa hurmatni taqozo etadi. Faqatgina insonning o'zi qayta qurish predmeti bo'lishi mumkin. Faqatgina

hamjihatlikdagi mashaaqqatli mehnat inson zotini Osiyoning keskin iqlimli zaminida yashab ketish imkonini beradi. «Erkin shaxs»ga o‘lim daxl qiladi. Tabiat ustida olib boriladigan tajribalar ko‘plab ajdodlarning mehnati orqali yashash imkoniyati ta‘minlangan sharoitlarda o‘z mazmuniniyo‘qotadi.

Markaziy Osiyo tabiati uchun individuallikni targ‘ib qiluvchi, hukumat va o‘zidan katta odamlar bilan tenglikka intilishni qo‘llab-quvvatlaydigan xristianlikning ba‘zi bir g‘oyalari va tamoyillari ma‘qul emas edi. Alohida olingan insonning Tangriga monandligi g‘oyasi, hukumat tuzilmalarini tanqid qilib yashovchi «daydi» Iso siymosidagi Tangri obrazining o‘zi ham, og‘ir tabiiy sharoitlar bilan kurashish orqali etnoslarning qirilib ketmasligini ta‘minlab bergan ijtimoiy tuzilmalar va an‘analarga nisbatan tanqidiy qarashlar kuchayishiga olib kelib, pirovardida, ularning yemirilishiga sababbo‘lishi mumkinligi bilan xatarli edi. Keskin biosferik hududlarda vujudga keladigan an‘analar va hukumat tuzilmalariga qaratilgan agressiya etnoslarning o‘zini yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelishi mumkin edi. Sharq dinlarida evropaliklarnikiday «erkin shaxs» g‘oyasining mavjud emasligi insonmonand Tangri siymosi mavjud emasligida o‘z ifodasini topadi. Erkin shaxs, o‘zini ijodda namoyon qilish va individ haq-huquqlarining ahamiyatliligi g‘oyalari, individ o‘z zimmasiga faoliyat subyekti vazifasini nafaqat olishga intilmaydigan, balki ushbu vazifadan g‘ayrushuriy tarzda qo‘rqadigan, sharqona faoliyat mexanizmlariga juda ham zid. Xristian mamlakatlarda ko‘plab reformalar va inqiloblar ro‘y bergan bir paytda Islom mamlakatlarida iqtisodning an‘anaviy shakllari saqlanib qolingani, hayotning defitsitar sharoitlari muhofaza qilingani, kuchli hokimiyat qadriyatlari targ‘ib etilganligi bejiz emas.

Islomiy mamlakatlardagi avtoritarlik mexanizmlari tashqaridan ko‘ringanidan chuqurroqdir. Turkiya va boshqa islomiy mamlakatlarning iqtisodiy yutuqlari ularni g‘arbning demokratik davlatlariga taqqoslanishiga sabab bo‘lgan. Biroq, mabodo psixologik tahlil etilsa, ushbu davlatlarda g‘arb andozasiga mos tushadigan yo‘l-yo‘riq mavjud emasligi ko‘zga tashlanadi. Odamlar, xudojo‘y bo‘lish bo‘lmashligidan qat‘i nazar, tarbiya jarayonida nizolar yechimining barqaror psixologik sxemalarini o‘zlashtirishadi. Ijtimoiy taranglikni bartaraf etishning psixotexnikasi esa islomiy va xristian jamiyatlari a‘zolarida mohiyatan farq qiladi.

Masalan, xristianlik an‘analarida tavba (ispoved) va tazarru (pokoyanie)dan faol foydalanishadi. Bu – o‘zni anglashni tanqidiy tarkib toptirish va tashqi agressiyani avtoagressiyaga o‘tkazish muolajasidir.

Xristianlikda tavba-tazarru texnikasi ming yillar mobaynida singdirib borilgan. Pirovardida, u refleksiya, o‘zgaruvchan shart-sharoitlarda o‘z qarashlarini va nuqtai nazarlarini qayta ko‘rib chiqish malakalarini, avtoagressiyaning yumshoq shakllarini taraqqiy ettirish negiziga aylangan. Avlodlar almashinar ekan ushbu diniy muolajalar odamlarda o‘z psixologiyasiga tanqidiy nazar tashlash odatini paydo

qilgan. Buning barchasi reformalar davomida o'zni qayta qurishga qodir demokratik toifaga mansub shaxsni tarkib topishi uchun zarur edi. Xristianlikda inson tavba-tazarrudan keyin hayotini tubdan o'zgartirib yashashi mumkin. Zotan, u din arbobiga Tangri tomonidan gunohlarni avf etish huquqi berilganligiga komili ishonch bildiradi. U o'z gunohlarini avf etilgan deb hisoblaydi.

Islomda esa ushbu muolaja mohiyatan boshqachadir. Inson tavba-tazarru qilish, haj safariga borishi mumkin. Lekin, savobu gunoh, avf etilish faqatgina Tangri izmidadir. Shu bois, odamlar gunoh qilishdan cho'chishadi, nojoiz xatti-harakatlarni amalga oshirmaslikka intilishadi. Xristianlar esa xato qilishdan qo'rqishmaydi. Iqlimi jihatidan «nozik» hududlarda insonni xususiy tahlilga va o'zini baholashga emas, balki tabiat va dushmanlar bilan kurashda qo'l keladigan intizom va an'analarga itoat qilib, oila, jamiyat va hukumatning qat'iy tuzilmalarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etgan edi. Osiyoning qat'iy tuzilmalari bo'ylab tarqalgan Islom tarkib topib ulgurgan turmush tarzini muhofaza qiladi va xristianlikdan farqli ravishda, unga qarshi qaratilgan har qanday agressiyani taqiqlaydi. Va, aksincha, boshqa guruhlariga yo'naltirilgan tashqi agressiya erkaklar xulq-atvorida tarbiyalanadi va u ijtimoiy taranglik natijasida paydo bo'ladigan salbiy energiyani chiqarib yuboruvchi kanal bo'lib xizmat qiladi. Islomda mavjud tavba-tazarru mohiyati o'z psixologiyasini o'rganish va muhokama qilishga g'ayrushuriy tarzda qo'yilgan taqiqqa, hokimiyat haq-huquqlari Tangri tomonidan belgilanganligi e'tirofiga monanddir.

Qanday madaniyatga mansub bo'lmasin ijtimoiy vaziyat tarang paytda odam o'zida ishonchsizlikni his qiladi. Bunday holatlarda oilaviy va do'stona rishtalar mavjudligi yaxshi. Xristian dini urug'-aymoqchilik rishtalarini uzayotgan bir davrda insonni Tangri-o'g'il va Tangri-ona ko'rinishidagi ideal oila bilan qovushtiruvchi intim sharoitlarni yaratish orqali uni atrof-muhitta'siridan chiqaradi, erkinlikni, shu bilan birga esa, psixoterapevtik effektini ta'minlaydi. Ijtimoiy inqirozni boshdan kechirayotgan Sobiq Ittifoqning Islom dini hukmron davlatlarida esa nizoli vaziyatlar yechimining bo'lakcha psixotexnikasi qo'llaniladi.

Bu yerda insonning o'zi mansub guruhning o'y-fikrlari, xohish-istaklari va xatti-harakatlariga tobe'ligi, «qat'iy» ijtimoiy tizimlarga xos xatti-harakatlarni uyushtirish shakllari kuzatiladi. Inqirozli vaziyatlarda «qat'iy» ijtimoiy tizimlar jipslashuvi kuchayadi.

Biroq, yaqin o'n yilliklar ichida ijtimoiy inqiroz kuchayishi, madaniy taraqqiyotdagi o'zgarishlar sababli ko'plab islomiy xalqlar an'anaviy-patriarxal psixologiyadan yangicha psixologiyaga, global miqyosda o'tishga majbur bo'lishadi. An'anaviy ijtimoiy tizimlar destabilizatsiyasi va individlar tomonidan subyektlik funktsiyalarini o'zlashtirilishi aynan islomiy davlatlarda bejizga yoyilmayapti. Axir Islom ham G'arb, ham sharq dinlar sirasiga kirgani bois jamoaviylikni faqatgina

biosferik afsonalar negizida emas, balki passionar energiyaning aksariyat qismini insonning koinot bilan bo'lgan aloqani o'rnatishga yo'naltirayotgan monoteizm sharofati tufayli saqlab kelayotgan xalqlar orasida tarqalar edi. Ushbu jihatdan Islom jamiyat uchun xavfli bo'lgan ruhiy energiyani yerdagi ixtiloflardan insonni bevosita Tangri bilan bo'ladigan o'zaro ta'sirga aylantiruvchi xristianlikka yaqin. Ya'ni islomiy xalqlarning jamoaviy hayotining biosferik muvozanati sharqroqda yashayotgan xalqlarniki kabi muqarrar emas.

Shaxsiy mas'uliyat va individual faollikni kuchayishi faqatgina yemirilayotgan, subyektlik funktsiyalarini individlarga topshirayotgan sotsiumda kuzatiladi. Beqarorlashgan jamiyatda inson o'zining subyektlik funktsiyasini o'zni erkin his qildiruvchi ijtimoiy ijod orqali ro'yobga chiqarishi mumkin. Zich shaxslararo munosabatlar girdobidagi «qat'iy» jamiyatda shaxsiy mustaqillikka intilish kutilmagan oqibatlariga olib keladi. Bu yerda birgina imkoniyat mavjud, bu ham bo'lsa Yaratuvchining faollik funktsiyalarini qo'lga kiritish imkonini bermaydigan shaxsning ijtimoiy hayotdan uzilishi. Bunday «qat'iy» tizimdan tashqarida qolishning bir ko'rinishi – darveshlikdir. Ular jamoadan chiqarib tashlanish evaziga refleksiya qilish huquqini qo'lga kiritishadi.

O'zlarining demokratik tuzilish sxemalarini Osiyo zaminiga ko'chirish orzusidagi amerikalik va yevropalik siyosatdonlar polietnik va monoetnik xalqlarning siyosiy ustnovkalari va ong shakllari o'rtasidagi ushbu chuqur tafovutni inobatga olishmaydi.

Bunday «demokratik» andozalar bosimi ostida ro'y berishi mumkin bo'lgan turmush tarzi nafaqat ko'hna ijtimoiy tuzilmalarga, balki individlar psixikasidagi ichki shaxs tuzilmalariga ham tahdid soladi. Pirovardida, nainkiqarshilikni hatto faol agressiyani ham paydo qiladi. Sharq va Janub davlatlaridagi g'arbning «demokratik» andozalari bosimi mavjud muhit bilan ular o'rtasida mental qarama-qarshilik kuchayishi xavfini oshiradi. Bu vaziyat XXI asrda urushlar va dunyo miqyosidagi ixtiloflar soni ko'payishiga olib keladi.

XX asrda ro'y bergan ayrim islomiy jamiyatlarda kuchaygan harbiy agressivlik an'anaviy madaniyatni yo'q bo'lib ketish xavfini oldini oluvchi, hududning o'zini o'zi tartibga solishgaqaratilgan himoyaviy reaksiya natijasidir.

Renessans va Restavratsiya inqirozlarini boshdan o'tkazgan yevropa-xristian hamjamiyatining beqaror, erkin shakli, bezarar, yumshoq ko'ringani bilan tabiatan agressiv, ijtimoiy planetar jarayonning o'ziga xos «axboriy ishqoridir». Ushbu «ishqoriy» madaniyatni Islom davlatlarining qat'iy tuzilmalariga singib borishi jangu-jadallarsiz, siyosiy shov-shuvlarsiz ro'y beradi. Biroq, baribir ushbu jarayon an'anaviy hukumat tuzilmalari tomonidan anchagina og'riqli his etilgani bois, ular vaqti-vaqti bilan, javobiy kechki harbiy aksiyalarni uyushtirishga majbur bo'lishadi.

Ahir ongning yevropaliklarnikiga o'xshash o'ziga xos ko'rinishining taraqqiyoti turfa madaniyat va turfa etniklararo ta'sirlar jarayonida vujudga kelgan mexanizmlar tomonidan belgilangan. Boshqa-boshqa madaniyatlarning o'zaro harakati o'zaro aks ettirish, refleksiya uchun qulay sharoitlarni yaratib bergan. Olamni aks ettirish sifatidagi etnik madaniyat afsonalari o'z aksini topish uchun – murakkab va undan farqli – aks ettiruvchi boshqa bir tizim mavjudligini taqozo qiladi. Biroq monomadaniyatda xulq-atvorning psixologik refleksiyasi nafaqat axloqiy jihatdan noma'qul, balki inson unga tayangan holda o'z xatti-harakati mohiyatini ifodalashi mumkin bo'lgan begona madaniyat mavjud emasligi bois, texnik jihatdan ilojisizdir. Yot etnoslarning ong sxemasi va madaniyati esa ana shunday tizimlar vazifasini o'taydi.

4.«Komil inson» tushunchasi va uning shakllanishi. «Komil» so'zi arabchadan o'zbek tiliga kirib kelgan bo'lib, «yetuklik, to'liq, mukammal» degan ma'noni anglatadi. Shunga ko'ra, komillik deb mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuiga aytiladi. Ana shu komillikka erishgan insonlar jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Shu tufayli komil inson g'oyasi dunyoga kelgan.

Komil inson g'oyasini amalga oshirishdagi ustuvor vazifalar. O'zbek xalqi mustaqillikka erishgach komil inson g'oyasi yangicha mazmun-ma'no kasb eta boshladi. Hozirgi kunda komil insonga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni shakllantirish vazifasi qo'yilgan:

1. Har bir odamni jismonan sog'lom qilib tarbiyalash. Jismoniy tanasida nosog'lom bo'lgan odam qanchalik urunmasin komillik darajasiga ko'tarila olmaydi.

2. Har bir katta-kichik odamning dunyoviy (tabiiy va gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy) bilim asoslarini chuqur o'zlashtirishini yo'lga qo'yish. Dunyoviy bilimlarni puxta o'zlashtirmagan odam taraqqiyotning nima ekanligini tushunmaydi, texnika va texnologiyalardan, xo'jalik va davlatni boshqarish san'atidan to'g'ri foydalana olmaydi.

3. Har bir fuqaro diniy bilim asoslaridan xabardor bo'lishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish. Diniy bilim asoslaridan xabardor bo'lmagan odamlar ko'r-ko'rona boshqa yo'llarga kirib ketishi, ya'ni diniy ekstremizm kabi vayronkor g'oyalarning qurboniga aylanishi mumkin.

4. Odamlarni ma'naviy-ruhiy jihatdan ham sog'lom bo'lishi haqida qayg'urish. Ma'naviy qashshoqlik, ruhiy xastalik balosiga giriftor bo'lgan odamni hech kim komil insonlar safiga qo'shmaydi.

5. Kishilarni qanday bo‘lmasin biron-bir foydali kasb- hunarning egasi, ya’ni o‘z kasbining ustasi, aniqrog‘i etuk mutaxassis qilib yetishtirish. Kasb-hunarsiz odamlar bilan farovon hayot qurib bo‘lmaydi.

6. Yoshlarni ongli, mustaqil fikr yuritadigan, har tomonlama bilimli, voqealar rivojidan mantiqan to‘g‘ri xulosa chiqara oladigan qilib tarbiyalash. Aqlsizlik jaholatga olib keladi. Jaholat esa halokatga olib keladi.

7. Kishilarning ma’naviy vujudida yuksak axloqiy-ma’naviy fazilatlarni shakllantirish. Inson milliy va umuminsoniy qadriyatlarga qanchalik amal qilsa, uning axloqiy-ma’naviy fazilati ham shunchalik yuksak bo‘ladi.

8. Yoshlarni ozod va erkin, o‘z Vatanini jondan ortiq sevguvchi shaxs qilib voyaga yetkazish. Uning vujudiga Vatanning mustaqillikruhini singdirish.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslangan holda komil inson tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta’rif berish mumkin.

Komil inson deb, dunyoviy bilim asoslarini puxta egallagan, diniy bilim asoslaridan xabardor bo‘lgan, jismonan sog‘lom, ruhiy jihatdan nuqsonsiz, biron-bir foydali kasb-hunarning ustasi bo‘lgan, mustaqil fikr yuritadigan, ongli, mantiqan to‘g‘ri xulosa chiqaradigan, yuksak axloqiy-ma’naviy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, ona Vatan ozodligi va obodligi yo‘lida jon fido qiladigan, haqiqiy vatanparvar, xalqparvar kishilarga aytiladi⁶⁴.

Shu sababli komil inson g‘oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma’naviyat va ma’rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg‘urmagan xalqning, millatning kelajagi yo‘q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkumdir.

Mustaqil Vatanimiz oliy maqsad qilib olgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barkamol, ezgu g‘oyalarni hayotiy e’tiqodiga aylantirgan yetuk insonlarga buni bunyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish, ma’naviy ma’rifiy ishlarni yuksak darajaga ko‘tarish orqali komil insonlarni voyaga yetkazishga yuksak e’tibor berilmoqda.

Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida ana shunday insonlar haqida bunday deydi: «Yaxshi fazilatlarni o‘ziga kasb qilib olgan insonlar yaxshi insonlar deyilur». Avloniy yaxshi insonlar deganda odamlarga yaxshilik qila oladigan, kamtar, saxiy, mehnatkash, mehr-shafqatli, bilimdon, o‘zgalar uchun qayg‘uradigan, mard insonlarni ko‘zda tutsa, «Yomon insonlar deb, yomonlik fazilatlari yaxshi fazilatlaridan ustun turadigan insonlarga aytiladi», deydi. Muallif yomon insonlar deganda xasis, baxil, birovlarining yutug‘ini ko‘ra olmaydigan hasadgo‘y, faqat o‘zim deydi xudbin kishilarni nazarda tutadi. Avloniy kishilarni

o'zida yaxshi fazilatlarni to'plagan, el nazariga tushgan, yaxshilikka intiluvchi, o'zini tarbiyalab borishga o'rgangan insonlar bo'lishga undaydi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ijtimoiy muhitning psixologik iqlimi deganda nima tushuniladi?
2. Jamoa, guruh va guruh turlarini din psixologiyasida o'rganilishi?
3. Diniy va nodiniy an'analarining shaxsga ta'siri?
4. Shaxsning milliy, diniy va umuminsoniy xususiyatlarini shakllanishi?
5. Diniy va nodiniy aloqalarni etnopsixologiya va ijtimoiy psixologiyada o'rganilishi?

II. GLOSSARIY

FAN BO‘YICHA TAYANCH IBORALAR

Ijtimoiy psixologiya – psixologiya fanining o'ziga xos maxsus tarmog'i bo'lib, unda psixik va jamiyat taraqqiyoti qonunlari o'rganiladi.

Sotsiologiya – jamiyatda yuz beradigan turli-voqea-xodisalarni va o'zaro munosabatlarni o'rganishga qaratilgan fan.

Shaxs ijtimoiylashuvi - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir.

Ijtimoiy tasavvurlar – shaxsga jamiyat orqali ta'sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol obrazi.

Muomala – ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi.

Boshqaruv – shaxs va jamiyat munosabatlarida ijtimoiy, individual munosabatlarni o'rnatish ga qaratilgan jarayon.

Oila – turmush qurish, qarindosh-urug'chilik asosidagi kichik guruh.

Ijtimoiy psixologik eksperiment – asosiy metodlardan biri bo'lib, o'zgaruvchan mustaqil turli xolat va jarayonlarning boshqa nomustaqil xolat va jarayonlarga ta'sir etishdagi aniq ma'lumotlariga tayanadi.

So'rov – asosiy metodlardan biri bo'lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma'lumot olinadi.

Anketa – metodlardan biri bo'lib, respondent to'g'risida aniq ko'zlangan ma'lumotlarni yig'ish maqsadida qo'llaniladi.

Kontent-analiz – tekshirilayotgan matnda so'z, ibora, abzatlarni ma'no-mohiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli.

Kuzatish – sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog'liq ravishda tekshirish, o'rganish, ma'lumotlar to'plash metodi.

Test – sinaluvchini tekshirish jarayonida maxsus qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.

Kommunikativ – shaxslararo munosabatlarda ma'lumot, axborot, g'oyalar almashinuvi jarayoni.

Interaktiv – shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta'sir ko'rsatish jarayoni.

Pertseptiv tomon – shaxslararo munosabatlarda tushunish, his etish, idrok etishga qaratilgan jarayon.

Bosqichlar – muloqotda mavjud bo'lgan shaxsning o'zi bilan, boshqalar bilan va avlodlar orasida kechadigan jarayoni.

Shakllar – bevosita va bivosita tur bo'lib, yuzma-yuz yoki vosita orqali amalga oshishi ko'zda tutiladi.

Verbal – og'zaki ifodalangan nutq.

Noverbal - nutqsiz ifodalangan xarakat, mimika, xolatlarning boshqa shaxsga yo'naltirilishi.

Kommunikativ – shaxslararo munosabatlarda biror ma'lumotning yetkazilishiga qaratilgan tomoni.

Pertseptiv – shaxslararo munosabatlarda biror vaziyatni, xolatni tushunish, xis etishga qaratilgan tomoni.

Interaktiv – shaxslararo munosabatlarda bir-biriga ta'sir etishga qaratilgan tomoni bo'ib, bunda shaxsning ijtimoiy mavqei, roli muhim omil sifatida kuzatiladi.

Gurux – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilariga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Rasmiy – odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, ijtimoiy rollar taqsimotida mavqe, martabaning inobatga olinishi.

Norasmiy – odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o'zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko'zda tutilishi.

Real – birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.

Shartli – odamlarning turli belgi, faoliyat shakllariga ko'ra biror guruhga taalluqli deb qarash.

Gurux – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilariga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Rasmiy – odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, ijtimoiy rollar taqsimotida mavqe, martabaning inobatga olinishi.

Norasmiy – odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o'zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko'zda tutilishi.

Real – birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.

Shartli – odamlarning turli belgi, faoliyat shakllariga ko'ra biror guruhga taalluqli deb qarash.

Referent gurux – jamoa yoki guruh orasida o'z ta'siriga ega shaxs yoki guruxning mavjud bo'lishi.

Negativizm - individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishi.

Uyushganlik - guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy printsiplari, qadriyatlarini anglashlari.

Shakllanganlik - odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo'lishi bilan bog'liq psixologik jarayon.

Ijtimoiy ustanovka - shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruhlarini ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirligi.

Mobil - shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi.

Rigid – shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining past darajada kuzatilishi.

Introvert - shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi.

Ekstrovert – shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining yuqoriligi.

Dominant – boshqalar bilan muomala va munosabat o'rnatishda o'z fikrini o'tkazish xislatining yorqin namoyon bo'lishi.

Tobe – muloqot va boshqa jarayonlarda shaxsda ko'nikuvchanlik, boshqa kishilarga bog'liqlik, fikriga bo'ysunish xususiyatlarining tarkib topishi.

Ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni.

Psixologik maslahat - shaxsning turli darajadagi o'z muammolarini yakka tartibda psixolog bilan tahlil etishiga qaratilgan psixologik xizmat turi.

Sanoat psixologiyasi – sanoat va ishlab chiqarishda turli yuzaga keladigan muammo va xolatlarni psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qilib olishga qaratilgan xizmatlari turi.

Ta'lim maskanlari psixodiagnostikasi – shaxsni ta'lim tizimda qobiliyati, iqtidori, iste'dodini aniqlab olish maqsadida olib boriladigan psixologik xizmat turi.

Ijtimoiy psixologiya – psixologiyaning shunday sohasiki, bunda psixik va jamiyat taraqqiyoti konunlari shaxs xulq-atvorida aks etishi o'rganiladi.

Metodologiya – tadqiqot, tekshirish usuli bo'lib, bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisidir.

Shaxs ijtimoiylashuvi - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir.

Ijtimoiy tasavvurlar – shaxsga jamiyat orqali ta'sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol obrazi.

Ilmiy taxmin – tekshirish va tadqiqot olib borish maqsadida ilgaridan kutilishi mumkin bo'lgan xolatning bashorat qilinishi.

Avtoritar – ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish va tashkil etishda rahbar shaxsining faqat o'z fikri va qarashlariga suyanishi va amal qilishi.

Demokratik - ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish va tashkil etishda rahbar shaxsining jamoa fikri va qarashlarini ham inobtga olishi.

Liberal - ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish va tashkil etishda rahbar shaxsining befarqlik munosabatlarini namoyon etishi.

Rahbarlik – boshqaruvda rasman vakolatlarning shaxsga berilganligi.

Liderlik – jamoa orasida turli vaziyatlar ta'sirida yuzaga keladigan rahbarlik, lekin bu rahbarda rasmiy vakolat tizimi mavjud emas.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti boshlig‘i
polkovnik**

M.X.Rustambayev

2024-yil “ ” _____

**IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA. ETNOPSIXOLOGIYA
FANIDAN O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	1000000	–	Xizmatlar
Ta’lim sohasi :	1030000	–	Xavfsizlik xizmati
Ta’lim yo‘nalishi:	61030200	–	Xizmat faoliyatini tarbiyaviy- psixologik ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Kengashining
2024-yil “___” _____ kungi yig‘ilishida muhokama qilingan va ma’qullangan
(___-son bayonnoma)

61030200 - “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi
(mutaxassislik)lari uchun “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan o‘quv
dasturi. -T.: O‘z.Res. JXU, 24 bet.

Tuzuvchi:

D.M.Mamatkulov	“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrası dotsenti, Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
----------------	---

Taqrizchilar:

X.X. Jabborov	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Bafayev	Nizomiy nomidagi TDPU “Psixologiya” kafedrası mudiri, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

1. SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PF–67-son “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida yangi o‘quv dasturlari, darsliklar va boshqa qo‘llanmalarni tayyorlash, ta‘lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni yangi tahrirdagi Konstitutsiya norma va qoidalariga moslashtirish kabi ilmiy-metodik chora-tadbirlarni ko‘rish vazifalari belgilandi¹.

Mazkur vazifalar ijrosini ta‘minlash “Xizmat faoliyatini psixologik ta‘minlash” yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, yuqori malakali, kadrlarni tayyorlash jarayonida psixologiyaga oid fanlarining roli va o‘rni beqiyos bo‘lib, “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya”ni xizmat faoliyatida psixologik ta‘minlash faoliyati bilan bog‘lash ijobiy samara beradi. Chunki xizmat harbiy xizmatchi va xodimlaridan irodaviy zo‘r berishni, aqliy jiddiylikni, chidam va sabr-toqatni talab qiladi. Kursantlarining kasbga munosabati, mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy kamoloti masalasi juda katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, bevosita uning ilmiy, ma‘naviy, moddiy salohiyatini, ichki va tashqi siyosatini belgilaydi.

“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fani ko‘p jihatdan amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘lib, amaliy hayotda psixologiyaning muhim sohasi hisoblanadi. Shuning uchun mazkur dasturda kursantlar uchun satsial-psixologik so‘rovnomalarni olib borish masalalari, ijtimoiy-psixologik masalalar tuzish usullari va shaxsni liderlik va boshqaruv malakalariga ega bo‘lishni o‘rgatish masalalari inobatga olingan.

Ushbu fan ijtimoiy jihatdan dolzarb masalalar – muloqot, guruhlar, shaxs va shaxslararo munosabatlarda nomoyon bo‘ladigan shaxs xususiyatlari va boshqaruv masalalarini qamrab oladi.

Muloqot, katta va kichik guruhlar, etnik guruhlar, etnik guruhlar shaxsning ijtimoiy psixologik sifatlari, uning jamiyatda ijtimoiylashuvi jarayoni, ijtimoiylashuv maskanlari, shaxsning ijtimoiy ustanovkalari, shaxslararo munosabatlarda nomoyon bo‘ladigan holatlar, boshqaruv psixologiyasi asoslari va liderlik muammolarini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar bilan kursantlarni qurollantiradi.

“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fani ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanadi. “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi va “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta‘minlash” ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qitiladi. Mazkur fan o‘z rivojida boshqa psixologiyaga oid bo‘lgan fanlarni o‘zlashtirishda zamin bo‘lib xizmat qiladi.

1.1. FANNI O‘QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 maydagi PF-67-son “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni” // QMMB: 06/23/67/0269-son 10.05.2023-y. <https://lex.uz/pdfs/6461609> (03.07.2023 y. holatiga murojaat qilingan).

Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lg'usi psixolog-pedagoglarga shaxs va jamiyat munosabatlariga oid psixologik qonuniyatlarni, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning shaxs ijtimoiy xulqiga qay tarzda ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tushuntiruvchi mexanizmlar to'g'risida bilim berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan kursantlarni ijtimoiy psixologiyaning fundamental muammolari bo'lmish muloqot, guruhlar ijtimoiy psixologiyasi, shaxsning ijtimoiy psixologik sifatleri, uning jamiyatda ijtimoiylashuvi jarayoni va tadbqiq jabhalar, ijtimoiy psixologiyaning predmetiga oid turli qarashlar, rivojlanish tarixiga oid materiallar hamda ijtimoiy psixologik jarayonlarni o'rganish usullari, axborot-psixologik xavfsizlik masalalari, turli kommunikativ xurujlar sharoitida shaxsning o'zini o'zi himoya qilish shartlarini shakllantirish vazifasini bajaradi.

1.2. KURSANTLARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Fan bo'yicha kursantlarning bilim, ko'nikma va malakalarga quyidagi talablar qo'yiladi. **Kursant:**

- muloqot turlari va uning ijtimoiy psixologiyasi, katta va kichik guruhlar ijtimoiy psixologiyasi, shaxsning jamiyatda ijtimoiylashuvi jarayoni, ijtimoiylashuv oqibatlari, ijtimoiy psixologiyaning tadbqiq jabhalari haqida **tasavvurga ega bo'lishi;**

- shaxsning ijtimoiy-psixologik sifatleri, shaxs va jamiyat o'zaro munosabatining turli qirralarini, zamonaviy ijtimoiy psixologiyaning tadqiqot metodlarini, kommunikativ xurujlar sharoitida shaxsning o'zini o'zi himoya qilish usullarini, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantira olishni, shaxs ijtimoiylashuvining qonun-qoidalarini, ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatishning yo'nalishlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

- nazariy-metodologik jihatdan o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotga joriy etish, iqtidor va qobiliyatni o'stirish texnologiyalarini o'zlashtirish, guruhlar va guruhlararo muloqot psixologiyasi qonuniyatlarini bilgan tarzda ijtimoiy-psixologik treninglar o'tkaza olish, ijtimoiy psixologiyaning barcha testlari va metodikalarni qo'llay bilish, mustaqil ravishda ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar tuza olish, tadqiqotlarda olingan natijalarni ilmiy asoslab tahlil qila olish, xodimlarda kasbiy faoliyatga xos sifatleri tarbiyalash **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

1.3. FANNING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fani o'quv rejasidagi deyarli barcha fanlar bilan aloqada o'rganiladi. Ayniqsa, “Taraqqiyot va differensial psixologiya”, “Umumiy psixologiya”, “Harbiy pedagogika va psixologiya”, “Pedagogik psixologiya. Qiyosiy pedagogika”, “Sotsiologiya” kabi fanlar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, bevosita va bilvosita aloqada bo'ladi.

1.4.FANNI O'QITISHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR

“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazishda turli metod va zamonaviy o‘qitish shakllaridan foydalaniladi. Ayniqsa, e’tibor mashg‘ulotlarni interfaol usullarda tashkil qilishga qaratiladi.

Ma’ruza mashg‘ulotlarida slaydlar, multimedia vositalaridan, so‘z orqali tushuntirish, namoyish qilish usullardan foydalaniladi. Bundan tashqari darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, pedagogik entsiklopediyalar va lug‘atlar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallaridan foydalaniladi.

1.4. FANNING UMUMIY VA O‘QUV ISHLARI TURLARI BO‘YICHA HAJMI

Umumiy o‘quv soati	-352
shu jumladan:	
ma’ruza	-74
amaliy mashg‘ulot	-62
seminar	-60
mustaqil ta’lim	-156

Fanni o‘rganish bo‘yicha mavzularga ajratiladigan soatlarning taxminiy taqsimoti

T/r	Mavzular	Umumiy o‘quv soati	Auditoriya mashg‘ulotining turlari				
			Jami	Ma’ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta’lim
1	Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari	8	4	2		2	4
2	Ijtimoiy psixologiya fanining shakllanishi va taraqqiyoti	8	4	2		2	4
3	Ijtimoiy psixologiya rivojlanishining eksperimental bosqichi	8	4	2		2	4
4	Ijtimoiy psixologiya asosiy metodlari	10	6	2	2	2	4
5	Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida muloqot tushunchasi, uning turlari, vositasi va kommunikativ ta’sir etish usullari	10	6	2	2	2	4
6	Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining muloqoti	10	6	2	2	2	4
7	Shaxslararo munosabatda psixologik aloqa o‘rnatish usullari.	10	6	2	2	2	4
8	Shaxslararo munosabatda tinglash muammosi va transakt analiz	8	4	2	2		4
9	Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari kasbiy faoliyatida nizoli holatlar va ularning oldini olish	8	4	2	2		4
10	Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining shaxslararo munosabatda o‘z xatti-harakatlarini hissiy-irodaviy boshqarishi	8	4	2	2		4
11	Profayling xizmatining shaxslararo munosabatda tutgan	10	6	2	2	2	4

	o'rni						
II-semestr uchun jami:		98	54	22	16	16	44
12	Ijtimoiy psixologiyada guruhlar muammosi	10	6	2	2	2	4
13	Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi	10	6	2	2	2	4
14	Ijtimoiy psixologiyada kichik guruhlar va ulardagi qonuniyatlar muammosi	8	4	2	2		4
15	Jamoadan tashqari ahloq psixologiyasi	8	4	2	2		4
16	Ijtimoiy psixologiya va shaxs	8	4	2	2		4
17	Shaxsning ijtimoiylashuvi	10	6	2	2	2	4
18	Ijtimoiy psixologiya va xavfsizlik	8	4	2	2		4
19	Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida boshqaruv psixologiyasi	10	6	2	2	2	4
III-semestr uchun jami:		72	40	16	16	8	32
20	Milliy gvardiya jamoasini boshqarishda psixologik bilimlarning roli	10	6	2	2	2	4
21	Boshqaruv texnologiyalari	10	6	2	2	2	4
22	Boshqaruvda liderlik muammosi	10	6	2	2	2	4
23	Boshqaruvda rahbarlik sifatleri	10	6	2	2	2	4
24	Milliy gvardiya rahbarlarining boshqaruv faoliyatidagi muhim shaxsiy-kasbiy sifatleri	10	6	2	2	2	4
25	Milliy gvardiya boshqaruvida rahbarning o'z hissiy-irodaviy holatlarini boshqarishi	10	6	2	2	2	4
IV-semestr uchun jami:		60	36	12	12	12	24
26	Milliy gvardiya jamoasini boshqarishda qaror qabul qilish va ijrosini ta'minlash	10	6	2	2	2	4
27	Jamoani va xodimlarni boshqarishning psixologik asoslari	10	6	2	2	2	4
28	Boshqaruvda muzokaralar olib borishning psixologik jihatleri	10	6	2	2	2	4
29	Etnopsixologiya fanning predmeti, vazifalari va ahamiyati	8	4	2		2	4
30	Etnopsixologiya predmeti va obyektini aniqlashda uchraydigan murakkabliklar	8	4	2		2	4
31	Etnopsixologik tadqiqotlarning G'arb va Sharqda o'rganilishi	8	4	2		2	4
32	Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar	10	6	2	2	2	4
33	Etnopsixologiyaning tuzilishi, komponentlari va milliy xarakter muammosi	10	6	2	2	2	4
34	Milliy urf-odat va an'analar. Ularning ijtimoiy-psixologik funksiyalari	12	6	2	2	2	6
35	Milliy tuyg'ular va ta'b (did)lar	12	6	2	2	2	6
36	Milliy ong va milliy o'zlikni anglash. Etnik attityudi va stereotip	12	6	2	2	2	6
37	Ijtimoiy muhit, diniy an'analar va komil insonning shakllanishi	12	6	2	2	2	6
V-semestr uchun jami:		122	66	24	18	24	56
Jami		352	196	74	62	60	156

2. FANNING MAZMUNI

1-mavzu. Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari

Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari. Ijtimoiy psixologiya shaxs va jamiyat munosabatlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi fan sohasi sifatida. Uning asosiy vazifalari va o'rganish obyektlari. Fan predmetini aniqlashga bag'ishlangan turlicha qarashlar bayoni. Psixologiya va sotsiologiya – ijtimoiy psixologiya predmetini aniqlashga imkon bergan asosiy fan tarmoqlari sifatida.

2-mavzu. Ijtimoiy psixologiya fanining shakllanishi va taraqqiyoti

Ijtimoiy psixologiya fanining o'ta qadimiy fan ekanligi. Eramizdan avvalgi faylasuflar – Platon, Aristotel va ularning izdoshlari talqinida ijtimoiy psixologik muammolarning hal qilinishi. Yangi davr va ijtimoiy psixologik jarayonlarning sanoat va migratsiya rivojlanishi munosabati bilan o'zgarishi, qator fanlar – tilshunoslik, antropologiya, etnografiya, sotsiologiya, umumiy psixologiya, patopsixologiya kabilarning ijtimoiy psixologiya predmeti shakllanishiga ta'siri. Ijtimoiy psixologik fikrlar takomillashuvining uch nazariy manbasi – xalqlar psixologiyasi, omma psixologiyasi, ijtimoiy xulqning instiktlari nazariyasi.

3-mavzu. Ijtimoiy psixologiya rivojlanishining eksperimental bosqichi

Ijtimoiy psixologiya rivojlanishining eksperimental bosqichi: Amerika hamda Evropa mamlakatlarida o'tkazilgan dastlabki ijtimoiy psixologik sinovlar va eksperimentlar. Salomon Ash va boshqalarning eksperimental tadqiqotlari. Jahonni lol qoldirgan 100 eksperiment haqida. Ijtimoiy psixologiyaning Rossiyada va sobiq ittifoq davlatlarida rivojlanishi. B.Parog'in, G.Andreeva, R.Krichevskiy, Umanskiy va boshqalarning tadqiqotlari. O'zbekistonda o'tkazilgan asosiy ijtimoiy psixologik tadqiqotlar va ularning istiqbolni belgilashdagi ahamiyati. Shaxslararo munosabatlar va etnopsixologik tadqiqotlarning yo'nalishlari. O'zbekistonda gender tadqiqotlarning istiqboli.

4-mavzu. Ijtimoiy psixologiyaning asosiy metodlari

Ijtimoiy psixologiyada qo'llaniladigan metodlarning boshqa psixologiya yo'nalishlaridan farqi. Shaxsni guruh sharoitida va guruhlararo munosabatlar tizimida o'rganish ijtimoiy psixologiyaning asosiy maqsadi sifatida. Ijtimoiy psixologiyada kuzatuv: ichki va tashqi kuzatuv, faoliyat bilan qo'shilgan holda kuzatuv; ijtimoiy psixologik eksperiment, kontent-analiz, proektiv metodikalarning o'ziga xosligi.

5-mavzu. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida muloqot tushunchasi, uning turlari, vositasi va kommunikativ ta'sir etish usullari

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida muloqot tushunchasi va uning turlari. Muloqot kategoriyasi psixologiya fanidagi markaziy kategoriyalardan biri sifatida. Muloqotning bosqichlari. Kasbiy muomala va uning xodimlar faoliyatida tutgan o'rni. Muloqot funktsiyalari va vazifalari. Muloqotning turlari. Muloqotning psixologik tuzilishi. Muloqot vositasi va kommunikativ ta'sir etish usullari.

6-mavzu. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining muloqoti

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining muloqoti. Muloqotning psixologik vositalari. Yolgʻon va yashirin holatlar diagnostikasi kishilarning nutqiy ifodasi asosida tahlil qilinishi. Muloqotga kirishuvchilar oʻrtasidagi masofalar va taʼsir etish usullari. Muloqot jarayonida psixologik-pedagogik taʼsir etish printsiplari. Psixologik taʼsir koʻrsatish usullarini qoʻllash bosqichlari.

7-mavzu. Shaxslararo munosabatda psixologik aloqa oʻrnatish usullari

Psixologik aloqa oʻrnatish usullari. Psixologik aloqa tushunchasi. Muloqot jarayonida vujudga kelishi mumkin boʻlgan psixologik toʻsiqlar. Psixologik aloqa oʻrnatishdan koʻzlanadigan maqsadlar. Psixologik aloqa oʻrnatishning asosiy bosqichlari.

8-mavzu. Shaxslararo munosabatda tinglash muammosi va transakt analiz

Muloqotda tinglash muammosi va transakt analiz tushunchasi. Norefleksiv va refleksiv tinglash haqida tushuncha. Refleksiv tinglashda javob berishning toʻrt turi. Professional tinglash texnikasi. Transakt analiz va transaktsiya turlari.

9-mavzu. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari kasbiy faoliyatida nizoli holatlar va ularning oldini olish

Munosabatlardagi tafovut-konfrontatsiya tushunchasi. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari jamoalarida turli xil nizolarning kelib chiqish sabablari. Nizoli vaziyatlar va uning tuzilishlari. Nizo dinamikasi, bosqichlari va turlari. Nizolarning belgilariga koʻra tasniflanishi. Nizolarning oldini olish uchun amal qilish lozim boʻlgan qoidalar. Nizolarni bartaraf etish usullari. Muomala qilish madaniyati. Xizmat vazifalarini bajarish vaqtida fuqarolar bilan muomala qilish madaniyati qoidalari. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining nutq madaniyati.

10-mavzu. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining shaxslararo munosabatda oʻz xatti-harakatlarini hissiy-irodaviy boshqarishi

Hissiy-irodaviy barqarorlik xodimlarning fuqarolar bilan shaxslararo munosabat va kasbiy faoliyatiga psixologik jihatdan tayyorligini koʻrsatuvchi alomatlardan biri sifatida. Hissiy-irodaviy oʻzini oʻzi boshqarishning asosiy maqsadi. Oʻzini oʻzi boshqarish usulining turli shakllari.

11-mavzu. Profayling xizmatining shaxslararo munosabatda tutgan oʻrni

Profayling yoki profayl metodi haqida tushuncha. Kriminal va transportdagi profayling tushunchasi. Fuqarolar bilan kechadigan shaxslararo munosabatda profayl usulidan foydalanishdan koʻzlangan asosiy maqsad va ega boʻlishlari zarur boʻlgan bilimlar. Profayling texnologiyasining bosqichlari. Vizual psixodiagnostika va uning shaxslararo munosabatda tutgan oʻrni.

12-mavzu. Ijtimoiy psixologiyada guruhlar muammosi

Guruh va jamoa haqida tushuncha. Shartli va real guruhlar haqida tushuncha. Endi shakllanayotgan - diffuz hamda taraqqiyotning yuksak pog'onasiga ko'tarila olgan jamoaga psixologik tavsif.

13-mavzu. Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi

Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi. Katta guruhlar psixologiyasiga xos xususiyatlar va ularni ilmiy tadqiq etish shartlari. Etnik guruhlar psixologiyasi. Yu.V. Bromley bo'yicha etnik guruhlar psixologiyasining ikki tomoni. Etnopsixologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodlar.

14-mavzu. Ijtimoiy psixologiyada kichik guruhlar va ulardagi qonuniyatlar muammosi

Kichik guruhlardagi ijtimoiy-psixologik fenomenlar to'g'risida. Kichik guruhlar o'ld qonuniyatlar, ularning klassifikatsiyasi: rasmiy va norasmiy guruhlar, birlamchi va ikkilamchi guruhlar. Referent guruh tushunchasi. Kichik guruhlarda sodir bo'ladigan dinamik jarayonlar: guruhning hajmi, uyushqoqligi, konformlilik, liderlik.

15-mavzu. Jamoadan tashqari ahloq psixologiyasi

Jamoadan tashqari axloq psixologiyasi va uni belgilovchi omillar. «Insonning jamoadan tashqari xatti-harakati» tushunchasi. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida ashaddiy va g'arazli mish-mishlar va ularning oldini olish. Mish-mish gaplarning psixologik tavsifi. Mish-mish gaplarning shaxs ongiga ta'siri. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida olomon psixologiyasi va uni hisobga olishning o'ziga xosligi. Olomonning turlari. Olomonning shakllanish bosqichlari.

16-mavzu. Ijtimoiy psixologiya va shaxs

Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi. Shaxsning ijtimoiy psixologik tipologiyasi. Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi. Muloqot jarayonida namoyon bo'ladigan shaxs fazilatlar. Shaxsning ijtimoiy psixologiyada o'rganiladigan fenomenlari: shaxs ijtimoiyizatsiyasi; shaxsning ijtimoiy ustanovkalari va muloqatmandlilik sifatlar. Ekstrovert va introvert tiplar; ambivert va rigid tiplar; dominant va tobe tiplar.

17-mavzu. Shaxsning ijtimoiylashuvi.

Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari. Shaxsning ijtimoiylashuvi. Oilaviy ijtimoiylashuv va uning muhim jihatlari. Ijtimoiylashuv sohalari, bosqichlari va manbalari. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari: set va attitude shaxs ustanovkalarining o'ziga xos bosqichi va ko'rinishi ekanligi. Ijtimoiy ustanovkaning tizimi, funktsiyalari va uning shaxs dispozitsiyalari (V.Yadov) bilan aloqasi. Ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirish muammosi.

18-mavzu. Ijtimoiy psixologiya va xavfsizlik

Ijtimoiy psixologiyada xavfsizlik muammosining qo'yilishi: mohiyati,

shaxsni ijtimoiy-psixologik himoya qilish muammolari. Axborot xavfsizligi va uning kelib chiqish shartlari. Xavfsizlik turlari. Informatsion-psixologik xavfsizlik. Shaxsni o'zini o'zi himoya qilish vositalari. Turli axborot-psixologik xavfli vaziyatlarda shaxsning ijtimoiy xulqi.

19-mavzu. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida boshqaruv psixologiyasi

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida boshqaruv psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari. Boshqaruv psixologiyasi ijtimoiy psixologiyaning bir bo'lagi sifatida. Boshqarish nazariyasining psixologik jihatlari. Boshqaruv psixologiyasi fanining ilmiy tadqiqot usullari. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida boshqaruv psixologiyasi fanining funktsiyalari. Boshqarish jarayonida vaqtdan samarali foydalanish. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari boshqaruvida obyekt va subyekt munosabatlari. Maqsadga yo'naltiruvchi va tashkiliy funktsiyalar haqida tushuncha.

20-mavzu. Milliy gvardiya jamoasini boshqarishda psixologik bilimlarning roli

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari jamoasida ijtimoiy-psixologik muhitning o'ziga xosligi. Harbiy xizmatchilari jamoalari va uning o'ziga xos belgilari. Jamoadagi psixologik muhitning yo'qolishi va ziddiyatlarga moyillikning bir qator omillarga bog'liqligi. Jamoani shakllantirishda psixologik, pedagogik va huquqiy bilimlarning o'rni. Kasbiy psixologo-pedagogik tayyorgarlikning tuzilishi. Kasbiy tayyorgarlik rahbarning muhim shaxsiy kasbiy xususiyatlarini shakllantirish sifatida. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari xodimlarining kasbiy faoliyatga moslashishda rahbarning roli. Milliy gvardiya boshqaruvida rahbarning pedagogik qobiliyati.

21-mavzu. Boshqaruv texnologiyalari

Boshqaruv texnologiyalari haqida tushuncha. Ichki ishlar organlari xodimlarning xizmat faoliyatini yanada takomillashtirishda ularning motivatsiyasini boshqarish. Rahbar xodimlar motivatsiyasini susaytiruvchi omillar. Jamoaning faoliyatini puxta rejalashtirish, maksadlarni yanada aniqlab borish xamda tashkiliy tadbirlarning turli-tumanligini ta'minlash. O'z-o'zini motivatsiyalashning asosiy uslublari. Rahbar xodimlarning jamoada majlislar o'tkazish texnologiyasi. Boshqaruv nazariyasida yig'ilishlar o'tkazish texnologiyasi.

22-mavzu. Boshqaruvda liderlik muammosi

Psixologiyada boshqarish muammosi. Milliy gvardiya jamoalarida rahbarlik va liderlik. Liderlikka oid nazariyalar: xarizmatik nazariya; vaziyatga bog'liqlik nazariyasi; sintetik nazariya. Liderlik uslublari haqida tushuncha. Milliy gvardiya jamoasi boshqaruv uslublari: avtoritar; demokratik; liberal. Yakkaboshchilik printsiplari jamoalariga rahbarlik qilishning asosi sifatida.

23-mavzu. Boshqaruvda rahbarlik sifatleri

Rahbarlik sifatleri. Mutaxassis va amaliyotchilarni rahbarning kasbiy muhim sifatleri masalasi yuzasidan qarashlari. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari jamoalari boshqaruvida rahbarning bilimdonlik sifatleri. Rahbarlikka loyqlik mezonlari asosida liderlikning vazifalari. Liderlik va superliderlik. Oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanish bosqichlari.

24-mavzu. Milliy gvardiya rahbarlarining boshqaruv faoliyatidagi muhim shaxsiy-kasbiy sifatleri

Milliy gvardiya boshqaruvida rahbar shaxsiga qo'yiladigan ijtimoiy-psixologik talablar. Rahbarlik faoliyatining diagnostik xususiyatlari. Rahbar shaxsda rivojlangan kasbiy jihatdan muhim xislatlar. Rahbar shaxsidagi boshqaruv madaniyati. Milliy gvardiya boshqaruvida rahbarning bilish sifatleri, hissiy-irodaviy holatlari. Diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol va uning boshqaruv faoliyatida tutgan o'rni.

25-mavzu. Milliy gvardiya boshqaruvida rahbarning o'z hissiy-irodaviy holatlarini boshqarishi

Irodani mustaqil tarbiyalash usullari. Boshqaruvda rahbarning xulq-atvor psixologiyasi va shaxsiy sifatleri. Milliy gvardiya boshqaruvida rahbar psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari: biografik tavsif; qobiliyat; shaxsiy sifatlar. Samarali rahbarlikka oid shaxsiy xislatlar. Samarali rahbar kiyofasi.

26-mavzu. Milliy gvardiya jamoasini boshqarishda qaror qabul qilish va ijrosini ta'minlash

Boshqaruv qarorlari qabul qilishga doir qarashlar va ularning psixologik talqini. Qaror qabul qilishning asosiy elementlari. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning o'ziga xos jihatlari. Boshqaruv qarorlarining tasnifi. Boshqaruv qarorlari qabul qilishning asosiy bosqichlari. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning algoritmi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish va uni amaliyotga qo'llashda tashqi va ichki omillar.

27-mavzu. Jamoani va xodimlarni boshqarishning psixologik asoslari

Tashkilot ijtimoiy tuzilma sifatida. Tashkilotdagi kommunikatsiya. Kommunikatsiya rollari. Xodimlar tipologiyasi. Xodimlarni motivatsiyalashda Mak-Gregor nazariyasi.

28-mavzu. Boshqaruvda muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari

Terrorchi shaxslar bilan muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari. Garovga olingan shaxslarni ozod etishda muzokaralar olib borishda psixologik bilimlarning ahamiyati. Stokgolm sindromining alomatlari va uning garovga olinganlar va terrorchilar taqdiriga ta'siri. Jinoyatchilar bilan muzokaralar olib borish bo'yicha psixologik tavsiyalar. Muzokara olib boruvchining kasbiy – muhim sifatleri.

29-mavzu. Etnopsixologiya fanning predmeti, vazifalari va ahamiyati

Etnopsixologiya fanning predmeti, vazifalari va ahamiyati. “Etnos” terminining mohiyati. Etnos-tarixiy tarkib topgan, umumiy nisbatan barqaror ruhiyat va madaniyatga ega kishilar birligi sifatida. Etnopsixologiya predmeti va obyekti. Milliy psixologik qiyofada millatni ifodalovchi, birlashtiruvchi belgi sifatida. Etnopsixologiyani o‘rganishning dolzarbligi, ilmiy va amaliy ahamiyati. Etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganishdagi murakkabliklar. XX asr 60-70 yillarda Milliy va milliy munosabatlar bo‘yicha markaziy jurnallarda boshlangan ilmiy-nazariy bahs-munozaralar.

30-mavzu. Etnopsixologiya predmeti va obyektini aniqlashda uchraydigan murakkabliklar

Etnopsixologiya predmeti va obyektini aniqlashda uchraydigan murakkabliklar. Etnopsixologiya gumanitar organlar tizimidagi o‘rni turli sifatlar va ijtimoiy qatlamlarga xos psixologik xususiyatlar. Millatga xos xususiyatlar, ularning o‘ziga xosligi va etnik guruhlarini birlashtirib turuvchi umumiy xususiyatlar.

31-mavzu. Etnopsixologik tadqiqotlarning G‘arb va Sharqda o‘rganilishi

Yunonistonda turli xalqlarga xos bo‘lgan etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarning vujudga kelishi. Gippokratning “Suv, havo va quruqlik” degan asarlarida bayon qilingan fikrlar. Psixologik xususiyatlarning vujudga kelishida tabiiy-geografik muhitning roli. Gerodatning “Tarix” kitobida xalqlarga xos psixologik xususiyatlarni vujudga kelishida hayot tarzi va muhitning roli to‘g‘risidagi fikrlar.

32-mavzu. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar

Etnopsixologiya ko‘p qirraligi, tabiiy sharoitlar, iqtisodiy xususiyatlar siyosiy va g‘oyaviy ustqurilmalarning ta’siri. Xalq hayotida bo‘lib o‘tgan muhim tarixiy voqealarning psixologiyada aks etishi. O‘zbek xalqiga xos ayrim psixologik xususiyatlar va ularning shakllanishi sabablari. Faoliyat turi va shaklidagi farqlar hamda oliy ruhiy funktsiyalar tizimidagi tafovutlar.

33-mavzu. Etnopsixologiya tuzilishi, komponentlari va milliy xarakter muammosi

Etnopsixologiya terminologik muammolarni o‘rganishi. “Milliy psixologiya” va “Etnopsixologiya” lar o‘rtasidagi o‘xshashliklar. Milliy psixologiya qiyofa va milliy xarakterning o‘zaro munosabati. “Milliy psixologik qiyofa” tushunchasi. Milliy qiyofada komponentlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Milliy psixologik qiyofa va milliy ong tushunchasi. Milliy xarakter muammosi. Milliy xarakter murakkab ijtimoiy hodisa sifatida. Milliy xarakter va xalq tarixi. Tarixiy davr va xarakter tipi. Milliy xarakterni tashkil etuvchi komponentlar. Xarakterining intellektual va irodaviy xususiyatlari ijtimoiy tuzumning o‘zgarishi va milliy xarakterdagi o‘zgarishlar milliy xarakterdagi turg‘un xususiyatlar. Milliy va umuminsoniy xarakter xislatlari. O‘zbek xalqining xarakter xususiyatlari va

shakllanishi.

34-mavzu. Milliy urf-odat va an'analar. Ularning ijtimoiy-psixologik funksiyalari

Etnopsixologik xususiyatlarning shaxsda mujassamlashishi. Bola irqiy xususiyatlar vorisi. Tashqi xatti-harakatlarni ichki harakatlarga o'tishi va shaxsda etnopsixologik xususiyatlarni shakllanishi. Ona tilini o'zlashtirish individning "Milliylashishidagi" birinchi qadam. Individning urf-odat va an'analar orqali to'plangan bilim va tajribalarni o'zlashtirishi. Taqlid va ta'sirlanishi. Etnopsixologik xususiyatlarini shaxsda aks etishi. Urf-odat va an'analarda halqning ijtimoiy ehtiyojlari, manfaatlari va amaliy tajribalarining aks etishi. Shaxs shakllanishida milliy urf-odat va an'analarning roli. Urf-odat va an'analarning regulativ vazifalari. Urf-odat va "an'ana" tushunchalari. Bu tushunchalardagi umumiylik va farqlar. O'zbek urf-odat an'analari. Ilg'or va eski urf-odatlar. Qo'shni halqlarning milliy urf-odatlarini vujudga kelishidagi roli.

35-mavzu. Milliy tuyg'ular va ta'b (did)lar

Milliy tuyg'ularga xos xususiyatlar. Ularning ezilgan, jabr ko'rgan halqlarida va aksincha, ezuvchan millat vakillarida turlicha namoyon bo'lishi. Vatanga va ona tiliga bo'lgan munosabat milliy tuyg'ular namoyon bo'lishning oliy shakli. Milliy ta'b (did) shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Iste'mol qilinadigan oziq-ovqatlarga nisbatan o'ziga xos stereotiplarning vujudga kelishi. Milliy ta'b (did)ni o'rganish bo'yicha chet ellarda olib borilgan tadqiqotlar.

36-mavzu. Milliy ong va milliy o'zlikni anglash. Etnik attityudi va stereotip

Milliy ong bu o'zining muayyan millatga (etnik birlikka) mansubligini anglashdir. Milliy ongning shaklnishi. Milliy ongning madaniyatning turli shakllariga ta'siri. Milliy o'zlikni anglash. Milliy o'zlikni anglashning ta'rifi, subyektivlik xususiyatlari va funksiyalari. Etnik attityud uning ijtimoiy mohiyati. Etnik stereotip etnik birlikning timsoli sifatida. Millatlararo munosabatlar xarakterining stereotiplar shakllanishiga ta'siri. Stereotiplashtirish – idrok etishning ratsional shakli sifatida. Stereotiplashtirishning vazifalari. Vazifalarni psixologik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy qismlarga bo'linishi.

37-mavzu. Ijtimoiy muhit, diniy an'analar va komil insonning shakllanishi

Ijtimoiy muhitning psixologik iqlimi haqida. Jamoa, guruh va guruh turlarini din psixologiyasida o'rganilishi. Diniy va nodiniy an'analarning shaxsga ta'siri. Shaxsning milliy, diniy va umuminsoniy xususiyatlarini shakllanishini psixologiyada tahlil etilishi. Diniy va nodiniy aloqalarni etnopsixologiya va ijtimoiy psixologiyada o'rganilishi.

2.1. SEMINAR (AMALIY) MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA KO‘RSATMALAR VA TAVSIYALAR

Seminar (amaliy) mashg‘ulotlari o‘quv fanining asosiy, eng murakkab mavzulari yoki bo‘limlari bo‘yicha o‘tkaziladi. Seminar mashg‘ulotlari tinglovchilarning ma‘ruzalar hamda mustaqil ta‘lim jarayonida olgan bilimlarini tekshirish, chuqurlashtirish, mustahkamlash, materialni mustaqil ravishda o‘zlashtirishga ko‘maklashish, shuningdek, tinglovchilarga materialni og‘zaki bayon qilish, bahs olib borish ko‘nikmalarini berishni maqsad qilib qo‘yadi.

Seminar mashg‘ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari.
2. Ijtimoiy psixologiya fanining shakllanishi va taraqqiyoti.
3. Ijtimoiy psixologiya fanining asosiy metodlari.
4. Muloqot tushunchasi, uning turlari, vositasi va kommunikativ ta‘sir etish usullari.
5. Shaxslararo munosabatda psixologik aloqa o‘rnatish usullari, tinglash muammosi va transakt analiz.
6. Nizoli holatlar va ularning oldini olish
7. Shaxslararo munosabatda o‘z xatti-harakatlarini hissiy-irodaviy boshqarishi.
8. Profayling xizmatining shaxslararo munosabatda tutgan o‘rni.
9. Psixologik muloqot qilish yuzasidan metodik tavsiyalar.
10. Ijtimoiy psixologiyada guruhlar muammosi.
11. Ijtimoiy psixologiyada kichik guruhlar va ulardagi qonuniyatlar muammosi.
12. Jamoadan tashqari ahloq psixologiyasi.
13. Ijtimoiy psixologiya va shaxs.
14. Ijtimoiy psixologiya va xavfsizlik.
15. Jabrlanuvchi shaxs psixologiyasi.
16. Terrorchi shaxs tipologiyasi.
17. Boshqaruv psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va ilmiy tadqiqot usullari.
18. Jamoani boshqarishda psixologik bilimlarning roli
19. Boshqaruv texnologiyalari.
20. Boshqaruvda liderlik muammosi.
21. Boshqaruv faoliyatidagi muhim shaxsiy-kasbiy sifatlari.
22. Boshqaruvda qaror qabul qilish va ijrosini ta‘minlash.
23. Boshqaruvda muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari.
24. Etnopsixologiya fanning predmeti, vazifalari va ahamiyati.
25. Etnopsixologik tadqiqotlarning G‘arb va Sharqda o‘rganilishi.
26. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishi-shiga ta‘sir etuvchi omillar.
27. Etnopsixologiya fanining tuzilishi, komponentlari va milliy xarakter muammosi.
28. Milliy urf-odat va an‘analari. Ularning ijtimoiy-psixologik funktsiyalari.
29. Milliy tuyg‘ular va ta‘b (did)lar.
30. Milliy ong va milliy o‘zlikni anglash. Etnik attityudi va stereotip.
31. Ijtimoiy muhit, diniy an‘analari va kamil insonning shakllanishi.
32. Oila psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

33. Yunonistonda turli halqlarga xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarning vujudga kelishi.
34. Gippokratning "Suv, havo va quruqlik" degan asarlarida bayon qilingan fikrlar.
35. Psixologik xususiyatlarning vujudga kelishida tabiiy-geografik muhitning roli.
36. Gerodatning "Tarix" kitobida halqlarga xos psixologik xususiyatlarni vujudga kelishida hayot tarzi va muhitning roli to'g'risidagi fikrlar.
37. Skiflarning xarakterlanishi.
38. Pifagor nazariyasi. Aristotel qarashlari.
39. Gegelning "Mutlaq ruh" nazariyasi va uning mohiyati.
40. O'rta asrlarning buyuk mutafakkirlari Farobiyning etnopsixologiya faniga qo'shgan hissasi.
41. Beruniy yaratgan metod.
42. Etnopsixologiya XVII-XIX asrlarda Evropa mutafakkirlari tomonidan tadqiq etilishi.
43. Sh. Monteskening «Geografik determinizm» nazariyasi.
44. XX asr boshlarida V. Vundt tomonidan bu g'oyalarni rivojlantirish, ular o'rtasida har xil fikrlilik.
45. Temperament va xarakterning ishga, qabul qilinayotgan qarorlarga ta'siri.
46. Boshqaruv qarorlariga qo'yilgan talablar.
47. Qaror qabul qilishning to'rt darajasiga psixologik tavsif

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi taxminiy mavzular tavsiya etiladi:

1. Munosabatlardagi tafovut-konfrontatsiya tushunchasi.
2. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari jamoalarida turli xil nizolarning kelib chiqish sabablari.
3. Nizoli vaziyatlar va uning tuzilishlari.
4. Nizo dinamikasi, bosqichlari va turlari.
5. Nizolarning belgilariga ko'ra tasniflanishi.
6. Nizolarning oldini olish uchun amal qilish lozim bo'lgan qoidalar.
7. Nizolarni bartaraf etish usullari.
8. Muomala qilish madaniyati.
9. Xizmat vazifalarini bajarish vaqtida fuqarolar bilan muomala qilish madaniyati qoidalari.
10. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining nutq madaniyati.
11. Hissiy-irodaviy barqarorlik xodimlarning fuqarolar bilan shaxslararo munosabat va kasbiy faoliyatiga psixologik jihatdan tayyorligini ko'rsatuvchi alomatlardan biri sifatida.
12. Hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarishning asosiy maqsadi. O'zini o'zi boshqarish usulining turli shakllari.
13. O'zini o'zi boshqarish usullari.
14. Hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarish jarayonining asosiy printsiplari. O'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullari.
15. Nafas olish o'zini o'zi boshqarishning vositasi sifatida. Autogen mashqlar haqida tushuncha.

16. Kriminal va transportdagi profayling tushunchasi.
17. Fuqarolar bilan kechadigan shaxslararo munosabatda profayl usulidan foydalanishdan ko‘zlangan asosiy maqsad va ega bo‘lishlari zarur bo‘lgan bilimlar.
18. Profayling texnologiyasining bosqichlari. Vizual psixodiagnostika va uning shaxslararo munosabatda tutgan o‘rni.
19. Guruh va jamoa haqida tushuncha.
20. Shartli va real guruhlar.
21. Endi shakllanayotgan - diffuz hamda taraqqiyotning yuksak pog‘onasiga ko‘tarila olgan jamoalar.
22. Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi.
23. Katta guruhlar psixologiyasiga xos xususiyatlar va ularni ilmiy tadqiq etish shartlari.
24. Etnik guruhlar psixologiyasi.
25. Yu.V. Bromley bo‘yicha etnik guruhlar psixologiyasining ikki tomoni.
26. Etnopsixologik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan metodlar.
27. Kichik guruhlardagi ijtimoiy-psixologik fenomenlar to‘g‘risida.
28. Kichik guruhlar o‘id qonuniyatlar, ularning klassifikatsiyasi: rasmiy va norasmiy guruhlar, birlamchi va ikkilamchi guruhlar.
29. Referent guruh tushunchasi.
30. Kichik guruhlarda sodir bo‘ladigan dinamik jarayonlar: guruhning hajmi, uyushqoqligi, konformlilik, liderlik.
31. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida ashaddiy va g‘arazli mish-mishlar va ularning oldini olish.
32. Mish-mish gaplarning psixologik tavsifi.
33. Mish-mish gaplarning shaxs ongiga ta’siri.

Seminar (amaliy) mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi lozim. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilish, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

2.2. LABORATORIYA ISHLARI MAVZULARINING TAXMINIY RO‘YXATI

O‘quv rejada ushbu fandan laboratoriya ishlari bajarilishi ko‘zda tutilmagan.

2.3. KURS LOYIHALARI (ISHLARI) MAVZULARINING TAXMINIY RO‘YXATI

Fan boyicha kurs ishi. Kurs ishi fan mavzulariga taaluqli masalalar

yuzasidan kursantlarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish kursantlarda fanga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Kurs ishi uchun tahminiy mavzular:

1. Muzokaraning turlari va funktsiyalari
2. Turli madaniyatlarda muzokaralar olib borishning xususiyatlari
3. Muzokaralarning milliy uslublari
4. Ekstremal vaziyatlarda muzokaralar olib borishning psixologik xususiyatlari
5. Etnik stereotiplarning turlari va funktsiyalari
6. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqotning psixologik xususiyatlari
7. Koping-strategiyalarning zamonaviy tadqiqotlari
8. Emotsional intellektning diagnostik metodlari
9. Shaxs motivatsiyasi
10. Shaxslarning himoya mexanizmlari
11. Erkak va ayol liderning xususiyatlari
12. Shaxslararo munosabatlarda o'z xatti harakatlarini hissiy-irodaviy boshqarish
13. Profayling metodining shaxslararo munosabatdagi tutgan o'rni
14. Olomon psixologiyasining xususiyatlari
15. Jamoani boshqarishda psixologik bilimlarning roli
16. Kichik guruhlarda ijtimoiy-psixologik fenomenlar
17. Buling psixologiyasi
18. Koping-strategiyaning individual (jins, yosh, temperament) xususiyatlari
19. Ijtimoiy psixologiyada transakt analiz va transaktsiya turlari
20. Guruhlarda nizoning paydo bo'lishi va ularning oldini olish usullari
21. Katta guruhlar va omma psixologiyasi
22. Kichik guruh va jamoa psixologiyasi
23. Kichik guruh va referent guruh muammosining ijtimoiy psixologiyada o'rganilishi
24. Ijtimoiy guruhlar tushunchasi va ularning klassifikatsiyasi
25. Kichik guruhlarining ijtimoiy psixologiyasi
26. Kichik guruhlarining emotsional va kommunikativ tuzilishi
27. Kichik guruhlariga xos qonuniyatlar va ularning o'rganilishi.
28. Guruhiy dinamika tushunchasi.
29. Kichik guruhlarda rivojlanish va jipslashish muammosi
30. Guruhiy qarorlarni qabul qilish jarayoni
31. Kichik guruh bilan ishlashning ijtimoiy psixologik jihatlarini
32. Ijtimoiy psixologiya uchun shaxsni o'rganishning o'ziga xosligi
33. Ijtimoiy psixologiyada "Men" kontseptsiyasining mohiyati
34. Shaxsning o'z-o'ziga baho berishi
35. Shaxsning psixologik tuzilishi
36. Shaxsning o'z-o'zini anglashi masalasida chet el olimlarining nazariyalari
37. Shaxsning o'z-o'zini anglashi masalasida rus olimlarining nazariyalari
38. Shaxsning o'z-o'zini anglashi masalasida O'rta Osiyo mutafakirlarining qarashlari
39. Shaxs tiplarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
40. Shaxs haqida Freyd nazariyasi

41. Shaxsda psixologik himoya mexanizmi
42. Shaxsning ijtimoiylashuv omillarining etnopsixologik jihatlar
43. Shaxsni o'rganishda chet el psixologiyasi nazariyalari
44. O'rta Osiyo mutafakirlarining shaxs haqidagi qarashlari
45. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari
46. Shaxs va uning agressivligi
47. Shaxs va altruizm masalasi
48. 46.Shaxs va uning tolerantligi masalasi
49. Shaxsda kuzatiladigan stress holatlari
50. Boshqaruv psixologiyasining chet el olimlari tomonidan o'rganilishi
51. Boshqaruv psixologiyasining rus olimlari tomonidan o'rganilishi
52. Boshqaruv psixologiyasining o'zbek psixologiyasida o'rganilishi

2.4. MUSTAQIL TA'LIM MAZMUNI

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor tinglovchilarning berilgan mavzularni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Ushbu shakllarga quyidagilar tegishlidir:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi, nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalari, maqolalar) bo'yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, aparaturalarni ilmiy-texnik jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini o'rganish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular.

1. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida muloqot tushunchasi va uning turlari.
2. Muloqot kategoriyasi psixologiya fanidagi markaziy kategoriyalardan biri sifatida.
3. Muloqotning bosqichlari. Kasbiy muomala va uning xodimlar faoliyatida tutgan o'rni.
4. Muloqot funksiyalari va vazifalari.
5. Muloqotning turlari.
6. Muloqotning psixologik tuzilishi.
7. Muloqot vositasi va kommunikativ ta'sir etish usullari.
8. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining muloqoti.
9. Muloqotning psixologik vositalari.
10. Yolg'on va yashirin holatlar diagnostikasi kishilarning nutqiy ifodasi asosida tahlil qilinishi.

11. Muloqotga kirishuvchilar o'rtasidagi masofalar va ta'sir etish usullari.
12. Muloqot jarayonida psixologik-pedagogik ta'sir etish printsiplari.
13. Psixologik ta'sir ko'rsatish usullarini qo'llash bosqichlari.
14. Psixologik aloqa o'rnatish usullari.
15. Psixologik aloqa tushunchasi.
16. Muloqot jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan psixologik to'siqlar.
17. Psixologik aloqa o'rnatishdan ko'zlanadigan maqsadlar.
18. Psixologik aloqa o'rnatishning asosiy bosqichlari.
19. Muloqotda tinglash muammosi va transakt analiz tushunchasi. Norefleksiv va refleksiv tinglash haqida tushuncha.
20. Refleksiv tinglashda javob berishning to'rt turi.
21. Professional tinglash texnikasi.
22. Transakt analiz va transaktsiya turlari.
23. Munosabatlardagi tafovut-konfrontatsiya tushunchasi.
24. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari jamoalarida turli xil nizolarning kelib chiqish sabablari.
25. Nizoli vaziyatlar va uning tuzilishlari.
26. Nizo dinamikasi, bosqichlari va turlari.
27. Nizolarning belgilariga ko'ra tasniflanishi.
28. Nizolarning oldini olish uchun amal qilish lozim bo'lgan qoidalar. Nizolarni bartaraf etish usullari.
29. Muomala qilish madaniyati.
30. Xizmat vazifalarini bajarish vaqtida fuqarolar bilan muomala qilish madaniyati qoidalari.
31. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining nutq madaniyati.
32. Hissiy-irodaviy barqarorlik xodimlarning fuqarolar bilan shaxslararo munosabat va kasbiy faoliyatiga psixologik jihatdan tayyorligini ko'rsatuvchi alomatlardan biri sifatida.
33. Hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarishning asosiy maqsadi. O'zini o'zi boshqarish usulining turli shakllari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha kursantlar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. DASTURNING INFORMATSION-USLUBIY TA'MINOTI

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron didaktik texnologiyalardan;

test topshiriqlari, shuningdek, barcha mavzularda o'qitishning zamonaviy metodlaridan foydalaniladi.

Dasturdagi mavzularni o'tishda zamonaviy interfaol metodlardan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster",

“Munozara”, “Bumerang”, “Domino”, “Musobaqa”, “Aqliy hujum” rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

3.1. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Xalilova N.I., Amirova O.Q. Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya. Darslik. - T.: O‘zR JXU, 2022. - 456 bet.
2. Akramova F.A.. Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanmasi. –T., 2007. -166 b.
3. G‘oziyev E.G‘. Ijtimoiy psixologiya.. T. O‘qituvchi. 2012 y. 315 b.
4. Xotamov. Ijtimoiy psixologiya. 2020.

3.2. QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.
2. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni // 2020 yil 23 sentabr. O‘RQ-637-son. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 maydagi PF-67-son “Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni” // QMMB: 06/23/67/0269-son 10.05.2023-y. <https://lex.uz/pdfs/6461609> (03.07.2023 y. holatiga murojaat qilingan.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017 y.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017 y.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O‘zbekiston”, 2017 y.
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017 y.
9. Андреева Г.М., Социальная психология. М.: Аспект-Пресс, 2016.
10. Андреева Г.М., Богомолова Н.Н., Петровская Л.А. Зарубежная социальная психология XX столетия. М.: Аспект-Пресс, 2002.
11. Белинская Е.П., Тихомандриская О.А. Социальная психология личности. М.: Аспект-Пресс, 2012.
12. Ефимова Н.С. Социальная психология: Учебное пособие / Н.С. Ефимова. – М.: Форум, 2017.
13. Крысько В.Г. Социальная психология. Курс лекций: Учебное пособие / В.Г. Крысько. – М.: Вузовский учебник, 2017.
14. Майерс Д. Социальная психология / Пер. с англ. СПб, 2008.
15. Сухов А.Н. Социальная психология: Учебное пособие / А.Н. Сухов. – М.: Академия, 2018.
16. Густав Лебон. Психология народов и масс: АСТ; М.: 2016

17. Роберт Чалдини. Психология влияния. СПб: “Питер”, 2020
18. Пол Экман. Психология лжи. СПб: “Питер”, 2018

3.3. ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI

1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portalı.
2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.norma.uz - O'zbekiston Respublikasi huquqiy axborot bazasi.
4. [www. Ziynet. uz](http://www.Ziynet.uz)
5. www. edu. uz
6. www. pedagog. uz

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK TA’MINLASH KAFEDRASI



**2024/2025-o‘quv yiliga 61030200-“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi
3-bosqich uchun
“IJTIMOIY PSIXOLOGIYA. ETNOPSIXOLOGIYA”
FANINING**

MAVZUIY REJASI

Toshkent – 2024

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti boshlig‘i
polkovnik

M.X.Rustambayev

2024-yil “___” _____

2024/2025-o‘quv yiliga 61030200-“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi
3-bosqich uchun
“IJTIMOIY PSIXOLOGIYA. ETNOPSIXOLOGIYA” FANINING
MAVZUIY REJASI

2024-yil “___” _____ kuni kafedra yig‘ilishida muhokama qilingan va ma’qullangan “___”-sonli bayonnoma

O'QUV MASHG'ULOTLARINING TURLARIGA QARAB FANNI O'RGANISH REJASI
2024/2025-o'quv yiliga 61030200-"Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash" yo'nalishi 3-bosqich uchun
"Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" fanidan

MAVZUIY REJA

5-semestr – 66 soat: 24 soat ma'ruza, 24 soat seminar, 18 soat amaliy mashg'ulot


t/r	Mavzular	Umumiy yuklama	Mashg'ulot turlari				Dars o'tkazuvchi o'qituvchining F.I.SH.	Mashg'ulot moddiy ta'minoti	Mavzuning boshqa fanlarning mavzulari bilan bog'liqligi	Izoh
			ma'ruza	seminar	amaliy	mustaqil ta'lim				
1.	Milliy gvardiya jamoasini boshqarishda qaror qabul qilish va ijrosini ta'minlash	10	2	2	2	4	leytenant O.Amirova	Ma'ruza matni, slaydlar	UmPs 1-35, TvaDPs 1-12	
2.	Jamoani va xodimlarni boshqarishning psixologik asoslari	10	2	2	2	4	leytenant O.Amirova	Ma'ruza matni, slaydlar	UmPs 1-35, TvaDPs 1-12	
3.	Boshqaruvda muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari	10	2	2	2	4	leytenant O.Amirova	Ma'ruza matni, slaydlar	UmPs 1-35, TvaDPs 1-12	
4.	Etnopsixologiya fanning predmeti, vazifalari va ahamiyati	8	2	2		4	leytenant O.Amirova	Ma'ruza matni, slaydlar	UmPs 1-35, TvaDPs 1-12	
5.	Etnopsixologiya predmeti va obyektini aniqlashda uchraydigan murakkabliklar	8	2	2		4	leytenant O.Amirova	Ma'ruza matni, slaydlar	UmPs 1-35, TvaDPs 1-12	

6.	Etnopsixologik tadqiqotlarning G'arb va Sharqda o'rganilishi	8	2	2		4	leytenant O.Amirova	Ma'ruza matni, slaydlar	UmPs 1-35, TvaDPs 1-12	
7.	Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar	10	2	2	2	4	leytenant O.Amirova	Ma'ruza matni, slaydlar	UmPs 1-35, TvaDPs 1-12	
8.	Etnopsixologiyani tuzilishi, komponentlari va milliy xarakter muammosi	10	2	2	2	4	leytenant O.Amirova	Ma'ruza matni, slaydlar	UmPs 1-35, TvaDPs 1-12	
9.	Milliy urf-odat va an'analar. Ularning ijtimoiy-psixologik funksiyalari	12	2	2	2	6	leytenant O.Amirova	Ma'ruza matni, slaydlar	UmPs 1-35, TvaDPs 1-12	
10.	Milliy tuyg'ular va ta'b (did)lar	12	2	2	2	6	leytenant O.Amirova	Ma'ruza matni, slaydlar	UmPs 1-35, TvaDPs 1-12	
11.	Milliy ong va milliy o'zlikni anglash. Etnik attityudi va stereotip	12	2	2	2	6	leytenant O.Amirova	Ma'ruza matni, slaydlar	UmPs 1-35, TvaDPs 1-12	
12.	Ijtimoiy muhit, diniy an'analar va komil insonning shakllanishi	12	2	2	2	6	leytenant O.Amirova	Ma'ruza matni, slaydlar	UmPs 1-35, TvaDPs 1-12	
V-semestr bo'yicha jami:		122	24	24	18	56				


**2024/2025-o‘quv yiliga 61030200-“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi 3-bosqich uchun
“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan mavzularning
MANTIQUIY-TARTIB TUZILMASI**

5-semestr – 66 soat: 24 soat ma’ruza, 24 soat seminar, 18 soat amaliy mashg‘ulot

Semestr	Ajratilgan soatlar	Taqvimiy-mantiqiy tuzilmasi													
5	66	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
		26.1 2	26.2 2	26.3 2	27.1 2	27.2 2	27.3 2	28.1 2	28.2 2	28.3 2	29.1 2	29.2 2	30.1 2	30.2 2	31.1 2
		15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	
		31.2 2	32.1 2	32.2 2	32.3 2	33.1 2	33.2 2	33.3 2	34.1 2	34.2 2	34.3 2	35.1 2	35.2 2	35.3 2	
		28	29	30	31	32	33								
		36.1 2	36.2 2	36.3 2	37.1 2	37.2 2	37.3 2								




- ma’ruza,




- amaliy mashg‘ulot,



- seminar,



-oraliq nazorat,



- yakuniy nazorat

“KELISHILGAN”

**Universitet boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari
podpolkovnigi O.K.Turg‘unov**

**Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik
ta’minlash kafedrasini boshlig‘ining o‘rinbosari
podpolkovnigi Z.Sh.Alimardonov**

2024-yil «__» _____

2024-yil «__» _____

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Ta'lim texnologiyasi – bu, amaliyotga samarani tadbqiq etiladigan, tegishli tamoyillar asosida ishlab chiqilgan o'quv jarayonning loyihasidir.

Pedagogik texnologiya, o'quv jarayonining barcha elementlarini qamrab olishi bilan alohida ajralib turadi. Tizimlilik tamoyilining mohiyati shu bilan ifodalanadi. O'quv jarayonining barcha elementlari, ularning o'zaro bog'liklik sharti asosida yagona tizim kabi loyihalanadi.

Muammoli o'qitish texnologiyasi

Muammoli o'qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj.Dyunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30-yillarida tarqala boshladi. Dj.Dyun o'qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy.

Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, ta'lim oluvchini uni yechishga yo'naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli o'qitish samaradorligining to'rtta bosh sharti mavjud:

- muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash;
- muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi);
- muammo yechimida olinadigan axborotni o'quvchilar uchun muhimligi;
- pedagog va ta'lim oluvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya'ni ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tibor va rag'batsiz qolmasligi zarur;

Muammoli o'qitishning bosh psixologik-pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ta'lim oluvchining fikrlash doirasini va qobiliyatlarini o'stirish, ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish;
- muammoni mustaqil yechishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko'nikmalarni ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko'nikmalar an'anaviy o'qitishdagidan ko'ra ancha mustahkam bo'ladi;
- nostonart muammolarni ko'ra oluvchi, qo'ya oluvchi va yecha oluvchi ta'lim oluvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalash;
- kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish – har bir aniq faoliyatda o'zining xususiyatlariga ega.

Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasi

Tabaqalashtirilgan o'qitish o'quv jarayonining tashkil etishni bu shakli umumiy didaktika tizimiga asoslangan bo'lib, maxsus tashkil ettirilgan ta'lim oluvchilarning gomogen guruhlarida, o'quv jarayonini maxsuslashtirishni ta'minlaydi.

O'qitishni tabaqalash (bu tushuncha o'qitish jarayonini o'zi bilan bog'liq) – uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

Ta'lim tizimida gomogen guruhlar, ta'lim oluvchilarning individual-psixologik xususiyatlari, avvalo aqliy rivojlanish darajasi asosida tuziladi

Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi

Ta'lim oluvchining mavjud shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishini ta'minlash, zamonaviy o'quv jarayoniga qo'yiladigan jadallashgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotining talabidir. Bunga individual va individuallashtirilgan o'qitish orqali erishish mumkin.

Individual o'qitish – bu o'quv jarayonining tashkil etishning shakli bo'lib, bunda pedagog ta'lim oluvchilar bilan yakkama-yakka shug'ullanadi, ta'lim oluvchi o'quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil ta'lim oladi.

Individual o'qitishning afzalliklari: pedagogik jarayonning ta'lim oluvchi qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda ta'lim oluvchining bilim olish darajasi doimiy monitoringini amalga oshirish va zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida optimal pedagogik jarayonni tashkil etiladi

Individual yondashish – bu pedagogik tamoyilga ko'ra, pedagogik jarayonda pedagogning ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida ta'lim oluvchining rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Individuallashtirilgan o'qitish bunday o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari, sur'ati tanlanadi va turli o'quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanadi.

Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi – bunda o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish va o'qitishning individual shakli ustivor hisoblanadi.

Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi

Ta'lim jarayonidagi ta'lim oluvchining faolligi, didaktikaning asosiy tamoyillaridagi biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib koladi. Ta'lim oluvchining faolligi, maqsadli yo'naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta'sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. Ta'lim oluvchilarning faolligini ta'minlovchi, o'qitish texnologiyalaridan biri - pedagogik ishbilarmonlik o'yini hisoblanadi. O'yin faoliyatiga qiziqish, ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini ifoda etish, ro'yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta'minlanadi.

O'yinning ajoyib xususiyati shundaki, u bir vaqtning o'zida ham rivojlanish ham o'rganish hisoblanadi.

Pedagogik o'yin, o'qitishning aniq qo'yilgan maqsadi va unga tegishli pedagogik natija bilan belgilanadi. Bu natijalar asoslangan va o'quv tayyorgarlik faoliyatiga ega bo'ladilar.

Pedagogik o'yinlar o'yin uslubiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi: fanlar bo'yicha; syujetli; ishbilarmonlik, imitatsion, dramalashtirilgan o'yinlar. Ta'lim tizimida foydalanadigan barcha pedagogik o'yinlar o'z mazmuniga ko'ra ishbilarmonlik o'yini hisoblanadi. Chunki ular, odatda ma'lum o'quv fani doirasida ishlab chiqiladi: rollar va syujetlar mavjud bo'ladi, turli vaziyatlar imitatsiya qilinadi. ya'ni, ta'lim tizimida qo'llaniladigan ishbilarmonlik o'yinlari pedagogik o'yinlarning barcha tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimidagi pedagogik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirishga va mustahkamlashga, o'quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi, umumilmiy ko'nikmalarini shakllantiruvchi masalalar majmualarini yechishga qaratiladi, ta'lim oluvchilarga turli holatlardan o'quv materialini tushunib yetish va o'rganish imkonini beradi. O'quv jarayonida ishbilarmonlar o'yinlarni turli xil shakllari ishlatiladi: imitatsion, operatsion, rolli o'yinlar, ishchi teatr, psixo va sotsiodramalar.

Modulli o‘qitish texnologiyasi

«Modulli o‘qitish» termini xalqaro tushuncha – modul bilan bog‘liq bo‘lib («modul», lat. *modulus*), uning bitta ma‘nosi faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma‘noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modul – bu fanning fundamental tushunchasini takdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni, bo‘limi, muayyan katta mavzusi, o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhidir.

Modul – bu fanning bir yoki bir necha tushunchalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan, ishlab chiqilgan tamoyillar asosida shakllangan mantiqan tugallangan o‘quv materialidir.

1982 y. YUNESKOning anjumandagi ma‘ruzasida modulga “Mashqlarni xususiy tezlikda diqqat bilan tanishish va ketma-ket o‘rganish orqali individual yoki guruh mashg‘ulotlarida bir yoki bir necha malakaga ega bo‘lish uchun mo‘ljallangan alohida o‘rgatuvi paket (to‘plam)” deb ta‘rif berilgan edi.

Modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o‘zlashtirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Modulli o‘qitish asosan inson bosh miyasi to‘qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi.

Modulli o‘qitish, kasbiy ta‘limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta‘minlash;
- o‘qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbiy motivatsiya (qiziqtirish) asosida, o‘qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.


Modulli o‘qitishning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin: fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi.

Ta‘lim texnologiyalari va metodlari: Grafik organayzerlar ma‘ruza, amaliy va mustaqil ta‘lim mashg‘ulotlarida kursantlar o‘quv materiallarini samarali o‘zlashtirishlari uchun joriy etiladi. quyida ularning ba‘zilari keltirilgan.

1) BBB jadvali. Barcha ma‘ruza darslarida qo‘llaniladi. BBB usuli (“bilaman”, “bilishni xohlayman”, “bilib oldim”) orqali kursant o‘zini kuzatishi, o‘qituvchi esa darsga baho berishi mumkin. Kursant dars boshida mavzu bo‘yicha nimani bilishini (B1) va yana nimalarni bilishni xohlashini (B2) daftariga yozib qo‘yadi. Dars so‘ngida nimalarni bilib olganligini (B3) qayd qilib qo‘yadi.

2) INSERT USULI. Bu usul matnni o‘zlashtirishda qo‘llaniladi. Kursant sahifa hoshiyasiga o‘z belgilarini qo‘yib ularga munosabat bildiradi. Masalan: “v” – zarur; “_” - xato; “+” - yangi; “!” – e‘tibor qiling; “x” - ortiqcha; “*” - ko‘chirishkerak; “?” – tushunarsiz va h.k.


3) KLAUSTER sxemasi



Bu usul fikrni erkin bayon qilish uchun qo'llaniladi. Masalan, kursant o'tilgan mavzu bo'yicha klaster tuzishi mumkin.

O'rta kalit so'z, tarmoqlarga unga bog'liq boshqa atamalar yoziladi. Ular ham o'z navbatida tarmoqlarga ajralishi mumkin.

4) **SWOT-tahlil.** Bu organayzer kursantlarda tizimli fikrlash, taqqoslash, baholash, tahlil qilish, fikrni davom ettirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. SWOT atamasi inglizcha so'zlarning qisqartmasi hisoblanadi:



Kursant yangi qatordan S, W, O, T harflarini yozib yoniga ob'ektning mos sifatlarini yozib chiqadi.

5) **“XULOSALASH” (REZYUME, VEER) metodi.** Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakterdagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammoning ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



Kursantlarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratish;



Mavzu maqsadi, shartlari va tartibi bilan kursantlarni tanishtirib, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan materiani tarqatish;



Har bir guruh o'ziga berigan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma ravishda bayon qiladi;



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. So'ng o'qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi, va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Ijtimoiy psixologiyaning asosiy metodlari					
Test		Eksperiment		Proyektiv metodlar	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Xulosa:					

6) «FSMU» metodi. Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiyl xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- ✚ kursantlarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- ✚ har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

F	• fikringizni bayon eting
S	• fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
M	• ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	• fikringizni umumlashtiring

- ✚ kursantlarning munosabatlari individual yoki guruhii tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili kursantlarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna:

Topshiriq: Psixolog faoliyatida ijtimoiy psixologiyasi bo'yicha bilimlarni qo'llashning o'ziga xos tomonlari	
F	
S	
M	
U	

7) VENN DIAGRAMMASI metodi. Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.


Metodni amalga oshirish tartibi:

✚ kursantlar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

✚ navbatdagi bosqichda kursantlar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

✚ juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Ijtimoiy psixologiyaning bo'limlari



8) "TUSHUNCHALAR TAHLILI" metodi. Mazkur metod kursantlarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

✚ kursantlarni mashg'ulot qoidalarini bilan tanishtiriladi;

✚ kursantlarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

✚ kursantlar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;

✚ belgilangan vaqt yakuniga yetgach, o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

✚ har bir kursant berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:

“TUSHUNCHALAR TAHLILI” organayzerini to'ldiring

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Tushunchalar tahlili” usuli orqali muammo hal qilinadi.

1-guruh

Tushunchalar	Mazmuni
Profayling psixologiyasi	
Krechmer va Sheldon nazariyasi	
Yolg'on alomatlar	

2-guruh

Tushunchalar	Mazmuni
Shaxs psixologiyasi	
Shaxs ijtimoiylashuvi	
Shaxsning ijtimoiy psixologik tipologiyasi	

“MUAMMO” organayzerini to'ldiring

Shaxsning ijtimoiylashuviga doir muammoli masalalarni yechimini topishga yordam beradi va “Muammo” usuli orqali muammo hal qilinadi.

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari va sizning harakatingiz
Ijtimoiylashuv jarayinoda shaxs turli ijtimoiy rollarni o'zlashtirilmaligini asosiy sababi nimada deb uylaysiz?		

9) “SINKVEYN”metodi – bu besh qatordan iborat bo'lib, unda bir tushuncha haqida axborot beriladi. **Birinchi qatorda** mavzu (kalit so'z) beriladi, **ikkinchi qatorda** unga ikkita sifat tanlanadi. **Uchinchi qatorda** unga uchta harakat-holat (fe'l) bilan to'ldiriladi. **To'rtinchi qatorda** so'z har xil usul bilan yoyiq gapga aylantiriladi. **Beshinchi qatorda** kalit so'zning ma'nodoshi (sinonimi) keltiriladi

Namuna 1:

Shaxs

Murakkab, ko'p qirrali

Rivojlanadi, shakllanadi, ijod qiladi

Shaxs individual va o'ziga xos tarzda o'zini namoyon qiladi

Inson

Namuna 2:

Shaxs


Ko'p qirrali, ijodiy

Qo'shiq aytadi, raqsga tushadi, rasm chizadi

Turli faoliyat va sevimli mashg'ulotlar bilan shug'ullanadi

Madaniyat

10) «Nima uchun?» metodi.



11) KIM/NIMA MEN? Har bir kursantning beliga yoki peshonasiga dars mavzusidan kelib chiqib qog'ozchada ism yoki atama yopishtiriladi. Kursant savollar beradi, auditoriya faqar "Ha" yoki "Yoq" deb javob beradi.

12) KROSSVORD. Darsni takrorlash uchun eng yaxshi variant bu krossvord. Atamalar va ularning tasniflaridan krossvord yaratiladi.

13) ERUDIT. So'zlarni shakllantirish uchun bo'lim yoki bobning sarlavhasidan harflar to'plami sifatida foydalaniladi. Shuningdek, kursantlardan o'tilgan va o'rganilgan atamalaridan so'z yasash vazifasini berish mumkin.

14) LOTO. Mavzuga doir savollar oldindan tayyorlanadi va raqamlanadi. Kursantlar kutichadan toshchalarni qaramay tortib olib, chiqqan soniga savollar ro'yxatidan javob beradi.

15) QAROR DARAXTI. Vatmat qog'ozi bilan ishlanadi: guruhlariga muammoli vaziyat beriladi va vatmanga yechimi yoziladi, so'ngra keyingi guruhga vatmat uzatiladi, vatmanni olgan guruh o'z fikrlarini bayon etadi.

MAVZU BO'YICHA TAYANCH BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN MATERIALLAR

DJ. RAVENNING PROGRESSIV MATRITSALAR TESTI

Sinaluvchilarning intellektual rivojlanganlik darajasi, tafakkur jarayonlari xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladigan testlardan yana biri Raven testidir. Bu test rasmlar shaklida ifodalangan 60 ta topshiriqdan iborat. Bu topshiriqlar har biri 12 ta topshiriqdan iborat 5 seriyaga bo'linadi. Testni ishlab chiqishda «progressivlik» (tobora o'sib, murakkablashib borish) tamoyiliga amal qilingan. Bunga ko'ra sinaluvchi tomonidan oldingi topshiriq va ular seriyalarining bajarilishi, uni navbatdagi topshiriqni bajarishga tayyorlab boradi. Ya'ni dastlabki «osonroq» topshiriqni bajargan sinaluvchida undan keyingilarni ham bajarish xohishi kuchayib boradi. Bu bilan uni yanada murakkabroq vazifalarni bajarishga o'rgatib borish mumkin.

Topshiriqlarning har bir seriyasi quyidagi tamoyillar bo'yicha tuzilgan:

«A» **seriya.** Sinaluvchidan tasvirdagi yetishmayotgan qismni to'ldirishni talab qiladi. Bu seriyadagi topshiriqlarni bajarish jarayonida: a) tizimning asosiy elementlarini farqlash va ular o'rtasidagi bog'liqlikni topish; b) tizimning yetishmayotgan qismlarini identifikatsiya qilish (aynan o'xshatish) va uni tavsiya etilgan namunalar bilan o'xshatish kabi tafakkur jarayonlari amalga oshadi.

«V» **seriya.** Ikki juft shakllar o'rtasidagi o'xshashliklarni topish amalga oshiriladi. Sinaluvchi bu tamoyilni elementlarni asta-sekin farqlash yo'li bilan ochib boradi.

«S» **seriya.** Bu seriya topshiriqlar tasvirlangan shakllarning murakkab o'zgarib borishi bilan farqlanadi. Bu o'zgarishlar ham gorizontalar ham vertikal bo'yicha o'zluksiz rivojlanib, tobora murakkablashib, boyib borish tamoyiliga muvofiq keladi.

«D» **seriya.** Bu seriya ancha murakkab topshiriqlardan tashkil topgan. Bu seriya topshiriqlarini bajarish jarayoni matritsadagi shakllar o'rni ham ko'ndalang (gorizontalar), ham tik (vertikal) yo'nalishda olmashib borishidan iborat.

«Ye» **seriya.** Bu seriya topshiriqlari oldingilariga nisbatan murakkabligi bilan farqlanib turadi. Bu seriya topshiriqlarini bajarish asosiy (oldingi) tasvirlardagi va navbatdagi tasvirdagi shakllarni tahlil qilib, keyingisidagi yetishmayotgan qismlarni aniqlashni talab qiladi (tahliliy-sintetik mantiqiy faoliyat).

Test topshiriqlari sinaluvchilarga kitobcha shaklida taqdim etiladi. Ularni bajarishda sinaluvchilarga atayin «vaqt tanqisligi» holati yuzaga keltiriladi. Buning uchun dastavval test topshiriqlarini bajarishga 20 daqiqa vaqt berilishi ta'kidlanadi.

Sinaluvchilar topshiriqlarni bajarishga kirishganidan 10-12 daqiqalar o'tganidan so'ng ularga vaqti-vaqti bilan vaqt oz qolayotganligi, ular qolgan vaqt ichida testning barcha (60 ta) topshirig'ini bajarib ulgurishga harakat qilishi lozimligi bir necha marta eslatib qo'yiladi.

20 daqiqa vaqt o'tganidan so'ng testning barcha topshiriqlariga javob berib ulgurmaganlar uchun yana 10 daqiqa qo'shimcha vaqt beriladi. Bu qo'shimcha vaqt ham tugaganidan so'ng test kitobchalari yig'ishtirib olinadi.

Raven testi topshiriqlarini bajarish uchun sinaluvchilarga ko'yidagi tarzda **ko'rsatma** beriladi:

«Sizning e'tiboringizga 60 ta topshiriqdan iborat topshiriqlar majmui havola etiladi. Bu kitobchada turli tasvirlar berilgan. Faraz qiling bu tasvirlarda gilamchalar (paloschalar) aks ettirilgan. Bu gilamchalarning bir qismi dazmol bilan kuydirib qo'yilgan. Sizdan gilamchalarning shu kuygan joyini pastda berilgan «yamoqchalar» bilan yamab chiqish talab qilinadi. Siz kuygan joyga shunday yamoqchani tanlab qo'yinki, natijada gilamchalarning kuygan joyi bilinmay qolsin. Topshiriqlar seriyadan-seriyaga o'tgan sayin murakkablashib, o'ziga xos bog'liqliklarni kashf etib boradi. Siz 20 daqiqa vaqt ichida topshiriqlarni bajarishga ulgurishga harakat qiling. Topshiriqlarni bajarar ekansiz, o'zingiz tanlagan javob varianti raqamini javoblar uchun berilgan varaqaning tegishli katagiga aniq qilib yozib ko'ying. Topshiriqlarning bajarilish vaqti hisobga olinadi. Shuning uchun biron-bir topshiriq ustida uzoq o'ylanib o'z vaqtingizni behuda sarflamay imkon qadar tezroq ishlashga harakat qiling».



Sinaluvchilarga test topshiriqlarini bajarish tartibi tushuntirilib bo'linganidan so'ng ular topshiriqni bajarishga kirishadi. Ulardan o'z javoblarini faqat berilgan javob varaqasigagina yozish, kitobchaga esa xech nima yozmaslik, unga belgilar qo'ymaslik qat'iyon talab qilinadi.

Sinaluvchilardan o'z javoblarini javob varaqasidagi «J» - harfi yozilgan ustundagi, bajarilayotgan topshiriq tartib raqami qarshisidagi katakchalarga yozish talab qilinadi. Bo'sh qolgan 3-ustunga xech nima yozilmasligi lozim. Chunki bu ustun natijalarni qayta ishlash jarayonida tadqiqotchi tomonidan to'ldiriladi. Ularga to'g'ri javoblar uchun beriladigan «vazn», baholar qo'yiladi.



Raven testi topshiriqlari
RAVENNING PROGRESSIV MATRITSALAR TESTI

A SERIYA



A – 1





A – 2





A – 3





A – 4





A - 5





A - 6





A - 7





A - 8





A - 9





A - 10



A - 11





A - 12





V SERIYA



V - 1





V - 2



V - 3





V - 4





V SERIYA



V - 5





V - 6



V - 7





V - 8





V SERIYA



V – 9





V – 10



V – 11





V - 12





S SERIYA



S - 1





S - 2



S - 3





S - 4





S SERIYA



S - 5





S - 6



S - 7





S - 8





S SERIYA



S - 9





S - 10



S - 11





S - 12





D SERIYA



D - 1





D - 2



D - 3





D - 4





D SERIYA



D - 5





D - 6



D - 7





D - 8





D SERIYA



D - 9





D - 10



D - 11





D - 12





Ye SERIYA	
Ye – 1	Ye – 2
1 2 3 4 5 6 7 8	1 2 3 4 5 6 7 8
Ye – 3	Ye - 4
1 2 3 4 5 6 7 8	1 2 3 4 5 6 7 8
Ye СЕРИЯ	



Ye – 5





Ye – 6



Ye – 7





Ye - 8





Ye SERIYA



Ye – 9





Ye – 10



Ye – 11



Ye - 12



Raven testi uchun javob varaqasi

Sinaluvchining familiyasi _____
 Ismi _____ Otasining ismi _____
 Yoshi _____ Tadqiqot o'tkazilgan vaqt _____

SERIYa - A			SERIYa - V			SERIYa - S			SERIYa - D			SERIYa - Ye		
N _o	J		N _o	J		N _o	J		N _o	J		N _o	J	
1			1			1			1			1		
2			2			2			2			2		
3			3			3			3			3		
4			4			4			4			4		
5			5			5			5			5		
6			6			6			6			6		
7			7			7			7			7		
8			8			8			8			8		
9			9			9			9			9		
10			10			10			10			10		
11			11			11			11			11		
12			12			12			12			12		
$\Sigma =$			$\Sigma =$			$\Sigma =$			$\Sigma =$			$\Sigma =$		

Test natijalarini qayta ishlash

Test yordamida olingan natijalarni miqdoriy qayta ishlash va izohlashning ham turli variantlari mavjud. Shunga qaramay, ularning barchasi sinaluvchida o'rganilayotgan xususiyatning qay darajada namoyon bo'lishligini aniqlash va izohlashga qaratilgan. Ya'ni ular bir birini inkor etmaydi.

1. Bunday variantlarning biriga ko'ra, sinaluvchi tomonidan berilgan har bir to'g'ri (test kalitiga mos kelgan) javob bir ball bilan baholanadi. Xar bir seriya bo'yicha olingan jami ballar hisoblab chiqiladi. Shundan so'ng barcha seriyalar bo'yicha umumiy ballar yig'indisi hisoblanadi. Shunday qilib, tadqiqotchi sinaluvchining aqliy rivojlanganlik darajasi haqida umumiy bahoga ega bo'ladi. Keyinchalik bu (hali qayta ishlanmagan »hom») ballar quyida berilgan 5-jadvaldagi ma'lumotlar yordamida tegishli ballar, foizlarda hisoblab chiqilib me'yoriy ko'rsatkichlarga (shkalalarga) aylantiriladi. Buning uchun sinaluvchi bergan to'g'ri javoblar miqdori bo'lishi mumkin bo'lgan jami to'g'ri javoblar soniga (ayni vaziyatda 60=100%ga) nisbatan hisoblab chiqiladi. Yakuniy ko'rsatkich esa individual natijalar «sifatini» bildiradi.

Shu tarzda foizlarda hisoblab chiqilgan ko'rsatkichlar quyidagi jadvaldagi ma'lumotlarga binoan me'yoriy chegaralar (o'rganilayotgan xususiyatning namoyon bo'lish kuchi) aniqlab olinadi. Raven testi topshiriqlarini bajarishda sinaluvchilarning yosh xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ayni bir xil ko'rsatkich turli yosh vakillari uchun turli intellektual rivojlanganlik darajasini bildirishi mumkin.

Natijalarni izohlashda shuni ham nazarda tutish joizki, natijalarni ballarga aylantirish va ularni foizlarda ifodalash bir-biriga mos tushmasligi mumkin, chunki ular turli tabiatga va shu bilan bog‘liq ravishda turli sifat vaznlariga ega bo‘ladi.

Natijalarning me‘yoriy baholash shkalalari

Dara-jalar	Javoblarni ballarga o‘tkazish	Yosh ko‘rsatkichlari	Natijalar sifati (%larda)
		18 - 21 yosh	
1	01 - 23 = 1		01 - 45 = 1
2	24 - 28 = 2		46 - 55 = 2
3	29 - 32 = 3		56 - 64 = 3
4	33 - 36 = 4		65 - 71 = 4
5	37 - 40 = 5		72 - 78 = 5
6	41 - 43 = 6		79 - 83 = 6
7	44 - 46 = 7		84 - 87 = 7
8	47 - 48 = 8		88 - 91 = 8
9	49 - 51 = 9		92 - 94 = 9
10	52 - 60 = 10		95 - 99 = 10
		22 - 45 yosh	
1	01 - 19 = 1		01 - 40 = 1
2	20 - 22 = 2		41 - 49 = 2
3	23 - 27 = 3		50 - 59 = 3
4	28 - 31 = 4		60 - 67 = 4
5	32 - 36 = 5		68 - 75 = 5
6	37 - 39 = 6		76 - 81 = 6
7	40 - 43 = 7		82 - 86 = 7
8	44 - 45 = 8		87 - 90 = 8
9	46 - 48 = 9		91 - 94 = 9
10	49 - 60 = 10		95 - 99 = 10
		46 - 60 yosh	
1	01 - 15 = 1		01 - 34 = 1
2	16 - 18 = 2		35 - 41 = 2
3	19 - 22 = 3		42 - 50 = 3
4	23 - 25 = 4		51 - 60 = 4
5	26 - 30 = 5		61 - 68 = 5
6	31 - 34 = 6		69 - 76 = 6
7	35 - 38 = 7		77 - 82 = 7
8	39 - 41 = 8		83 - 88 = 8
9	42 - 45 = 9		89 - 93 = 9
10	46 - 60 = 10		94 - 99 = 10

Ushbu jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlarga ko‘ra natijalarni izohlash quyidagicha amalga oshiriladi:

1 dan 4-darajagacha - intellektual rivojlanganlik darajasi past; mehnat sifati ham past.

5 dan 6-darajagacha - intellektual rivojlanganlik darajasi o'rtacha; topshiriqlarni bajarilish sifati darajasi ham o'rtacha.

7 dan 10-darajagacha - intellektual rivojlanganlik darajasi yuqori; mehnat sifati ham yuqori.

Masalan, sinaluvchi (lavozimi - bo'lim boshlig'i o'rinbosari, yoshi 37 da) test natijalariga ko'ra 45 ball («qayta ishlanmagan hom ball») olgan bo'lsa, bu mazkur yosh guruhi uchun 8 ball bilan baholanadi. Albatta, bu yetarlicha yuqori ko'rsatkich. Biroq foizlarda hisoblab chiqilsa, uning mehnatining sifati: $45 \text{ b} \times 100 : 60 = 75\%$ ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich esa sinaluvchi mansub bo'lgan yosh guruhi uchun 5 ball, ya'ni o'rtacha ekanligini bildiradi. Bunday ma'lumotlar o'z navbatida sinaluvchi katta potentsial imkoniyatlarga ega ekanligi haqida xulosa qilishga asos bo'ladi. Bu imkoniyatlarning psixologik zaxiralarini esa tadqiqotchi sinaluvchi bilan individual ish olib borish orqali, uning test seriyalari bo'yicha topshiriqlarni qay tarzda bajarganligini, topshiriqlarni bajarish jarayonida qanday mulohazalar yuritganligi, ularni qanday tushuntirib berishi va shu kabilarni sifatiy tahlil qilib chiqib aniqlashi mumkin bo'ladi.

2. Test natijalarini qayta ishlab chiqishning yana boshqa usullaridan biri quyidagi tarzda amalga oshirilishi mumkin. Bu usuldan ko'p sonli nomzodlar orasidan (masalan, o'qishga nomzodlar (abituriyentlar) eng maqbullarini tanlab olish jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

Buning uchun natijalarni qayta ishlab chiqish jarayonida sinaluvchi tomonidan javoblar varaqasidagi ko'rsatilgan javoblarning test kalitiga mos tushganlari hisoblab (belgilab) chiqiladi. Dastavval, natijalar test kaliti bo'yicha tekshirib chiqiladi. Kalitga (6-jadval) mos kelgan javoblarga javoblar vazni (7-jadval) da ko'rsatilgan baholar qo'yiladi. Har bir seriya so'ngidagi ? = belgisi qarshisidagi katakka seriya bo'yicha to'g'ri javoblar soni va ularga berilgan baholar («vazn»lar) yig'indisi yoziladi. Shundan so'ng barcha seriyalar bo'yicha baholar (vaznlar) yig'indisi hisoblar chiqiladi. Olingan natija sinaluvchining aqliy rivojlanganlik darajasi haqida umumiy bahoni beradi.

Olingan birlamchi materiallar, qayta ishlanmagan («siroy») ballar sinaluvchilarning yosh ko'rsatkichlari, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va nihoyat tadqiqot maqsadi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda izohlanadi.

Raven testi kaliti

SERIYA - A			SERIYA - V			SERIYA - S			SERIYA - D			SERIYA - Ye		
Nº	t/j		Nº	t/j		Nº	t/j		Nº	t/j		Nº	t/j	
1	5		1	2		1	8		1	3		1	7	
2	1		2	6		2	2		2	4		2	6	
3	4		3	1		3	3		3	3		3	8	
4	2		4	2		4	8		4	7		4	2	
5	6		5	1		5	7		5	8		5	1	

6	3		6	3		6	4		6	6		6	5	
7	6		7	5		7	5		7	5		7	1	
8	2		8	6		8	1		8	4		8	6	
9	1		9	4		9	7		9	1		9	3	
10	3		10	3		10	6		10	2		10	2	
11	4		11	4		11	1		11	5		11	4	
12	5		12	5		12	2		12	6		12	5	
$\Sigma =$			$\Sigma =$			$\Sigma =$			$\Sigma =$			$\Sigma =$		

Izoh: Jadvalning «t/j» harflari yozilgan ustundagi raqamlar seriyaning shu topshirig'i uchun to'g'ri bo'lgan javobni bildiradi.

Raven testi javoblari vazni

SERIYa - A			SERIYa - V			SERIYa - S			SERIYa - D			SERIYa - Ye		
N _o	j/v	B	N _o	j/v	B	N _o	j/v	B	N _o	j/v	B	N _o	j/v	B
1	1		1	1		1	1		1	2		1	3	
2	1		2	2		2	1		2	2		2	4	
3	1		3	1		3	1		3	2		3	4	
4	1		4	1		4	2		4	3		4	5	
5	1		5	1		5	1		5	2		5	4	
6	1		6	2		6	2		6	2		6	5	
7	1		7	3		7	2		7	5		7	5	
8	2		8	3		8	2		8	3		8	4	
9	1		9	4		9	3		9	5		9	9	
10	2		10	2		10	5		10	5		10	9	
11	2		11	3		11	3		11	4		11	10	
12	3		12	5		12	6		12	7		12	8	
$\Sigma =$			$\Sigma =$			$\Sigma =$			$\Sigma =$			$\Sigma =$		

Izoh: Jadvalning «j/v» harflari yozilgan ustundagi raqamlar seriyaning shu topshirig'i uchun to'g'ri bo'lgan javob vaznini bildiradi.

Sinaluvchi tomonidan to'g'ri bajarilgan topshiriqlar va ularning vazni miqdori hisoblab chiqilib ular quyidagi tartibda baholanadi.

Vaznlar yig'indisi	Beriladigan darajalar	Vaznlar yig'indisi	Beriladigan darajalar	Vaznlar yig'indisi	Beriladigan darajalar
40 gacha	0	81-90	4	121-130	8
41-60	1	91-100	5	131-140	9
61-70	2	101-110	6	141 va undan	10 eng yuqori
71-80	3	111-120	7		
61-70	2	101-110	6		

				yuqori	daraja
71-80	3	111-120	7		

Bu test bo'yicha sinaluvchi yig'ishi mumkin bo'lgan eng yuqori vazn 175 ga teng. 140 dan yuqori bo'lgan vaznlar yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Vaznlar miqdori qanchalik ko'p bo'lsa sinaluvchining aqliy imkoniyatlari shunchalik keng, intellektual koeffitsiyenti yuqori hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, vaznlar miqdori 120 dan ko'p bo'lgan natijalarga erishgan sinaluvchilar bilan albatta qo'shimcha suhbatlar tashkil qilinib, ularning javoblari, topshiriqlarni bajarish tarzi, ularni bajarish jarayonida yuritgan mulohazalari sifatini tahlil qilinib chiqilishi lozim. Chunki bu ko'rsatkichlar yuqori bo'lish bilan birga shubhali ham hisoblanadi, shuning uchun ular qo'shimcha ravishda tekshirib chiqilishi zarur.

QISQACHA SARALASH TESTI (QST) (V.N.Buzin, E.F.Vanderlik)

Test umumiy qobiliyatlarning integral ko'rsatkichlarini aniqlashga mo'ljallangan.

Ko'rsatma: E'tiboringizga bir nechta oddiy topshiriqlar xavola etiladi. Hozircha, mazkur sahifani diqqat bilan o'qib chiqing va aytilmasdan (buruq berilmaguncha) boshqa sahifaga o'tmang.

Topshiriqlar va ularga berilgan to'g'ri javoblar variantlari bilan tanishib chiqing:

1. **“Tez”** so'zi, mazmuniga ko'ra quyidagi so'zlarning qaysi biri bilan qarama-qarshi:

To'g'ri javob: 5.

2. Benzinning litri 44 sent turadi, 2,5 litr benzin qancha turadi?

To'g'ri javob: **110** sent yoki **1,1** dollar.

3. **Minor –Minor**. Bu ikki so'z ma'no jihatidan:

1-o'xshash; 2-qarama-qarshi; 3-o'xshash ham emas, qarama-qarshi ham emas.

Hozir sizga taqdim etiladigan test 50 ta topshiriqdan iborat. Testni bajarish uchun sizga 15 daqiqa vaqt beriladi. Qancha savolga javob bera olsangiz, shunchasiga javob bering, bir savol ustida ortiqcha vaqt sarflamang. Agar zarur bo'lsa, yozish uchun qog'ozdan foydalanishingiz ham mumkin. Biror narsa sizga tushunarsiz bo'lsa, hozir so'rang. Testni bajarish vaqtida savollaringizga javob berilmaydi.

“Boshlang!” komandasi berilganidan so'ng, yangi sahifaga o'ting va ishni boshlang.

15 daqiqadan soʻng, komanda berilishi bilan, tezda topshiriqlarni bajarishni toʻxtatib, ruchkani qoʻyib, sahifani yopasiz.

Tayyorlaning. Ruchkani oʻzingizga qulay joyga qoʻying. Komandani kuting. **“Boshlang!”**.

Test materiallari

1. Yilning oʻn birinchi oyi – bu:
1 – oktyabr; 2-may; 3-noyabr; 4-fevral.
2. **“Qahrli”** soʻzi mazmuniga koʻra quyidagi soʻzga qarama-qarshi:
1-keskin; 2-qattiqqoʻl; 3-yumshoq; 4-qattiq; 5-oʻjar.
3. Quyida keltirilgan soʻzlarning qaysi biri boshqalaridan farq qiladi:
1-alohida; 2-shubhali; 3-dadil; 4-ishonch; 5-sodiq.
4. Quyidagi mulohazalarga **“Ha”** yoki **“Yoʻq”** degan javoblardan bittasini tanlab javob bering:
“M.a.” qisqartmasi: “Miloddan avvalgi”ni bildiradi.
5. Quyidagi soʻzlarning qaysi biri, boshqalaridan farq qiladi:
1-kuylamoq; 2-jiringlatmoq; 3-vaysamoq; 4-tinglamoq; 5-gapirmoq.
6. **“Benuqson”** soʻzi, oʻz mohiyatiga koʻra, quyidagi soʻzlardan qaysi biriga qarama-qarshi:
1-begʻubor; 2-nomunosib; 3-sotilmaydigan; 4-beayb; 5-ajoyib.
7. **“Hidlash”** soʻzi **“burun”** soʻziga qanday nisbatda boʻlsa, **“chaynash”** soʻziga quyidagi soʻzlarning qaysi biri shunday nisbatda boʻladi:
1-shirin; 2-til; 3-hid; 4-tishlar; 5-toza.
8. Quyida keltirilgan soʻzlar juftidan nechtasi aynan bir xil?

Sharp, M.G.	Sharp, M.G.
Filder, E.H.	Fielder, E.H.
Conner, M.G.	Connor, M.G.
Woerner, O.W.	Woesner, O.W.
Soberquist, B.R.	Soberquist, P.R.
9. **“Tiniq”** soʻzi mazmuniga koʻra quyidagi soʻzlarning qaysi biri bilan qarama-qarshi:
1-aniq; 2-ayon; 3-ravshan; 4-ravon; 5-xira.

10. Ishbilarmon bir nechta eski avtomobillarni 3500 dollarga sotib oldi. So‘ng ularni 5500 dollarga sotib, bunda har bir avtomobildan 50 dollardan foyda ko‘rdi. U nechta avtomobil sotgan?

11. “Mard” va “mart” so‘zlari:

1-o‘xshash ma‘noli; 2-qarama-qarshi ma‘noli; 3-o‘xshash ham emas, qarama-qarshi ham emas.

12. Uchta limon 4500 so‘m turadi. 4 juft limon necha so‘m bo‘ladi?

13. Quyidagi 6 juft raqamlardan nechitasi to‘la o‘xshash?

5296	5296
69686	66986
834426	834426
7354256	7354256
61197172	61197172
83238234	83238324

14. “Qadrdon” so‘zi mazmuniga ko‘ra quyidagi so‘zlarning qaysi biri bilan qarama-qarshi:

1-do‘stona; 2-og‘ayni; 3-begona; 4-qarindosh; 5-boshqa.


15. Qaysi son eng kam hisoblanadi?

6 0,7 9 36 0,31 5


16. Quyida berilgan so‘zlarni shunday tartibda qo‘yingki, oqibatda to‘g‘ri gap hosil bo‘lsin. Javob sifatida oxirgi so‘zning ikki oxirgi harfini yozing.

o‘zlari ketgandan ular mehmonlar nihoyat qoldilar


17. Quyida keltirilgan beshta rasmdan qaysi biri boshqalaridan ko‘proq farq qiladi?




1.




2.



3.



4.



5.

18. Ikkita baliqchi 36 ta baliq tutdilar. Birinchisi ikkinchisidan 8 marta ko‘p tutdi. Ikkinchisi nechta baliq tutdi?

19. “Ko‘tarilmoq” va “vujudga keltirmoq” so‘zlari:

1-o‘xshash ma‘noli; 2-qarama-qarshi ma‘noli; 3-o‘xshash ham emas, qarama-qarshi ham emas.

20. Quyida taklif etilgan soʻzlarni shunday tartibda joylashtiringki, ulardan tasdiq (gap) hosil boʻlsin. Agar u toʻgʻri boʻlsa, unda - “T” javobi, agar notoʻgʻri boʻlsa - “N” javobini belgilang.

ketgan ajiriq ichida koʻl oʻsib

21. Quyida keltirilgan jummalarning ikkitasi bir xil maʼnoga ega, ularni toping:

- 1. Yer tagida ilon qimirlasa biladi;**
- 2. Boʻsh qop tik turmaydi;**
- 3. Uchta shifokor bitta shifokrdan afzal emas;**
- 4. Hamma yaltiragan narsa ham oltin emas;**
- 5. Yetti yanga bitta ona boʻlolmas.**

22. “?” belgisining oʻrnida qanday son boʻlishi kerak?

73 66 59 52 45 38 ?

23. Sentyabr oyidagi kun va tunlarning uzunligi deyarli ... dagidek.

1- iyun, 2-mart, 3-may, 4-noyabr

24. Aytaylik, dastlabki ikki tasdiq toʻgʻri. Unda hulosa quyidagicha boʻladi:
Barcha ilgʻor insonlar – partiya aʼzolari.

Barcha ilgʻor insonlar yuqori lavozimlarni egallaydilar.

Ayrim partiya aʼzolari yirik lavozimlarni egallaydilar.

1- toʻgʻri, 2- notoʻgʻri, 3-noaniq.

25. Poyezd $\frac{1}{4}$ daqiqada 75 smga yuradi. Agar u xuddi shunday tezlikda yuradigan boʻlsa, unda u 5 daqiqa vaqt mobaynida qancha masofani bosib oʻtadi?

26. Agar dastlabki ikki tasdiqni toʻgʻri deb hisoblaydigan boʻlsak, unda keyingisi:

Farzonaning yoshi nechada boʻlsa, Akmal ham shu yoshda.

Farzona Iskandardan kichik.

Akmal Iskandardan kichik.


1-toʻgʻri, 2- notoʻgʻri, 3-noaniq.

27. Beshta yarim kilogrammik goʻsht qiymasi 2 dollar turadi. 80 sentga necha kilogramm qiyma xarid qilish mumkin?

28. “Yoymoq” va “choʻzmoq”. Bu soʻzlar:

1-ma'nosiga ko'ra o'xshash; 2-qarama-qarshi; 3-o'xshash ham emas, qarama-qarshi ham emas.

29. Quyidagi geometrik figurani to'g'ri chiziq bilan ikki qismga shunday bo'lingki, ularni birga qo'yish orqali kvadrat hosil bo'lsin:



30. Ataylik dastlabki ikki tasdiq to'g'ri bo'lsa:
Temur Farzona bilan salomlashdi.
Farzona Madina bilan salomlashdi.
unda:


Temur Madina bilan salomlashmadi:

1- to'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-aniq emas.

bo'ladi.

31. Bahosi 2400 dollarlik avtomobil mavsumiy arzonlashish vaqtida $33\frac{1}{3}\%$ ga arzonlashdi. Arzonlashtirib sotish vaqtida avtomobilning bahosi qancha bo'lgan?

32. Quyida berilgan beshta figuradan uchtasini shunday tarzda birlashtirish kerakki, teng yonli trapetsiya hosil bo'lsin:



33. Bitta ko'lak tikish uchun $2\frac{1}{3}$ m mato kerak bo'ladi. 42 m matodan nechta ko'ylak tikish mumkin?

34. Quyidagi ikkita gapning ma'nosi:

Uchta shifokor bittadan yaxshi emas.

Shifokor qanchalik ko'p bo'lsa, kasallik shuncha ko'p bo'ladi.

1-o‘xshash; 2-qarama-qarshi; 3-o‘xshash ham emas, qarama-qarshi ham emas.

35. “Kattalashtirish” va “kengaytirish”. Bu so‘zlar:

1-o‘xshash; 2-qarama-qarshi; 3-o‘xshash ham emas, qarama-qarshi ham emas.

36. Quyidagi ikkita maqollarning mazmuni:

O‘zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga.

Bolang yomon bo‘lsa, boylab boq.

1-o‘xshash; 2-qarama-qarshi; 3-o‘xshash ham emas, qarama-qarshi ham emas.

37. Baqqol bir quti apelsinlarni 3,6 dollarga sotib oldi. Qutida 12 juft apelsin bor edi. Hamma apelsinlarni 5,76 dollarga sotib yubordi. Bir dona apelsinni necha dollarga sotgan?

38. “Talab” va “talabchan”. Bu so‘zlar mazmuniga ko‘ra:

1-o‘xshash; 2-qarama-qarshi; 3-o‘xshash ham emas, qarama-qarshi ham emas.

39. Agar yarim kilo kartoshka 0,125 dollar tursa, unda 50 sentga necha kilogramm kartoshka xarid qilish mumkin?

40. Qator a‘zolarining bittasi boshqalariga to‘g‘ri kelmaydi. Siz uni qanday son bilan almashtirgan bo‘lardingiz:

1/4 1/8 1/8 1/4 1/8 1/8 1/4 1/8 1/6

41. “Aks ettirilgan” va “tasavvur qilingan”. Bu so‘zlar mazmuniga ko‘ra:

1-o‘xshash; 2-qarama-qarshi; 3-o‘xshash ham emas, qarama-qarshi ham emas.

42. Uzunligi 70 m va eni 20 m bo‘lgan madon necha sotix bo‘ladi?

43. Quyidagi ikkita jumla:

Yaxshi narsalar arzon, yomonlari qimmat.

Yaxshi sifat oddiylik bilan, yomoni esa murakkablik bilan ta‘minlanadi.

mazmuniga ko‘ra:

1-o‘xshash; 2-qarama-qarshi; 3-o‘xshash ham emas, qarama-qarshi ham emas.

44. Soldat, nishonga o'q uza turib, uni 12,5 % ga urdi. Soldat nishonni to'la urishi uchun necha marta o'q otishi kerak?

45. Qator a'zolarining bittasi boshqalariga to'g'ri kelmaydi. Siz uning o'rniga qanday sonni qo'ygan bo'lardingiz:

0.4 0.6 0.8 0.9 1.2 1.4

46. Aktsionerlik jamiyatidagi uchta sherik foydani teng bo'lmoqchi bo'ldilar. T. ishga – 4500 dollar, K. – 3500 dollar, P.– 2000 dollar qo'shgan. Agar foyda 2400 dollarni tashkil etsa, T. foydani kim qancha pul tikkaniga qarab taqsimlanganiga nisbatan qancha kam foyda oladi?

47. Quyida keltirilgan maqollardan qaysi ikkitasi o'xshash ma'noga ega.

1. Temirni qizig'ida bos.
2. Yolg'iz otning changi chiqmas.
3. Jang qurbonsiz bo'lmas.
4. Hamma yaltiroq narsa ham tilla bo'lavermaydi.
5. Odamning tashqi ko'rinishiga qarab emas, ishlariga qarab baho

ber.

48. Quyidagi jumalarning:


Tarki odat amri mahol.

Bukrini go'r tuzatadi.


ma'nosi

1-o'xshash; 2-qarama-qarshi; 3-o'xshash ham emas, qarama-qarshi ham emas.


49. Quyidagi figuralardan qaysi biri boshqalaridan ko'proq farq qiladi:



1.




2.



3.



4.



5.

50. Chop etilayotgan maqola 24000 so'zdan iborat. Muharrir ikki xil o'lchamdagi shriftlardan fodalanishga qaror qildi. Katta o'lchamdagi shriftdan fodalanganda bir sahifaga 900 so'z, kichik shriftda – 1200 so'z joylashadi. Maqola jurnalning to'liq 21 sahifasini egallashi kerak. Kichik shriftlarda nechta sahifa bosilishi kerak?

Natijalarni qayta ishlash

Test natijalarini qayta ishlash quyidagi tarzda amalga oshiriladi.

Kalitlar yozilgan varaq javob varaqasi blanki ustiga qo'yiladi va kalitga mos tushgan javoblar miqdori hisoblanadi. Kalitga mos tushgan javoblarning umumiy yig'indisi hisoblab chiqiladi.

Test kaliti

Topshiriq №	Kalit	Topshiriq №	Kalit	Topshiriq №	Kalit	Topshiriq №	Kalit
1	3	14	3	27	1	40	1/8
2	3	15	0,31	28	1	41	3
3	2	16	NI	29	2-13	42	14
4	Da	17	4	30	3	43	1
5	4	18	4	31	1600	44	800
6	2	19	3	32	1,2,4	45	1/10
7	4	20	N	33	18	46	280
8	1	21	3,5	34	3	47	4.5
9	5	22	31	35	1	48	1
10	40	23	2	36	1	49	3
11	3	24	1	37	4,8	50	17
12	2,7 (270)	25	1500(15)	38	1		
13	4	26	1	39	20		

Umumiy aqliy qobiliyatlarning integral ko'rsatkichi (Ik) to'g'ri yechilgan topshiriqlar miqdoriga teng.

Test natijalari izohi

Natijalar tahlilini umumiy aqliy qobiliyatlarni aniqlashdan boshlagan maqsadga muvofiq. Buning uchun to'g'ri bajarilgan topshiriqlar miqdori (Ik) darajalar shkalasi bilan solishtiriladi.

Ik ko'rsatkichlar kattaligi	Umumiy aqliy qobiliyatlar kattaligi
13 va undan kam	Past
14 – 18	O'rtachadan past
19 – 24	O'rtacha
25 – 29	O'rtachadan yuqori
30 va undan ko'p	Yuqori

Belgilangan daraja umumiy qobiliyatlarning ko'pparametrik ko'rsatkichi hisoblanadi. Mazkur metodika bu parametrlarni aniqlash va ularni tahlil qilish imkonini beradi.

Materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish qobiliyati maqollar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarish asosida aniqlanadi. Bu topshiriqlar, mazmunni muayyan jumladan (frazadan) mavhumlash-tirishni va izohlash sohasiga o'tishni,

ularning kesishishini va yana shu muayyan jumлага (frazaga) yangitdan qaytishni talab qiladi.

Tafakkurning egiluvchanligi umumiy qobiliyatlar komponenti sifatida, yana (xuddi oldingidek) maqollar bo'yicha berilgan topshiriqlarning bajarilishi bo'yicha aniqlanadi. Agar sinaluvchining assotsiatsiyalari xaotik tabiatga (xarakterga) ega bo'lsa, unda tafakkurning rigidligi haqida gapirish mumkin (masalan, № 11 topshiriqqa o'xshagan vazifalar).

Tafakkurning inertligi va ko'chuvchanligi – bu ta'lim olishga umumiy qobiliyatlikning muhim xarakteristikasidir. Ularning diagnostikasi uchun mazkur testda topshiriqlarning mahsus joylashtirish nazarda tutilgan. Testda turli topshiriqlarning almashinib kelishi o'tmish tajribalari bilan aloqalari inert bo'lgan shaxslar uchun ularning yechilishini qiyinlashtirishi mumkin. Bunday shaxslar tanlagan ish usullarini qiyinchilik bilan o'zgartiradilar, o'z mulohazalarining borishini o'zgartirishga moyil emas, faoliyatning bir turidan boshqasiga o'tadi. Ularning intellektual jarayonlari kam harakatchan, ishlash tempi sekinlashgan.

Tafakkurning hissiy komponentlari va chalg'uvchanlik sinaluvchining ko'rsatkichlarini pasaytirishi mumkin bo'lgan topshiriqlar (24,27,31 va boshq.) bo'yicha aniqlanadi. Emotsional munosabat bildiruvchi sinaluvchi kula boshlashi mumkin yoki asosiy ishi, ya'ni topshiriqni bajarish qolib, eksperimentatorga murojaat qila boshlaydi.

Idrokining tezligi va aniqligi, diqqatining bo'linishi va jamlanishi 8 va 13 raqamli topshiriqlar bilan aniqlanadi. Ular qisqa muddatda turli materiallar bilan ishlash, asosi mazmunni ajratib olish, raqamlar, beogilarni taqqoslash va sh.k. qobiliyatlarini aniqlaydi.

Tildan foydalanish, savodliligi tildan foydalana bilishga oid topshiriqlarni bajarish asosida tahlili qilinishi mumkin. № 8 chet tilini elementar bilishni (alfavit darajasida) taqozo qiladi.

Oriyentirlash (mo'ljallash) sinaluvchining yechish uchun topshiriqlarni tanlab olish strategiyasini tahlil qilish evaziga aniqlanadi. Bir xil sinaluvchilar barcha topshiriqlarni tartib bo'yicha (bir chekkadan, qoldirmay) yechadi. Boshqalari esa – faqat ular uchun osonroq bo'lgan va o'zlari tezroq yecha oladigan topshiriqlarni tanlaydilar (echadilar). Topshiriqlarni yechishning osonligi (engilligi) juda individual. Bundan tashqari, bu o'rinda sinaluvchining moyilligi ham namoyon bo'ladi. Ularning ayrimlari, mazkur varaqda yozilgan test topshiriqlarini qarab chiqadi va shundan so'ng avval matematik, raqamlardan iborat bo'lgan topshiriqlarni tanlaydilar, boshqalari esa, bu strategiyadan foydalanar ekan, verbal vazifalarni ma'qul ko'radilar.

Makoni tasavvur ikki o'lchamli makonda operatsiyalar olib borishni afzal ko'ruvchi, to'rtta topshiriqni yechish bo'yicha xarakterlanadi.

Shunday qilib, QST metodikasi umumiy qobiliyatlarning nisbatan ko'p sonli komponentlarni o'rganish uchun fodalanishi mumkin. Uning yordamida odamning o'quvchanligi va ishchan sifatleri yetarlicha ishonchli prognoz qilinadi.

Test intellektning, sekin yoki noto'g'ri bajarilgan tegishli topshiriqlar bo'yicha, ularni rivojlantirish uchun rekomendatsiyalar o'ylab ko'rish imkonini beradi.

- Masalan, agar sinaluvchi № 10, 13 topshiriqlarni bajarmagan bo'lsa, unga diqqatini jamlash va taqsimlashni rivojlantirish bo'yicha maslahatlar(tavsiyalar, rekomendatsiya) berish kerak.

- Agar, sinaluvchi № 2, 5, 6 topshiriqlarni qiinchilik bilan (yomon) yechgan bo'lsa, unga izohli lug'atlarni, majoziy ma'nodagi, hikmatlar va matallar (krilatix virajeniy) lug'atini, hikmatli va matalli so'zlar va jummalarni, maqollar va aytishuvlarni, chet tillar lug'atini va ikki tilli lug'atlarni o'qish, shuningdek lingvistik topshiriqlarni yechish fodali ekanligi tavsiya qilinadi.

- Agar sinaluvchi raqamli topshiriqlarni yomon bajargan bo'lsa, unda tegishli xususiyatni rivojlantirish uchun boshqotirmalar to'plamlari foydali.

- Sinaluvchida, makoniy tasavvurlarni talab qiladigan vazifalar muammo tug'dirgan bo'lsa, unda diqqatni turli xil ob'ektlarga jamlashni mashq qilish, keyinchalik ularning obrazlarini tasavvurlarda tiklash muhim.

EKSTRAVERSIYA VA INTROVERSIYANI O'RGANISH METODIKASINING YANGI VARIANTI (PEN metodikasi)

G.Ayzenk metodikasining yangi variantiga yana bitta yangi shkala – psixotizm shkalasi qo'shilgan. Psixotizm neyrotizmdan tubdan (prinsipialno) farq qiladi va G.Ayzenk uni hissiy munosabatlarning yuqoriligi bilan bog'laydi. So'rovnomaning rus tilidagi varianti (rus tilida ishlovchilar uchun) V.M.Bexterev nomidagi Psixonevrologiya instituti xodimlari tomonidan adaptatsiya (modifikatsiya) qilingan. PEN metodikasining bu variantida, qo'shimcha "psixotizm" shkalasini kiritishdan tashqari, shuningdek, an'anaviy "ekstraversiya-introversiya va neyrotizm" shkalalaridan ayrim savollar o'zgartirilgan holda kiritilgan. Qator o'zgarishlar "yolg'on shkalasi"ga ham kiritilgan. Biroq, ma'lumki, o'zgartirishlar hamma vaqt ham mukammallikka olib kelavermaydi. Amaliyotchi psixologlar o'rtasida PEN varianti emas, bari-bir metodikaning dastlabki (EPI so'rovnomasi) varianti ko'proq mashhurligicha qolaveradi. EPIning PEN bilan taqqoslaganda EPIning afzalligi haqidagi taassurot (tahmin) albatta tasoddiy emas.

Ko'rsatma: Sizning e'tiboringizga, xarakteringiz va sog'ligingizga taalluqli tasdiqlar havola etiladi. Agar siz tasdiqlarga qo'shilsangiz (ularni ma'qullasangiz), unda, javob varaqasidagi tegishli tasdiq tartib raqami qarshisidagi ustunning tegishli katagiga "+" (ha) ishorasini qo'ying, agar rozi bo'lmasangiz "yo'q" ustunidagi tegishli katakka "-" (yo'q) ishorasini qo'ying. Uzoq o'ylanib o'tirmay etarlicha tez ishlang.

So'rovnoma matni

1. Sizning xilma-xil xobbilaringiz ko'pmi?
2. Siz nima qilmoqchi bo'lganingizni oldindan o'ylab olasizmi?
3. Sizda kayfiyatingizning tushib ketishi va ko'tarilishi tez-tez bo'lib turadimi?

4. Siz, qachondir, aslida boshqa odam qilgan ish uchun maqto'v eshitishga davogarlik qilganmisiz?
5. Siz gapga kirishimli (ko'p gapiradigan) odammisiz?
6. Qarzingizning ko'payib ketishi sizni bezovta qiladimi?
7. Biron-bir asosiy sababsiz o'zingizni baxtsiz his qilgan holatlar bo'lganmi?
8. Sizda, qachondir, o'zingizga mumkin bo'lganidan ko'prog'iga erishish uchun xasislik qilgan hollaringiz bo'lganmi?
9. Siz, kechqurunlari (tunda) eshikni mahkam yopib yotasizmi?
10. Siz o'zingizni quvnoq odam deb hisoblaysizmi?
11. Biror bola yoki hayvonni azoblanayotganligini ko'rib, kuchli qayg'urasizmi?
12. Aytilishi kerak bo'lmagan gapni gapirib yoki qilinishi kerak bo'lmagan ishni qilib qo'yganingiz tufayli ko'pincha (tez-tez) afsuslanasizmi?
13. Agar u sizga shaxsan noqulay bo'lsa ham, o'z va'dangizni hamisha bajarasizmi?
14. Siz parashyutdan sakrab quvongan (quvonch olgan) bo'larmidingiz?
15. Siz sershovqin davralarda (kompaniyalarda) hissiyotlaringizga erk berib, to'laligicha hursand bo'la olasizmi?
16. Siz serjahlmisiz?
17. Siz, aslida o'zingiz aybdor bo'lgan ishda, kimnidir ayblaganmisiz?
18. Sizga yangi odamlar bilan tanishish yoqadimi?
19. Siz sug'urta (straxovanie)ning foydasiga ishonasizmi?
20. Sizni hafa qilish osonmi?
21. Sizning hamma odatlaringiz ham yaxshi va istalganmi?
22. Siz jamoa (ko'pchilik) orasida bo'la turib, panada bo'lishga intilasizmi?
23. Sizni noodatiy yoki xavfli holatlarga solishi (olib kelishi) mumkin bo'lgan vositalarni (alkogol, narkotik) qabul qilarmidingiz?
24. Siz tez-tez, hamma narsa joningizga tegadigan holatni his qilib turasizmi?
25. Siz, u narsa hatto arzimas narsa, ya'ni tugmacha yoki ilgakcha bo'lsada, boshqa odamga tegishli bo'lsa, uni olgan vaqtlaringiz bo'lganmi?
26. Sizga kimnikigadir tez-tez mehmonga borish va jamoa (odamlar) orasida bo'lish yoqadimi?
27. O'zingiz yoqtiradigan (sevadigan) odamni hafa qilishdan qoniqish olasizmi?
28. Sizni aybdorlik hissi tez-tez bezovta qilib turadimi?
29. Sizga ko'pincha o'zingiz u qadar yaxshi tushunmagan masalalar haqida gapirishingizga to'g'ri kelganmi?
30. Siz, odatda odamlar bilan uchrashishdan ko'ra kitoblarni ma'qul ko'rasiz.
31. Sizni oshkora (aniq, yaqqol bilinib turadigan) dushmanlaringiz bormi?
32. Siz o'zingizni asabiy odam deb atagan bo'larmidingiz?
33. Siz boshqalarga qo'pollik qilgan vaqtingizda, doimo uzr so'raysizmi?
34. Sizning do'stlaringiz ko'pmi?
35. Ba'zan boshqa odamlarga haqiqatan ham og'ir botishi mumkin bo'lgan o'yinlarni tashkil qilish va hazillashish sizga yoqadimi?
36. Siz behalovat odamsiz.

37.Siz bolaligingizda, sizga nimani buyurishsa hamisha so‘zsiz va zorlanmay bajargansiz.

38.Siz o‘zingizni betashvish odam deb hisoblaysiz.

39.Yaxshi odat (manera) va ozodalik siz uchun ko‘p ahamiyatga ega.

40.Bo‘lishi ehtimol bo‘lgan, lekin bo‘lmagan (ro‘y bermagan) qandaydir dahshatli voqea sababli (tufayli) hayajonlanasizmi?

41.Sizda boshqalarning buyumini sindirib yoki yo‘qotib qo‘yish hollari bo‘lganmi?

42.Tanishish vaqtida Siz odatda birinchi bo‘lib tashabbus ko‘rsatasizmi?

43.Agar birontasi siz bilan o‘z tashvishlarini baham ko‘rsa, siz uning ahvolini oson tushunasizmi?

44.Sizning asabingiz tez-tez oxirigacha tarang bo‘lib turadimi?

45.Agar qo‘l ostingizda korzina (chiqindi chelak) bo‘lmasa, siz keraksiz qog‘ozni polga tashlaysizmi?

46.Siz boshqa odamlar orasida bo‘lgan vaqtingizda, ko‘proq jim turasiz.

47.Siz, nikohni eskilik sarqiti (modadan qolgan), uni bekor qilish kerak deb hisoblaysiz.

48.Siz gohida o‘zingizga nisbatan achinishni his qilasiz.

49.Siz gohida ko‘p maqtanasiz.

50.Siz etarlicha (ancha) zerikarli davralarga, osongina jonlanish kiriti olasiz.

51.Ehtiyotkor haydovchilar sizning jahlingizni chiqaradimi?

52.Siz o‘z salomatligingiz haqida qayg‘urasiz.

53.Siz boshqa odam haqida qachondir yomon gapirganmisiz?

54.Siz o‘z do‘stlaringizga hazillar va latifalar aytib berishni yoqtirasiz.

55.Siz uchun ko‘pchilik oziq-ovqat mahsulotlari bir xil ma‘zatamli.

56.Sizda gohida yomon kayfiyat bo‘lib turadimi?

57.Siz bolaligingizda qachondir o‘z ota-onangizga qo‘pol gapirganmisiz?

58.Sizga odamlar bilan muloqotda bo‘lish yoqadi.

59.Agar o‘z ishingizda xatoga yo‘l qo‘yganingizni bilsangiz, siz afsuslanasiz.

60.Siz uyqusizlikdan qiynalasiz.

61.Siz doimo ovqatlanishdan oldin qo‘lingizni yuvasiz.

62.Siz gap bilan boshqalarning qo‘yniga (cho‘ntagiga) kirmaydigan odamlardansiz.

63.Siz uchrashuvga belgilangan vaqtdan ancha oldin kelishni ma‘qul ko‘rasiz.

64.Siz qandaydir bir sababsiz o‘zingizni toliqqan, loqayd (apatik) his qilasiz.

65.Siz, qachondir o‘yinda mug‘ombirlik qilganmisiz?

66.Sizga tez xatti-harakatlar qilishni talab qiladigan ishlar yoqadi.

67.Sizning onangiz yaxshi odam (yaxshi odam bo‘lgan).

68.Sizga hayot tez-tez dahshatli narsadek tuyuladi.

69.Siz qachondir boshqa odamning xatosidan o‘z maqsadingizda foydalan-gansiz.

70.Siz ko‘pincha o‘zingizga vaqt (davr, zamon) ravo ko‘rganidan ko‘proq olasiz.

71.Sizdan qochishga intiladigan odamlar bor.

72.Tashqi ko‘riningiz, Sizni juda tashvishlantiradi.

73.Siz hatto yoqimsiz odamlar bilan ham hamisha muloyimsiz.

74.Siz, odamlar o'zining kelajagini ta'minlash uchun jamg'armalar yig'ib (saqlab), o'zini va hayotini kafolatlab (straxovanie qilib), haddan ziyod ko'p vaqt sarflaydi deb hisoblaysiz.

75.Sizda qachondir o'lish istagi yuzaga kelgan.

76.Agar sizni hech qachon fosh qila olmasliklariga to'liq ishonsangiz, qo'shimcha daromad uchun soliq to'lashdan qochishga harakat qilasiz.

77.Siz davralarga jonlanish kiritib olasiz.

78.Siz odamlarga qo'pollik qilmaslikka intilasiz.

79.Ro'y bergan o'ng'aysizlikdan so'ng, siz uzoq muddat afsuslanib yurasiz.

80.Qachonlardir, hamma narsa siz istagandek bo'lishini qat'iy talab qilgan hollaringiz bo'lganmi?

81.Siz, ko'pincha vokzalga poezd jo'nab ketadigan so'nggi daqiqalarda etib kelasiz.

82.Siz, qachondir, atayin biron kishi uchun yoqmaydigan yoki hafa bo'ladigan gapni gapirganmisiz?

83.Asablaringiz sizni bezovta qiladi.

84.O'rtoqlari ustidan hazil qilishadigan davralarda bo'lish sizga yoqmaydi.

85.Siz, osongina o'z aybingizga ko'ra do'stlaringizni yo'qotasiz.

86.Siz tez-tez yolg'izlik hissini his qilib turasiz.

87.Sizning gapingiz (so'zlaringiz) hamisha ishingizga mos tushadi. (So'zingiz bilan ishingiz bir).

88.Sizga gohida hayvonlarni qiynash yoqadi.

89.Siz, shaxsan sizga va sizning ishingizga taalluqli bo'lgan e'tiroz, tanbehlardan oson hafa bo'lasiz.

90.Qandaydir xavf-xatarsiz hayot siz uchun haddan tashqari zerikarli tuyuladi.

91.Sizni ishga yoki uchrashuvga kechikib kelgan hollaringiz bo'lgan.

92.Sizga atrofingizdagi jonlanish va elib-yugurishlar yoqadi.

93.Siz, odamlar sizdan qo'rqishlarini xohlaysiz.

94.Siz gohida kuch-g'ayratga to'la va kaftingizda hamma narsa yonadigan-dek, gohida esa, aksincha bo'lib turasiz. Shu to'g'rimi?

95.Siz gohida bugun qilishingiz lozim bo'lgan ishni ertaga qoldirasiz.

96.Atrofdagilar sizni jonli va quvnoq odam deb hisoblaydi.

97.Sizga tez-tez noto'g'ri gapirishib turadilar.

98.Siz ayrim voqealarga, hodisalarga, narsalarga o'ta sezgirsiz.

99.Siz doimo o'z xatoingizni tan olishga tayyorsiz.

100. Qachonlardir, qopqonga tushib qolgan hayvonga achingansiz.

101. Anketani to'ldirish sizga qiyin bo'ldimi?

Natijalar izohi:

Psixotizm shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlarning yuqoriligi sinaluvchida asotsial xulqqa moyillik, hissiy reaksiyalarning noadekvatligi, hashamdorlik, shaxsning yorqin ifodalangan nizoligidan dalolat beradi.

Javob varaqasi

Sinaluvchining ismi sharifi						Guruh			Sana					
T.r	Ha	Yo‘q	T.r	Ha	Yo‘q	T.r	Ha	Yo‘q	T.r	Ha	Yo‘q	T.r	Ha	Yo‘q
1			21			41			61			81		
2			22			42			62			82		
3			23			43			63			83		
4			24			44			64			84		
5			25			45			65			85		
6			26			46			66			86		
7			27			47			67			87		
8			28			48			68			88		
9			29			49			69			89		
10			30			50			70			90		
11			31			51			71			91		
12			32			52			72			92		
13			33			53			73			93		
14			34			54			74			94		
15			35			55			75			95		
16			36			56			76			96		
17			37			57			77			97		
18			38			58			78			98		
19			39			59			79			99		
20			40			60			80			100		
												101		

Kalit:

“Psixotizm” shkalasi	“Yo‘q”	2,6,9,11,19,39,43,59,63,67,78,100.
	“Ha”	14,23,27,31,35,47,51,55,71,85,88,93,97.
“Ekstraversiya - introversiya” shkalasi	“Yo‘q”	22,30,46,84.
	“Ha”	1,5,10,15,18,26,34,38,42,50,54,58,62,66,70,74,77,81,90,92,96.
“Samimiylik” shkalasi	“Yo‘q”	4,8,17,25,29,41,45,49,53,57,65,69,76,80,82,91,95.
	“Ha”	13,21,33,37,61,73,87,99.

Boshqa shkalalarning psixologik mazmuni yuqorida berilgan (EPI so‘rovnomasiga qarang). “Psixotizm” shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ahamiyat 5 – 12 ballar oralig‘ida yotadi. “Ekstraversiya-introversiya” shkalasi bo‘yicha ahamiyat 7-15 ballar oralig‘ida yotadi; bunda yuqoriroq baholar ekstravert tipga, pastroq baholar esa – introvert tipga mos keladi. “Neyrotizm” shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ahamiyat 8 – 16 ballar oralig‘ida yotadi.

Agar sinaluvchi samimiylik shkalasi bo‘yicha 10 balldan ortiq ball olgan bo‘lsa, test natijalari ishonchsiz hisoblanadi va izohlanmaydi (sharhlanmaydi, qayta ishlanmaydi).

FAN DASTURIGA MUVOFIQ BAHOLASH MEZONLARINI QO‘LLASH BO‘YICHA USLUBIY KO‘RSATMALAR

Ta’lim oluvchilar bilimi quyidagi mezonlar asosida:

ta’lim oluvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a‘lo) baho**;

ta’lim oluvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

ta’lim oluvchi bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

ta’lim oluvchi o‘quv dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

Ta’lim oluvchilar bilimini baholash

Ta’lim oluvchilar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

Joriy va oraliq nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha ta’lim oluvchining bilimini baholash tegishli fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib borgan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilimini baholash tegishli fan bo‘yicha kafedra tomonidan belgilangan professor-o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Yakuniy nazorat natijalari belgilangan tartibda ushbu nazoratni o‘tkazgan professor-o‘qituvchilar tomonidan rasmiylashtiriladi.

Ta’lim oluvchi tegishli fan bo‘yicha yakuniy nazorat turi o‘tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo‘lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo‘yicha “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan ta’lim oluvchi yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi. Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo‘yicha “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan ta’lim oluvchi akademik qarzдор hisoblanadi.

Baholash natijalarini qayd qilish

Ta’lim oluvchilar bilimini baholash tegishli fan bo‘yicha professoro‘qituvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning fanlarni o‘zlashtirishini hisobga olish jurnalida (bundan buyon matnda Jurnal deb yuritiladi) qayd etib boriladi. Professoro‘qituvchi ta’lim oluvchilar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin. Professor-o‘qituvchi jurnalda ta’lim oluvchiga qo‘yilgan baholarni shu kunning o‘zida qayd etib boradi. Agar ta’lim oluvchining bilimini baholash yozma ish shaklida o‘tkazilgan bo‘lsa, bunda professor-o‘qituvchi ta’lim oluvchilarning natijalarini 3 kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda Jurnalga qayd etishi lozim.

Nazorat turi bo‘yicha ta’lim oluvchining bilimi “3” (qoniqarli) yoki “4” (yaxshi) yoxud “5” (a‘lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ta’lim oluvchi nazorat turi o‘tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda jurnalga “0” belgisi yozib qo‘yiladi.

IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni // 2020 yil 23 sentabr. O'RQ-637-son. www.lex.uz
3. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
4. "Axborot olish erkinligi prinsiplari va kafolotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
5. "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
6. "Reklama to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
7. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 maydagi PF-67-son "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni" // QMMB: 06/23/67/0269-son 10.05.2023-y. <https://lex.uz/pdfs/6461609> (03.07.2023 y. holatiga murojaat qilingan).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida" PQ – 4307 – son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079 – son.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2021 yil 27 mart, № 62 (7842).
13. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // "Xalq so'zi", 2017 yil 20 sentyabr.
14. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi. / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Xalilova N.I., Amirova O.Q. Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya. Darslik. - T.: O'zR JXU, 2022. - 456 bet.
2. Akramova F.A.. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanmasi. –T., 2007. -166 b.
3. G'oziyev E.G'. Ijtimoiy psixologiya.. T. O'qituvchi. 2012 y. 315 b.

4. Xotamov. Ijtimoiy psixologiya. 2020.
5. Александер Франс. Психосоматика. Санкт-петербург. 2004 г.
6. Силвио Фанти. Микроспихоанализ. Москва. 1995г.
7. Войскунский А. Е. Исследования Интернета в психологии. // Интернет и российское общество. / Под ред. И. Семенова. М. 2002
8. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: состояние и возможности психологической защиты - М 2002
9. Ермаков Ю.А. Манипуляция личностью: Смысл, приемы, последствия- Екатеринбург, 1995
10. Ярочкин В. И. Информационная безопасность. Учебник для студентов ВУЗов М.: Фонд «Мир», 2003 – 640 б.
11. Politologiya: Ensiklopedicheskiy slovar/Obsh.red. i sost.: Yu.I.Averyanov.- М.:1993
12. Lopaten V. N. Informatsionnaya bezopasnost v Rossii. Izd. MVD Rossii i Sankt-Peterburgskogo universiteta. 2000 – 311b.
13. ICTNEWS axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yangiliklari jurnali. Toshkent. 2010. №01. 11-bet.
14. Jo'rayev N.Q. Tarix falsafasining nazariy asoslari. Toshkent, «Ma'naviyat», 2008.
15. Mo'minov F. "Axborot xavfsizligi va ijtimoiy taraqqiyot". O'zbekiston matbuoti jurnali, 2023 yil, №6
16. Politologiya: Ensiklopedicheskiy slovar/Obsh.red. i sost.: Y.I.Averyanov.- М.:1993.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Андреева Г.М., Социальная психология. М.: Аспект-Пресс, 2016.
2. Андреева Г.М., Богомолова Н.Н., Петровская Л.А. Зарубежная социальная психология XX столетия. М.: Аспект-Пресс, 2002.
3. Белинская Е.П., Тихомандриская О.А. Социальная психология личности. М.: Аспект-Пресс, 2012.
4. Ефимова Н.С. Социальная психология: Учебное пособие / Н.С. Ефимова. – М.: Форум, 2017.
5. Крысько В.Г. Социальная психология. Курс лекций: Учебное пособие / В.Г. Крысько. – М.: Вузовский учебник, 2017.
6. Майерс Д. Социальная психология / Пер. с англ. СПб, 2008.
7. Сухов А.Н. Социальная психология: Учебное пособие / А.Н. Сухов. – М.: Академия, 2018.
8. Густав Лебон. Психология народов и масс: АСТ; М.: 2016
9. Роберт Чалдини. Психология влияния. СПб: "Питер", 2020
10. Пол Экман. Психология лжи. СПб: "Питер", 2018
11. Qodirov U. "Muhit girdobidagi inson". "Tafakkur" jurnali, 2000 yil, 3-son.
12. Qodirov U. Boshqaruv ruhiyati. "Fan va turmush" jurnali, 1999 yil, 3-son.
13. Qodirov U. Yoshlarda assertiv xulqni tarkib toptirishning ayrim masalalari. "Kasbiy ta'lim: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari, Toshkent, 2011 yil.

14. Qodirov U. Yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashdolzarb muammo. "Oliy ta'lim tizimida psixologiya fanlarini o'qitishning ilmiy-uslubiy muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Toshkent, 2011 yil.

15. Qodirov U. Yoshlarni destruktiv guruhlar ta'siridan himoyalashning ayrim jihatlari. O'zbekistonda psixologik xizmatning dolzarb muammolari». Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Toshkent, 2023 yil.

ELEKTRON MANBALAR

7. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.

8. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

9. www.norma.uz - O'zbekiston Respublikasi huquqiy axborot bazasi.

10. www.ziynet.uz

11. www.edu.uz

12. www.mgju.uz

13. www.mvd.uz

14. www.psychology.uz

15. www.pedagog.uz

**O'quv fani o'quv-uslubiy majmuasining
MUNDARIJASI**

Bo'lim	Nomlanishi	Betlar
I.	O'QUV MATERIALLARI:	4
	Ma'ruzalar matni	4
II.	GLOSSARIY	119
III.	ILOVALAR:	123
	Fan dasturi	123
	Mavzuiy reja va mantiqiy-tartib tuzilma	144
	Ta'lim texnologiyalari	149
	Mavzu bo'yicha tayanch bilimlarni shakllantirishga qaratilgan materiallar (savollar, vaziyatlar, topshiriqlar, testlar, krosvordlar va h.k.)	157
	Fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar	192
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:	193
IV.	Normativ-huquqiy hujjatlar	193
	Asosiy adabiyotlar	193
	Qo'shimcha adabiyotlar	194
	Elektron manbalar	195

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**“XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK”
TA’MINLASH KAFEDRASI**

**“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi
3-bosqich uchun “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan
Oraliq nazorat qabul qilish uchun
METODIK MATERIALLAR**

Toshkent–2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**“XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK”
TA’MINLASH KAFEDRASI**

“TASDIQLAYMAN”

Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik
ta’minlash kafedrası boshlig‘i
podpolkovnik Z.Sh.Alimardonov

2024-yil “ ____ ” _____

**“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi
3-bosqich uchun “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan
Oraliq nazorat qabul qilish uchun
METODIK MATERIALLAR**

Kafedra majlisida muhokama qilingan hamda ma’qullangan

2024-yil « ____ » _____ -sonli bayonnoma.

Toshkent – 2024

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi
3-bosqich uchun “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan
Oraliq nazorat qabul qilish

R E J A S I

O‘quv-tarbiyaviy maqsadlar:

1. Kursantlarning olgan bilimlarini baholash.
2. Kursantlarning bilim olishga bo‘lgan javobgarliklarini oshirish.
3. Kursantlarning mustaqil tayyorgarlik ko‘ra olish qobiliyatlarni rivojlantirish.
4. Kursantlarda fikrlash, qaror qabul qilish, o‘z fikrlarini bayon qilib, qarorlarini asoslab bera olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Yakuniy nazoratga ajratilgan vaqt: 1 akademik soat (80 daqiqa).

Metod: biletlarga yozma javob.

Mashg‘ulot o‘tish joyi: o‘quv guruhi sinfi.

O‘quv-moddiy ta’minot:

- a) sinf jurnali, Kursantlar baho qaydnomasi, tayyorgarlik uchun muhrlangan qog‘oz, biletlar, rangli ruchka (qalam)lar, ofitserlik chizg‘ichi.
- b) adabiyotlar:

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Умаров Б.М. Психология. Дарслик. Ғ.Б.Шоумаровнинг умумий таҳрири остида. – Т.:“Aloqachi”, 2011. - 432 б.
2. Филиппов А.В. Работа с кадрами: психологический аспект. - М., 1990.
3. Цветков Э. Одам психикасининг яширин қатламлари: ёхуд таъсир этиш доирасини қандай кенгайтириш мумкин. (Психонетика) – Тошкент, 2015. -74 б.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. 1001 саволга психологнинг 1001 жавоби. /Психол. фан. докт. проф. Ғ.Б.Шоумаров таҳрири остида. 2-китоб.– Тошкент: “Меҳнат”, 2014.-290 б.
2. Maxmudov R.M., Ikmatullayev G‘.Z. Harbiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. - T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. - 168 bet.
3. Раҳбар ва ходим. Тошкент, Академия, 1998.
4. Базаров Т.Ю. Управлении персоналом. М., 2002.
5. Яхонтова Е.С. Эффективные технологии управления персоналом. М., 2003.
6. Каммероу Д.М., Баргер Н.Д., Кирби Л.К. Ваш психологический тип и стиль работы. М., 2001

Yakuniy nazoratning borishi:

I. KIRISH QISMI (10 daqiqa).

- o'quv sinfining yakuniy nazorat qabul qilish uchun tayyorlik darajasini tekshirish;
- guruh komandiridan o'quv guruhining to'liqligi haqida axborot qabul qilish;
- o'quv moddiy bazani tayyorligini tekshirish;
- yakuniy nazoratning o'quv va tarbiyaviy maqsadlari e'lon qilish;
- yakuniy nazoratni topshirish tartibi, baholash mezonlari haqida tushuntirish.

II. ASOSIY QISM (70 daqiqa).

Yakuniy nazoratga "Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash" yo'nalishi bo'yicha "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" fanining o'quv dasturi va mavzular rejasining barcha talablarini bajargan Kursantlar qo'yiladi.

Yakuniy nazorat "Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash" kafedrasida "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" fanidan Kursantlarni tayyorlash O'quv dasturi bo'yicha kursantlar uchun tuzilgan bilet savollariga yozma javob berish yo'li bilan o'tkaziladi.

Qabul qilish tartibi:

Bilet savollari varianti bo'yicha bilimlarini tekshirish:

- guruh shaxsiy tarkibi stolga terib qo'yilgan savollar yozilgan bilet variantlaridan birini oladi, uning raqamini ma'lum qiladi, savollar bilan tanishadi, zarurat bo'lsa, unga aniqlik kiritadi. Shundan so'ng, muhrlangan varaq olib, yozma javob berishga tayyorlanish uchun o'tiradi;
- bilet varianti savollari bo'yicha Kursantlarning yozma ish yozishlari uchun – 70 daqiqa vaqt ajratiladi.

Bilet savollariga tayyorgarlik ko'rish va javob yozish vaqtida kursant tasdiqlangan ro'yxatda ko'rsatib o'tilgan ko'rgazmali vositalar, chizmalar, qo'shimcha materiallardan foydalanishiga ruxsat beriladi.

Eslatma:

- ruxsat etilmagan materiallar (shpargalka)ni ishlatishga harakat qilgan kursantga, uni ishlatishga ulgurgan yoki ulgurmaganligidan qat'i nazar, shuningdek intizomni qo'pol ravishda buzgan kursantlarga nazoratning shu qismi uchun 0 baho qo'yiladi.

Yakuniy nazorat bo'yicha bilimlarni baholash:

Kursant YaN davomida 5 bahogacha baho olishi mumkin, shundan:

Bilet savollari variantidagi har bir nazariy savolga to'g'ri javob uchun jami 1-2 bahodan olishi mumkin. Har bir bilet variantida uchtdan savol qo'yiladi. Har uchchala savolga to'g'ri javob uchun kursant 5 bahogacha olishi mumkin.

Umumiy bahoni hisoblash:

Umumiy baho bilet variantlaridagi savollarga javob berish (0-5 baho) bo'yicha ballar yig'indisidan kelib chiqadi.

Yakuniy nazoratning umumiy baholari imtihondan so'ng Kursantlarga e'lon qilinadi.

Kursantning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) a'lo (5 baho) baho uchun Kursantning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish;
ijodiy fikrlay olish;
mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
tasavvurga ega bo'lish.

b) yaxshi (4 baho) baho uchun Kursantning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
tasavvurga ega bo'lish.

v) qoniqarli (3 baho) baho uchun Kursantning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mohiyatini tushunish;
tasavvurga ega bo'lish.

g) quyidagi hollarda Kursantning bilim darajasi qoniqarsiz (0–2 baho) baho bilan baholanishi mumkin:

aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
bilmaslik.

III. Yakuniy qism (10 daqiqa).

- Kursantlarning bergan javoblarini tahlil qilish, chuqur bilim namoyish etgan va sust javob bergan Kursantlarni alohida ta'kidlab o'tish va dastlabki o'zlashtirish ko'rsatkichlarini e'lon qilish;

- o'quv dasturi materiallarini chuqur o'zlashtirgan hamda zaif o'zlashtirgan Kursantlarning javoblarini qisqacha izohlash;

- faoliyatda ahamiyat berishlari lozim bo'lgan jihatlarga Kursantlar diqqatini qaratish;

- yakuniy nazoratga mo'ljallangan maxsus hujjatlarni joyidaligi haqida o'quv guruhi komandiridan axborot olish;

- hisobga olingan muhrlangan varaqlar sonini tekshirish.

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi
3-bosqich uchun “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan
Oraliq nazorat qabul qilish

SAVOLLAR RO‘YXATI

1. Qaror qabul qilishda muammo va undan habar topish yo‘llari?
2. Qaror qabul qilish bosqichlari?
3. Qaror qabul qilish detalli axborot shakli?
4. Qaror qabul qilish integral axborot shakli?
5. Qaror qabul qilish jarayonida informatsion modelning mohiyati?
6. Qaror qabul qilish jarayonida konseptual modelning mohiyati?
7. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Bilish tushunchasi va uning turlari
8. Hujjatlarni tahlil qilish metodi.
9. Qo‘l ostidagi odamlarning biografiyasini o‘rganish metodi.
10. Rahbarning ish sharoitini bayon qilish (ifodalab berish) metodi.
11. Xulq va xatti-harakatni kuzatish va qayd qilish metodi.
12. Individual suhbat metodi.
13. Rahbarning qo‘l ostidagi kishilar (bo‘ysunuvchilar)ning o‘zaro munosabatlarini aniqlashga mo‘ljallangan varaqa yoki anketa metodi.
14. Rahbar uchun faoliyat va muomala xususiyatlarini tekshirishda tabiiy eksperiment metodi.
15. “1 dollar” yoki “Shubik” o‘yinining mazmum-mohiyati.
16. Boshqaruvda muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari.
17. Muzokara tushunchasi va ushbu jarayondagi qopqonlar.
18. Muzokara jarayonida manupuliya.
19. Muzokara jarayonida yolg‘on (aldash)ning to‘g‘ri va noto‘g‘ri jihatlari.
20. Samarali muzokarani amalga oshiruvchi asosiy omillar.
21. Xalqaro muzokaralarda yuqori konteks madaniyati xos hususiyatlar.
22. Xalqaro muzokaralarda quyi konteks madaniyati xos hususiyatlar.
23. Muzokarada vaqt omili - polexronik madaniyatga xos hususiyatlar.
24. Muzokarada vaqt omili - monexronik madaniyatga xos hususiyatlar.
25. Etnopsixologiyaning paydo bo‘lish tarixi va etnopsixologiya fan sifatida o‘rganadigan masalalari?
26. Etnopsixologiyani boshqa fanlar bilan aloqasi?
27. Etnopsixologiyaning ob‘ekti va predmeti va etnopsixologiyaning tadqiqot usullari?
28. Etnopsixologiyani o‘rganishda emic va etic yondoshuvlarning mazmuni?
29. Etnik jamoalarning Ratio va Fizo xususiyatlarining mazmuni?
30. Millat va elatlar psixologiyasida periferik (tashqi, sirtqi) va markaziy nerv sistemasining roli (Bobangolar qabilasi misolida).
31. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning turlari?
32. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida siyosiy-iqtisodiy omilning roli qanday?

33. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining roli qanday?
34. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida xalq hayotida bo'lib o'tgan tarixiy hodisa va voqealar omilining roli qanday?
35. Urf-odat va an'ana tushunchalarining mazmuni?
36. Udum va marosim tushunchalarining mazmuni?
37. Ilg'or urf-odat va an'analar mazmuni?
38. Qoloq urf-odat va an'analar mazmuni?
39. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari?
40. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Kommunikativlik vazifaning mazmuni?
41. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Ijtimoiylashtirish vazifasining mazmuni?
42. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Adaptativ vazifasining mazmuni?
43. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Vorisiylikni saqlash vazifasining mazmuni?
44. Urf-odatlar va an'analarning davriyligi masalasi?
45. Etnopsixologiyada Milliy did tushunchasi.
46. Milliy didni shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining ro'li?
47. Milliy didni shakllanishida xo'jalik yurirish omilining ro'li?
48. Milliy didni shakllanishida diniy omillarning ro'li?
49. Islom dini tarqalgan xalqlarda did – g'o'zallik tushunchasi markazida turuvchi birlamchi jihat va uning sabablari?
50. Xristian dini tarqalgan xalqlarda did – g'o'zallik tushunchasi markazida turuvchi birlamchi jihat va uning sabablari?
51. Islom va Xristian dini asosida milliy didi shakllangan xalqlarning o'zaro to'qnashuviga oid misollar keltiring.
52. Milliy tab' tushunchasi?
53. Milliy tab'ni shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining ro'li?
54. Milliy tab'ni shakllanishida xo'jalik yurirish omilining ro'li?
55. Milliy tab'ni shakllanishida diniy omillarning ro'li?

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash” kafedrası dotsenti, Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

D.M.Mamatkulov

2024-yil “___” _____

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi
3-bosqich uchun “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan
Oraliq nazorat qabul qilish
1- O/N BILETLAR

1-BILET

1. Qaror qabul qilishda muammo va undan xabar topish yo‘llari?
2. Muzokara jarayonida manupuliya.
3. Gerodatning “Tarix” kitobida halqlarga xos psixologik xususiyatlarni vujudga kelishida hayot tarzi va muhitning roli to‘g‘risidagi fikrlar.

2-BILET

1. Qaror qabul qilish bosqichlari?
2. Muzokara jarayonida yolg‘on (aldash) va uning to‘g‘ri va noto‘g‘ri jihatlari.
3. Etnopsixologik xususiyatlarning vujudga kelishida tabiiy-geografik muhitning roli.

3-BILET

1. Qaror qabul qilish detalli axborot shakli?
2. Samarali muzokarani amalga oshiruvchi asosiy omillar.
3. Gippokratning “Suv, havo va quruqlik” degan asarlarida bayon qilingan fikrlar.

4-BILET

1. Qaror qabul qilish integral axborot shakli?
2. Xalqaro muzokaralarda yuqori konteks madaniyati xos xususiyatlar.
3. Yunonistonda turli halqlarga xos bo‘lgan etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarning vujudga kelishi.

5-BILET

1. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Bilish tushunchasi va uning turlari?
2. Qaror qabul qilish jarayonida informatsion modelning mohiyati?
3. Xalqaro muzokaralarda quyi konteks madaniyati xos xususiyatlar.

6-BILET

1. Qaror qabul qilish jarayonida konseptual modelning mohiyati?
2. Muzokarada vaqt omili - polexronik madaniyatga xos xususiyatlar.
3. Rahbarning qo‘l ostidagi kishilar (bo‘ysunuvchilar)ning o‘zaro munosabatlarini aniqlashga mo‘ljallangan varaqa yoki anketa metodi.

7-BILET

1. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Bilish tushunchasi va uning turlari
2. Muzokarada vaqt omili - monexronik madaniyatga xos xususiyatlar.
3. Etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganishdagi murakkabliklar mazmuni?

8-BILET

1. Boshqaruvda muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari.
2. Qaror qabul qilishda muammo va undan xabar topish yo‘llari?

3. Etnopsixologiya fanning predmeti, vazifalari va ahamiyati?

9-BILET

1. Qo'l ostidagi odamlarning biografiyasini o'rganish metodi.
2. Muzokara jarayonida manupuliya.
3. "Etnos" terminining mohiyati?

10-BILET

1. Rahbarning ish sharoitini bayon qilish (ifodalab berish) metodi.
2. Qaror qabul qilish jarayonida konseptual modelning mohiyati?
3. Etnopsixologiyaning predmeti va obykti?

11-BILET

1. Xulq va xatti-harakatni kuzatish va qayd qilish metodi.
2. "1 dollar" yoki "Shubik" o'yinining mazmum-mohiyati.
3. Milliy psixologik qiyofada millatni ifodalovchi, birlashtiruvchi belgi sifatida.

12-BILET

1. Individual suhbat metodi.
2. Muzokara jarayonida yolg'on (aldash)ning to'g'ri va noto'g'ri jihatlari.
3. Etnopsixologiyani o'rganishning dolzarbligi?

13-BILET

1. Rahbarning qo'l ostidagi kishilar (bo'ysunuvchilar)ning o'zaro munosabatlarini aniqlashga mo'ljallangan varaqa yoki anketa metodi.
2. Xalqaro muzokaralarda yuqori konteks madaniyati xos hususiyatlar.
3. Etnoslarni etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishda ratsio va fizo omillari?

14-BILET

1. Rahbar uchun faoliyat va muomala xususiyatlarini tekshirishda tabiiy eksperiment metodi.
2. Muzokara tushunchasi va ushbu jarayondagi qopqonlar.
3. Etnopsixologiyaning predmeti va obykti?

15-BILET

1. "1 dollar" yoki "Shubik" o'yinining mazmum-mohiyati.
2. Yunonistonda turli halqlarga xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarning vujudga kelishi.
3. Etnopsixologiya fanning predmeti, vazifalari va ahamiyati?

16-BILET

1. Qaror qabul qilishda muammo va undan xabar topish yo'llari?
2. Muzokara jarayonida manupuliya.
3. Gerodatning "Tarix" kitobida halqlarga xos psixologik xususiyatlarni vujudga kelishida hayot tarzi va muhitning roli to'g'risidagi fikrlar.

17-BILET

1. Qaror qabul qilish bosqichlari?
2. Muzokara jarayonida yolg'on (aldash) va uning to'g'ri va noto'g'ri jihatlari.
3. Psixologik xususiyatlarning vujudga kelishida tabiiy-geografik muhitning roli.

18-BILET

1. Qaror qabul qilish detalli axborot shakli?
2. Samarali muzokarani amalga oshiruvchi asosiy omillar.
3. Gippokratning "Suv, havo va quruqlik" degan asarlarida bayon qilingan fikrlar.

19-BILET

1. Qaror qabul qilish integral axborot shakli?
2. Xalqaro muzokaralarda yuqori kontekst madaniyati xos xususiyatlar.
3. Yunonistonda turli xalqlarga xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarning vujudga kelishi.

20-BILET

1. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Bilish tushunchasi va uning turlari?
2. Qaror qabul qilish jarayonida informatsion modelning mohiyati?
3. Xalqaro muzokaralarda quyi kontekst madaniyati xos xususiyatlar.

21-BILET

1. Qaror qabul qilish jarayonida konseptual modelning mohiyati?
2. Muzokarada vaqt omili - polexronik madaniyatga xos xususiyatlar.
3. Rahbarning qo'l ostidagi kishilar (bo'ysunuvchilar)ning o'zaro munosabatlarini aniqlashga mo'ljallangan varaqa yoki anketa metodi.

22-BILET

1. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Bilish tushunchasi va uning turlari
2. Muzokarada vaqt omili - monexronik madaniyatga xos xususiyatlar.
3. Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishdagi murakkabliklar mazmuni?

23-BILET

1. Boshqaruvda muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari.
2. Qaror qabul qilishda muammo va undan habar topish yo'llari?
3. Etnopsixologiya fanning predmeti, vazifalari va ahamiyati?

24-BILET

1. Qo'l ostidagi odamlarning biografiyasini o'rganish metodi.
2. Muzokara jarayonida manupuliya.
3. "Etnos" terminining mohiyati?

25-BILET

1. Rahbarning ish sharoitini bayon qilish (ifodalab berish) metodi.
2. Qaror qabul qilish jarayonida konseptual modelning mohiyati?
3. Etnopsixologiyaning predmeti va obyekti?

26-BILET

1. Xulq va xatti-harakatni kuzatish va qayd qilish metodi.

2. “1 dollar” yoki “Shubik” o'yinining mazmum-mohiyati.
3. Milliy psixologik qiyofada millatni ifodalovchi, birlashtiruvchi belgi sifatida.

27-BILET

1. Individual suhbat metodi.
2. Muzokara jarayonida yolg'on (aldash)ning to'g'ri va noto'g'ri jihatlari.
3. Etnopsixologiyani o'rganishning dolzarbligi?

28-BILET

1. Rahbarning qo'l ostidagi kishilar (bo'ysunuvchilar)ning o'zaro munosabatlarini aniqlashga mo'ljallangan varaqa yoki anketa metodi.
2. Xalqaro muzokaralarda yuqori konteks madaniyati xos xususiyatlar.
3. Etnoslarni etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishda ratsio va fizo omillari?

29-BILET

1. Rahbar uchun faoliyat va muomala xususiyatlarini tekshirishda tabiiy eksperiment metodi.
2. Muzokara tushunchasi va ushbu jarayondagi qopqonlar.
3. Etnopsixologiyaning predmeti va obykti?

30-BILET

1. “1 dollar” yoki “Shubik” o'yinining mazmum-mohiyati.
2. Yunonistonda turli halqlarga xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarning vujudga kelishi.
3. Etnopsixologiya fanning predmeti, vazifalari va ahamiyati?

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi
3-bosqich uchun “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan
Oraliq nazorat qabul qilish
2- O/N BILETLAR

1-BILET

1. Etnopsixologiyaning paydo bo'lish tarixi va etnopsixologiya fan sifatida o'rganadigan masalalari?
2. Qoloq urf-odat va an'analar mazmuni?
3. Milliy didni shakllanishida xo‘jalik yurirish omilining ro‘li?

2-BILET

1. Etnopsixologiyani boshqa fanlar bilan aloqasi?
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari?
3. Milliy didni shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining ro‘li?

3-BILET

1. Etnopsixologiyaning ob'ekti va predmeti va etnopsixologiyaning tadqiqot usullari?
2. Urf-odat va an'ana tushunchalarining mazmuni?
3. Xristiyan dini tarqalgan xalqlarda did – g'o'zallik tushunchasi markazida turuvchi birlamchi jihat va uning sabablari?

4-BILET

1. Etnopsixologiyani o'rganishda emic va etic yondoshuvlarning mazmuni?
2. Qoloq urf-odat va an'analar mazmuni?
3. Etnopsixologiyada Milliy did tushunchasi.

5-BILET

1. Etnik jamoalarning Ratio va Fizo xususiyatlarining mazmuni?
2. Milliy tab'ni shakllanishida diniy omillarning ro‘li?
3. Udum va marosim tushunchalarining mazmuni?

6-BILET

1. Millat va elatlar psixologiyasida periferik (tashqi, sirtqi) va markaziy nerv sistemasining roli (Bobangolar qabilasi misolida).
2. Ilg'or urf-odat va an'analar mazmuni?
3. Islom dini tarqalgan xalqlarda did – g'o'zallik tushunchasi markazida turuvchi birlamchi jihat va uning sabablari?

7-BILET

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning turlari?
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Kommunikativlik vazifaning mazmuni?
3. Milliy didni shakllanishida diniy omillarning ro'li?

8-BILET

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida siyosiy-iqtisodiy omilning roli qanday?
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Ijtimoiylashtirish vazifasining mazmuni?
3. Milliy tab' tushunchasi?

9-BILET

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining roli qanday?
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Adaptativ vazifasining mazmuni?
3. Islom va Xristian dini asosida milliy didi shakllangan xalqlarning o'zaro to'qnashuvi va unga oid misollar keltiring.

10-BILET

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida xalq hayotida bo'lib o'tgan tarixiy hodisa va voqealar omilining roli qanday?
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Vorisiylikni saqlash vazifasining mazmuni?
3. Milliy tab'ni shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining ro'li?

11-BILET

1. Milliy didni shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining roli qanday?
2. Urf-odatlar va an'analarning davriyligi masalasi?
3. Milliy tab'ni shakllanishida xo'jalik yurirish omilining ro'li?

12-BILET

4. Etnopsixologiyani paydo bo'lish tarixi va etnopsixologiya fan sifatida o'rganadigan masalalari?
5. Qoloq urf-odat va an'analar mazmuni?
6. Milliy didni shakllanishida xo'jalik yurirish omilining ro'li?

13-BILET

1. Etnopsixologiyani boshqa fanlar bilan aloqasi?

2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari?
3. Milliy didni shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining ro'li?

14-BILET

1. Etnopsixologiyani ob'ekti va predmeti va etnopsixologiyani tadqiqot usullari?
2. Urf-odat va an'ana tushunchalarining mazmuni?
3. Xristian dini tarqalgan xalqlarda did – g'o'zallik tushunchasi markazida turuvchi birlamchi jihat va uning sabablari?

15-BILET

1. Etnopsixologiyani o'rganishda emic va etic yondoshuvlarning mazmuni?
2. Qoloq urf-odat va an'ana mazmuni?
3. Etnopsixologiyada Milliy did tushunchasi.

16-BILET

1. Etnik jamoalarning Ratio va Fizo xususiyatlarining mazmuni?
2. Milliy tab'ni shakllanishida diniy omillarning ro'li?
3. Udum va marosim tushunchalarining mazmuni?

17-BILET

1. Millat va elatlar psixologiyasida periferik (tashqi, sirtqi) va markaziy nerv sistemasining roli (Bobangolar qabilasi misolida).
2. Ilg'or urf-odat va an'ana mazmuni?
3. Islom dini tarqalgan xalqlarda did – g'o'zallik tushunchasi markazida turuvchi birlamchi jihat va uning sabablari?

18-BILET

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning turlari?
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Kommunikativlik vazifaning mazmuni?
3. Milliy didni shakllanishida diniy omillarning ro'li?

19-BILET

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida siyosiy-iqtisodiy omilning roli qanday?
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Ijtimoiylashtirish vazifasining mazmuni?
3. Milliy tab' tushunchasi va uhaqidagi hayotiy misollar?

20-BILET

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining roli qanday?
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Adaptativ vazifasining mazmuni?
3. Islom va Xristian dini asosida milliy didi shakllangan xalqlarning o'zaro to'qnashuvi va unga oid misollar keltiring.

21-BILET

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida xalq hayotida bo'lib o'tgan tarixiy hodisa va voqealar omilining roli qanday?
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Vorisiylikni saqlash vazifasining mazmuni?
3. Milliy tab'ni shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining ro'li?

22-BILET

1. Milliy didni shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining roli qanday?
2. Urf-odatlar va an'analarning davriyligi masalasi?
3. Milliy tab'ni shakllanishida xo'jalik yurirish omilining ro'li?

23-BILET

1. Etnopsixologiyani ob'ekti va predmeti va etnopsixologiyani tadqiqot usullari?
2. Urf-odat va an'ana tushunchalarining mazmuni?
3. Xristian dini tarqalgan xalqlarda did – g'o'zallik tushunchasi markazida turuvchi birlamchi jihat va uning sabablari?

24-BILET

1. Etnopsixologiyani o'rganishda emic va etic yondoshuvlarning mazmuni?
2. Qoloq urf-odat va an'analar mazmuni?
3. Etnopsixologiyada Milliy did tushunchasi.

25-BILET

1. Etnik jamoalarning Ratio va Fizo xususiyatlarining mazmuni?
2. Milliy tab'ni shakllanishida diniy omillarning ro'li?
3. Udum va marosim tushunchalarining mazmuni?

26-BILET

4. Etnik jamoalarning Ratio va Fizo xususiyatlarining mazmuni?
5. Milliy tab'ni shakllanishida diniy omillarning ro'li?
6. Udum va marosim tushunchalarining mazmuni?

xavfsizligi universiteti boslig'ining 2023-yil
5-avgustdagi "344"-son buyrug'iga
6-ILOVA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**



**“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash”
kafedrasi**

**“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash” yo‘nalishi
3-bosqich kursantlari uchun “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya”
FANIDAN**

**YAKUNIY NAZORAT UCHUN
USLUBIY KO'RSATMALAR**

**Muallif: “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-
psixologik ta'minlash” kafedrasi katta
o‘qituvchisi, pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
D.M.Mamatkulov**

Toshkent – 2024-yil

“TASDIQLAYMAN”

Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik
ta’minlash kafedrası boshlig‘i
podpolkovnik Z.Sh.Alimardonov

2024-yil “___” _____

**“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi
3-bosqich kursantlari uchun “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya”
FANIDAN**

**YAKUNIY NAZORAT UCHUN
USLUBIY KO‘RSATMALAR**

Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik
ta’minlash kafedrası majlisida muhokama
qilingan va ma’qullangan 20____ yil “____”
____dagi “____”- son
bayonnoma

Toshkent – 2024-yil

**“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan
3-bosqich kursantlar bilimni yakuniy baholash
R E J A S I**

O‘quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1. Kursantlarning olgan bilimlarini baholash.
2. Kursantlarning bilim olishga bo‘lgan javobgarliklarini oshirish.
3. Kursantlarning mustaqil tayyorgarlik ko‘ra olish qobiliyatlarini rivojlantirish.
4. Kursantlarda fanga oid ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llash, fanfa oif bilimlarini amaliyotda qo‘llash jarayonida qaror qabul qilish hamda qarorlarini asoslab bera olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Yakuniy nazoratga ajratilgan vaqt: _____ akademik soat
(_____ daqiqa).

Yakuniy nazoratni o‘tkazish usuli: majmuaviy (og‘zaki, amaliy, test).

Mashg‘ulot joyi: o‘quv guruhi sinfi.

O‘quv – moddiy ta’minot:

1. “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan darslik;
2. “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan O‘quv–uslubiy majmua;
3. Mavzu bo‘yicha ma’ruza o‘qish rejasi;

1. ADABIYOTLAR:

1.1. Normativ-huquqiy hujjatlar:

15. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

16. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni // 2020 yil 23 sentabr. O‘RQ-637-son. www.lex.uz

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son.

18. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi. / O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdaagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son.

2.1. Asosiy adabiyotlar:

17. Xalilova N.I., Amirova O.Q. Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya.

Darslik. - T.: O'zR JXU, 2023. - 456 bet.

18. G'oziyev E.G'. Ijtimoiy psixologiya.. T. O'qituvchi. 2012 y. 315 b.

19. Xotamov. Ijtimoiy psixologiya. 2020.

20. Ермаков Ю.А. Манипуляция личностью: Смысл, приемы, последствия- Екатеринбург, 1995

21. Jo'rayev N.Q. Tarix falsafasining nazariy asoslari. Toshkent, «Ma'naviyat», 2008.

22. Андреева Г.М., Социальная психология. М.: Аспект-Пресс, 2016.

23. Андреева Г.М., Богомолова Н.Н., Петровская Л.А. Зарубежная социальная психология XX столетия. М.: Аспект-Пресс, 2002.

24. Белинская Е.П., Тихомандриская О.А. Социальная психология личности. М.: Аспект-Пресс, 2012.

25. Ефимова Н.С. Социальная психология: Учебное пособие / Н.С. Ефимова. – М.: Форум, 2017.

4.1. Elektron manbalar:

16. www.ziyonet.uz

17. www.edu.uz

18. www.mgju.uz

19. www.psychology.uz

20. www.pedagog.uz

2. FOYDALANISHGA RUXSAT ETILGAN O'QUV MATERIALLAR:

Kursantlar baho qaydnomasi, tayyorgarlik uchun muhrlangan qog'oz, biletlar, rangli ruchka (qalam)lar, ofitserlik chizg'ichi.

Yakuniy nazoratning borishi:

I. Kirish qismi (10 daqiqa)

o'quv sinfi (obyekti)ning yakuniy baholashni qabul qilishga tayyorligini tekshirish;

ta'lim oluvchilarning mashg'ulotga tayyorligini tekshirish;

shaxsiy tarkibga yakuniy nazoratning o'quv maqsadlarini, uni topshirish tartibi, nazorat mezonlarini etkazish.

II. Asosiy qism (220 daqiqa)

Yakuniy nazoratga "Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash" yo'nalishi bo'yicha "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" fani semestr davomidagi o'quv dasturini to'liq o'zlashtirgan, barcha joriy nazoratlardan o'tgan kursantlar qo'yiladi.

Yakuniy nazorat ochiq majlislarda, komissiya a'zolari ishtirokida o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo’nalishi bo’yicha “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fani o’quv dasturi doirasida majmuaviy (og’zaki, amaliy, test) tarzda o’tkaziladi.

Ro’yxatdagi ketma-ketlik bo’yicha yakuniy nazoratga kirgan kursant savollar va topshiriqlar variantini olib, uning raqamini ma’lum qiladi, savollar va topshiriqlar bilan tanishadi, zarurat bo’lsa, ularga aniqlik kiritadi. Shundan so’ng javob berishga tayyorlanadi.

Javobga tayyorgarlik ko’rish vaqtida kursantlarga foydalanishga ruxsat etilgan o’quv materiallar (ko’rgazmali vositalar, chizmalar, qo’shimcha materiallar hamda maxsus vositalar)dan foydalanishga ruxsat beriladi.

Yakuniy nazoratga kirgan har bir kursantga javob berishga tayyorgarlik ko’rish uchun 20 daqiqacha vaqt ajratiladi. Har bir kursantning savollar va topshiriqlarga javob berish vaqti 8 daqiqadan oshmasligi lozim.

Kursantning javobi komissiyaning barcha a’zolari tomonidan eshitiladi. Kursant savollar va topshiriqlar variantiga javob bergach, komissiyaning har bir a’zosi javobga o’zining umumiy bahosini qo’yadi.

Yakuniy nazorat topshiruvchi guruhning barcha kursantlari javob berib bo’lgach, komissiya a’zolari javoblarni o’zaro muhokama qilib bo’lgach, har bir kursantga umumiy baho qo’yiladi.

Yakuniy nazorat natijasi baholari bo’yicha komissiyaning qarori yopiq majlislarda, ochiq ovoz berish yo’li bilan, majlisda ishtirok etuvchilarning ko’pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Yakuniy nazoratning umumiy baholari imtihon oxirida kursantlarga e’lon qilinadi.

Kursantlarning bilimi quyidagicha baholanadi:

mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a’lo) baho;

mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

o’quv dasturini o’zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho.

III. Yakuniy qism (10 daqiqa)

kursantlarning bergan javoblarini tahlil qilish, chuqur bilim namoyish etgan va sust javob berganlarni alohida ta’kidlab o’tish hamda dastlabki o’zlashtirish ko’rsatkichlarini e’lon qilish;

kursantlar bo’lajak faoliyatlarida ahamiyat berishlari lozim bo’lgan jihatlariga

e'tiborini qaratish;
mashg'ulotni yakunlash.

“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan
“_____”-o‘quv guruhi kursantlarning bilimini yakuniy baholash uchun

1. SAVOLLAR

56. Qaror qabul qilishda muammo va undan habar topish yo‘llari?
57. Qaror qabul qilish bosqichlari?
58. Qaror qabul qilish jarayonida detalli va integral axborot shakli?
59. Qaror qabul qilish jarayonida informatsion modelning mohiyati?
60. Qaror qabul qilish jarayonida konseptual modelning mohiyati?
61. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Hujjatlarni tahlil qilish metodi.
62. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Qo'l ostidagi odamlarning biografiyasini o'rganish metodi.
63. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Xulq va xatti-harakatni kuzatish va qayd qilish metodi.
64. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Individual suhbat metodi.
65. Rahbarning qo'l ostidagi kishilar (bo'ysunuvchilar)ning o'zaro munosabatlarini aniqlashga mo'ljallangan varaqa yoki anketa metodi.
66. Rahbar uchun faoliyat va muomala xususiyatlarini tekshirishda tabiiy eksperiment metodi.
67. Boshqaruvda muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari hamda “1 dollar” yoki “Shubik” o'yinining mazmum-mohiyati.
68. Muzokara tushunchasi va ushbu jarayondagi qopqonlar.
69. Muzokara jarayonida manupuliya.
70. Muzokara jarayonida yolg'on (aldash)ning to'g'ri va noto'g'ri jihatlari.
71. Xalqaro muzokaralarda yuqori konteks madaniyati xos hususiyatlar.
72. Xalqaro muzokaralarda quyi konteks madaniyati xos hususiyatlar.
73. Muzokarada vaqt omili - polexronik madaniyatga xos hususiyatlar.
74. Muzokarada vaqt omili - monexronik madaniyatga xos hususiyatlar.
75. Etnopsixologiyaning paydo bo'lish tarixi va etnopsixologiya fan sifatida o'rganadigan masalalari?
76. Etnopsixologiyani boshqa fanlar bilan aloqasi?
77. Etnopsixologiyaning ob'ekti va predmeti va etnopsixologiyaning tadqiqot usullari?
78. Etnik jamoalarning Ratio va Fizo xususiyatlarining mazmuni?
79. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning turlari?
80. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida siyosiy-iqtisodiy omilning roli qanday?
81. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining roli qanday?

82. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida xalq hayotida bo'lib o'tgan tarixiy hodisa va voqealar omilining roli qanday?
83. Urf-odat va an'ana tushunchalarining mazmuni?
84. Udum va marosim tushunchalarining mazmuni?
85. Ilg'or urf-odat va qoloq urf-odat mazmuni va ularning millat hayotidagi ahamiyati?
86. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Kommunikativlik vazifaning mazmuni?
87. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Ijtimoiylashtirish vazifasining mazmuni?
88. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Adaptativ vazifasining mazmuni?
89. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Vorisiylikni saqlash vazifasining mazmuni?
90. Urf-odatlar va an'analarning davriyligi masalasi. Qaloq urf-odatlarga qarshi kurash usullari?
91. Etnopsixologiyada Milliy did tushunchasi.
92. Milliy didni shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining ro'li?
93. Milliy didni shakllanishida xo'jalik yurirish omilining ro'li?
94. Milliy didni shakllanishida diniy omillarning ro'li?
95. Islom dini tarqalgan xalqlarda did – g'o'zallik tushunchasi markazida turuvchi birlamchi jihat va uning sabablari?
96. Xristian dini tarqalgan xalqlarda did – g'o'zallik tushunchasi markazida turuvchi birlamchi jihat va uning sabablari?
97. Islom va Xristian dini asosida milliy didi shakllangan xalqlarning did borasida o'zaro to'qnashuviga oid misollar va uning asosiy sabablari.
98. Milliy tab' tushunchasi hamda milliy tab'ni shakllanishida xo'jalik yurirish omilining ro'li?
99. Milliy tab' tushunchasi hamda milliy tab'ni shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining ro'li?
100. Milliy tab' tushunchasi hamda milliy tab'ni shakllanishida diniy omillarning ro'li?
101. Milliy ong va milliy o'z-o'zini anglash tushunchalari.
102. "Etnosentrizm" tushunchasi.
103. Stereotip tushunchasi va uning turlari?
104. Milliy stereotip tushunchasi?
105. Gender stereotiplari tushunchasiga sharx bering.
106. Yoshga oid stereotip tushunchasiga sharx bering.
107. Avtostereotiplar tushunchasiga sharx bering.
108. Geterostereotiplar tushunchasiga sharx bering.
109. Etnik stereotiplarni shakllanishida ro'l o'ynovchi millatga xos asosiy jihatlar?
110. Etnik attityud yoki ustanovka tushunchasiga sharx bering.
111. Ijtimoiy muhit va uning shaxs rivojlanishidagi o'rni?

112. Muhit va ijtimoiy muhit tushunchalari?
113. Ijtimoiy muhitning buyuk insonlar shakllanishidagi o'rni?
114. Din tushunchasi hamda unning millat va elatlar psixologiyasiga ta'sirini tushuntirib bering.
115. Islom dini va tasavvuf ta'limotida komil insonni shakllantirish bosqichlari va ularning mazmuni tushuntirib bering.

2. AMALIY TOPSHIRIQLAR

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

3. TESTLAR

1. Quyidagilardan qaysi biriga egalik qaror qabul qilishda rahbari muammo mazmunini to'liq anglaganini bildiradi?

- A. ☒ Kontseptual axborot modeli
- B. Detalli axborot shakli
- C. Informatsion model
- D. Integral axborot shakli

2. Rahbar qaror qabul qilishga oid muammoli vaziyatlardan quyidagilar yo'llar orqali habardor bo'ladi:

- 1) Bo'ysunuvchilar tomonidan yozilgan bildirgilar;
- 2) Yuqori tashkilotlardan kelgan buyruq va ko'rsatmalar;
- 3) Xodimlar va axolidan tushgan arizalar;
- 4) Rahbarning mustaqil izlanishi.

Sizningcha, mazkur yo'llarning qaysilari zamonaviy rahbar faoliyatida muammoni to'liq anglash va ob'ektiv qaror qabul qilish uchun juda zarur?

- A. 1 va 3
- B. 2
- C. 3 va 4
- D. ☒ 4

3. Ochiq test. Bu belgilar to'plami qaysi sindromga xos xususiyatlar hisonlanadi?

- ✓ asirlar o'zlarini garovga oluvchilarga qiyoslay boshlaydilar;
- ✓ asirlar ko'pincha qutqaruvchilar ko'rayotgan choralarni unga zarar yetkazishi ehtimoli borligini tushunadi;
- ✓ asirlikda uzoq vaqt bo'lish qurbonni jinoyatchiga inson sifatida qarashga olib keladi;
- ✓ asir hissiy tomondan vaziyatdan uzoqlashadi, bu holatda asir buning hammasi tush, deya o'ylay boshlaydi.

Javobini yozing! _____

☒ «Stokgolm sindromi»

4. Etnopsixologiya fanini shakllanishiga kata ta'sir etgan «Odamlar va hayvonlarning ruhi haqidagi ma'ruzalar» kitobini muallifi kim?

A.M.Lazarus

B.X.Shteyntal

C.V.Vundt

D. ☒ F.Gegel

5. "Insonning ichki dunyosi va etnomadaniy o'zgaruvchilar o'rtasidagi tizimli aloqalarni, sifatlarni etnik jamoa darajasida o'rganadigan fan". Etnopsixologiyaga berilgan ushbu ta'rifda qanday mazmun aks etgan?

A.Etnopsixologiyaning ob'ekti.

B.Etnopsixologiya predmeti

C. ☒ Etnopsixologiyaga (emic) yondoshuv.

D.Etnopsixologiyaga (etic) yondoshuv.

6. Etnopsixologiyaga oid "Havo, suv va quruqlik" asati kimga tegishli?

A.Aristotel,

B.Gerodot,

C. ☒ Gippokrat,

D.Demokrit

7. "U o'zi tug'ilgan va bolaligi o'tgan atrof-olamga cheksiz qirlar, kengliklar, tepaliklarga mehr va hayajon bilan qarab turar, ularni quchgisi va bag'riga bosgisi kelar edi". Mazkur matnda qaysi tabiiy-geografik muhit va millat haqida gap bormoqda?

A.Tog' – chechen

B.Dasht – mo'g'il

C. ☒ Dasht – qozoq

D.Cho'l – arab

8. O'zbek xalqining zamonaviy xaykaltaroshlik va rassomchilik san'atida did – go'zallik tushunchasi markazida nima turadi?

A. ☒ Insonning ma'naviy jihati;

B.Inson moddiyati;

C.Insonning tashqi ko'rinishi;

D.Yaratuvchi;

9. Ayrim xalqlarning milliy tab'ida chanqoq va ochlikni yangi so'yilgan hayvonlarning qoni bilan qondirish qaysi omil sabab vujudga kelgan?

A.xo'jalik yuritish omili;

B.diniy omil;

C.ishlab chiqarish omili;

D. ☒ tabiiy-geografik muhit omili;

10. O'rta Osiyo va Kavkaz xalqlarida “Qalin” berish yoki “Kelin o'g'irlash” odatlari vujudga kelishiga qaysi omil sabab bo'lgan?

A.Xo‘jalik yuritish omili;

B. ☒ Endogam nikoh omili;

C.Tabiiy-geografik muhit omili;

D.Ekzogam nikoh omili;

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash” kafedrası katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

D.M.Mamatkulov

2024-yil “ ____ ” _____

1-BILET

1. Qaror qabul qilishda muammo va undan habar topish yo‘llari?
2. Ijtimoiy muhit va uning shaxs rivojlanishidagi o‘rni?
3. Muzokarada vaqt omili - monexronik madaniyatga xos hususiyatlar.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

2-BILET

1. Qaror qabul qilish bosqichlari?
2. Muhit va ijtimoiy muhit tushunchalari?
3. Xalqaro muzokaralarda yuqori konteks madaniyati xos hususiyatlar.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

3-BILET

1. Qaror qabul qilish jarayonida detalli va integral axborot shakli?
2. Ijtimoiy muhitning buyuk insonlar shakllanishidagi o‘rni?
3. Muzokara tushunchasi va ushbu jarayondagi qopqonlar.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

4-BILET

1. Qaror qabul qilish jarayonida informatsion modelning mohiyati?
2. Din tushunchasi hamda uning millat va elatlar psixologiyasiga ta’sirini tushuntirib bering.
3. Muzokarada vaqt omili - polexronik madaniyatga xos hususiyatlar.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

5-BILET

1. Qaror qabul qilish jarayonida konseptual modelning mohiyati?
2. Islom dini va tasavvuf ta’limotida komil insonni shakllantirish bosqichlari va ularning mazmuni tushuntirib bering.
3. Boshqaruvda muzokaralar olib borishning psixologik jihatlarini hamda “1 dollar” yoki “Shubik” o‘yinining mazmuni-mohiyati.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

6-BILET

1. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Hujjatlarni tahlil qilish metodi.
2. Etnopsixologiyaning paydo bo'lish tarixi va etnopsixologiya fan sifatida o'rganadigan masalalari?
3. Udum va marosim tushunchalarining mazmuni?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

7-BILET

1. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Qo'l ostidagi odamlarning biografiyasini o'rganish metodi.
2. Muzokara jarayonida manupuliya.
3. Etnopsixologiyani boshqa fanlar bilan aloqasi?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

8-BILET

1. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Xulq va xatti-harakatni kuzatish va qayd qilish metodi.
2. Etnopsixologiyaning ob'ekti va predmeti va etnopsixologiyaning tadqiqot usullari?
3. Milliy ong va milliy o'z-o'zini anglash tushunchalari.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

9-BILET

1. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Individual suhbat metodi.
2. Muzokara jarayonida yolg'on (aldash)ning to'g'ri va noto'g'ri jihatlari.
3. Etnik jamoalarning Ratio va Fizo xususiyatlarining mazmuni?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

10-BILET

1. Rahbarning qo'l ostidagi kishilar (bo'ysunuvchilar)ning o'zaro munosabatlarini aniqlashga mo'ljallangan varaqa yoki anketa metodi.
2. Xalqaro muzokaralarda quyi kontekst madaniyati xos xususiyatlar.
3. “Etnosentrizm” tushunchasi.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

11-BILET

1. Rahbar uchun faoliyat va muomala xususiyatlarini tekshirishda tabiiy eksperiment metodi.
2. Stereotip tushunchasi va uning turlari?
3. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning turlari?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

12-BILET

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida siyosiy-iqtisodiy omilning roli qanday?
2. Milliy stereotip tushunchasi?
3. Islom dini tarqalgan xalqlarda did – g'o'zallik tushunchasi markazida turuvchi birlamchi jihat va uning sabablari?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

13-BILET

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiiy-geografik muhitning roli qanday?
2. Etnopsixologiyada Milliy did tushunchasi.
3. Gender stereotiplari tushunchasiga sharx bering.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

14-BILET

1. Milliy didni shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining ro'li?
2. Yoshga oid stereotip tushunchasiga sharx bering.
3. Ilg'or urf-odat va qoloq urf-odat mazmuni va ularning millat hayotidagi ahamiyati?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

15-BILET

1. Urf-odat va an'ananing ijtimoiy-psixologik vazifalari: Kommunikativlik vazifaning mazmuni?
2. Islom va Xristian dini asosida milliy didi shakllangan xalqlarning did borasida o'zaro to'qnashuviga oid misollar va uning asosiy sabablari.
3. Geterostereotiplar tushunchasiga sharx bering.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

16-BILET

1. Milliy tab' tushunchasi hamda milliy tab'ni shakllanishida xo'jalik yurirish omilining ro'li?
2. Etnik stereotiplarni shakllanishida ro'l o'ynovchi millatga xos asosiy jihatlar?
3. Urf-odat va an'ana tushunchalarining mazmuni?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

17-BILET

1. Xristiyan dini tarqalgan xalqlarda did – g'o'zallik tushunchasi markazida turuvchi birlamchi jihat va uning sabablari?
2. Etnik attityud yoki ustanovka tushunchasiga sharx bering.
3. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Vorisiylikni saqlash vazifasining mazmuni?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

18-BILET

1. Qaror qabul qilish jarayonida detalli va integral axborot shakli?
2. Urf-odatlar va an'analarning davriyligi masalasi. Qaloq urf-odatlarga qarshi kurash usullari?
3. Milliy didni shakllanishida diniy omillarning ro'li?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

19-BILET

1. Milliy tab' tushunchasi hamda milliy tab'ni shakllanishida tabiiy-geografik muhit omilining ro'li?
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Ijtimoiylashtirish vazifasining mazmuni?
3. Islom dini va tasavvuf ta'limotida komil insonni shakllantirish bosqichlari va ularning mazmuni tushuntirib bering.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

20-BILET

1. Rahbarning qo'l ostidagi kishilar (bo'ysunuvchilar)ning o'zaro munosabatlarini aniqlashga mo'ljallangan varaqa yoki anketa metodi.
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Adaptativ vazifasining mazmuni?
3. Milliy tab' tushunchasi hamda milliy tab'ni shakllanishida diniy omillarning ro'li?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

21-BILET

1. Muzokara tushunchasi va ushbu jarayondagi qopqonlar.
2. Urf-odat va an'analarning ijtimoiy-psixologik vazifalari: Vorisiylikni saqlash vazifasining mazmuni?
3. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida siyosiy-iqtisodiy omilning roli qanday?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

22-BILET

1. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Xulq va xatti-harakatni kuzatish va qayd qilish metodi.
2. Ijtimoiy muhitning buyuk insonlar shakllanishidagi o'rni?
3. Islom dini tarqalgan xalqlarda did – g'o'zallik tushunchasi markazida turuvchi birlamchi jihat va uning sabablari?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

23-BILET

1. Xalqaro muzokaralarda yuqori kontekst madaniyati xos xususiyatlar.
2. Stereotip tushunchasi va uning turlari?
3. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Individual suhbat metodi.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

24-BILET

1. Din tushunchasi hamda unning millat va elatlar psixologiyasiga ta'sirini tushuntirib bering.
2. Geterostereotiplar tushunchasiga sharx bering.
3. Muzokara jarayonida yolg'on (aldash)ning to'g'ri va noto'g'ri jihatlari.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

25-BILET

1. Rahbar faoliyatida bilish faoliyati. Qo'l ostidagi odamlarning biografiyasini o'rganish metodi.
2. Etnik jamoalarning Ratio va Fizo xususiyatlarining mazmuni?
3. Ilg'or urf-odat va qoloq urf-odat mazmuni va ularning millat hayotidagi ahamiyati?

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

26-BILET

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida xalq hayotida bo'lib o'tgan tarixiy hodisa va voqealar omilining roli qanday?
2. Milliy didni shakllanishida xo'jalik yurirish omilining ro'li?
3. Avtostereotiplar tushunchasiga sharx bering.

AMALIY TOPSHIRIQ

Kurs ishi mavzusida berilgan millat yoki elatning etnopsixologiyasini SWOT – tahlil metodi asosida kichli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini tahlil qiling.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK
TA’MINLASH KAFEDRASI**

**“IJTIMOIY PSIXOLOGIYA. ETNOPSIXOLOGIYA”
FANIDAN KURS ISHI MAVZULARI**

(61030200 - “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” hamda fuqarolik
yo‘nalishida ta’lim olayotgan psixologlar uchun)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT
XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya”

(61030200 - “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash”
hamda fuqarolik yo‘nalishida ta’lim olayotgan psixologlar uchun
“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan kurs ishi
mavzulari)

Toshkent – 2024

“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan kurs ishi mavzulari

T/r	Kurs ishi mavzulari	Kursant F.I.O.	Imzo
1.	O‘zbeklar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
2.	Tojiklar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
3.	Qozoqlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
4.	Qaroqolpoqlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
5.	Ruslar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
6.	Qirg‘izlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
7.	Turkmanlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
8.	Tatarlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
9.	Turkmanlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
10.	Koreyslar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
11.	Ukrainlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
12.	Ozərbayjonlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
13.	Belaruslar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
14.	Arablar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
15.	YAxudiylar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
16.	Uyg‘urlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
17.	Boshqirdlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
18.	Nemislar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
19.	YAponlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
20.	Forslar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
21.	Dunganlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
22.	Greklar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
23.	Lo‘lilar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
24.	CHechenlar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		
25.	Turklar: milliy psixologiyasi va etnik stereotiplari.		

“IJTIMOIY PSIXOLOGIYA. ETNOPSIXOLOGIYA” FANIDAN KURS ISHI MAVZULARINI YORITISHDA E’TIBOR QARATADIGAN ASOSIY JIHATLAR

Mavzu bo‘yicha berilgan millat yoki elatning:

- 1. Tarixi**
- 2. Geografik joylashuvi**
- 3. Ajralib turuvchi asosiy belgilari** (*teri rangi, ko‘z rangi va shakli, soch rangi, burun va lab shakli, tananing uzunligi yoki kichikligi (bo‘y, semiz, oriqliq, baland va h.k.)*)
- 4. Milliy psixologiyasi**
- 5. Etnik stereotiplari**

**“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik
ta’minlash” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent**

D.M.Mamatkulov

2024-yil “____” _____